M.R.USMANOV

TURIZM GEOGRAFIYASI



UDK 911.3(575.13)

Usmanov M.R. Turizm geografiyasi: o‘quv qo‘llanma. — Samarqand, «SamDU», 2020. 281 b.

Ushbu qo‘llanma «Geografiya» yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalarga mo‘ljallangan bo‘lib, 3 ta qism, 14 ta bobni o‘z ichiga oladi. O‘quv qo‘llanmaning 1-qismi Turizm geografiyasining ilmiy-nazariy asoslariga, 2-qism turizm geografiyasining regional xususiyatlariga, 3-qismidagi boblarda esa O‘zbekiston va uning hududlari turizm salohiyati geografik jihatdan tadqiq etilgan.

O`quv qo`llanma geografiya yo`nalishi talabalariga va magistrlarga hamda shu sohada ilmiy tadqiqot olib borayotgan doktorant, izlanuvchi-tadqiqotchilarga mo`ljallangan.

Mas`ul muxarrir: **Samarqand davlat universiteti professori, g.f.d. S.B.Abbasov**

Taqrizchilar: **Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Turizm” kafedrasi dotsenti i.f.n. R.Amriddinova**

Samarqand davlat universiteti “Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya” kafedrasi dotsenti g.f.n. T.Jumaboev

Samarqand— «SamDU» — 2020

MUNDARIJA

Kirish…… 7

I QISM. TURIZM GEOGRAFIYASINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI…… 11

1-BOB.TURIZM GEOGRAFIYASINING PREDMETI, OB'EKTI, MAQSAD VA VAZIFALARI…… 11

1.1. Turizm tushunchasi……..…… 11

1.2. Turizm geografiyasining ob'ekti va predmeti…… 13

1.3. Turizm geografiyasining boshqa fanlar bilan aloqadorligi…….. 20

2-BOB. TURIZM KLASSIFIKATSIYASI, KO'RINISHI VA TURLARI…….. 23

2.1. Turizm turlari…… 23

2.2. Turizm klassifikatsiyasi…… 27

2.3. Turistik marshrut va ularning turlari…… 32

2.4. Ekologik turizmning ba'zi bir nazariy masalalari……. 36

3-BOB.TURIZMNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI…… 43

3.1. Tabiiy geografik omillar…….. 43

3.2. Iqtisodiy geografik omillar…….. 45

3.3. Ijtimoiy-demografik omillar……..…….. 47

4-BOB.TURISTIK DESTINATSIYA…… 50

4.1. Destinatsiya tushunchasi, turistik destinatsiya geografiyasining o'rganish ob'ekti sifatida …….. 50

4.2.Turistik destinatsiyaning predmeti va vazifalari…… 52

5-BOB. XALQARO TURIZM TARIXI VA RIVOJLANISHI……. 57

5.1. Xalqaro turizm tarixi…….. 57

5.2. Xalqaro turizmning rivojlanish tendensiyasi…… 60

5.3.O`zbekistonning xalqaro turizmda tutgan o`rni…… 63

II QISM. XALQARO TURIZMNING REGIONAL

XUSUSIYATLARI…… 66
6-BOB. JAHONNING TURISTIK REGIONLARI (YEVROPA REGIONI)…… 66
6.1. Butunjahon turistik tashkiloti (UNWTO) buyicha regionlar……. 66
6.2.Yevropa regioni turizm geografiyasi…….. 67
6.3.Shimoliy Yevropa subregioni…….. 69
6.4.G‘arbiy Yevropa subregioni…… 75
6.5.Janubiy Yevropa subregioni…… 79
6.6.Sharqiy va Markaziy Yevropa subregioni……. 84

7-BOB. AMERIKA REGIONI MAMLAKATLARIDA XALQARO TURIZM GEOGRAFIYASI……..... 92
7.1. Amerika regionining turizm geografiyasi…..……... 92
7.2. Shimoliy Amerika subregioni (AQSH, Kanada turizmi)……. 96
7.3. Markaziy Amerika subregioni turizmi (Meksika turizmi)…….. 101
7.4. Janubiy Amerika subregioni turizmi (Braziliya turizmi)……... 102
7.5. Karib havzasi subregioni turizmi……. 93

8-BOB.OSIYO –TINCH OKEANI REGIONI MAMLAKATLARI XALQARO TURIZM GEOGRAFIYASI…… 106
8.1. Osiyo-Tinch okeani turistik regioniga umumiy tavsif.. 106
8.2. Shimoli-Sharqiy Osiyo subregioni mamlakatlari turizmi..... 109
8.3. Janubi-Sharqiy Osiyo subregioni turizmi…….. 112
8.4. Avstraliya va Okeaniya subregioni turizmi…….. 114
8.5. Janubiy Osiyo subregioni turizmi…….. 116

9-BOB.O`RTA SHARQ REGIONI ……..…… 122
9.1. O’rta Sharq turistik regioniga umumiy tavsif……..… 122
9.2. O’rta Sharq turistik regioni etakchi mamlakatlari

turizmi……. 124
9.2.1.Birlashgan Arab Amirliklari turizmi…….. 124
9.2.2.Saudiya Arabistoni turizmi……. 125
9.2.3.Misr Arab Respublikasi turizmi……. 126

10-BOB. AFRIKA TURISTIK REGIONI……. 129
10.1. Afrika turistik regioniga umumiy tavsif……. 129
10.2. Shimoliy Afrika subregioni turizmi…… 134
10.3. Sahroi Kabir atrofi subregioni turizmi……..…….. 135

III QISM. O`ZBEKISTONNING TURIZM ISTIQBOLLARI …… 140

11-BOB.O‘ZBEKISTONNING TURIZM IMKONIYATLARI VA SALOHIYATI…….. 140
11.1. O‘zbekiston turizm imkoniyatlari tahlili…… 140
11.2. O‘zbekiston turizmining «Buyuk Ipak yo‘li» brendi…… 148
11.3. O`zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishning milliy modelini yaratish ……... 152
11.4. Tabiat yodgorliklarining turizmdagi roli ……... 162
11.5. O‘zbekistonda qishloq turizmini rivojlantirish istiqbollari…… 170

12-BOB. O‘ZBEKISTONNI TURISTIK RAYONLASHTIRISH MASALALARI…….. 180
12.1. O‘zbekistonni turistik rayonlashtirish omillari…… 180
12.2. O‘zbekistonni turistik rayonlashtirishning ba’zi masalalari…… 188
12.3. O‘zbekiston turistik rayonlariga umumiy tavsif.. 190
12.3.1.Toshkent turistik rayoni…… 190
12.3.2.Mirzacho`l turistik rayoni…….. 193
12.3.3.Farg`ona turistik rayoni……. 197
12.3.4.Zarafshon turistik rayoni…… 203
12.3.5.Janubiy turistik rayoni…… 208
12.3.6.Quyi Amudaryo turistik rayoni……. 218

13-BOB.SAMARQAND VILOYATINING TABIIY VA MADANIY TURISTIK RESURSLARI……... 225
13.1. Samarqand viloyatining geografik o‘rni va joylashuvining turizmdagi ahamiyati……... 225
13.2. Turizmda innovatsiyalarning hududiy jihatlari …… 230
13.3.Samarqand viloyatida innovatsion loyihalarni amalga oshirish muammolari …… 234

Xulosa…….. 238
Glossariy…… 240
Foydalangan adabiyotlar…… 245
Ilovalar…… 250

Kirish

Ma’lumki, insoniyat qadimdan dunyoni bilishga va uni anglashga, yangi yerlarni ko‘rishga hamda o‘zi uchun noma’lum bo‘lgan hududlarni kashf etishga harakat qilgan. Bu orzularni amalga oshirish bevosita yaqin va uzoq hududlarga sayohatga chiqish orqali bajarilgan. Sayohat davomida ruhan dam olishgan va tabiatning go‘zal mo‘jizalariga hamda insonlar tomonidan yaratilgan ajoyib narsalardan hayratlangan. Ayni paytda shu mintaqa aholisini ijtimoiy va iqtisodiy holatiga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatgan.

Hozirgi kunda turizmning jahon xo‘jaligidagi hissasi yil sayin oshib, u muhim makroiqtisodiy tarmoqlar qatorida rivojlanmoqda. Mazkur soha dunyodagi ko‘pgina davlatlarning daromad manbai sifatida ularning milliy iqtisodiyotida asosiy o‘rin tutmoqda. Shu jihatdan O‘zbekistonda mazkur tarmoqqa e’tiborni kuchaytirish muhim masalalardan biridir.

Butunjahon turizm tashkilotining (UNWTO) prognozi bo‘yicha turizm industriyasida 2020 yilgacha halqaro turizmda o‘sish tendensiyasi saqlanib qolinadi. Binobarin, barqaror o‘sish dinamikasi Osiyo va Tinch okeani regionidagi bir qancha mamlakatlarda ijobiy rivojlanishi xalqaro ekspertlar tomonidan e’tirof etilmoqda. Bunga o‘z navbatida bugungi kundagi turizmga berilayotgan keng ko‘lamli investitsiyalar va turistik salohiyatning yuqoriligidir.

Bugungi kunda jahonda yuz berayotgan globalizatsiya jarayonlarining tezlashib borishi davlatlardan turizm tarmog‘ini rivojlantirish orqali muhim masalalarni echish imkoniyatini yaratishni taqozo etmoqda. Shu jumladan, respublikamizda olib borilayotgan islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri turizm sohasini rivojlantirish eng dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil uchun mo‘ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida “...turizmni rivojlantirish, sohaga investitsiyalar jalb etish, kadrlar salohiyatini oshirish bo‘yicha kompleks choralar ko‘rishimiz lozim. Bizda turizm ko‘pincha qadimiy shaharlarimiz, tarixiy-madaniy yodgorliklar doirasida cheklanib qolmoqda.

Vaholanki, mamlakatimizning betakror tabiati, milliy qo‘riqxonalar, tog‘li hududlarda turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyat mavjud. Ayniqsa, tibbiyot turizmi, ziyorat turizmi va ekoturizmni rivojlantirish nafaqat iqtisodiyot, balki ijtimoiy sohalar rivojiga ham katta turtki beradi. 2019-2025 yillarda Turizmni rivojlantirish milliy konsepsiyasini ishlab chiqish va shu asosda 2025 yilda yurtimizga tashrif buyuradigan xorijiy sayyohlar sonini 7 million nafarga, turizm eksportidan keladigan yillik daromadni esa 2 milliard AQSH dollariga etkazish lozim” –deb vazifa belgilanganini keltirib o‘tish mumkin. Bundan tashqari, ushbu sohani jadal rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi PF-5611-sonli “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni hamda PQ-4095-sonli “Turizm tarmog‘ini rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorini keltirib o‘tish mumkin. Ushbu qarorda 2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasida mehmonxonalar qurishning maqsadli parametrlari, istiqbolli investitsiya loyihalari, zamonaviy axborot texnologiyalarini tatbiq etiladigan madaniyat ob’ektlari va muassasalari belgilab berildi.

2017-yilda jahon turizm harakatlarida 1,1 mlrd ga yaqin turist ishtirok etdi. O‘zbekistonga keluvchi xorijiy turistlar sonida ham ortish kuzatildi va bu ko‘rsatkich 5,5 mln kishini tashkil qildi. Turizm faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalarning soni 680 ta bo`lib, bu ko`rsatkich yildan-yilga oshib bormoqda. O‘zbekistonning ko‘hna tarixi, qadimiy madaniy merosi jahon turistlarini o‘ziga chorlab kelgan bo‘lsa-da, sobiq sho‘rolar davrida xorijiy mamlakatlar bilan bevosita turistik aloqalar o‘rnatish va hamkorlik qilish chegaralangan edi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng turizm sohasini jahon andazalariga ko‘tarish masalasi jiddiy muhokama qilinib, bu sohani yangidan isloh qilish bo‘yicha Turizm to‘g‘risidagi qonun, Prezident farmon va qarorlari va davlat dasturlari qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-5326-son Farmonining 10 bandida

turistik kartalar tayyorlash masalasining qo‘yilganligi geograflar oldiga katta vazifalar belgilab beradi. Shuningdek, farmon bandlarida hududlar turistik imkoniyatlarini yanada rivojlantirish masalalari ham belgilab qo‘yilgan. Demak, “hudud egasi” bu albatta geograflardir. Shuning uchun har bir hududlar, mamlakatlar, xattoki tuman, qishloq, tog‘ va daryolar, cho‘llar turistik nuqtai nazaridan tadqiq etilishi lozimdir.

Geografiya fani XX asrning ikinchi yarmiga kelib yangi yo‘nalishlar, ya’ni, aholiga xizmat ko‘rsatish, tibbiyot, rekreatsiya va turizm kabi tarmoqlarni o‘rgana boshladi. Shu jihatdan ushbu fanda turizmni hududiy tomonlariga ham qiziqish oshib bormoqda. Fanning tabiiy geografiya tarmog‘i rekreatsiya resurslarini tabiiy geografik xususiyatlarini o‘rgansa, iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada esa, turizm hamda rekreatsiya resurslarini baholash va ulardan foydalanish, hududiy turistik majmualar va turistik rayonlashtirishga katta e’tibor qaratiladi.

Turizm ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish, joylashtirish, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish va aholi ijtimoiy muammolarini hal etishda, shuningdek, dam olish, sog‘lomlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur fanning ko‘pgina qirralari bilan «uzoq xorij» davlatlaridan I.G.Kol, A.Gettner, R.Blanshar, A.Mariotti, V.Unitsiker, Corneliu Iatu, MDH davlatlarida A.YU.Aleksandrova, N.N.Baranskiy, YU.A.Vedenin, S.R.Erdavletov, P.N.Zachinyaev, I.I.Pirojnik, YU.D.Dmitrevskiy, N.S.Mironenko, A.Nizamiev, E.A.Okladnikova, I.T.Tverdoxlebov, N.S.Falkovich va boshqa olimlar izlanishlar olib borgan. Ayni vaqtda, respublikamizda ham turizm geografiyasining ayrim muammolari bo‘yicha Z.M.Akramov, E.A.Ahmedov, SH.A.Azimov, A.Zokirov, F.Komilova, A.A.Rafiqov, A.Soliev, A.Nigmatov, T.Toshmurodov, B.Husanboev, N.To‘xliev, A.Taksanov, A.Yusupov, R.Xayitboev, N.T.Shamuratova, X.Mamatqulov kabi mutaxassislar shug‘ullangan.

Ushbu qo‘llanma «Geografiya» yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalarga mo‘ljallangan bo‘lib, 3 ta qismdan, 14 ta bobni o‘z ichiga oladi. O‘quv qo‘llanmaning 1-qismi Turizm geografiyasining ilmiy-nazariy asoslariga, 2-qism turizm

geografiyasining regional xususiyatlariga, 3-qismidagi boblar esa O‘zbekiston va uning hududlari turizm salohiyatiga geografik tadqiq etilgan.

1-qismdagi boblarda quyidagicha: 1-bob turizm geografiyasining predmeti, maqsadi va vazifalari, 2-bob turizm turlari va klassifikatsiyasi, 3- bob turizmni rivojlantirish omillari, 4-bob turizm geografiyasining tarixi va rivojlanishi hamda industriyasi, 5-bob turizm destinatsiyasi kabi masalalar yoritilgan. 2-qism boblaridagi turistik regionlar Butunjahon turistik tashkilotining rayonlashtirish tamoyili asosida ko‘rib chiqilgan. Jumladan: 6-bobda jahonning turistik regionlari, 7-bob Yevropa mamlakatlarida turizm geografiyasi, 8-bob Amerika mamlakatlarida xalqaro turizm geografiyasi, 9-bob Osiyo–Tinch okeani regioni mamlakatlari xalqaro turizm geografiyasi, 10-bobda O`rta sharq regioni mamlakatlari xalqaro turizm geografiyasi, 11-bob Afrika va boshqa mintaqalar mamlakatlari turizm geografiyasi yoritilgan.

O‘quv qo‘llanmaning 3-qismida: 12-bob O‘zbekistonning turizm imkoniyatlari va salohiyati, 13-bob O‘zbekistonni turistik rayonlashtirish masalalari, 14- bob Samarqand viloyatining tabiiy va madaniy turistik resurslari ko‘rib chiqilgan.

I QISM. TURIZM GEOGRAFIYASINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

1-BOB.TURIZM GEOGRAFIYASINING PREDMETI, OB'EKTI, MAQSAD VA VAZIFALARI

Reja:

1.1. Turizm tushunchasi
1.2. Turizm geografiyasining ob'ekti va predmeti
1.3. Turizm geografiyasining boshqa fanlar bilan aloqadorligi

1.1. Turizm tushunchasi

Turizm (tourism) terminini birinchi bo‘lib 1830 yilda V.Jekmo tomonidan qo‘llanilgan edi. Bu tushuncha fransuz tilida «tour», sayohat ma'nosida ishlatilgan. Turizm va turist tushunchalari o‘z navbatida bir ma'nodagi tushuncha sifatida qarash noo‘rindir. Turizm keng ma'nodagi iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri sifatida barcha turistik xizmatlar yig‘indisidan iborat soha hisoblanadi. Turist esa shu sohada ishtirok etadigan muayyan shaxs o‘zi yashaydigan yoki boshqa joy, hudud, mamlakatda bo‘lib xaq to‘lanadigan xizmat bilan mashg‘ul bo‘lmasdan, turli xizmatlardan foydalangan shaxsga aytiladi. Turist o‘z navbatida turizmda band bo‘lgan kishilardir.

Binobarin, bu termin va tushunchalarga Bern universiteti professorlari Xunziker va Krapflar aniqroq baho beradi. Jumladan, **turist- bu o‘zi yashaydigan joydan boshqa joyga, hududga, mamlakatga, mamlakatidan tashqariga bo‘sh vaqtlarida dam olish, sog‘lig‘ini tiklash, sog‘lomlashtirish, mehmonga borish, diniy va ish yuzasidan haq to‘lanadigan maqsadlaridagi tashrifidir**, deb ta'rif beradi.

A.Soliev va M.Usmonovlar (2005) turizm tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi: **«aholining o‘zi yashab turgan mintaqa, hudud, o‘lka yoki biror mamlakatning diqqatga sazovor joylarini ko‘rish maqsadida uyushtirilgan rekreatsion faoliyat turiga sayohat, ya'ni turizm»** hisoblanadi. 1963 yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) Xalqaro turizmga oid Rim

konferensiyasiga muvofiq **turist deb, bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga safarga borib, kamida 24 soat ichida o‘sha yerda turib, turistik xizmatidan foydalangan kishiga aytiladi** (Mironenko, Tverdoxlebov, 1981). Agar kishilarning ana shu muddat davomida mamlakat hududining boshqa joyida o‘zi yashab turgan manzildan tashqarida bo‘lishi mahalliy turizm deyiladi.

R.Abdumalikovning fikricha, turizm- sayohat paytida «tur» (belgi) o‘rganish degan ma’noni bildirib, tog‘, adirlar va uzoq masofalarga sayohat qilish, oxirgi manzilga belgi qo‘yib kelish yoki cho‘qqiga chiqqanlikni bildirish uchun biron belgi qo‘yishni anglatadi, deb ta’riflaydi (Abdumalikov, 1978). Bu fikr ko‘proq maktab o‘lkashunosligi va turizmi bilan bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasining «Turizm to‘g‘risidagi qonuni»da (*3 - modda. Asosiy tushunchalar*:) turizm - jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog‘lomlashtirish, ma’rifiy, kasbiy - amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to‘lanadigan faoliyat bilan shug‘ullanmagan holda uzog‘i bilan bir yil muddatga jo‘nab ketishi (sayohat qilishi);

- turist - O‘zbekiston Respublikasi hududi bo‘ylab yoki boshqa mamlakatga sayohat qiluvchi (doimiy istiqomat joyidan turizm maqsadida jo‘nab ketgan) jismoniy shaxs;

- turistik faoliyat - ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlari talablariga muvofiq sayohatlarni va ular bilan bog‘liq xizmatlarni tashkil etish borasidagi faoliyat;

- ekskursiya faoliyati - turistik faoliyatning tarixiy yodgorliklar, diqqatga sazovor joylar va boshqaob’ektlar bilan tanishtirish maqsadidaoldindan tuzilgan yo‘nalishlar bo‘yicha ekskursiya etakchisi hamrohligidagi 24 soatdan oshmaydigan ekskursiyalarni tashkil etishga doir qismi;

- turistik resurslar - tegishli hududning tabiiy - iqlim, sog‘lomlashtirish, tarixiy - madaniy, ma’rifiy va ijtimoiy - maishiy ob’ektlari majmui;

- turistik faoliyat sub’ektlari - belgilangan tartibda ro‘yxatgaolingan va turistik xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq faoliyatni amalgaoshirish uchun litsenziyasi bo‘lgan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar;

- turistik industriya - turistik faoliyatning turistlargaxizmat ko‘rsatishni taminlovchi turli sub`ektlari (mehmonxonalar, turistik komplekslar, kempinglar, motellar, pansionatlar, umumiy ovqatlanish, transport korxonalari, madaniyat, sport muassasalari va boshqalar) majmui;

- tur - muayyan yo‘nalish bo‘yicha turistik xizmatlar majmui (joy bandlash, joylashtirish, ovqatlantirish, transport, rekreasiya, ekskursiya xizmatlari va boshqa xizmatlar) bilan ta’minlangan aniq muddatlardagi turistik sayohat;

- turistik xizmatlar - turistik faoliyat sub’ektlarining joylashtirish, ovqatlantirish, transport, axborot-reklama xizmatlari ko‘rsatish borasidagi, shuningdek, turistlarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan boshqa xizmatlar;

- turistik guruh rahbari - turistik faoliyat sub’ektlarining vakili bo‘lgan va uning nomidan ish ko‘rib, turistlarga xizmat ko‘rsatish shartnomasi shartlarining bajarilishini ta’minlovchi jismoniy shaxs;

- gid (ekskursiya etakchisi) - tur qatnashchilariga turistik xizmatlar ko‘rsatish shartnomasi doirasida ekskursiya -axborot, tashkiliy yo‘sindagi xizmatlar va malakali yordam ko‘rsatuvchi jismoniy shaxs;

- turistik faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziya - turistik faoliyatni amalga oshirishga bo‘lgan huquqni tasdiqlovchi maxsus ruxsatnoma;

- sertifikat - turistik xizmatlar sifatini va ularning muayyan standartga yoki boshqa normativ hujjatga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjat.

1.2. Turizm geografiyasining ob’ekti va predmeti

Turizm geografiyasining (TG) fan sifatida shakllanishi va rivojlanishida dastlabki izlanishlar XIX asrning ikkinchi yarmidan keyin I.G. Kol tomonidan olib borilgan. Bu tadqiqot dam olish, turizm geografiyasi bo‘yicha ilk qadamlardan biri bo‘ldi. Shu davrda nemis geografi A.Gettner ham o‘z izlanishlarida TG o‘ziga xos jihatlarini ochib berdi. U turizm geografiyasining predmeti bo`yicha ilmiy ishlar olib borib, yirik shaharlar atrofida tabiat va

iqlim resurslaridan foydalanish xususiyatlariga katta e’tibor berdi. Shuningdek, Gettner sayohat paytida kishilarning tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy hamda rekreatsiya resurslaridan foydalanishini turizm geografiyasining predmeti deb ta’kidlaydi (Erdavletov, 2000, b.94-95).

«Turizm geografiyasi» terminini birinchi bo‘lib fanga 1905 yilda D.Stradnerom kiritgan. U o‘z izlanishlarida turistik faoliyatning xo‘jalikni rivojlantirishdagi o‘rniga alohida e’tibor qaratdi. K. Shputs (1919) esa turizmda moddiy texnik bazalarni yaratish lozimligini alohida ta’kidlaydi. Shu bilan birga u madaniy tadbirlar va tabiiy landshaftlarni turizm geografiyasining muhim ob’ekti sifatida o‘rgandi.

Ta’kidlash joizki, ushbu fanning turli jabhalari bo‘yicha xorijiy davlatlar olimlari ko‘p izlanishlar olib borgan. Masalan, Fransiyada birinchi bo‘lib R.Blanshar (1920) Alp tog‘ida turizm xo‘jaligi va turistik marshrutlarni tashkil etish bo‘yicha ilmiy izlanishlar o‘tkazdi. Shu davrda Italiyada A.Mariotti turizmning tarixiy bosqichlarini ajratdi va shu asosda uni o‘rgandi. Bundan tashqari, 1930-40 yillarda ko‘pgina davlatlar olimlari turizm va turizm geografiyasining ayrim qirralariga oid ilmiy tadqiqotlar olib bordi. Jumladan, Germaniyada, Fransiyada, Shveysariyada, Yaponiya hamda AQSH da turizmning ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy turistik resurslardan foydalanish va ularning imkoniyatlari to‘g‘risida ilmiy asarlar yaratilgan (Erdavletov, 2000, b.97).

Yevropa va Shimoliy Amerika olimlari tomonidan hududlarni keng miqyosda o‘rganish, ilmiy asosda dam olishni tashkil etish va mavjud muammolarni turistik va geografik tadqiqotlar zaminida o‘rgandi. Ular o‘zlarining ilmiy tavsiyalarida ishlab chiqarish va tabiiy muhit o‘rtasidagi tafovutni chetlab o‘tmadi. Shu bois, mazkur mintaqalarda turizm tez sur’atlar bilan o‘sib bordi. Chunonchi, 1936-1939 yillarda turizm sohasi bo‘yicha Krakovdagi Yagellon universitetida turistik kadrlar tayyorlashga katta ahamiyat berildi. Shu davrda polyak geografi S.Liship turizm geografiyasining ilmiy-uslubiy jihatlarini o‘rganib, o‘zining asarlarida «Turist geografiyasi» va «Turizm

geografiyasi» terminlarini geografik adabiyotlarga kiritdi. U turizm geografiyasining o‘rganishda statistika, huquqshunoslik, madaniyatshunoslik va boshqa fanlar bilan aloqasini ilmiy-uslubiy jihatdan isbotladi, turistik tadqiqotlarda xaritaning muhimligini alohida ta’kidladi.

Ikkinchi jahon urushi davrida turizmga doir ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar birmuncha pasaydi. Urushdan keyingi 50-60-yillarda turizm geografiyasini o‘rganish Fransiya, Kanada, GFR, Avstriya, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Yaponiya va boshqa davlatlarda keng ko‘lamli o‘rganildi.

XX asrning ikkinchi yarmidan keyingi yillarda Sobiq Ittifoqda ham bu yo‘nalish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borildi. Jumladan, N.S.Mironenko va I.T.Tverdoxlebov (1984) rekreatsiya va turizmning geografik xususiyatlari to‘g‘risida, P.N.Zachinyaev, N.S.Falkovich (1972) xalqaro turizmning geografik joylanishi va rivojlanishi bo‘yicha ilmiy asarlar yaratdi. Bundan tashqari, turizm geografiyasining nazariy va uslubiy asoslarini Pirojnik I.I, Kotlyarov E.A., Aleksandrova A.YU., Dmitrevskiy YU.D., Erdavletov S.R. va boshqalar ham ilmiy ishlarida ko‘rish mumkin. Ammo, ta’kidlash joizki, sobiq Ittifoqda rekreatsiya va turizm sohasini keng miqyosda o‘rganish yaqin o‘tmishda boshlandi. Ushbu tadqiqotlarning asosiy fan tarmog‘i sifatida o‘rganishda SSSR Fanlar akademiyasining Geografiya instituti olimlari: I.P.Gerasimov, V.S.Preobrajenskiy, A.A.Mins, B.N.Lixanov, YU.A.Vedenin, I.V.Zorin, L.I.Muxina, E.B.Alaev va boshqalar izlanishlar olib bordi. Shuningdek, turizmning turli yo‘nalishlari bo‘yicha N.M.Svatkova, K.M.Krivosheeva, B.G.Fadeev, D.Kobaxidze, YU.A.Shtyurmer, U.N.Nabieva. M.I.Azar kabi ko‘plab olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borgan (Kotlyarov, 1978).

Hozirgi paytda Markaziy Osiyo geograf olimlari, jumladan, Z.M.Akramov, E.A.Ahmedov, Sh.Azimov, G.R.Asanov, A.S.Soliev, A.Nigmatov, O.Otamirzaev, S.R.Erdavletov, N.Alimqulova, M.Husanboev, K.N. Musin, A.G.Nizamiev,

A.A.Joldasbekov va boshqalar tomonidan turizm geografiyasining turli masalalari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Ko‘pgina mutaxassislar o‘zlarining ilmiy tadqiqotlarida turizm geografiyasi bilan rekreatsiya geografiyasini (RG) bir biriga qo‘shilgan holda, yaxlit predmet sifatida ko‘rishgan. Ammo bu yo‘nalishlarni N. Jorj, B.Barbe (Fransiya), I. Matsnetter (Germaniya), F. Xellayner (Kanada), V.S. Preobrajenskiy, YU.A. Vedenin va boshqalar ularni alohida-alohida ko‘rishga xarakat qilishdi. A.I. Chistobaev va M.D Shariginlar (1990) turizm geografiyasi ijtimoiy-iqtisodiy geografiya fani bilan bog‘liq holda umumiy hududiy tizimni tashkil etadi va TG ga ijtimoiy-iqtisodiy geografiyada hududiy integral-sintetik fan sifatida yondoshishadi.

Turizm ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish, joylashtirish, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish va aholi ijtimoiy muammolarini hal etishda, shuningdek, dam olish, sog‘lomlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur fanning tadqiqot ob’ekti va boshqa ko‘pgina qirralari bilan «uzoq xorij» davlatlaridan I.G.Kol, A.Gettner, R.Blansharom, A.Mariotti, V.Unitsiker, Corneliu Iatu, MDH davlatlarida A.YU.Aleksandrova, N.N.Baranskiy, YU.A.Vedenin, S.R.Erdavletov, P.N.Zachinyaev, I.I.Pirojnik, YU.D.Dmitrevskiy, N.S.Mironenko, A.Nizamiev, E.A.Okladnikova, I.T.Tverdoxlebov, N.S.Falkovich va boshqa olimlar izlanishlar olib borgan. Ayni vaqtda, respublikamizda ham turizmning ayrim muammolari bo‘yicha Z.M. Akramov, E.A. Ahmedov, SH.A. Azimov, A. Zokirov, F.Komilova, A.A.Rafiqov, A. Soliev, T.Toshmurodov, B. Husanboev, N.To‘xliev, A.Taksanov, A. Yusupov kabi mutaxassislar shug‘ullangan. Ammo mamlakatimizda ushbu yo‘nalishning nazariy va amaliy asoslari maxsus yo‘nalish sifatida kam o‘rganilgan. Shu bois turizm geografiyasining mintaqaviy xususiyatlarini o‘rganish, uning ijtimoiy-iqtisodiy geografiyaning muhim yo‘nalishi darajasida tadqiq etish ilmiy ahamiyatga egadir.

Ko‘pgina mutaxassislar o‘zlarining ilmiy tadqiqotlarida turizm geografiyasi bilan rekreatsiya geografiyasini (RG) bir biriga qo‘shilgan holda, yaxlit predmet sifatida ko‘rishgan. Ammo bu yo‘nalishlarni N. Jorj, B.Barbe (Fransiya), I.Matsnetter

(Germaniya), F.Xellayner (Kanada), Corneliu Iatu (Ruminiya), V.S.Preobrajenskiy, YU.A.Vedenin va boshqalar ularni alohida-alohida ko‘rishga xarakat qilishdi. A.I.Chistobaev va M.D.Shariginlar (1990) turizm geografiyasi ijtimoiy-iqtisodiy geografiya fani bilan bog‘liq holda umumiy hududiy tizimni tashkil etadi va TG ga ijtimoiy-iqtisodiy geografiyada hududiy integral-sintetik fan sifatida yondoshishadi.

N.S. Mironenko va I.T Tverdoxlebov (1981) fikricha, inson faoliyatining barcha maqsadli, maqsadsiz, bo‘sh paytlarida sog‘lomlashtirish, tanishuv, sport va madaniy- maishiy faoliyati rekreatsiya, sayohat paytida aholi yashash joyidan boshqa joyga qisqa va uzoq muddatli sayohati, sayr qilishi, ekskursiyasi, tanishuv, ilmiy va sport musobaqalarida 24 soat ichida bo‘lishini turizm deb hisoblaydilar.

V.S.Preobrajenskiy rekreatsiya geografiyasini rekreatsion tizim sifatida o‘rganib, uning predmeti va o‘rganish ob’ektini «hududiy rekreatsion tizim» (HRT) deb ta’riflaydi. E.A.Kotlyarov (1978) va I.I. Pirojniklar (1985) TG va RG ga o‘z asarlarida alohida e’tibor qaratadi.

Mavjud ilmiy manbalarni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, aksariyat olimlar turizm geografiyasini nisbatan yangi va uni rekreatsiya geografiyasining bir qismi sifatida qarashga moyillar. Darhaqiqat, turistik faoliyat uzoq muddatli dam olish, sog‘liqni tiklash kabi rekreatsion maqsadlarga ancha to‘g‘ri keladi. (Mironenko, Tverdoxlebov, 1981, b.11)

G.R.Asanov TG va RG ga baho berib, «Turizmning gurkirab o‘sishi geografiya oldiga yangi vazifalar qo‘ydi, xususan turistlar oqimlari qonuniyatlar, turizm industriyasi (mehmonxona, pansionatlar, xizmat sohasi va h.k.) iqtisodiy geografiyaning ob’ekti bo‘lib qoldi. Tabiiyki, turizm geografiyasi faqat dam olish uchun qilinadigan safarlar geografiyasigina emas, balki umuman sayohatlar, safarlar geografiyasi bilan, jumladan, xizmat sohasi va tabiatni muhofaza qilish bilan bog‘liq ko‘pgina masalalarni o‘z ichiga oladi. Shunday qilib, TG safarlar geografiyasi bo‘lib, geografiyaning yangi tarmog‘idir. RG predmeti hududiy

rekreatsiya tizimlarilari (HRT), ularning tarkib topishi, rivojlanish qonuniyatlar tarkibi va taqsimlanishi o‘rganishdan iborat bo‘lgan geografiya fani oralig‘idagi kompleks xarakterdagi oraliq fan», deb baholaydi (Asanov, 1990).

Ayni chog‘da, N.S.Mironenko, B.B.Rodmon, I.V.Zorin rekreatsion rayonlashtirishda iqtisodiy geografik omilga katta e’tibor qaratadi. V.S.Preobrajenskiy va YU.A Vedeninlar esa turizmni ijtimoiy-iqtisodiy tadqiq etishda aholi, aholi manzilgohlari, shahar va shahar atrofi, urbanizatsiya jarayonining turizmni rivojlantirishdagi o‘rniga ahamiyat berdi. A.Soliev fikricha, turizm geografiyasi iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning yangi tadqiqot yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, mamlakat va mintaqalarning iqtisodiy-ijtimoiy salohiyatini belgilovchi muhim omil bo‘lishini ta’kidlaydi. Ayni paytda, geografiyaning ushbu yo‘nalishi ko‘p jihatdan kishilarning bo‘sh vaqti, mamlakat va mintaqalarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy barqarorligiga bog‘liq. Shunday qilib, turizm geografiyasi keng qamrovli tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy geografik fanlar oralig‘idagi nisbatan yangi tarmoqlardan biri bo‘lib, u mintaqa yoki biror hududning tarixiy taraqqiyotidagi erishgan yutuqlari, madaniy hamda ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlari, xo‘jaligining yuksalishidagi o‘rni va o‘ziga xos hududiy xususiyatlarini o‘rganadi. Turizmni iqtisodiyotning asosiy tarmog‘i sifatida qaralganda uning to‘rtta asosiy hududiy bug‘inlari yoki bosqichlarini ajratish mumkin: **xalqaro, milliy, mintaqaviy va mahalliy turizm**. Bu yerda biz uchun eng ahamiyatlisi mintaqaviy turizm (MT) hisoblanadi. Chunki, aynan ana shu darajada turizmni tashkil etish va rivojlantirish uchun tashkiliy va huquqiy asoslar mavjud. MT mamalakatning ma’lum bir hududida o‘zining ma’muriy - boshqaruv organi, infratuzilmasi mavjud bo‘lgan makonni anglatadi. Binobarin, olib borilgan tadqiqotda «MT» tushunchasining kiritilishi ushbu fanni nazariy jihatdan boyitdi.

Ma’lumki, iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada hududiy tizim yoki majmualar g‘oyasi muhim o‘rinni egalllaydi. Ular jumlasiga eng avvalo N.N.Kolosovskiy yaratgan (1947) hududiy ishlab chiqarish majmualari (HICHM) kiradi. Shunga mos holda TG uchun hududiy turistik majmua (HTM) tushunchasi katta ahamiyatga ega.

Bizningcha, **HTM–ma’lum bir hududda yagona infratuzilma asosida turli turistik ob’ektlarning o‘zaro aloqadorlikda rivojlanishi va uni boshqarishni anglatadi.** HTM avvalo V.S.Preobrajenskiy tomonidan ilgari surilgan hududiy rekreatsion tizim (HRT) bilan chambarchas bog‘liq. Ammo HTM bilan HRT o‘rtasidagi tofovut ko‘proq ularning hududiy jihatdan qanday maqsad va vazifalari, hududiy tafovut yotadi. Ayni paytda biz taklif etayotgan HTM tushunchasi HRT dan farqli o‘laroq kichik (lokal) hududni egallashi bilan ajralib turadi hamda tizim tarkib qoidasiga muvofiq serqatlamli, pog‘onasimon bo‘ladi. Shu o‘rinda e’tiborga olish joizki, hududiy rekreatsion yoki turistik tizimlarning mohiyati va taksonomik birliklari to‘g‘risida aniq bir fikr mavjud emas. Masalan, N.S.Mironenko va I.T.Tverdoxlebovlar (1981, b.131) HRT lari 5 taksonomik birlikka ajratishadi: rekreatsion zona (mintaqa), rekreatsion rayon (makrorayon), rekreatsion «podrayon», rekreatsion mikrorayon va rekreatsion punkt. Xuddi shunday, YU.D.Dmitrevskiy ham rekreatsiya yoki turistik rayonlarni 5 bug‘indan iborat, deb ko‘rsatadi: turistik rekreatsion zona, turistik makrorayon, turistik mezorayon, turistik mikrorayon va turistik ob’ekt (Dmitrevskiy, 2002, b.103).

Kishilarning biror mintaqadan yoki hududdan boshqa joylarga safar qilishida bevosita geografik xususiyatlar, ya’ni qulay tabiiy geografik sharoit va siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Turizm geografiyasi, A.Soliev fikricha, bu «jonli, faol» yoki «harakatdagi geografiya»dir. Chunki, biror turistik ob’ektni ko‘rish uchun o‘sha joyga borib bevosita ko‘rishi lozim. Bu maqsadga esa geografik marshrutlar asosida amalga oshiriladi. Qolaversa, geografiya fanining tarixi, kelib chiqishi ham ko‘p jihatdan aynan turli xil sayohatlarga, hozirgi zamon tili bilan aytganda, turizmga bog‘liq.

Turizm geografiyasi (TG) iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning bir bo‘lagi bo‘lib, u turli mamlakat va mintaqalarda sayyohlikning shakllanishi, rivojlanish va xududiy tashkil etish xususiyatlari hamda qonuniyatlarini o‘rganadi. TG hududiy harakat oqibatida, ya’ni yer yuzining turli tomonlariga geografik marshrutlar uyushtirish asosida vujudga keladi. Bu esa

mintaqada xizmat ko‘rsatish geografiyasini tashkil etish va rivojlantirishga ham sababchi bo‘ladi. Sayohat inson tafakkurini kengaytiradi, dunyoni teran anglashga xizmat qiladi. Kishilar yer yuzining bir biriga o‘xshash bo‘lmagan joylarini ko‘rishni xohlashadi. Demak, biror hudud yoki mintaqaga sayohatga chiqishda tabiiy sharoit katta ahamiyatga egadir. Aksariyat sayyohlar bo‘sh paytlarida tabiat qo‘ynida dam olish, ovchilik qilish, sport va boshqa mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanishni istashadi hamda sog‘lig‘ini tiklaydilar. Shuning uchun xorijiy davlatlardagi ko‘plab turistik firma va kompaniyalar kengroq bu omillardan foydalanishga xarakat qiladilar. Bu o‘rinda Janubi-sharqiy Osiyo, Afrika, Markaziy va Janubiy Amerika, Avstraliya va Okeaniya davlatlari turistik firmalari o‘z xaridorlari bo‘lgan Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlari sayyohlarini ko‘proq tabiati go‘zal hamda ekzotik joylarini ko‘rsatishga katta e’tibor qaratadi. Dengiz bo‘yi, o‘rmon, tog‘ va tog‘oldi rayonlaridagi davlatlar, O‘rta dengiz havzasida joylashgan hamda Malayziya, Indoneziya, Singapur va boshqa shunga o‘xshash mamlakatlar sayyohlarni keng jalb qiladi. Bu o‘z navbatida, tabiiy turistik imkoniyatning yuqoriligidan dalolat beradi. Shuningdek, tog‘ tabiati, landshafti, relefi, iqlimi, tog‘ sporti va boshqa xususiyatlari bilan sayyohlarni o‘ziga qiziqtiradi. Bunday tog‘ turizmi Yevropaning Karpat va Alpida, Osiyoning Himoloyida, Afrikaning Atlas tog‘larida, Amerikaning And va Kordilerasida keng rivojlangan.

1.3. Turizm geografiyasining boshqa fanlar bilan aloqadorligi

Turizm sohasida qo‘shimcha xizmatlarning paydo bo‘lishi yangi ish joylarni vujudga keltirishga, turistlarni joylashtirish, ovqatlantirish, transport xizmatlarini tashkil etish, qo‘shimcha xizmatlarni amalga oshirishga imkoniyat yaratadi. Mintaqaning xo‘jaligi, aholisi, soni, tarkibi va boshqa xususiyatlarni o‘rganish ham talab qilinadi. Quyidagi chizmadan ko‘rish mumkinki, turizmning iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa sohalarni rivojlantirishda o‘rni beqiyosdir. Shu jihatidan turizm geografiyasining o‘rganish ob’ekti sotsial geografiya fanlar tizimida keng qamrovli va

chambarchas bog‘liqdir. Modomiki, barcha fanlar bir-biri bilan uzviy aloqadorlikda rivojlanar ekan, turizm geografiyasi ham ko‘plab tabiiy va gumanitar fanlar bilan jumladan, rekreatsiya geografiyasi, tibbiyot geografiyasi, landshaftshunoslik, o‘lkashunoslik, mamlakatshunoslik hamda iqtisodiyot, tarix, etnografiya, huquqshunoslik va boshqalar bilan bog‘liq holda taraqqiy etadi.

Turizm geografiyasi o‘z tadqiqot doirasida ayniqsa rekreatsiya geografiyasi bilan uzviy bog‘liqdir. Sababi har qanday turistik sayohat davomida kishilar ma’lum darajada dam oladilar, o‘z kuch-quvvatini tiklaydilar. Ayni vaqtda rekreatsiya, ya’ni dam olish, davolanish paytida albatta vaqt-vaqti bilan turli sayyohlik tadbirlari o‘tkaziladi, marshrutlarga chiqiladi. Shu jihatdan bu ikki tarmoq bir-birini to‘ldirib turadi.

Turistik resurslar maqsad va vazifalariga ko‘ra tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarni o‘z ichiga oladi. Shu jihatdan turizm geografiyasi bilan rekreatsiya geografiyasining farqlarini aniqlash muhim masaladir.

Rekreatsiya geografiyasi dam olish, hordiq chiqarish, sog‘liqni tiklash, tabiat go‘zalligidan zavqlanib, ruhini ko‘tarishga qaratilgan faoliyat majmuini o‘z ichiga oladi. Rekreatsiya so‘zi polyakcha «rekrasia» – dam olish, lotincha «rekratio» - sog‘liqni tiklash demakdir. Binobarin, uzoq muddatga mo‘ljallangan rekreatsion faoliyat turizmga mos keladi va shu nuqtai nazardan ham turizm geografiyasi an’anaviy rekreatsion geografiyaning bir qismidir. Rekreatsion turizm bevosita sog‘liqni tiklash (sanatoriya, kurort, pansionat va h.k) bilan ham bog‘liq. Turizm geografiyasi bilan rekreatsiya turizmi bir-biri bilan aloqador tushunchalardir. Chunki, rekreatsiya geografiyasi kishilar sog‘lig‘ini tiklash, sog‘lomlashtirish, dam olish paytida turistik ekskursiyalar uyushtirilib, ularning sayohatlarga chiqishi bevosita turizm bilan bog‘lanib ketadi. Chunonchi, «ekskursiya» lotincha – safar-sayohat (muzeylarga, tarixiy yodgorliklarga, tabiat qo‘yniga va h.k) qilish ma’nosini anglatadi.

Nazorat savollari:

1. Turizm termini kim tomonidan va qachon kiritilgan?

2.Turizm termini va tushunchalariga qaysi olimlar tomonidan ta'rif berilgan?
3.Turist tushunchasi kimlarga nisbatan qo'llash mumkin?
4.Turistik resurslar majmui nimalardan iborat?
5.Turizm geografiyasi nimani o'rganadigan fan hisoblanadi?
6.Turizm geografiyasining nazariy va amaliy jihatdan o'rgangan xorij va mahalliy olimlardan qaysilarini bilasizmi?

Foydalangan adabiyotlar:

1.Александров А.Ю. "Международний туризм" Учебник. М. Аспект пресс 2002.
2.Глушко А.А., Сазыкин А.М. География туризма-ВЛАДИВОСТОК, Издательство Дальневосточного университета 2002
3.Дмитревский Ю.Д. Туристские районы мира. Учебное пособие.-Смоленск: СГУ, 2000
4.Ердавлетов С.Р География туризма: история, теория, методы, практика - Алматы. 2000
5.Зячиняев П.Н., Фалькович Н.С. "География международного туризма" -М. Мысл. 1972.
6.Маматкулов Х.М. Халқаро туризм.-Самарканд, 2012
7.Мироненко Н.С., Тведохлебов И.Т. "Рекреационная география" -М. МГУ 1981.
8.Рўзиев А., Амирқулов К. "Ўзбекистон иқтисодий географияси" -Т. Шарк 2001.
9.Солиев А.С., Усмонов М. Туризм географияси.-Самарқанд, 2005
10.Тухлиев Н. "Ўзбекистон Республикаси иқтисодиёти" -Т. 1998.
11.Ҳусанбоев Б.М., Тўлаганов Л.А., Разина В.Г. "Дорогами Великого Шелкового пути" -Т. Шарк 1996.
12. Corneliu Iatu. Geografiul turizmul.-Romania, Iasi,2013

2-BOB. TURIZM KLASSIFIKATSIYASI, KO‘RINISHI VA TURLARI

Reja:

2.1. Turizm turlari
2.2. Turizm klassifikatsiyasi
2.3. Turistik marshrut va ularning turlari
2.4.Ekologik turizmning ba’zi bir nazariy masalalari

2.1. Turizm turlari

Bugungi kunga kelib turizm turlarining yuzdan ortiq turlari mavjud bo‘lib, kelajakda yangidan yangi turlari paydo bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ularni guruhlashtirish, klassifikatsiya qilish muhim masalalardan hisoblanadi.

Turizm klassifikatsiya- turistik faoliyatning taksonomik asoslariga ko‘ra tiplarga, kategoriyalarga, turlari va ko‘rinishlarga ajratiladi. Ba’zi olimlar fikricha, turizm o‘zining umumiy xususiyatlari va funksiyalariga ko‘ra uch tipga ajratildi; 1. Davolanish, 2. Sog‘liqni tiklash-sport, 3. Tanishuv turizmi (Erdavletov, 2000). Bizning fikrimizcha, yuqoridagi tipologik funksiyalarni hisobga olgan holda turizmni sog‘lomlashtirish va sport, tanishuv, diniy, kasbiy va boshqa turlarga ajratish maqsadga muvofiqdir. Dmitrevskiy bulardan tashqari, ilmiy, ekskursion, festival, xizmat, qishloq turizmlarini ham belgilagan.

Shu bois, sayyohning marshrutlarga chiqishidan maqsadi va istagi har xil bo‘lishini e’tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Turistik faoliyatda sayyoh yakka yoki maxsus marshrut asosida safarga chiqishi mumkin. Shuningdek, sayohat paytida bir vaqtning o‘zida ko‘pgina maqsadlarni, ya’ni, turizmning ko‘pgina funksiyalarida ishtirok etishi ham nazardan holi emas. Aholining turmush sharoitini yaxshilanib borishi, uning bo‘sh vaqtini ko‘payishi, oilaning moddiy daromadini o‘sishi dam olish paytlarini ko‘ngildagidek o‘tkazishga sabab bo‘ladi. Shu sabab, kishilar dunyoni ko‘rish, tabiat qo‘ynida dam olish, sog‘lig‘ini tiklash va boshqa turistik manbalardan foydalanishni istashadi. Bu esa bevosita turizm geografiyasi bilan bog‘liq masaladir. Chunki, kishilar dunyoni xaritadan emas, balki o‘z ko‘zlari bilan ko‘rishni

istashadi. Darhaqiqat, sayohat davomida sayyohlar hududlarning turistik imkoniyatlarini safarlar uyushtirish orqali amalga oshiradi. Bu turizmning o‘ziga xos xususiyatidir. Shu o‘rinda, turizmning turlari va ko‘rinishlari, jumladan, tashkiliy asoslari, davomiyligi, mavsumiyligi va yosh jihatlari turlicha bo‘lishini hisobga olish lozim.

Ma’lumki, turizmning 2 asosiy bo‘limi mavjud bo‘lib, bular ichki (mahalliy) va tashqi (halqaro) turizmdir. Mahalliy turizm - bu o‘z mamlakati hududida qiyinchiliksiz (vizasiz, bojxona to‘siqlarisiz va h.k) istalgan joyga safar qilishi, dam olishi va boshqa turistik faoliyatda mashg‘ul bo‘lishidir. Mahalliy turizm bilan xalqaro turizm bir-biri bilan chambarchas rivojlanib boradi. Ammo mahalliy turizmda so‘zlashuv, transport (ko‘pchilik o‘z shaxsiy avtomobillarida sayohat qilishini hisobga olib) va boshqa muammolar ancha oson kechadi.

Mahalliy turizmning mintaqamiz (Markaziy Osiyo) uchun eng muhim jihati tanlagan sayyohlik marshruti bilan birgalikda diniy qadamjolarga ziyorat qilishi hamda qarindosh-urug‘ va do‘stlarni ko‘rish bir vaqtning o‘zida amalga oshishi mumkin. Mahalliy turizmda o‘zi yashab turgan mintaqani ko‘rishi va o‘rganishi orqali ma’naviy dunyoqarashi oshadi hamda vataniga muhabbat uyg‘onadi, shuningdek, aholini sog‘lomlashtirish, ish qobiliyatini tiklash va mehnat resurslarining faoliyatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Xalqaro turizm - bu bir davlatdan boshqa davlatga uyushtiriladigansayohatdir. U viza, meditsina tekshiruvi, valyuta almashtirish va boshqa ko‘pgina tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Xalqaro turizm ma’lum maqsadda uyushtirilgan marshrut yo‘nalishi asosida guruh yoki yakka tartibda kechishi mumkin. Bunda eng avvalo sayyohlar shu davlatning o‘ziga xos bo‘lgan tarixiy obida va shaharlari, madaniyati, san’ati, urf-odati bilan tanishish hamda boshqa betakror turistik ob’ektlaridan zavq olishdan iboratdir. Shuningdek, xalqaro turizm sport musobaqalari, ilmiy anjumanlar, konferensiya, madaniy aloqalar, diniy marosimlar (masalan, haj safriga borish) bilan ham chambarchas bog‘liqdir.

Xalqaro turizm juda qadimdan rivojlanib kelgan. Chunki, o‘sha davrda mamlakatlar o‘rtasida aniq chegaralar bugungidek o`tkazilmagan (ko`proq tabiiy ob`ektlar bilan ajtatilgan). Ayni vaqtda shu davlatning hududida joriy etilgan tartib qoidalarga qat’iy rioya qilinganligi uchun savdo-sotiq, madaniyat, san’at va fanning dunyo miqyosida yoyilishida turizmning ahamiyati katta bo‘lganligi tarixdan ma’lumdir.

Kasbiy sayohat qadimdan rivojlangan bo‘lib, hozirgi paytda ham bu sayohat eng ananaviy va faol hisoblanadi. Kasbiy, jumladan, ilmiy sayyohlik olimlar, ilm namoyondalari va boshqa kasb egalari tomonidan biror hudud, mintaqaning tarixiy, arxeologik joylarini tekshirish, aholisi, etnografiyasi, madaniyati va san’atini o‘rganish hamda ilmiy anjumanlar, hamkorlikdagi ilmiy ishlarni bajarish, malaka oshirish yuzasidan qilgan safarlarining turizm bilan aloqadorligidir.

Sog‘lomlashtirish, sog‘liqni tiklash turizmi bevosita rekreatsiya turizmi bilan bog‘liq bo‘lib, kishilarning mehnat ta’tili vaqtlarida o‘z salomatligini va ish qobiliyatini tiklashga qaratilgan faoliyatdir. Sanatoriya-sog‘lomlashtirish rekreatsiya majmuiga kurort deyiladi. **«Kurort»** so‘zi nemis tilidan olingan bo‘lib, u **«davolanadigan joy»** ma’nosini anglatadi.

Diniy turizm halqlarning o‘z diniga bo‘lgan hurmati va e’tiqoti nuqtai nazaridan muqaddas qadamjoylar, shaharlar, qabriston va aziz sanalgan maskanlarga ziyorat qilishdir.

Sport turizmi - sport o‘yinlariga, musobaqalarga va sport musobaqalari o‘tkaziladigan mintaqaga yoki mamlakatga sportchilar bilan birgalikda muhlislarning tashrifi demakdir. Qayd etish joizki, hozirgi paytda turizmning bu tarmog‘i katta daromad manbai sifatida tez o‘sib bormoqda.

Tanishuv turizmi keng qamrovli bo‘lib, sayyohlikning barcha tarmoqlari bilan chambarchas bog‘liq. Turizmning bu tarmog‘ida sayohat paytida sayyoh yangi joylar bilan tanishish, ko‘rish bilan ma’naviy zavq oladi. Shuning uchun yuqoridagi turizmning funksional turlaridan barchasida asosan bu tarmoqning bevosita ishtirok etishi xarakterlidir.

Turizm Butunjahon turistik tashkiloti (UWTO) ta’biri bo`yicha, nafaqat iqtisodiy, balki bir vaqtning o‘zida ijtimoiy, madaniy, ekologik va siyosiy hodisa hisoblanadi.

Ijtimoiy turizm – insonparvarlik maqsadlarini aks ettiradi, bu maqsadlar esa insonlarni sog‘lomlashtirishga, ularning madaniy va o‘quv–ta’lim manfaatlarini qondirishga qaratilgan. Shuning uchun bozor sharoitida tijorat turizmini turizm tashkilotlarining tadbirkorlik faoliyatini taraqqiy ettirish asosida turizmning asl rolini esdan chiqarmaslik zarur – bu insonga xizmat qilish, uni ma’naviy boyitish, uning tafakkurini oshirish va sog‘lig‘ini mustahkamlashdir.

Xalqaro turizm – xalqlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar shakllaridan biri sifatida takomillashib bormoqda, u davlatlar o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarga jiddiy ta’sir o‘tkaza boshladi. Xalqaro turizm - turizmning yetakchi sohasidir, uning rivojlanishi servisning ichki infratuzilmasining rivojlanishiga va ko‘rsatilayotgan xizmatlarning sifatiga bog‘liqdir.

Rekreatsiya geografiyasi dam olish, hordiq chiqarish, sog‘liqni tiklash, tabiat go‘zalligidan zavqlanib, ruhini ko‘tarishga qaratilgan faoliyat majmuini o‘z ichiga oladi. Rekreatsiya so‘zi polyakcha «rekrasia» – dam olish, lotincha «rekratio» - sog‘liqni tiklash demakdir. Binobarin, uzoq muddatga mo‘ljallangan rekreatsion faoliyat turizmga mos keladi va shu nuqtai nazardan ham turizm geografiyasi an’anaviy rekreatsion geografiyaning bir qismidir. Rekreatsion turizm bevosita sog‘liqni tiklash (sanatoriya, kurort, pansionat va h.k) bilan ham bog‘liq. Bizningcha, turizm geografiyasi bilan rekreatsiya turizmi bir biri bilan aloqador tushunchalardir. Chunki, rekreatsiya geografiyasi kishilar sog‘lig‘ini tiklash, sog‘lomlashtirish, dam olish paytida turistik ekskursiyalar uyushtirilib, ularning sayohatlarga chiqishi bevosita turizm bilan bog‘lanib ketadi. Chunonchi, «ekskursiya» lotincha – safar-sayohat (muzeylarga, tarixiy yodgorliklarga, tabiat qo‘yniga va h.k) qilish ma’nosini anglatadi.

2.2.Turizm klassifikatsiyasi

Hozirgi zamon turizmini klassifikatsiya qilish uchun eng avvalo uning asl mohiyatini ochib beradigan belgilarni aniqlash maqsadga muvofiqdir. Bizning fikrimizcha, turizmning asl mohiyatini geografik belgilar, turistik oqimlarning yo‘nalishi, maqsadi, mablag‘ bilan ta’minlanganligi, harakatlanishi, joylashishi, turistlar soni, tashkiliy va huquqiy asoslari ochib beradi. Ushbu belgilarga ko‘ra turizm quyidagicha klassifikatsiya qilinadi. (1-jadval).

1-jadval

Turizm klassifikatsiyasi

Klassifikatsiya belgilari	**Turizm turlari**
1. Geografik belgilar	Ichki, xalqaro
2. Turistik oqimlar yo‘nalishi	Kelishi, ketishi
3. Maqsadi	Rekratsiya, davolanish va dam olish, ko‘rish (ekskursiya), tadbirkorlik (ish yuzasidan), ilmiy, sport va dam olish, shop-turizmi, qiziqish, ziyorat qilish, ekoturizm, ekzotik va boshqalar.
4. Mablag‘ bilan ta’minlanish manbai	Ijtimoiy, savdo
5. Harakatlanishi	Piyoda, samalyotda, dengizda, daryoda, avtomatika bilda, poezda, velosipeda, aralash
6. Joylashish joyi	Mehmonxonada, motelda, pansionotda, kemping, palatkada
7. Turizmda qatnashuvchilar	Yolg‘iz, oilaviy, guruh
8. Tashkiliy shakli	Tashkiliy, ixtiyoriy

Bizningcha turizm klassifikatsiyasi yana boshqa bir qancha ko‘rinishlarga ham egadir. Jumladan buni 2-jadvalda quyidagicha ko`rinadi.

2-jadval

Turizm klassifikatsiyasi

Sayohatda ishtirok etuvchilar va qatnashadiganlar soniga ko‘ra	Individual (yakka), guruh, oilaviy
Dam olish regioniga ko‘ra	Milliy, xalqaro
Turizm bozori	Ichki, xalqaro
Tashkil etish xususiyatiga ko‘ra	Tashkillashtirilgan, tashkillashtirilmagan, mustaqil

Maqsadiga ko‘ra	Dam olish, sog‘liqni tiklash (sanatorniya), rekreatsiya, sog‘lomlashtirish, ishbilarmonlik, ta’limiy, diniy, ziyorat, shopturizm, sog‘inish-qumsash (nostalgicheskiy) va boshqalar.
Yoshiga ko‘ra	Bolalar, yoshlar, o‘rta yoshdagilar, keksa yoshdagilar, qarilar
Xarakatlanish vositasiga ko‘ra	Avtomobil, avtobus, suv (kruiz), piyoda, temiryo‘l, xavo, velosiped va boshqalarda
Faoliyat turiga ko‘ra	Ishbilarmonlik, tanishuv, sport, ekologik, kongress, ekstremal, qishloq (agroturizm) va boshqalar
Tabiiy resurslardan foydalanishga ko‘ra	Tog‘, dengiz, o‘rmon, daryo, plyaj, davolanish
Hududiy xarakteriga ko‘ra	Kontinental, dengizbo‘yi, orol
Moliyaviy manbasiga ko‘ra	Tijorat, ijtimoiy (sotsial)
Turistlarni joylashtirish vositasiga ko‘ra	Mexmonxona tipi, mexmonxona bo‘lmagan tipi
Sayohatning uzoq-yaqinligi	Yaqin, uzoq
Sayohatning davomiyligi	Qisqa, o‘rta, uzoq
Turistik potoklarning intensivligi	Mavsumiy, yil davomida (doimiy)

Ichki turizm yoki ko`p hollarda mahalliy turizm sifatida ham ishlatiladi. Agar turist o‘z yashab turgan mamlakat hududdan chiqmasdan sayohat qilsa, turizmning bunday shakliga ichki turizm deb ataladi. Bunday turistlar uchun viza kerak emas, o‘zining milliy pulidan foydalanadi. Ayrim ma’lumotlarga qaraganda turistik sayohatlarga chiqishning asosiy qismi ichki turizmga to‘g‘ri keladi. Ichki turizmning rivojlanishi har bir mamlakatda turistik resurslardan foydalanish, turizm infratuzilmalarini rivojlantirish, turizm bo‘yicha mutaxassis kadrlar tayyorlash imkoniyatini beradi.

Keyingi yillarda xalqaro turizm bilan ichki turizm orasida bir-biriga yaqinlashuv yuz bermoqda. 1985 yil 14-iyun oyida Yevropa davlatlarining bir guruhi Gollandiya, Belgiya, Germaniya, Fransiya, Lyuksenburg, Italiya kabi davlatlarning hukumat boshliqlari Shengel hamkorligiga imzo chekdilar. (2019 yilda 22 ta davlatda shingen shrtnomasi amal qiladi). Keyingi yillarda Yevropa davlatlarining ko`pchiligi yagona pul muomalasi «Yevro»ga o`tmoqdalar. Bu esa ushbu mamlakatlarning barchasida pul, tovar va turistlarning erkin harakat qilish imkoniyatini beradi. Ushbu

davlatlarda yagona viza siyosati amalga oshirildi. Bu esa Yevropaga turistlar oqimining ko‘plab kelishi va ularning viza uchun ortiqcha mablag‘ va vaqt sarflanmasligiga olib keldi.

Xalqaro turizm. Turistlarning bir mamlakatdan boshqa mamlakatga borib, undagi tarixiy, madaniy ob`ektlari bilan tanishish, ko‘rish, dam olishga, davolanish va h.k. maqsadlargagi tashrifidir. Xorijiy mamlakatlarga pul ishlab kelish uchun borish turizmga kirmaydi.

Xorijiy davlatlarga sayohatga chiqishdan oldin sayohatga chiqayotgan kishilar uchun viza ochiladi, ular tibbiyot ko‘rigidan o‘tkaziladi, milliy pul, xorijiy mamlkat puliga almashtiriladi. Bunday ishlarning amalga oshirilishi eng avvalo aholini noqonuniy migratsiyasiga, narkotik moda va fohishabozlikka qarshi kurash va boshqa maqsadlarda amalga oshiriladi. Xalqaro turizmning ikkinchi o‘ziga xos xususiyati yana shundan iboratki, xalqaro turizm mamlakat iqtisodiyotiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Chet ellik turistlarning turizm xizmatlaridan foydalanishi turist qabul qilgan mamlakatga valyuta tushumining ortishiga olib keladi. Shu sababli xalqaro turizm faol turizm deyiladi. Shu bilan birga turistlarni eksport qiluvchi mamlakatlarda pulning bir qismi turistlar bilan chiqib ketadi. Shu sababli faqat turistlarni eksport qiluvchi mamlakatlardagi turizm passiv turizm deyiladi.

Xalqaro turizmda qatnashuvchi turistlarning 65 foizi Yevropa mamlakatlariga, 29 foizi Amerikaga, 15 foizi boshqa mamlakatlarga to‘g‘ri keladi.

Rekreatsiya turizmi-turistlarning o‘z yurti yoki biror bir mamlakatga dam olishi uchun borishidir. Ispaniya, Italiya, Fransiya va Avstriyaga boruvchi turistlar ko‘proq dam olish uchun boradilar.

Davlolanish turizmi. Ushbu tardagi turizm shaxsiy xarakterga ega bo‘lib, ko‘p hollarda turistlar o‘z sog‘lig‘ini tiklash, yani davolanish uchun bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga boradilar. Davolanish turizmining muddati ko‘p hollarda 24-29 kunni tashkil qiladi. Davolanish turizmi organizmga ta’sir ko‘rsatishiga qarab, iqlimiy, dengiz iqlimida davolanish, shifobaxsh balchiqqa, quyosh nurlarida davolanish kabi turlarga bo‘linadi.

Ko‘rish (Tanishuv) turizmi. Turizmning ushbu turi biror bir mamlakat hududini tomosha qilish uchun tashkil qilinadi. Sayohat qilishdan asosiy maqsad-turistlarning dunyoqarashini kengaytirishdir. Tomosha qilish uchun sayohatga chiqishning muhim turlaridan biri avtomobillarda, avtobuslarda sayohat qilish hisoblanadi.

Tadbirkorlik turizmi. Turizmning ushbu turida turistlar ma’lum bir maqsad yuzasidan bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga boradilar. Ish yuzasidan amalga oshiriladigan turistlarga davlat yoki biror bir tashkilot tomonidan safar xarajatlari to‘lanadi. Shu sababli ko‘pchilik davlatlar o‘zlarida ko‘proq xalqaro yig‘ilishlar o‘tkazishga harakat qiladilar. Tadbirokor turizmida savdo-sotiq ishlarini tashkil qilish, ilmiy kongres, anjuman, ishlab chiqarish seminarlari, stanoklarining Yangi texnologik linyalarini ishga tushirish, xalqaro ko‘rgazmalar, shartnomalarni imzolash ishlari amalga oshiriladi. Ushbu turizmga umumiy turistlar oqimining 10-20 foizi to‘g‘ri keladi.

Ilmiy turizm. Bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga o‘qish, ta`lim olish, malakasini oshirish, anjumanlarda ishtirok etish uchun amalga oshiriladigan tashriflar ilmiy turizm deb ataladi. Turizmning ushbu turi Yevropa davlatlari, AQSH, Yaponiya, Xitoy kabi davlatlarda rivojlangan.

Sport turizmi. Turizmning Ushbu turi sportchilarning turli musobaqalarda qatnashishi, ma’lum sport turi bo‘yicha tayyorgarlik ko‘rish uchun joy mamlakatlarga borishidir.

Shop turizmi. Xorijiy mamlakatlarga har xil tovarlar sotib olishi tushuniladi. Jumladan, turistlar Turkiya, Italiya, Portugaliya va Suriyaga poyafzal, trikotaj va boshqa tovarlar sotib olish uchun borsa, Hindistonga to‘qimachilik mahsulotlarini sotib olish uchun Gretsiya va Argentinaga mo‘yna, po‘stin sotib olish uchun borishadi. Turizmning ushbu turi hisobiga tovar sotuvchi mamlakatlar katta foyda oladilar. Jumladan, Turkiya turistlarga tovar sotish evaziga yiliga 8-10 mlrd dollar foyda oladi.

Tasodiflar turizmi. Turizmning ushbu turi yovvoyi hayvonlarni ov qilish, baliq ovlash, qadimgi boyliklarni izlab topishga qaratilgan

ishlarni amalga oshiradi. Tasoddiflar turizmi quyidagi turlarga bo‘linadi.

a) piyoda sarguzasht izlab chiqish;

b) ovga chiqish (ov qilish, baliq ovlash, kapalak tutish);

v) dengizda elkanli kemada suzish.

Turizmning bunday turi ko‘p hollarda guruhlar asosida amalga oshiriladi. Turizmning bu turi uchun maxsus ruxsatnomalar sotib olinadi. Bundan tashqari, turizmning bu kishi hayoti uchun havfli bo‘lganligi sababli malakali instruktorlar jalb qiladi. Tasodiflar turizmi juda qimmatga tushadi. Shu sababli uni “elletar” dam olish turiga kiritiladi.

Diniy ziyorat qilish turizmi. Turizmning ushbu turi aholi o‘rtasida keng tarqalgan. Ziyorat qilish turizmi bir nechta turlarga bo‘linadi:

a) muqaddas joylarni ziyorat qilish;

b) muqaddas joylarni ko‘rish, ularning tarixi, madaniyatini o‘rganish;

v) ilmiy safar diniy tadqiqotlar bilan shug‘ullanuvchilarning muqaddas joylarga borishi.

Turizmning bu turi uchun eng muhim muammolaridan biri yuqori malakali gidlarni tayyorlash hisoblanadi.

Qumsash (nostalgik) turizmi. Turizmning ushbu turida sayohatchilar o‘zlarining tug‘ilib o‘sgan joylarini borib ko‘radilar. Turizmning bu turi xalqaro turizmda muhim rol o‘ynaydi.

Ekoturizm. Atrof-muhitni muhofoza qilishga qaratilgan turizmdir. Ekoturizm turistlarni tabiat quchog‘iga olib chiqishdan tashqari, milliy bog‘lar, qo‘riqxonalar tuzishgacha bo‘lgan muammolarni o‘z ichiga oladi. Ekoturizm-tabiatga nisbatan g`amxo`rlik, yumshoq munosatda bo`lish va muhofaza qilish, tiklashning asosidir.

Ekzotik (antiqa) turizmi keyingi yillarda tarkib topa boshladi. Jumladan, Gretsiyaning «Manos Treval» turistik firmasi oyiga sayohat qilishni rejalashtirmoqda. Fransiyaning «Ajara» turistik firmasi muzyorar kemada Antarktida va Arktikaga sayohat qilishni rejalashtirmoqda. Antarktidaga bunday turistik sayohat 1989 yilda tashkil qilingan edi.

1997 yilda Antarktidaga 10 mingga yaqin 9 ming dollardan 16 ming dollargacha safar xarajatlarini to‘laganlar. Ayrim turistlar suv ostiga sayr qilishni yaxshi ko‘radilar. 1996 yilda dengiz va okeanlar tagiga sayr qilgan sayyohatlar 2 mln.dan oshadi. Suv ostiga sayr qilishni tashkil qilish evaziga firmalar tomonidan 147 mln dollar foyda olindi. Keyingi yillarda turistik firmalarga daromad keltiradigan turizm turlaridan bir kelin-kiyovlar sayohati hisoblanadi. Jumladan, Buyuk Britaniyaning «Tompson xoldeyz» turistik kompaniyasi yiliga 5 ming kelin-kiyovlar uchun chipta sotadi. Tajribalar shuni ko‘rsatadika, ko‘pchilik kelin-kiyovlar Karib dengizi havzasi, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari, Italiya, AQSHda o‘zlarining asal oyini o‘tkazishini yaxshi ko‘radilar.

Ijtimoiy rag‘batlantirish turizmi. Ushbu turizm davlat tomonidan aholining ma’lum qatlami uchun ijtimoiy yordam sifatida ajratilgan mablag‘ hisobiga amalga oshiriladi. Turizmning ushbu turi evaziga daromadi kam kishilarning dam olishi uchun imkoniyat yaratiladi.

Tashkiliy turizm. Yakka holda yoki guruh holda turistik tashkilotlar tomonidan uyushtiriladi. Bunday turistlar turistik yo‘llanmalarga ega bo‘ladilar.

2.3. Turistik marshrut va ularning turlari

Ma’lumki, har qanday turistik faoliyat tanlashgan marshrut asosida ma’lum bir maqsad, vaqt va yo‘nalishda amalga oshiriladi. M.B.Birjakovning fikricha, - turistik marshrut bu geografik ob’ektlarga turli maqsadlarda, yo‘nalishlarda xarakatlanadigan sayohatdir.

Odatda turistik marshrutlar oldindan rejalashtirilgan yo‘l, trassa bo‘yicha turistlarning ma’lum vaqt davomidagi xarakat davomiyligi hisoblanib, tuzilgan marshrut dasturi bo‘yicha xarakatlanishi nazarda tutiladi va ekskursovod tomonidan olib boriladi. Turistik marshrut- bu turistik xizmatlarning bir turi sifatida taklif etiladigan turmaxsulot sifatida taklif etiladi. Turistik-ekskursiya marshrutlari oldindan majmuali xizmatlarni qamrab oladi.

Turistik marshrutlar yo‘nalishiga ko‘ra to‘g‘ri chiziqli, aylana, radial va kombinatlashgan tipiga bo‘linadi.

To‘g‘ri chiziqli marshrut – bu tip marshruti to‘g‘ri xarakatlanish bo‘lib, marshrut davomida geografik ob’ektlarda turli turistik resurslar bilan tanishishidir.



3-chizma. Turistik marshrut turi

A – To‘g‘ri chiziqli tip marshruti
B – Aylana tip marshruti
V – Radial yo`nalishli tip marshruti
G – Kombinatlashgan tip marshruti
N – Marshrutning boshlanish nuqtasi

K – Marshrutning ohirgi nuqtasi
PP 1-4 – Oraliq marshrut nuqtasi

Bu marshrut yakunida sayyoh to‘g‘ri marshrut bo‘yicha dastlabki joyiga qaytishi kuzatiladi.

Radial yo`nalishli marshrut- bu shunday marshrut tipii hisoblanadiki, turistning xarakatlanishi davomida turistik resursda bo‘lishi va qaytishi va boshqa yo‘l orqali ikkinchi, uchinchi va hakozo ob’ektlarga birinchi chiqqan joyiga qaytib yana qayta yangi yo‘lga chiqishiga imkon beruvchi marshrut tipi hisoblanadi. Masalan, turist Toshkent shahriga marshrutiga chiqadi va u erda 2 kun davomida sayohatni amalga oshiradi. Mexmonxonada turib, marshrutni Bildirosoyga 1 kun, yana qaytib mexmonxonaga keladi 2 kun esa Bo‘stonliqqa boradi va yana Toshkent shahridagi mexmonxonaga qaytishi tushiniladi.

Aylana marshrut – o‘z nomi bilan tanlangan joydan yoki destinatsiyadan turli ob’ektlarda aylana xarakati tushuniladi. Masalan, tur «Amerika» (Nyu-York – Vashington – Atlantik-Siti – Filadelfiya – Nyu-York).

Kombinatlashgan marshrut – bu tipda barcha marshrut ko‘rinishlari mujassamlashadi.

3-jadval

Joylashuv vositalari bo‘yicha mehmonxona turlari

Mehmonxonalarning xili	**Tavsifi**
Otel-lyuks	O‘z sig‘imi bo‘yicha mehmonxonani mazkur tipi kichik yoki o‘rta korxonalar safiga kiradi. Odatda shahar markazida joylashadi. YAxshigina ta’lim olgan personal-xodim konferensiya, xizmat uchrashuvlari ishtirokchilari biznesmenlar bo‘lib hisoblangan talabchan mijozlarga servisni juda yuqori darajasini ta’minlaydi. Barcha mumkin bo‘lgan xizmat turlarini o‘z ichiga oluvchi nomerlarni narxlari ancha qimmat turadi.
O‘rta (klass) bo‘g‘inli mehmonxona	O‘z sig‘imi bo‘yicha oteldan katta (400-200 o‘rinli) shahar markazida yoki shahar atrofida joylashgan. Etarli darajada keng xizmatlar turini taqdim etadi, ulardagi narxlar u joylashgan mintaqa darajasiga teng yoki undan bir muncha yuqoriroq bo‘lishi mumkin. Biznesmenlar,

	xususiy turistlar, kongress, konferensiya ishtirokchilarni va hakozolarni qabul qilishi mumkin.
Mehmonxona-apartament (apart-otel)	Sig‘imi bo‘yicha kichik yoki o‘rta o‘lchamli (400 o‘ringacha) yirik shaharning doimiy bo‘lmagan aholisi uchun xosdir. Vaqtinchalik turar joy sifatida ko‘p yillarda o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatishdan foydalaniladigan kvartira (ijara) tipidan tashkil topadi. Mehmonxonani mazkur tipida narxlar qoidaga ko‘ra joylashuv muddatiga bog‘liq ravishda (turlanib) turadi. Uzoq muddatga to‘xtab o‘tuvchi oilaviy turistlar, biznesmenlar va ijarachilarga xizmat ko‘rsatadi.
Iqtisodiy bo‘g‘in (klass) mehmonxonasi	Kichik yoki o‘rta sig‘imli korxonalar (150 o‘rinli va undan ortiq) magistral yo‘l yoqalarida joylashadi. Xizmatlar to‘plamini cheklanganligi, oddiy va tez xizmat ko‘rsatish bilan ajralib turadi. Iste’molchilari – ko‘rsatilgan (istie’mol qilingan) xizmatlar uchun haqiqiy to‘lovni amalga oshirishga intiluvchi va to‘liq pansionga muhtoj bo‘lmagan biznesmenlar, xususiy turistlar uchun mo‘ljallangan.
Otel-kurort	O‘z sig‘imi bo‘yicha mehmondorchilikni to‘liq xizmatlar to‘plamini taklif etish bilan ajralib turadigan korxona. Bundan tashqari, bu erda parhez taomlar va mahsus tibbiy xizmat ko‘rsatish kompleksini olish mumkin. Kurort mintaqalarida joylashadi.
Motel	SHahar tashqarisida, shahar bo‘yida, magistral yo‘l yoqalarida joylashgan oddiy bir yoki ikki qavatli binolar. Bu kichik yoki o‘rta korxonalardir (400 o‘ringacha). Kam sonli xodimlarni o‘rta darajali xizmat ko‘rsatishi harakterlidir. Mijozlari bo‘lib havaskor avtoturizmiga urg‘u berilgan turli kategoriyadagi turistlar hisoblanadi.
«Tunash va nonushta» xilidagi xususiy mehmonxona	AQSHda keng tarqalgan. Bu mehmonxona kichik (ba’zida o‘rta) sig‘imli. SHahar atrofida yoki qishloq joylarda joylashgan. Xizmat ko‘rsatishga, qoidaga ko‘ra, nonushta va uy sharoitidagi engil tamaddi kiradi. Mijozlari bo‘lib uy sharoitiga intiladigan tijoratchilar va yo‘nalishdagi turistlar hisoblanadi.
Otel-garni	Mijozlarga cheklangan miqdordagi xizmatlarni: joylashuv va kontinental nonushtani taqdim etuvchi korxonalar.
Pansion	Xizmatlar darjasini cheklanganligi va oddiy standartli korxonalardir. Otel-garnilardan farqli ravishda bu erda nonushta, tushlik va kechki ovqat (to‘liq pansion) taqdim etiladi. Biroq ovqatlanish xizmati faqat mijozlargagina ko‘rsatiladi.

Mehmonxona-hovli	Otellardan sig‘imi, xizmat ko‘rsatishi, sodda standartligi bilan ajralib turuvchi korxona, uchrashuvlar va mehmonlar tashrifi uchun qator jamoa xonalarini mavjud emasligi bilan ajralib turadi. Mehmonxona-hovli tarkibi (strukturasi)da restoran yoki barni mavjud bo‘lishi majburiydir.
Rotel	Tunash uchun mo‘ljallangan kreslolar joylashtirilgan bir yoki ikki o‘rinli vagonlardan tashkil topuvchi harakatlanadigan mehmonxonadir. Xojatxona, oshxona, muzlatgich va keyinish uchun mo‘ljallangan xonalar mavjud.
Botel	Mos ravishdagi jihozlangan kichik kema sifatida foydalanuvchi suvdagi uncha kata bo‘lmagan mehmonxona.
Flotel	Ko‘p hollarda «suvdagi kurort» deb nomlanuvchi katta mehmonxona. Turistlarga keng turdagi xizmatlarni taqdim etuvchi shinam nomerlar: basseyn, suv chang‘ilari, baliq ovlash uchun sharoit yaratadigan, suv ostida suzish, suv osti ovi, trenajer zallari, konferensiya va kongresslar uchun zallar, kutubxona, turli-tuman ta’minotlar (telefon, telefaks, teletayn, televizor, va x.k). So‘nggi vaqtlarda turlarga o‘qituvchi kongress-kruizlar, kongress-turlar, biznes-turlarni tashkil etish uchun foydalaniladi.
Flaytel	Agromehmonxona yoki «uchuvchi otel». Favqulodda qimmat va mehmonxonani kamyob turi hisoblanadi. Qo‘nish maydonchasi va meteorologik xizmat aloqalari bilan jihozlangan.

2.4.Ekologik turizmning ba’zi bir nazariy masalalari

Ma’lumki, turizm va uning tarmoqlarini tadqiq etish masalasida turlicha yondoshuvlar va qarashlar mavjud. Ayniqsa ekoturizm yoki ekologik turizmning nazariy va amaliy masalalarida, uning tadqiqot ob’ekti va predmeti masalalarida «vertikal» va «gorizontal» holatda qarashlar mavjuddir.

Ekoturizm va sayyoraning tabiatini saqlab qolish va muhofaza qilishga bag‘ishlangan tadqiqotlar xalqaro miqyosda kuchayib bormoqda. Ushbu yo‘nalishda birgina 2016 yilda 450 dan ortiq

ilmiy maqolalar xalqaro miqyosda tan olingan nashriyotlarda chop qilindi.

Insoniyat oldidagi global ekologik muammolar yechimining eng maqbul yo‘llaridan biri-ekanligini his qilgan holda BMT 2002 yilni «xalqaro ekologik turizm» yili deb e’lon qildi. Hozirga kelib ekologik turizm xalqaro hamjamiyatda sayyoramiz tabiatini saklash va muhofaza qilishda kutilgan va kutilayotgan natijalarni bermoqda, deb e’tirof etmoqda.

Shuni qayd etish lozimki, ekologik turizmning mazmuni va va mohiyati bo‘yicha birinchi bo‘lib meksikalik ekolog-iqtisodchi **Gektor Seballos Laskureyn** 1980 yilda o‘z tadqiqotlari natijalarini bildirgan va «ekologik turizm» terminini fanga kiritgan. U - «Ekologik turizm - bu flora va faunani o‘rganish va tabiat bilan tanishish, dam olish quvonchini va tabiatga yordam berish imkoniyatlarini bildirishga asoslangan sayohatdir»- deb ta’riflaydi. 1997 yilda G.S.Gujin, M.YU.Belikov, E.V.Klimenkolar Rossiyada birinchilardan bo‘lib - «Ekologik turizmning asosi - atrof-muhit g‘amxo‘rligi va muhofazasidir» degan taklifni beradi. Ko‘pchilik tadqiqotchilar bu eng qulay va ekoturizmning xaqiqiy mazmuni, mohiyatini anglatadi, degan fikrni ilgari surmoqda. Bundan tashqari, hozirgi kunda ham ko‘pchilik olimlar ekoturizm tushunchasi va mohiyatini ochib berishda o‘z fikr va mulohazalarini ilgari surmoqdalar. Bular quyidagilar:

M.B.Birjakov - «Ekologik turizmda tabiatga minimum ta’sir qilib tabiat bilan birga bo‘lish natijasida uning boyliklarini muhofaza qilish, asrab qolish tuyg‘ulari hosil bo‘ladi», degan fikrni beradi.

Mashhur geograf **A.V.Drozdov** - «Eski va Yangi dunyoda bir vaqtning o‘zida mahalliy aholining an’anaviy madaniyatini xurmat qilishga, sayohatchilarning ijtimoiy va ekologik talablarini qondirishga va sayyoraviy ekologik inqirozning oldini olishga asoslangan ekoturizm shakllandi», degan fikrni ilgari suradi.

T.S.Sergeeva - «Ekoturizm - bu mahalliy aholining an’anaviy hayoti tarzi saqlanib qolgan, xo‘jalik faoliyat ta’siri sezilmagan noyob tabiiy hududlarga sayohat», deb hisobladi. Uning fikricha, ekologik tur va dasturda tabiatni muhofaza qilish me’yor va

texnologiyalariga rioya qilgan holda turistik jarayondagi barcha qatnashchilarning ekologik madaniyatini va mahalliy aholining hayotiy darajalarini oshiradi».

XX asr oxirlariga kelib AQSH, Kanada, Yevropa davlatlari va Avstraliyada ekologik turizmni rivojlantirish davlat dasturlarini ishlab chiqildi. Bu dasturlarda ekologik turizmni rivojlantirish shiorlari va talablari ishlab chiqildi. Jumladan, **AQSH ekoturizm jamiyati** - «ekoturizm -mahalliy aholi manfaatlarini e'tiborga oluvchi, tabiiy resurslarni muhofaza qiluvchi, ekotizimlarning butunligini saqlovchi, mahalliy madaniyat va tabiiy muhitni anglash uchun tabiiy hududlarga maqsadli sayohat»dir, deb hisoblaydi. **Avstraliya ekoturizm milliy strategiyasi** -«ekoturizm - ekologik barkarorlik prinsiplariga va ekologik bilim, madaniyat dasturlariga amal qilishga asoslangan va mahalliy aholi manfaatlarini hisobga olgan holda tabiatga sayohat qilish turizmi» degan xulosani beradi.

Germaniyada ekoturizmni rivojlantirishda moliyaviy xamkorlik Federal vazirligi - «ekologik turizmda tabiatga minimum ta'sir qilish xissi, madaniyati va tuyg'usi paydo bo'ladi, qo'riqdanadigan hududlarga moliyaviy yordam imkoniyatlari va mahalliy aholida qo'shimcha daromad olish manbalari hosil bo'ladi» degan fikrni ilgari suradi.

Ekoturizm jadal rivojlantirilayotgan davlatlarning ekoturizm dasturlari asosida xalqaro tabiat va turizm tashkilotlari ham ekoturizmning ta'riflarini qabul qilishdi. Jumladan, **Butunjahon turizm tashkiloti** - «Ekoturizm- tabiat turizmining barchasini o'zida mujassamlashtirib, tabiiy hududlarga ma'suliyat bilan sayohat qilish natijasida tabiatni muhofaza qilishni ta'minlaydi va mahalliy xalqning turmush darajasini yaxshilaydi», deb hisoblaydi.

O`zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish «Konsepsiyasi»da - «ekoturizm deganda nafakat ma'rifiy-ma'naviy maqsadlarni ko'zlagan ekzotik tabiiy hududlarga, ularning hayvonot va o'simlik dunyosiga sayohat, balki ijtimoiy-iqtisodiy masalalarning amalga oshirilishi yordamida ekologiya muammolarini xal qilish bilan bir-biriga bog'liq majmualar yig'indisini tushuniladi», degan ilmiy xulosani beradi.

Xalqaro turizm jamiyati (XTJ) - «Tabiiy hududlarga ma’suliyat bilan sayohat qilish natijasida tabiatni muhofaza etishni ta’minlaydi va mahalliy xalqning turmush darajasini yaxshilaydi», degan g‘oyani ilgari suradi.

Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi - «Ekologik turizm yoki ekoturizm - tabiat muhitiga nisbatan ma’suliyat bilan sayohat qilish, tabiat hududlariga ziyon etkazmagan holda, hamda tabiatning betakror, jalb etuvchi joylaridan zavq olish maqsadida tabiatni muhofaza qilgan holda tabiat rivojiga ko‘maklashadi, atrof-muhitga katta yuk bermaydi. Mahalliy xalqning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitini faollashtiradi va shu faoliyatdan ularning imtiyozlar olishini ta’minlaydi», deb hisoblaydi.

Ekoturizmning mohiyati va mazmuni haqida «Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi», «Xalqaro turizm jamiyati», «Yovvoyi tabiat umumjahon jamg‘armasi» va boshqa ko‘plab xalqaro tashkilotlar Butunjahon turizm tashkilotining ekoturizm haqidagi ta’rifini qabul qilishdi.

Yuqorida ekoturizmning ob’ekti va predmeti to‘g‘risidagi ta’riflardan ko‘rinib turibdiki, ekologik turizm o‘tgan asrning ohirlaridan boshlab jahon turizmi industriyasiga asta-sekinlik bilan kirib keldi. Hozirgi kunga kelib, ekoturizm jahonda jadal sur’atlarda rivojlanib borayotgan iqtisodiyot sohalaridan biriga aylandi. O`zbekistonda ekoturizmning rivojlanishi, nafaqat ma’naviy, ilm-fan, madaniyat, ma’rifat tabiatni muhofaza qilish, ekoturistlarni tabiatimizga jalb etish, noyob hayvonot olamini saqlash va ko‘paytirish muammolarni hal qilishga, balki shu bilan birga iqtisodiy masalalarni-mahalliy xalqning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitini yaxshilash, ularni yangi ish joylari bilan ta’minlash hamda vatanimizning iqtisodiyotini o‘sishiga katta xissa qo‘shadi. O`zbekiston Markaziy Osiyo davlatlarining o‘rtasida, ekoturizmning rivojlanishi uchun qulay bo‘lgan transport chorraxasida joylashganligi ham ekologik turizmni rivojlantirishda ko‘plab salohiyatli imkoniyatlarni yaratadi.

Ekoturizm tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish xorijiy sayyohlarni landshaft, hayvonot va nabobat dunyosiga boy va betakror tabiati bilan tanishtirish, xalqlar o‘rtasida do‘stlik

rishtalarini bog‘lash, mamlakatlar va turli xalqlarning bir-birini atroflicha bilishga imkon beradi. Shu bilan birga O`zbekiston hududida yo‘qolib ketish arafasida turgan noyob hayvonot va nabobat dunyosini saqlash va ko‘paytirish maqsadlarida qo‘riqxonalar tarkibida va atrofida jahon talablariga javob beriladigan milliy tabiiy bog‘larni yaratish loyihalarini ishlab chiqish, ularni amalga oshirish orqali muhofaza qilinadigan hududlarda ekoturizm ob’ektlarining moddiy-texnika bazasini yaratish uchun «Davlat ekoturizm dastur»larini ishlab chiqish zarur bo‘ladi.

Dunyo hamjamiyatiga xizmat qiluvchi yuqoridagi xalqaro markazlarning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlari har xil bo‘lsada, ekoturizmning o‘rnini belgilashdagi xulosalari deyarli bir xil. Chunki, ekoturizmni targ‘ib qilayotgan tashkilotlarning ish tartibi, maqsadlari doimo biri-birini to‘ldiradi. Dastlabki ikki xalqaro jamiyat tabiatdan turistik maqsadlarda foydalanish tarafdori, keyingi xalqaro tashkilot esa tabiatni muhofaza qilish bilan mashg‘ul.

Bu xalqaro tashkilotlar ekoturizmni bir xil ma’noda ta’riflar ekan ekoturizmda tabiat ham muhofaza qilinadi ham uning resurslaridan inson foydalanadi. Ekoturizmning xaqiqiy muxlislari o‘zining yangi tabiat go‘shalariga sayohati vaqtida «tabiat - jamiyat do‘stligi, bardamligi» munosabatlarini ko‘rishni xoxlaydi». Umumiy fikrlarni jamlab tahlil qilganimizda ekoturizm tabiat qo‘ynida bo‘lishdir. Ekoturizm bilan tabiatshunoslik va tabiatni muhofaza qilishning qo‘shilib ketgani ekoturizmni rivojlantirishga ilmiy-amaliy me’yorlardan ko‘proq e’tibor berilayotganligidadir, deb tushunish to‘g‘ri bo‘ladi.

O`zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov Singapur Respublikasiga Davlat tashrifi arafasida shu mamlakatning markaziy nashrlaridan biri muxbirining savollariga bergan javoblarida O`zbekistonda ekologik turizmning katta salohiyatga ega ekanligini ta’kidlagan holda, bu yo‘nalishda olib borilayotgan ishlar xaqida quyidagilarni keltiradi - **«Go‘zal geografik va tabiiy sharoitlar O`zbekiston Respublikasi xududida ekologik turizmni rivojlantirish uchun g‘oyat qulaydir. Bu borada mamlakatning tog‘li hududlarida**

joylashgan, zamonaviy jihozlangan sayyohlik majmualarida qishki va noyob sayyohlik dasturlari tashkil etilgan. Sayyohlikning yangi yo‘nalishi - yirik qo‘riqxonalar va bog‘lar hududida tashkil etilgan tabiatshunoslik turizmi rivojlanmokda.»

Demak, xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, mamlakatimizda ekologik turizmning nazariy va amaliy masalalari turli yo‘nalishda va turli yondoshuvda tadqiq etilgan. Bu esa o‘lkamizda ushbu yo‘nalishini rivojlantirish uchun imkoniyatlar to‘lig‘icha yetarli ekanligidan dalolat beradi.

Nazorat savollari:

1.Turizmning umumiy xususiyatlari va funksiyalariga ko`ra qanday tiplarga ajratiladi?
2.Turizmning turlari va ko`rinishlari, jumladan tashkiliy asoslari necha turga bo`linadi?
3.Turizmning hududiy jihatdan necha bo`limi mavjud?
4.Kurort so`zining ma`nosini tushuntiring?
5.Turistik resurslar maqsad va vazifalariga ko`ra necha turlarni o`z ichiga oladi?
6.Rekreatsiya so`zi ma`nosini tushuntiring?
7.Turizm klassifikatsiyasining belgilarini ayting?
8.Turizmning tashkiliy va ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini ayting?
9.Turistik sayohatdan maqsad nimalardan iborat?
10.Turistik marshrut necha tipga bo`linadi?
11.Joylashtirish vositalarining turlarini ayting?
12.Ekologik turizm terminini kim va qachon kiritgan?

Foydalangan adabiyotlar:

1. Александрова А.Ю. География туризма.-Москва,2010
2. Яковлев.Г.А Экономика и статистика туризма. –Москва, 2005
3. Забелина Н.М. Национальный парк.-Москва, Мысл, 2010
4.Хайитбоев Р., Матякубов У. Экологик туризм. - Самарқанд,2010.

5. Шарафиддинова Д.Экологик туризмни ривожлантиришда халқаро технологияларнинг моҳияти ва тавсифи //Республика илмий анжумани материаллари.- Самарқанд, 2014.
6.Солиев А.С., Усмонов М. Туризм географияси.-Самарқанд, 2005
7.Тухлиев И ва бошқалар Туризм: назария ва амалиёт. Дарслик Т-2010
8.Усмонов М.Р., Жумабоев Т.Ж., Шерхолов О. Туризм географияси 1-2 қисм.-Самарқанд, 2013
9.Ердавлетов С.Р География туризма: история, теория, методы, практика - Алматы. 2000 - 336 с.
10.Зачиняев. П.Н., Фалькович Н.С. География международного туризма. - М.: Мысль, 1972. -303 с.
11.Окладникова Е.А. Международный туризм. География туристских ресурсов мира: Учебное пособие –М., СПб.: ИФК Омега –Л; 2002. –384 с.

3-BOB.TURIZMNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Reja:

3.1. Tabiiy geografik omillar
3.2. Iqtisodiy geografik omillar
3.3. Ijtimoiy-demografik omillar

3.1. Tabiiy geografik omillar

Turizmni rivojlantirish albatta bir qancha omillar natijasida rivojlanadi. Xususan bu omillarga tabiiy, madaniy-tarixiy, demografik, ilmiy-texnik rivojlanish va boshqa turizm industriyasini hududiy tashkil etish va rivojlantirishda ahamiyatlidir. Bu omillar ichida geografik omillarning roli, xususan hudud tabiiy sharoiti, jumladan iqlimi, suvlari, rel`efi, fauna va florasi turizmni rivojlantirishdagi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu omillar asosida tog‘ turizmi, aplinizm, skoloturizm, speloturizm, plyaj turizmi, serfing, dayving, safari, rafting, cho‘l, arktika va ekologik va boshqa yuzlab turizm turlarining shakllanishiga asos bo‘ladi.

Dunyoda ko‘pgina hududlar o‘zining sog‘lomlashtirish xususiyatlari, xususan, iqlimining o‘ziga xosligi, mineral suvlari, balchiqlari rekreatsiya turizmini rivojlantirish uchun omil yaratgan.

O‘z navbatida, geografik omillarni ikki guruhga bo‘lish keng tus olgan. Bular:- *tabiiy geografik omillar;-iqtisodiy geografik omillar*. Mintaqalarda xalqaro turizmni rivojlanishiga tabiiy sharoitning katta ta’siri bor. Hozirgi jamiyatimizning o‘ta sanoatlashib borishi tufayli, insonlarning yovvoyi tabiatga bo‘lgan qiziqishi ortib bormoqda. Tabiiy geografik omillar ko‘pgina jihatlar bilan baholanadi (Ibodullaev, 2008).

Iqlim, turizmni davriyligiga ta’sir ko‘rsatib, ayrim sohil bo‘yi dam olish joylari yil bo‘yi issiq iqlimga ega ekanligi (misol tariqasida Mavrikiy orollarini ko‘rsatish mumkin) tufayli, uzluksiz turistlar bilan gavjum bo‘lishiga olib kelgan. Tabiiy iqlim sharoiti turizm harakatini mavsumiy xarakterga aylantiruvchi asosiy omil bo‘lib hisoblanadi. Tabiatda ob-havoning o‘zgarishi, tabiiy ofatlarning tez-tez takrorlanish hodisalari, tabiat injiqliklari turistlar oqimining keskin kamayishiga sababchi bo‘ladi. Shu sababli

turizmning eng rivojlangan mintaqalari yer sharining mutadil iqlim zonalariga to‘g‘ri keladi. Jumladan, O‘rta dengizi, Qora dengiz, Karib dengizi, Adriatika dengizi, Boltiq dengizi, Yapon dengizi, Janubiy Xitoy dengizi qirg‘oqlarida joylashgan mamlakatlarda turizm xalqaro ahamiyatga ega.

O‘simlik va hayvonot olami ham katta qiziqish uyg‘otuvchi omildir. O‘rmonlar dam oluvchi va tabiat qo‘yniga sayr qiluvchi sayyohlarni o‘ziga tortadi. O‘rmon o‘zining kislorodga boy zahirasi bilan, sog‘ligini tiklovchilar uchun muhim turistik obekt hisoblanadi. Shu bois, botanika bog‘lari, turli oromgohlar, milliy bog‘lar sayyohlarning gavjum joylari hisoblanadi. Xorijiy sayyohlarni o‘ziga ko‘proq jalb qiluvchi omillardan biri - bu ekzotik (g‘alati, ajoyib) hayvonlar yashaydigan joylar qo‘riqxonalar, davlat buyurtmalari, milliy bog‘lar, ov qilish uchun ajratilgan maxsus hududlardir. Bunday hayvonot va o‘simlik dunyosining markazlari yuzdan ortiq bo‘lib, Afrika, Osiyo, Yevropa, Avstraliya, Amerika (AQSH, Kanada) ning sayyohat qilish mintaqalari va hududlari hisoblanadi.

Suv resurslari hisoblangan okean va dengizlar, daryolar, ko‘llar ham katta turistik imkoniyatlarga ega. Keyingi paytlarda dunyo okeani bo‘ylab sayohatga chiquvchilar soni oshmoqda. Daryo va ko‘llar ham o‘ziga xos mikroiqlim xususiyatlariga ega bo‘lib, kishilarning asosan mavsumiy dam olishi, suv sporti, baliq tutishi uchun obekt vazifasini bajaradi. Shuning uchun hozirgi paytda ko‘plab dam olish uylari ushbu turistik ob`ektlarga qurilmoqda. Okean va dengiz suvlarining cho‘milishi uchun qo‘lay bo‘lgan qirg‘oqlari tarkibiga quyidagi elementlar kiradi. Mikroiqlim, dengiz va okean suvlarining quruqlikka tutash bo‘lgan joylarida suvning harorati, chuqurligi, suv to‘lqinlari, ko‘tarilishi, qaytishi, oqimlar, suvning shifobaxshligi, tozaligi, tiniqligi, dengiz suvi tagining relefi, suvdagi yirtqich qonxo‘r baliqlar (akula) va hayvonlarning bor-yo‘qligi h.k., qirg‘oq chiziqlarining tuzilishi, plyajlardagi qumlar va yotqiziqlarning sifati, rangi, shakllari va qolaversa bir qator omillar ta’sir etadi.

Rel`ef ikki xil ta’sir ko‘rsatuvchi xarakterga ega bo‘lib, uning noqo‘layligi tufayli transport tarmoqlarini rivojlantirishga

qiyinchilik to‘g‘diradi va turizm infratuzilmasini to‘liq shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ikkinchi tomondan, tog‘li hududlar asosiy rekreatsiya resurslaridan biri bo‘lib xizmat qiladi. Tog‘li, xush manzarali, murakkab rel`ef tuzilishiga ega bo‘lgan o‘lkalar turistlar oqimini o‘ziga ko‘proq jalb qilishadi. Murakkab tog‘ rel’efi landshafti estetik jihatdan tekislik, yassi hududlarga nisbatan turistlarni ko‘proq jalb etish imkoniyatiga ega. Tog‘li o‘lkalar o‘zining toza va sof havosi bilan ajralib, tog‘ sportini rivojlantirish imkonini tug‘diradi. Shveysariya, Fransiya, Avstriya, Germaniya, Italiya, Chexiya mamlakatlarida joylashgan dunyoga mashhur Alp sayyohlik kurortlari bunga tasdiq bo‘ladi.

3.2. Iqtisodiy geografik omillar

Iqtisodiy geografik omillarga turizmning moddiy texnika bazasi, ya’ni mehmonxonalar fondi, umumiy ovqatlanish korxonalari (restoran tarmoqlari), sport inshootlari, tomosha va sayr qilish, dam olish, bir qator servis xizmati ko‘rsatish obektlari ichki va tashqi kommunikasiya tarmoqlari avtomobil, temiryo‘l, havo yo‘llari, dengiz va daryo transporti, aloqa vositalari, internet tarmog‘i kiradi. Iqtisodiy geografik omillar mavjud resurslardan unumli foydalanishga ta’sir ko‘rsatib, o‘z navbatida quyidagilar orqali aniqlanadi:

- turstlarni qabul qiluvchi mamlakatlar, mintaqalar, hududlarning iqtisodiy geografik o‘rni, joylanishi;
- sayyohlarni qabul qiluvchi mamlakat (mintaqa, rayon)ning umumiqtisodiy
darajasi;
- ichki turizmni rivojlanish darajasi;
- urbanizatsiya darajasi;
- turistlarni qabul qiluvchi mamlakatlarning mehnat resurslari bilan ta’minlanish darajasi (malakali kadrlarning soni, ularning tayyorgarlik darajasi);
- ma’lum bir hududda rekreatsion resurslarning qiymati, transport xizmatlari turi, oziq-ovqat mahsulotlarning narxi, mehmonxonalarda joylashish narxlari (xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini saviyasi);

- transport, aloqa vositalarining hududda tutgan o‘rin va holati bilan xarakterlanadi.

Yuqoridagilarning har biri o‘ziga xos ahamiyatga ega. Misol uchun, iqtisodiy geografik o‘rnini qulayligi, mintaqaning asosiy turistik bozorlar, dunyo transport tarmoqlariga nisbatan qulay joylashganligini bildirib, shu mintaqa turizmini rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Xalqaro turizmni rivojlantirishda mamlakat va hududning *geografik o‘rni* ya’ni uning dengiz va okeanga yaqinligi, qirg‘oq chiziqlarining xususiyati, turli xil suv, avtomobil va temir yo‘llar bilan kesishish joyi, tog‘li va o‘rmon manzarali joylarga yaqinligi, ular bilan ta’minlanganlik darajasiga ham bog‘liq bo‘ladi. Xalqaro turizmning rivojlanishida madaniy-tarixiy shart-sharoitlar, etnik shart-sharoitlar bilan qo`shilib ketadi. Arxitektura ob`ektlari, muzeylar, rasmlar galereyasi, mahalliy musavvirlar ishlari, tarixiy yodgorlik va obidalari ham xorijiy turistlarni o‘ziga jalb qiladilar. Tarixiy yodgorliklar va boshqa xalqlar madaniyatiga qiziqish xalqaro turizmning eng muhim extiyojlaridan biridir.

Davr mobaynida o‘zgaruvchanlikka ega omillarga *siyosiy, ijtimoiy-demografik, moliyaviy-iqtisodiy va texnikaviy* omillar kiradi. Turistik biznesni rivojlantirishda, mamlakatdagi siyosiy vaziyatning qay ahvolda ekanligi katta ahamiyatga ega. Chunki, xalqaro munosabatlarning rivojlanganligi, havfsizlik kafolati turizmni bir moramda rivojlanishiga olib keladi.

Ma’lumki, mamlakatdagi ichki vaziyatning qay darajada turg‘unligi ko‘p hollarda xalqaro turizm oqimining yo‘nalishini belgilaydi. Tabiiyki, davlatlararo turistlarni almashtirishda, mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro kelishuvchilik munosabatlari ham muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Odatdagi diplomatik aloqalar, turizm sohasidagi kelishuvlar, shartnomalar, kommunikasiyalar va transport vositalaridan hamkorlikda foydalanish, turistik reklamalarni bir-birlari bilan almashtirish - bularning hammasi turizmning rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

3.3. Ijtimoiy-demografik omillar

Dunyo mamlakatlarida demografik jarayonlar (aholining tug‘ilishi, o‘limi, tabiiy ko‘payishi, aholi migrasiyasi kabilar) ham xalqaro turizm sohasining rivojlanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Yer sharining turli davlatlarida, hududlarida va mintaqalarida aholi sonining ko‘payib borishi, ayniqsa shahar aholisi aglomeratsiya doirasining borgan sari kengayib borishi kishilarning dam olishi va sayyohlikka chiqishni taqazo qiladi. Shu borada turizmning rivojlanishiga ta’sir etuvchi demografik omillarni quyidagicha ifodalash mumkin:

- dunyo xalqlaridagi bir-biriga o‘xshashlik bo‘lish umumiy tomonlari, ularning qiziqishlari h.k;
- ayrim malakaviy sohalaridagi kishilarning maxsus sayyohlik guruhda faol ishtirok etishning kuchayib borishi;
- turizm tarkibidagi xotin-qizlar va yoshlar salmog‘ining ortib borishi;
- xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan kurort va sanatoriyalar tarmog‘ining ko‘payib borishi, ularda davolanishga mail bo‘lgan kasallar sonining ortib borishi;
- kishilarning atrof muhitga bo‘lgan qarashlari, tushunchalari va munosabatlarning o‘zgarib borishi h.k.

Turizm rivojlanishiga, har bir davlatning ichki iqtisodiy imkoniyati, barcha iqtisodiyot tarmoqlarining integrasiyalashuvi muhim ahamiyatga ega. Bu o‘z navbatida aholini ishga doir harakatchanligini oshirib, xizmat turizmni rivojlantiradi. Odatda iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda xalq ommasining turmush farovonlik darajasi bir muncha yuqori bo‘lganligi sababli, turizm harakati ommaviy tusga egadir. Ya’ni buning asosiy sababi ishchilarning oylik ish haqi miqdori, ularning tatil paytida oladigan tatil pulining ko‘pligi, nafaqaxo‘rlarning nafaqa pulining yuqori bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Ijtimoiy-demografik omillar o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Turizm rivojlanishiga aholi sonining oshishi,

asosan shahar aholisining ko‘payishi ta’sir ko‘rsatadi. Psixologlarning fikricha, shaharcha hayot shaklida, aqliy mehnatning ko‘pligi, o‘ta sanoatlashish, yovvoyi tabiatdan ayriligi shahar aholisini sayyohlikka intilishini kuchaytiradi. Undan tashqari aholi o‘rtasida o‘rtacha umr uzunligini oshishi va tug‘ilishning nisbatan pasayishi kuzatilmoqda. Shuning uchun turizm industriyasini tashkillashtirishda yuqoridagi holatlarni e’tiborga olish lozim. Ya’ni qo‘shimcha medisina xizmati, parxez ovqatlar, madaniy marosimlar, sayr qilishlarni oshirishga e’tiborni qaratish muhim sanaladi. Yuqoridagi omillardan tashqari xalqaro turizmni rivojlanishiga tashqi va ichki omillar ta’sir ko‘rsatadi. Yuqorida qayd qilingan barcha omillar turizmni shakllanishi va rivojlanishiga o‘z ta’siriga ega. Shuning uchun bu omillarni tahlil qilish, ularning qaysi birlari asosiy ahamiyatga ega ekanligini aniqlab ish yuritish, o‘z navbatida turistik resurslardan samarali foydalanishimizga olib keladi.

Nazorat savollari:

1.Turizmni rivojlantirishga qaysi omillar muhim rol o`ynaydi?
2.Tabiiy turistik omillardan samarali foydalanayotgan etakchi mamlakatlarni ayting?
3.Iqtisodiy geografik omillardan qaysilari turizmni rivojlantirishda mihim rol o`ynaydi deb hisoblaysiz?
4.Turizmni rivojlantirishda mamlakatning joylashgan o`rni ahamiyati jihatidan birlamchi omil qaysi?
5.Ijtimoiy demografik omillar ta`sir e`tuvchi omillarni sanab bering?

Foydalangan adabiyotlar:

1.Александрова А.Ю. География туризма -Москва,2010
2.Ердавлетов С.Р География туризма: история, теория, методы, практика - Алматы. 2000 - 336 с.
3.Зачиняев. П.Н., Фалькович Н.С. География международного туризма. - М.: Мысль, 1972. -303 с.
4.Ибодуллаев Н. Ўзбекистоннинг туристик ресурслари.- Самарқанд, 2008

5.Солиев А.С., Усмонов М. Туризм географияси.-Самарқанд, 2005
6.Окладникова Е.А. Международный туризм. География туристских ресурсов мира: Учебное пособие –М., СПб.: ИФК Омега –Л; 2002. –384 с.

4-BOB.TURISTIK DESTINATSIYA

Reja:

4.1. Destinatsiya tushunchasi, turistik destinatsiya geografiyasining o‘rganish ob’ekti sifatida

4.2.Turistik destinatsiyaning predmeti va vazifalari

4.1. Destinatsiya tushunchasi, turistik destinatsiya geografiyasining o‘rganish ob’ekti sifatida

Ilmiy manbalarda taklif qilingan “destinatsiya” tushunchasining ta’riflari tahlil qilinib, uning muhim jihatlariga ko‘ra to‘rtta guruhga: hududiy, iqtisodiy, ijtimoiy, boshqaruvga ajratib o‘rganish mumkin. “Turistik destinatsiya” tushunchasining turli xilda izohlanish sabablari avvalo uning yordamida tavsiflanayotgan hodisalarning murakkabligi, dinamikligi va qarama-qarshiligidan iborat. Ko‘rinib turibdiki, hududiy jihat etakchi omil sifatida e’tirof etiladi. Shuning uchun ham hudud turistik salohiyati va imkoniyatini aniqlash bevosita turistik destinatsiyasini tadqiq etish geografik tadqiqotlarga tayanishi lozimdir.

“Destinatsiya” so‘zining ingliz tilidan tarjimasi – “Destination” – “joy, belgilangan joy, makon” ma’nosini anglatadi. “Turistik destinatsiya” termini Leyper tomonidan 1980 yillarning o‘rtasida kiritilgan. Hozirda destinatsiya – bu ma’lum chegaraga ega bo‘lgan, turistlar keng ko‘lamli guruhini jalb eta oladigan va ularning talablarini qondira oladigan geografik hudud hisoblanadi. Bugungi kunda iqtisodchi olimlar tomonidan turizm destinatsiya masalasida turlicha qarashlar va ta’riflar berilgan. Ammo bu tushuncha aynan geografik tadqiqotlarning ob’ekti sifatida geograf olimlar tomonidan chuqur o‘rganilmagan. Vaholanki, turistik destinatsiya - turizm geografiyasining muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri sifatida regionlar va mamlakatlardagi ma’lum bir jozibador manbaaga ega bo‘lgan hududlarni o‘rganadi. Shunday ekan destinatsiya turistik tizimning asosiy unsuri hisoblanadi. Shu sababli ham turli adabiyotlarda destinatsiya ma’lum bir chegaraga ega bo‘lgan geografik hudud sifatida talqin qilingan va ta’rif

berilgan. Jumladan N.S.Ibragimov fikriga ko‘ra, “Destination” atamasi “turistik manzil” iboralari bilan ifodalanadi.

Iqtisodchi olim Z.Raximov o‘zining tadqiqotlarida “Destinatsion” yondashuvning asosiy tayanch atamasi “destinatsiya” (turistik manzil) bo‘lganligi sababli, ushbu ilmiy tushunchani har tomonlama o‘rganib, quyidagi xulosalarga kelgan: ”destinatsiya” yoki “turistik manzil” iqtisodiy tushunchasi “destinatsion menejment” yoki “turistik manzil boshqaruvi”ning ob’ekti bo‘lib, sayyohning tashrif maqsadiga binoan shakllanadigan va sayohatni maqsadli amalga oshirishda barcha resurslarga ega bo‘lgan turistik hududlardir, deb ta’rif beradi. Unga ta’rif berishda talab va taklif tomonidan qarashlar mavjud. Jumladan, D.Piars, N.Leyper, U.Ziltener, U.Martini, G.Pechlaner kabi turizm sohasida izlanishlar olib borgan xorijiy olimlar talab nuqtai nazaridan yondashib, “destinatsiya”ga “sayyohni ma’lum joyga jalb qilishga qodir bo‘lgan mahsulotlar, xizmatlar, tabiiy va sun’iy jozibador omillar majmui” deb, ta’rif beradilar. M.Tamma, F.Brunetti kabi olimlar esa destinatsiyaga taklif tomonidan qarab, ma’lum hududga taalluqli tizim deb tushunib, uni “turistik mahsulot” va “turistik markaz” (kurortlar)dan farqlaydilar. Talab va taklif tomonidan qarashlarning umumiyligi shundaki, ularning har ikkalasi “destinatsiya”ning hududiy hamda mahsulot birligi ekanligini tan oladilar.

Destinatsiyaga bir tomonlama qarash, uning asl mohiyatini yoritish imkonini berolmaydi, chunki u iste’molchi va ishlab chiqaruvchilar say’-harakatlarining uyg‘unlashuvi natijasida shakllanadigan **mahsulot** hamda **hududiy birlikdir**. Shuning uchun “destinatsiya”ga talab va taklif uyg‘un birligi nuqtai nazaridan qarash kerak, deb ta’kidlab o‘tadi, Z.Raximov (2012), unga - “ma’lum geografik joylardagi strategik-tuzilmaviy shart-sharoitlardan bahramand bo‘lgan holda o‘z turistik ehtiyojlarini qondirishga mo‘ljallab sayyohning faoliyati natijasida shakllanadigan yagona turistik mahsulot” dir, deb ta’rif beradi. Destinatsiyalar ”destinatsion menejment”ning boshqaruv ob’ekti bo‘lib, uni M.Tamma quyidagicha ta’riflaydi – bu turistik ehtiyojni qondirishda qatnashadigan bir-biriga o‘xshash xizmatlarni

ko‘rsatuvchi korxonalar orasida yotiq ravishda (gorizontal) va xilma-xil xizmatlarni ko‘rsatadigan korxonalar orasida tik ravishda (vertikal) o‘rta-uzoq davr davom etadigan munosabatlarni o‘rnatish natijasida yagona integratsiyalashgan turistik mahsulot (destinatsiya)ni shakllantira oladigan turistik taklif tizimini (TTT) boshqarishdir.

4.2.Turistik destinatsiyaning predmet va vazifalari

Turizm multiplikativ samaraga ega bo‘lib, bir qator mintaqa destinatsiyalar iqtisodiy rivoji, aholi bandligining o‘sishi, fuqarolarning hordiq chiqarishga bo‘lgan ehtiyojlarini yanada to‘la qondirilishiga zamin yaratadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida turizm faoliyatini tashkil etishning umumlashtirish va tahlil qilishga muhtoj bo‘lgan katta tajribasi to‘plangan. Hozirda milliy va xorijiy ilmiy manbalarda turizmdagi faoliyat turlari va sohalari rang-barangligini tavsiflash va tasniflashga, ular orasida etakchi omilni belgilashga va ularning tarmoqlararo, xo‘jalik va sohalarga oid aloqalarini aniqlashga xarakat qilinmoqda. Turizm tizimida “turistik destinatsiya” asosiy tushunchalardan biri hisoblanib, unda mintaqaviy darajada ushbu tizimning tashqi ijtimoiyiqtisodiy makromuhitlar bilan o‘zaro aloqalari va o‘zaro bog‘liq tomonlari ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi

X.M.Mamatqulov fikri bo‘yicha, turistik destinatsiya – bu ma’lum xizmatlar taklif qiladigan, turistning ehtiyojini qondiradigan, maqsadlari talabiga javob beradigan hudud yoki manzildir (Mamatqulov, 2010). E.G.Alyonova fikriga ko‘ra, turistik destinatsiya – bu jismoniy, siyosiy yoki bozor chegaralari kabi, haqiqiy yoki xayoliy chegaraga ega, o‘zining attraktiv (jozibadorlik) imkoniyatlari hisobidan turistlar oqimini jalb etadigan joydir (Rahimov, 2012). Hozirgi kunda destinatsiya atamasiga turli olimlarning bergan ta’rifini quyidagi jadvalda ko‘rsatish mumkin.

Markaziy Osiyo hududida barqaror rivojlanayotgan respublika sifatida O‘zbekiston turistik destinatsiyasi imijining tadqiqot natijalariga ko‘ra turistik destinatsiyalarning keyingi rivoji uchun barcha imkoniyatlarga ega ekanligi aniqlandi. Katta turistik

salohiyatga ega O‘zbekistonning turistik destinatsiyalari hozirgi kunda taklif qiluvchi va iste’mol qiluvchi tomonlarning o‘zaro munosabatlar modelini ishlab chiqilishini taqozo qilmoqda.

4-jadval

Ilmiy manbalarda taklif qilingan “destinatsiya” tushunchasining ta’riflari

Muallif	**Ta’riflar**
Xorijiy ilmiy manbalarda	
V.Altxof	Aniq belgilangan joy yoki maqsadli hudud. Destinatsiya sifatida, masalan shahar tashqarisidagi sayr uchun joylar, bo‘sh vaqtni o‘tkazish uchun inshootlar, kommunalar, mintaqalar, federal erlar, Germaniya, Evroittifoq kabilar bo‘lishi mumkin
K.Kasper	“Turistik taklifni kristallashtiruvchi” joy
Kuper S., Fletcher D., Gilbert D., SHeperd R., Vanxill S.	Turistik iste’mol va ehtiyojlar shakllangan va qondiriladigan maskan
Richi B., Krouch D	Aniq ma’muriy – hududiy chegaraga ega bo‘lgan maskan bo‘lib, u mamlakat- makro-region-provinsiya yoki shtat-shahar, betakror hudud, milliy park va memorialga ega maskan
Leyper	Turistlar uchun jozibador geografik hudud
P.Pirs	Turistlarda har xil taassurot, tajriba va his-hayajon qoldiruvchi tashrif joyi
Rossiya ilmiy manbalarida	
M.A.Morozov	Turist ehtiyojlariga javob beradigan va uning tashish, ovqatlanish, ko‘ngil ochar mashg‘ulotlar va shu kabilarga talablarini qondiruvchi, ma’lum xizmatlar to‘plamini taklif qiluvchi hudud. Bunda muallif avvalo sayohatning bosh maqsadini birlamchi destinatsiya va birlamchi destinatsiyaga borish yo‘lidagi to‘xtashlarni ikkilamchi destinatsiyalar sifatida alohida ajratadi
T.A.Sebekina	Haqiqiy yoki mavhum chegaralarga (jismoniy, siyosiy, geografik, bozor) ega bo‘lgan joy: turistlar ma’lum maqsadda kelib ketadigan mamlakat, viloyat, orol va boshqalar
A.YU.Ryabuxa	Turistik imkoniyatlarga ega bo‘lgan, xizmat ishlab chiqaruvchilar sotadigan va turist o‘z tashrifi uchun tanlaydigan hudud yoki inshootlar destinatsiya bo‘lishi mumkin
S.S.Nikolaev	Turistik destinatsiya deganda ma’lum bir ijtimoiy-geografik, aniq bir sayyoh yoki turistik talabning butun segmenti safar maqsadi sifatida tanlangan manzil (joy,

	mintaqa, shahar, qishloq, attraksionlar bog‘i) tushuniladi. U hamma kerakli muassasalar, tashkilotlar, joylashtirish, xizmat ko‘rsatish vositalari va sayr-tomosha infratuzilmalariga ega makon
A.F.Goroxov	turistik destinatsiya deganda, zamon va makonda mujassamlangan, jadal ravishda ishlab chiqariluvchi va iste’mol qilinuvchi turistik mahsulotlarning yig‘indisi
Nikitina O.A.	Turistik resurslarning yuqori darajadagi mujassamlashuviga ega geografik hududdir, bundan tashqari qo‘shimcha infratuzilmaga ega maskan hisoblanadi
Pavlova E.N.	Turistik sigmentlarda sifatli xizmatlar va safarlarni o‘zida mujassamlashtirgan sotsial-geografik maskan sifatida ko‘ngilochar va dam olishni tashkil etish infratuzilmasiga ega hududdir
Zorin A.I.	Hududiy rekreatsiya tizimlariga ega maskan bo‘lib, u mamlakat-region-landshaft-markaz-korxona-marshrut tizimi shakllangan hududdir
O‘zbekistonlik olimlar ta’rificha	
B.N.Navruz-Zoda	Destinatsiya -tashrif maqsadini amalga oshiradigan turistik manzil
X.Mamatqulov	destinatsiya – bu ma’lum xizmatlar taklif qiladigan, turistning ehtiyojini qondiradigan, maqsadlari talabiga javob beradigan territoriya yoki manzildir
Butunjahon turistik tashkiloti (UNWTO)	Turist bir kecha vaqt davomida makonda turishi, uning tabiiy va ma’muriy hududiy chegarasiga ega bo‘lishi lozim bo‘lgan hudud- turistik destinatsiya bo‘la oladi. Shuningdek, u destinatsiya menejmenti, imidji va jozibadorligiga ega raqobatbardosh makondir

Ilmiy manbalar asosida mualliflar tomonidan to‘ldirildi

Geografik joylardagi turistik oqimlarning mohiyati va xususiyatlarida; sayohat davomida turistning xulq-atvorida; turistik xizmatlar taklif tizimi va turistik tijoratvositachilik faoliyatlarida sezilarli o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Turizm sohasiga innovativ ta’sir qilayotgan quyidagi omillarni ajratish mumkin: Birinchidan, talabning miqdor jihatdan sezilarli o‘zgarishi. Rivojlangan mamlakatlarda aholi turmush darajasining oshishi oqibatida turizm ommaviy tus olib millionlab kishilarni o‘ziga jalb qildi. Ko‘p mamlakatlardagi iqtisodiy o‘sish, oldin turistik oqimni vujudga keltiruvchi joy deb tan olinmagan mamlakatlarda ham “yangi

turistik talab” shakllana boshlanib, ular umumiy turistik talabning bozordagi ko‘lamini kengaytirishga olib keldi. Ikkinchidan, turistik mahsulot iste’molchilari xulqatvorining tubdan o‘zgarishi. Jahon Turistik tashkilotining tahlillari va xulosalariga ko‘ra turistlar sayohatni tanlash va amalga oshirish jarayonida o‘z xulq-atvorlarini, turistik xizmatlarga nisbatan afzalliklar tizimi, sayohat turi va davomiyligi bilan bog‘liq odatlarini shiddat bilan o‘zgartirmoqdalar. Yagona joyda o‘z ta’tilini o‘tkazishga moyil kishilarning salmog‘i kundan-kunga kamayib bormoqda, uzoq davom etadigan ta’tillarning salmog‘i pasayib, sayohatning an’anaviy shakllari o‘rnini, xizmat nuqtai nazaridan takomillashgan turizmning innovativ shakllari olmoqda. Turizmning innovativ shakllari (sayohatni mustaqil rejalashtirish va amalga oshirish, an’anaviy vositachilarni inkor qilish) hozircha alohida segment sifatida namoyon bo‘layotgan bo‘lsa, kelajakda ular turistik xizmatlar bozorida barqaror o‘ringa ega bo‘lishlari kutilmoqda. Uchinchidan, turistik hududlar o‘rtasida raqobatning kuchayishi. Bir tomondan havo transportidagi taraqqiyot va ikkinchi tomondan sayohat qilish xohishini bildiradigan insonlarning keskin oshishi, bir-biriga umuman o‘xshamaydigan turistik hududlarning o‘zaro raqobat qilishlarini taqazo etmoqda.

Nazorat savollari:

1.Destinatsiya tushunchasi nechta guruhga bulinadi?
2.Destinatsiya qanday ma’noni anglatadi?
3.Destinatsiya tushunchasini kim va qachon fanga kiritgan?
4. Turistik destinatsiyaning o‘rganish predmetiga ta’rif bergan xorij olimlaridan kimlarni bilasiz?
5. Turistik destinatsiyaning o‘rganish predmetiga ta’rif bergan rusrij olimlarini sanab bering?
6. Turistik destinatsiyaning o‘rganish predmetiga bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan o‘zbekistonlik olimlardan kimlarni bilasiz?

Foydalangan adabiyotlar:

1.Althof W. Incoming-Tourismus. Muenchen; Wien; Oldenbourg, 1996.

2.Ибрагимов Н.С. Ўзбекистонда халқаро туризмни ривожлантиришда дестинацион менежмент концепциясини қўллаш: иқтисод фанлари номзоди дис. – С.: СамИСИ, 2008.
3.Маматқулов Х.М. Хизмат кўрсатиш соҳасига оид атамалар ва иборалар изоҳли луғати. –Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2010.
4.Морозов М.А. Экономика и предпринимательство в социально-культурном сервисе и туризме. Учебник. 2-е изд., испр. доп. – М.: ИЦ «Академия», 2005.
5.Менежмент туризма: Основы менежмента: Учебник/ Ред. коллегия: Квартальнов В.А. и др. – М.: “Финансы и статистика”, 2003.
6.Николаев С.С. Стратегия формирования единого туристского пространства: автореф. дис. канд. экон. наук. – СПб.: 2000.
7.Рахимов З. Туризм дестинацияларида стратегик режалаштиришнинг ташкилий механизмини такомиллаштириш (Самарқанд шаҳри мисолида): иқтисод фанлари номзоди дис. – С.: СамИСИ, 2012
8.Рябуха А.Ю. Управление развитием местных сообществ на основе использования туристского пространства: дис. ... канд. экон. наук. – Краснодар: 2006.
9.Тухлиев И.С., Пардаев М.Қ. Туризм бозорининг шаклланиши, ривожланиши ва ўзига хос хусусиятлари. – Т.: “NOSHIRLIK YOG’DUSI”, 2010.

5-BOB. XALQARO TURIZM TARIXI VA RIVOJLANISHI

Reja:

5.1. Xalqaro turizm tarixi
5.2. Xalqaro turizmning rivojlanish tendensiyasi
5.3.O`zbekistonning xalqaro turizmda tutgan o`rni

5.1.Xalqaro turizm tarixi

Turizm qadimdan xalqlar o‘rtasidagi (iqtisodiy, savdo sotiq, fan, madaniyat, san’at, hunarmandchilik va h.k.) aloqa manbai sifatida muhim ahamiyatga ega. Jumladan, eramizdan avvalgi 3-2 ming yillar davomida kishilarning yangi geografik joylarni ochish, o‘zlari uchun qulay hududlarni egallab olish, boylik orttirish va boshqa maqsadlarda dunyoni o‘rgana boshlangan.

«Buyuk Ipak yo‘li» ning ochilishi va undagi xalqaro munosabatlarning rivojlanishi bevosita turizm geografiyasining tarixiga borib taqaladi. Bundan tashqari, Buyuk geografik kashfiyotlar davrida dunyo okeani bo‘ylab sayyohatlar olamni bilish va yangi erlarni ochish maqsadidagi turli geografik sayohatlar turizmning shakllanishida muhim omil bo‘ldi. Bu o‘rinda yurtimizning buyuk olim va mutafakkirlari Al Xorazmiy, Abu Rayxon Beruniy, Farobiy, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Bobur va boshqalarning ham xizmatlari kattadir.

Mazkur fanning paydo bo‘lishi va rivojlanish tarixini ba’zi ilmiy adabiyotlarda (Unitsiker, Mariotti va h.k.) o‘ziga xos tarixiy bosqichlarga ajratgan. Jumladan, M.V.Sokolova turizm tarixini keng ko‘lamli tadqiq etib, uni 4 bosqichga (Qadimgi sayohat, O‘rta asr yurishlari va sayohatlar, Yangi davr turizmi rivojlanishi va XX asr turizmi) ajratgan (Sokolova, 2002). Ushbu mulohazalardan kelib chiqqan holda turizm tarixini 3 qismga ajratish maqsadga muvofiqdir:

1. Qadimgi hamda o‘rta asr va uyg‘onish davri turizmi;

2. Ikkinchi jahon urushigacha bo‘lgan davr turizmi;

3. Hozirgi zamon turizmi.

Ma’lumki, dastlabki turistik sayohatlar savdo sotiq maqsadlarida vujudga kelgan. Eramizdan avvalgi, bundan 14 ming yil avvalgi qadimgi Misrda o‘ziga xos tusga kirgan Misr shohi Xatshepsut dengiz ekspeditsiyasida sayohat uyushtiradi (Shapoval, 1998). Eramizdan avvalgi VI – asrda Misr firauni Nexao uch yillik sayohatni Afrika bo‘ylab tashkil etadi. Keyinchalik esa misr zodagonlari ko‘plab shaharlarga (Gretsiya, Rim va h.k.) sayohatga chiqa boshladi. Bu davrda turizm boylik topish uchun uyushtirilardi. Shuning uchun ular o‘zlari uchun qulay yo‘llar va dam olish joylari barpo etadi.

Boylik orttirish maqsadida bundan 2300 yil avval Ksenofont grek portini qurish, savdo rastalari va davlat uylari barpo etishni buyuradi. Bu unga katta daromad olib keladi. Ayni paytda mehmonxona xo‘jaligi xizmatlari shakllantiriladi. Ba’zi yunon va rimliklar o‘zi yashab turgan shahardan uncha uzoq bo‘lmagan tog‘ va tog‘ oldi hududlarida dam olish, davolanish va ov qilish uchun maxsus joylarni barpo etishgan.

Turizm ayniqsa Buyuk geografik kashfiyotlardan keyin tez o‘sib bordi. K.Liberening ta’rificha, «Yevropada XVIII asrda turizm yangi ko‘rinish oldi va sayyohlar tanishuv, davolanish va dam olish maqsadida hamda savdo-sotiq ahamiyatidagi sayohatlar tez o‘sdi» -deb aytadi (Erdavletov, 2000).

XVII-XVIII asrda maktab o‘quvchilarining Yevropa davlatlari bo‘ylab piyoda sayohati tarixga «Buyuk turistik sayohat» bo‘lib kirdi. Ular Londondan boshlab Ispaniya, Fransiya, Italiya va Gretsiya davlatlarida bo‘lishib, sayohat davomida har bir davlatning hayoti, turmush tarzi, urf-odati, madaniyati va san’ati bilan tanishdilar. Birinchi bo‘lib ommaviy turistik sayohat Angliyada 1841 yili Tomas Kuk uyushtirgan turistik marshrut bo‘ldi. U 600 kishilik sayyohni temir yo‘l transportida Leysterdan Lafboroga sayohat tashkil qildi. Kuk 1845 yil Liverpulga, 1865 yil Shveysariyaga sayohat uyushtirdi va 1882 yil dunyoda birinchi bo‘lib jahon bo‘ylab turistik sayohat qildi. Tomas Kuk o‘z sayohat

marshrutida temir yo‘l, kema, mehmonxona va boshqa ob’ektlar bilan shartnoma asosida sayohatni tashkil etdi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan keyin G‘arbiy Yevropa va Amerika davlatlarida turizm alohida boshqaruv va uyushtirilgan turistik guruhlar asosida rivojlana boshladi. Birinchi jahon urushigacha chet el turizmida aksariyat yuqori tabaqali boy aholi qatnashdi. Bu davrda turistik sayohatlar asosan dengiz va dengiz bo‘ylari qirg‘oqlari hamda dam olish uylariga uyushtirildi. Bunda asosan Fransiya, Italiya, Shveysariya va boshqa davlatlarda turistik faoliyat rivojlandi.

Birinchi va Ikkinchi jahon urushi yillari oralig‘ida turistik sayohatlar o‘ziga xos yangi mazmun kasb etdi. Endilikda turistlar tomosha va dam olish bilan birgalikda tanishuv maqsadlari, qadimiy yodgorliklar, arxitektura, san’at, madaniy yodgorliklarni o‘rganishni ham o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘ydilar.

Biroq, Ikkinchi jahon urushi yillarida dunyo miqyosda xalqaro turizmning o‘sish sur’ati nihoyatda pasayib ketdi. Birinchi jahon urushi davrida yiliga halqaro turizmda 18-19 mln. kishi mashg‘ul bo‘lgan bo‘lsa, 1947 yilda ushbu faoliyatda 16,6 mln, 1949 yilda esa 20 mln. kishi qatnashdi. G‘arbiy Yevropada XX asrninig ikkinchi yarmidan keyin «ichki Yevropa xarakteri»ga xos turizm rivojlandi.

Turistik sayohatlar Skandinaviya, Avstriya, GFR, Ispaniya, Italiya, Fransiya va boshqa qo‘shni davlatlar o‘rtasida keng miqyosda uyushtirildi. Amerika qit’asida ham AQSH, Kanada, Meksika, Panama kabi davlatlarda u tez o‘sdi. Amerika sayyohlarining Yevropaga va, aksincha, Yevropa sayyohlarining Amerika va boshqa qit’a mamlakatlariga sayohati kengaydi.

XX asrning ikkinchi yarmidan keyin sobiq Ittifoqda ham turizmga e’tibor qaratildi. Ushbu turistik sayohatlarni asosan sobiq sotsialistik davlatlarga uyushtirishni ko‘zda tutdi. Bu hukumat 1969 yil 26 iyun ittifoqdosh respublikalarda turizmni rivojlantirish to‘g‘risida farmon chiqardi. Shundan keyingi yillar davomida Hamdo‘stlik davlatlarida turizm shakllana boshladi. Biroq, ta’kidlash joizki, uzoq mustabit tizim davrida qadimdan

shakllanib kelgan sayyohlikning o‘ziga xos hususiyatlari ancha yo‘qolib ketgan edi. Binobarin, sobiq Ittifoqning parchalanib ketishi natijasida tashkil topgan mustaqil davlatlarda turizmning yangi yo‘nalishlari vujudga kela boshladi. Afsus bilan aytish lozimki, 70 yillik qatog‘onlik deb atalmish sovetlar davrida jahon turizmining nihoyatda rivojlanishi, xo‘jalikning muhim tarmog‘i sifatida shakllanishi asosan G‘arbiy Yevropa, Amerika va Sharqiy Osiyo davlatlarida ko‘zga tashlandi, bizda esa, aksincha, u unchalik taraqqiy etmadi.

5.2.Xalqaro turizmning rivojlanish tendensiyasi

Butunjahon turistik tashkiloti BMT qoshidagi maxsus bo‘lim bo‘lib, hukumatlararo universal xarakterga ega tashkilotdir. Uning shtab-kvartirasi Ispaniyaning Madrid shahrida joylashgan. Unga dunyoning 156 davlati a’zo hisoblanadi. 1993 yildan O‘zbekiston shu tashkilotga a’zoligiga qabul qilingan. Jahon turizmida YAIM 9%, jami 11 ish o‘rinlaridan 1 tasi, eksportda 1,3 trln AQSH dollari, jahon eksportining 6% ortig‘ini tashkil etmoqda.

«Butunjahon turistik tashkiloti» (WTO) l974- yili tashkil topgan xalqaro sayyohlik tashkiloti. Markaziy qarorgohi Madrid shahrida joylashgan. l980- yili Manila shahrida bo‘lib o‘tgan turizm bo‘yicha Butunjahon konferensiyasida sayyohlik sohasidagi huquqiy asoslar ko‘rib chiqildi. Shuningdek, bu anjumanda turizm sohasiga tegishli huquqiy normalar ishlab chiqishga katta e’tibor berildi. «Manila deklaratsiyasi» nomini olgan jahon turizmi bo‘yicha muhim hujjat qabul etildi. UNWTO ning rasmiy tillari ingliz, ispan, rus va fransuz tillari hisoblanadi.

«Sayohat va turizm bo‘yicha xalqaro kengash» (WTCC) turizm sohasidagi xalqaro nodavlat tashkiloti. Bu tashkilot mehmonxona, aviayo‘nalish hamda sayyohlik biznesining boshqa turlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatadi.

«Turistik agentliklarning Butunjahon Federatsiyasi» - qarorgohi Bryussel shahrida bo‘lgan xalqaro turistik tashkilot. Asosan, milliy turistik kompaniyalarga yuridik, moliyaviy va texnik

yordam ko‘rsatadi. Boshqaruv organi General Assambleya. «Ekskursion xizmat va turlar bo‘yicha Xalqaro tashkilot» asosiy faoliyati: sayyohlik sohasi bo‘yicha har yili chop etiladigan turli hisobotlar bilan shug‘ullanadi. Qarorgohi Lissabon shahrida. Rasmiy til ingliz tili.

«Shengen vizasi» Yevropaning 22 mamlakatiga tegishli shartnoma. Shartnomaga ko‘ra bu mamlakatlarda o‘zaro tashrif uchun viza talab etilmaydi.

1-rasm. Xalqaro turizmning ulushi

1-karta-sxema. Xalqaro turizm geografiyasi va statistik tahlili



World International tourist arrivals: (ITA)**1087 million (Xalqaro turistik tashrif)** International tourism receipts (ITR) **US$ 1159 billion (Xalqaro turizmdan keladigan daromad).**

Karta-sxema Butunjahon turistik tashkilotining 2014 yilgi xisobotidan olingan.

Butunjahon turistik tashkilotining 2019 yilgi xisoboti ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, 2018 yilda xalqaro turistik

tashriflarda 1,4 mlrd kishi ishtirok etgan bo‘lsa, bu sohadan olingan daromad esa 1,7 mlrd AQSH dollarni, xalqaro turizmning o‘sish sur’ati o‘tgan yilga nisbatan tashriflar +5%ga, daromad esa +4% ga oshganligi sohaning shiddat bilan rivojlanib borayotganligidan dalolat beradi. Xalqaro turistik tashriflarning geografiyasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, jami turistik tashriflarda Yevropaning ulushi 51%ni, Osiyo-Tinch okeani regioni 25%, Amerika 15%, Afrika 5%, O‘rta Sharq turistik regioni esa 4%, turistik tashriflardan kelgan daromad ko‘rsatkichi bo‘yicha esa Yevropa 39%, Osiyo-Tinch okeani regioni 30%, Amerika 23%, Afrika 3%, O‘rta Sharq 5%ni tashkil etgan. Turistik tashriflardan maqsad asosan, dam olish, rekreatsiya, bayramlar, sog‘liqni tiklash, diniy, kasbiy turizmda band bo‘lgan (1-chizma).

Hozirgi paytda dunyoda turizm sohasida taxminan 200 mln kishi banddir. Dunyoning 45 ta davlat fuqorolari har yili halqaro turist sifatida xorijda qilayotgan xarajatlari har bir davlatga 1 mlrd dollardan to‘g‘ri kelar ekan, masalan: Germaniya–58 mlrd yevro, Niderlandiya –13,6 mlrd yevro. Dunyoning deyarli 40% davlatlarida turizm xorijiy valyutaning

4-chizma



kirib kelish manbai hisoblanadi. Halqaro turizmning rivojlanishining asosiy tushunchalari :

- O‘sish
- Globallashuv

- Noziklik
- O‘zini tez holda o‘nglab olish usullari

Turizmning rivojlanishi bilan birga unga to‘siq bo‘luvchi muammolari xam mavjud. Bunga: infrastrukturaning yuqori narxi, atrof–muhitning ifloslanishi, muammoning ijtimoiy - madaniy jihatlari, turizm rivojlanib borayotgan hududlarda inflyasiya, mahalliy aholining bezovtalanishi kiradi.

5.3.O`zbekistonning xalqaro turizmda tutgan o`rni

O`zbekiston xalqaro turizmda Butunjahon turistik tashkiloti a`zosi sifatida dunyoga mashhur davlat sifatida ildam qadamlar tashlab sohaga davlat tomonida katta ahamiyat berib kelmoqda. BTT fikricha, O‘zbekiston turizm rivojlanib borayotgan davlatlar qatoridan o‘rin egallagan. O‘zbekistonda turizmning rivojlantirishda hukumat tomonidan qilinayotgan amaliy ishlar asos bo‘ladi. Xususan 1999 yil 20 avgustdagi “Turizm“ to‘g‘risidagi qonuni, Turizmni rivojlantirish bo‘yicha davlat qo‘mitasining tashkil etilishi sohani rivojlanishiga katta turtki bo‘lishi shubhasizdir.

BMTning YUNESKO tashkiloti ro‘yxatiga kirgan Samarqand, Xiva, Buxoro kabi shaharlarimiz aynan Buyuk Ipak yo‘lida joylashganligi halqaro sayyohlarni jalb qilish va shu orqali butun dunyoga yanada yaxshiroq tanitishga imkon beradi. BTTning xalqaro ekspertlarining fikricha, O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishning 8 asosiy afzalliklari mavjud:

- Qulay geografik joylanish (Buyuk Ipak yo‘li chorrahasida);
- Rang–barang landshaftlari;
- Buyuk Ipak yo‘lida joylashgan boy madaniy tarixiy meros;
- Barhayot boy an’ana va urf-odatlari;
- Samimiy mehmondo‘stlik;
- Turli xil ajoyib taomlari;
- Boshlang‘ich infrastruktura;
- Mehnat resurslarining nisbatan arzonligi.

Yuqoridagi jihatlar bilan birga O‘zbekistonda turizmning milliy iqtisodiyotdagi ulushini oshirish va ustuvor soha sifatida o‘rnini oshirishda quyidagi vazifalarni hal etish kerak:

- ✓ tashkilotlararo kordinatsiya;
- ✓ havfsizlikni yanada yaxshilash;
- ✓ infrastruktura va transport aloqalarini rivojlantirish;
- ✓ rasmiyatchilikni yanada soddalashtirish;
- ✓ imidj va marketing;
- ✓ mahsulot va xizmatlarni jahon bozoriga olib chiqish;
- ✓ yangi texnologiyalardan (internet) keng foydalanish va boshqalardir.

Nazorat savollari:

1.Turizmning shakllanishida qanday kashfiyotlar muhim rol o‘ynagan?
2.Turizm tarixini 4 bosqichga bo‘lib o‘rgangan olimni bilasizmi?
3.Dastlabki sayohatni uyushtirgan Misr firauni va shoxlarning nomini bilasizmi?
4.Yevropada turizm XVIII asrda yangi ko‘rinish oldi va tez o‘sdi, deb ta’rif bergan olim kim edi.
5.Yevropa bo‘ylab piyoda sayohat turizm tarixiga qanday nom bilan mashxur?
6.Zamonaviy turizm asoschisi sifatida kim dastlab sayohatlarni tashkil etgan?
7.Dunyoda qancha davlat BTT a’zosi hisoblanadi?
8.BTT shtab kvartirasi qaysi shaharda joylashgan?
9.Xalqaro turistik tashriflar va daromad ko‘rsatkichi statistika dinamikasini bilasizmi?

Foydalangan adabiyotlar:

1. Дмитревский Ю.Д. Туристские районы мира. Учебное пособие.-Смоленск: СГУ, 2000
2. Ердавлетов С.Р География туризма: история, теория, методы, практика - Алматы. 2000
3. Зачиняев. П.Н., Фалькович Н.С. География международного туризма. - М.: Мысль, 1972

4. Солиев А.С., Усмонов М. Туризм географияси.-Самарқанд, 2005
5. Соколова М.В. История туризма: Учеб.Пособие–М.: Мастерство, 2002
6. Report of union world tourism organization. 2014, 2015, 2018, 2019

II QISM. XALQARO TURIZMNING REGIONAL XUSUSIYATLARI

6-BOB. JAHONNING TURISTIK REGIONLARI (YEVROPA REGIONI)

Reja:

6.1. Butunjahon turistik tashkiloti (UNWTO) buyicha regionlar

6.2.Yevropa regioni turizm geografiyasi

6.3.Shimoliy Yevropa subregioni

6.4.G‘arbiy Yevropa subregioni

6.5.Janubiy Yevropa subregioni

6.6.Sharqiy va Markaziy Yevropa subregioni

6.1. Butunjahon turistik tashkiloti (UNWTO) buyicha regionlar

Butunjahon turistik tashkiloti (UNWTO) Birlashgan millatlar tashkiloti tizimidagi nufuzli organ bo‘lib, unga 1975 yilda asos solingan. Tashkilotning tarkibi va ustavi 1975 yil 27 sentyabrda qabul qilingan. Butunjahon turistik tashkilotning asosiy maqsadi dunyo bo‘yicha turizm iqtisodiy rivojlanishning asosi, tinchlik mustahkamlash, xalqlar o‘rtasida bir-birini tushunish, tili, dini va irqidan qat’iy nazar dunyo bo‘yicha erkin aloqasini o‘rnatish, shuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlarni turizm sohasiga qiziqtirish kabi masalalardir.

Butunjahon turistik tashkilotning ustavida 3 bosqichli a’zolik tartibi joriy etilgan. Jumladan, Butunjahon turistik tashkilotning haqiqiy a’zosi, assotsatsiyalik nomzod, qo‘shilishga nomzod davlatlar mavjud. Bugungi kunda Butunjahon turistik tashkilotga 158 ta davlat haqiqiy a’zo, 4 ta davlat assotsatsiya (Aruba, Makao, Niderlandiyaning Antil orollari, Puerto-Riko), kuzatuvchi sifatidagi davlat Vatikan hisoblanadi.

Butunjahon turistik tashkilot dunyoni 6 ta turistik regionlarga bo‘ladi. Lekin bu rayonlashtirishda to‘liq geografik omillar emas balki turizmdagi ahamiyati va siyosiy geografik xususiyatlari inobatga olingan. Jumladan;

1. Yevropa turistik regioni (G‘arbiy, Shimoliy, Janubiy, Markaziy va Sharqiy Yevropa subregionlari, shuningdek, sobiq Ittifoq davlatlari, Sharqiy, O‘rta dengizida Isroil, Kipr, Turkiya);
2. Amerika turistik regioni (Shimoliy, Janubiy, Markaziy Amerika subregioni, Karib havzasi hududlari va orol davlatlari);
3. Osiyo-Tinch okeani turistik regioni (Sharqiy va Janubi-sharqiy Osiyo, Avstraliya va Okeaniya subregioni);
4. Afrika turistik regioni (Misr va Liviyadan tashqari barcha Afrika davlatlari);
5. Janubiy Osiyo turistik regioni (Janubiy Osiyodagi barcha davlatlar);
6. O‘rta Sharq turistik regioni (Turkiya va Isroildan tashqari barcha G‘arbiy va Janubiy G‘arbiy Osiyo davlatlari).

6.2.Yevropa regioni turizm geografiyasi

Butunjahon turistik tashkiloti o‘zining har yili “UNWTO Tourism Highlights 2019 edition” jurnalida chop ettiradigan yillik xisoboti ma’lumotlariga ko‘ra, Yevropa regioniga 2018 yilda jami 710 mln turist qabul qilgan bo‘lib, o‘tgan yilga nisbatan +5% o‘sgan. Mazkur regionda turizmdan kelgan daromad miqdori esa 570 mlrd AQSH dollarini (+5%) tashkil etgan. Demak, boshqa regionlarga nisbatan Yevropa regioni turistlarni qabul qilish va daromad ko‘rsatkichlarining o‘sish bo‘yicha etakchilik qilmoqda.

Geografik jihatidan bu region Shimoliy Yevropa (turistlar soni o‘tgan yilga nisbatan +1%, tushum+1%) subregioni, G‘arbiy Yevropa (+4%, +3%) subregioni, Janubiy Yevropa (+8%, +7%) subregioni, Markaziy va Sharqiy Yevropa subregioni (+5%, +9%)ga bo‘linadi.

Yevropa turistik regioni dunyo turizmining beshigi va etakchi turistik regioni hisoblanadi. Bu turistik region Yevrosiyo materigining katta qismini egallagan. Yevropa turistik regionining

maydoni 35,7 mln km^2 ga teng. Mazkur turistik regionda 61 mustaqil davlat joylashgan. Yevropa turistik regioni 4 ta yirik subregionlarga bo‘linadi: 1.G‘arbiy, 2.Shimoliy, 3.Janubiy, 4.Markaziy va Sharqiy Yevropa subregionlaridir.

2-karta-sxema.Yevropa turistik regioni

1.G`arbiy Yevropa subregioniga Avstriya, Belgiya, Fransiya, Germaniya, Lixtenshteyn, Lyuksemburg, Manako, Niderlandiya, Shvetsariya davlatlari; 2.Shimoliy Yevropa subregioniga Daniya, Finlandiya, Islandiya, Irlandiya, Norvegiya, Shvetsiya, Buyuk Britaniya davlatlari; 3.Janubiy Yevropa subregioniga Albaniya, Andorra, Bosniya va Gersogovina, Xorvatiya, Kipr, Gretsiya, Isroil, Italiya, Malta, Chernogoriya, Makedoniya, Portugaliya, San Marino, Serbiya, Sloveniya, Ispaniya, Turkiya; 4.Markaziy va Sharqiy Yevropa subregioniga Armaniston, Ozarbayjon, Belarus, Bolgariya, Chexiya, Estoniya, Gruziya, Vengriya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Latviya, Litva, Polsha, Moldova, Ruminiya, Rossiya, Slovakiya,

Tojikiston, Turkmaniston, Ukraina, O‘zbekiston davlatlari kitadi. Yevropa turistik regioni maydonining kattaligi, tarixi, madaniy hayoti, tabiiy sharoit va iqlimining xilma xilligi turizmning tashkil etilishi va taqsimlanishida katta tafovutni yuzaga keltirgan.

6.3.Shimoliy Yevropa subregioni

Shimoliy Yevropa subregioni. Faqat Islandiya hamda Norvegiya, Shvetsiya va Finlyandiyaning Shimoliy hududlariga subarktika va arktika iqlim tiplari xos. Norvegiya va Islandiyaga tog‘li relef xos bo‘lsa, qolgan davlatlar yer yuzasi, asosan, tekisliklardan iborat. Subregion davlatlaridan faqat Islandiya tektonik jihatdan faol mintaqada joylashgan bo‘lib, vulqon va geyzerlari bilan butun dunyoga mashhur. Islandiya jahondagi geotermal resurslaridan keng va oqilona foydalanayotgan davlatlardan biri hisoblanadi (Sharipov va boshq, 2016). Bu esa turistik resurslarning tarqalishida muhim rol o‘ynagan. Urbanizatsiya barcha davlatlarda 70 foizdan yuqori darajada, Islandiya, Norvegiya, Daniya va Shvetsiyada esa bu ko‘rsatkich 90 foizdan ham o‘tib ketadi. Shimoliy Yevropadagi eng yirik aglomeratsiyalar poytaxti shaharlari negizida vujudga kelgan. Skandinaviya davlatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi jihatidan dunyodagi eng rivojlangan davlatlar safidan joy olgan. Turmush darajasi ko‘rsatkichlari bo‘yicha bu mamlakatlar ko‘plab xalqaro reytinglarda eng yuqori qatorlarini egallaydi. Boltiq davlatlari esa sobiq sotsialistik tuzumidagi mamlakatlar sifatida o‘tish iqtisodiyotidagi davlatlar hisoblanadi. Xalqaro mehnat taqsimotida Shimoliy Yevropa davlatlari o‘rmon va sellyuloza-qog‘oz sanoati, elektr energiyani ko‘p talab qiladigan rangli metallurgiya sanoati, ko‘p tarmoqli mashinasozlik (kemasozlik, avtomobilsozlik, elektronika va elektrotexnika va boshqalar), baliqchilik, sut-go‘sht chorvachiligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, dengiz transporti hamda turizm xizmatlarini ko‘rsatish bilan faol ishtirok etadilar. Shuningdek, Shimoliy Yevropa davlatlarida tarixiy-madaniy va ekologik turizm ham yaxshi rivojlangan. Finlyandiyaga, ayniqsa, Rojdestvo bayrami (25-dekabr) arafasida millionlab turistlar tashrif

buyuradilar, chunki bu davlatda Santa-Klausning “rasmiy qarorgohi” joylashgan. Latviya esa dengiz turizmi (Riga, Yurmala shaharlari) rivojlanishi bilan alohida ajralib turadi.

Skandinaviya mamlakatlari. Bu mintaqa aholisining soni unchalik katta bo‘lmagani bilan, turistik soha ancha rivojlangan. Mahalliy sayyohlar, o‘z uyidan unchalik uzoq bo‘lmagan yerda dam olishni xush ko‘radi. Tashqi turizmda faol dam olishga katta e’tibor beriladi. Masalan, shvedlarning 70% turli xil sport musobaqalarida (suzish, baliq ovlash, alpinizm va boshqalar) qatnashadilar. XIX asrdan boshlab, Shimoliy Amerika bilan madaniy aloqalar faollashgani sababli, AQSH va Kanada yo‘nalishi ham ancha mashhur.

Shvetsiyaning maydoni 449,964 km^2 aholisining soni 10,068,399 kishini (2018) tashkil etadi. Aholining 92% shvedlardan iborat. Poytaxti - Stokgolm shahri. Urbanizatsiya darajasi 83%. Savodxonlik darajasi 99%. Shvetsiya, Upsala shahri bilan birga, barcha xorijiy turistlarning 24% ni, ichki sayyohlarning 17%ni qabul qildi. Turizmning asosiy markazi poytaxt Stokgolmda joylashgan. Bu shahar 1252-yildan tarixiy yilnomalarda tilga olinadi. Mamlakatning yana bir mashhur turistik mintaqasi «Oltin qirg‘oq» bo‘lib, bu hududga 13,7% tashqi turistlar, hamda 14% ichki turistlarning tashrifi to‘g‘ri keladi. Sayyohlar dam oladigan joylaridan Ko‘llar mintaqasi, Glass (shisha ishlab chiqarish markazi) hamda Tunggi qirg‘oq hududlari bo‘lib, bu yerlarga ichki sayyohlarning 10% to‘g‘ri keladi.

XX asr boshigacha 80% shvedlar qishloq mintaqalarida istiqomat qilardi. Bu xususiyat madaniyatga o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmadi. Qurilishda mahalliy iqlim e’tiborga olingan holda qadimgi an’analar ham saqlanib qolgan. Milliy urf-odatlar, ayniqsa, saami xalqida juda qadrlanadi. Saamilar azaldan bug‘ularni boqib kun ko‘rgan. Ovqatlanishda katta o‘rinni sutli mahsulotlar egallaydi. Ertalabki nonushta-«fryukost» va kechki ovqat-«middag»ga qat’iy rioya qilinadi. Hozirda butun dunyoga mashhur «shved stoli» vatanida ham muhim hisoblanadi. Rojdestvo bayrami Shvetsiyada «yul» deb ataladi. Bayramdagi asosiy taom

cho‘chqa go‘shtidan tayyorlangan dudlama. Rojdestvoga qadar 13-dekabrda «Avliyo Lyusi» bayrami o‘tkaziladi. Bu kuni barcha tashkilot va o‘quv yurtlarida o‘z Lyusisini, ya’ni eng go‘zal qizini tanlaydilar. Yozda barcha skandinavlar singari shvedlar ham «Oq tunlar» davrida «Ivan kuni»ni nishonlaydilar. Shvetsiyada bu kunni «Midsommar» deb ataydilar. Odatga ko‘ra Stokgolm shahrining xiyoboni «Skansen»da bu kuni havaskor musiqaviy guruhlarning tanlovi o‘tkaziladi.

Finlyandiya mamlakatning maydoni 338,145 km^2. Aholisining soni 5,556,438 kishi (2018). Poytaxti Helsinki shahri. Savodxonlik darajasi 100%. Xorijlik turistlar asosan poytaxt Helsinkiga tashrif buyuradilar. 1992-yili Helsinkiga butun Finlyandiyaga tashrif buyurgan chet el mehmonlarining 38% to‘g‘ri keldi. Mahalliy aholining 60% dan ortig‘i Finlyandiya ko‘llari hamda shimoldagi Laplandiya va Tunggi qirg‘oqlarda dam olishni odat qilib olganlar. Mahalliy binokorlikning o‘ziga xos uslubi «sauna»lar (maxsus hammomlar) ko‘p mamlakatlarga hozirda tarqalgan. Finlyandiyada muzeylar talaygina bo‘lib, mamlakatning 80 dan ortiq shaharlarida mavjud. Bularning eng yirigi Helsinkidagi «Milliy muzey» hisoblanadi. Milliy kiyimning ba’zi elementlari qishki to‘qilgan liboslarda saqlanib qolgan. Mahalliy taomlarning o‘ziga xosligi shundaki, finlar ko‘p baliq, sabzavot va turli bo‘tqalar iste’mol qiladilar. Sportning qishki turlari chang‘i, xokkey va biatlon juda mashhur.

Norvegiya - mamlakatning maydoni 386,958 km^2 (shu jumladan orollarning maydoni 62 ming km^2). Aholisining soni 5,295,619 kishi (2018). Poytaxti - Oslo shahri. Savodxonlik darajasi - 99%. Ichki milliy mahsulotning umumiy hajmi 106,2 mlrd AQSH dollari (jon boshiga 24692 AQSH dollari). Bu mamlakatda ham asosiy sayyohlik markazi sifatida poytaxt Oslo ajralib turadi. Shaharda ko‘pgina madaniy markazlar, skandinaviyaliklarning ajdodlari vikinglarning muzeylari mavjud. Yana bir turistik mintaqa Sharqiy Vodiy bo‘lib, bu hududda Norvegiya mehmonxonalar majmuasining 30% joylashgan. Otellarning 10% Bergen shahri atrofida, 7,4% Trondxeym shahri mintaqasida to‘plangan.

Norvegiyaliklarning milliy kiyimi «bunad» deb ataladi. Hozirda «bunad» odatda bayram va tantanalarda kiyiladi. Mahalliy taomnomada baliqdan tayyorlangan turli ovqatlar katta o‘rin egallaydi. Turistlarda katta qiziqishni mahalliy sutli taomlar uyg‘otadi. Ayniqsa, echki sutidan tayyorlangan pishloq, tuzsiz non («flatbryod»), qaymoqli bo‘tqa («fletegryot») o‘ziga xosligi bilan sayyoxlarni o‘ziga jalb etadi. Skandinaviya xalqlarining milliy afsonalari «saga» deb ataladi. Bulardagi turli personajlar kino va televidenie orqali dunyoning turli nuqtalariga tarqalgan.

Daniya - maydoni 43,094 km^2 (Grenlandiya va Farer orollarisiz). Aholisining soni – 5,811,413 kishi (2018). Poytaxti - Kopengagen shahri. Urbanizatsiya darajasi 85%. Savodxonlik darajasi 99%. Ichki milliy mahsulotning umumiy hajmi - 112,8 milliard AQSH dollari (jon boshiga 21,772 AQSH dollari). Mamlakat qishloqlaridagi qurilish uslubi «Solskifte» deb nom olgan. Daniyada milliy an’analarga katta e’tibor beriladi. O‘rta asrlarda qurilgan shamol tegirmonlari mamlakatga o‘ziga xos joziba beradi. Qadimgi qasrlar va ibodatxonalar ko‘plab turistlarni jalb etadi. Butun dunyoda, asli daniyalik bo‘lgan, bolalar yozuvchisi Gans Xristian Anderesen juda mashhur. Uning ertaklaridagi personajlarining haykallari butun Daniya bo‘ylab qo‘yilgan. Eng mashhurlaridan biri, poytaxt Kopengagendagi «Suv parisi» haykali hisoblanadi. Poytaxtning nomi datchada «savdogarlarning shahri» ma’nosini anglatadi. Kopengagenda mashhur pivo zavodlari «Karlsberg» va «Tyuborg», hamda «Kopengagen qirol farfor zavodi» qarorgohlari joylashgan. Sayyohlarni poytaxtda kutib oluvchi eng yirik otellar «Radisson sas Royyal» va «Kosmopole». O‘rta asrlarda qurilgan ko‘p shaharlarning tashqi qiyofasi qonuzgacha saqlanib qolgan. Ko‘p asrlik tarixi mobaynida Daniya xalqi o‘ziga xos madaniyatni shakllantirdi. Milliy liboslarda yugurayotgan hayvonlarning tasviri katta o‘rin egallaydi.

Milliy taomnomada kartoshka va cho‘chqa go‘shti katta o‘rin egallaydi. Ichimliklar orasida pivo juda mashhur bo‘lib, uning iste’moli bo‘yicha Daniya Yevropada yuqori o‘rinlardan birini egallaydi. Ta’lim tizimida Yevropada eng qadimgilardan biri

Kopengagen universiteti (1479-yili tashkil etilgan) alohida o‘rin egallaydi. Bu mamlakatga Germaniyaning yaqin bo‘lgani alohida ahamiyat kasb etadi. Sayyohlarning 37% aynan Germaniyadan tashrif buyurishi tasodif emas. Daniya tarixiy yodgorliklar va muzeylarga boy bo‘lib, poytaxt Kopengagen bosh turistik markaz hisoblanadi. 1990-yili bu shahar barcha xorijiy mehmonlarning 28% ini qabul qildi. Kopengagenning, ayniqsa Tiuoli-Garden hiyoboni mashhur. Bu bog‘ 1843-yili ochilgan bo‘lib, dunyodagi eng birinchi atrraksionlar bog‘i hisoblanadi. Tivoli-Gardenga har yili 4 millionga yaqin mehmonlar tashrif buyuradilar. Legolend nomli xiyobon har yili millionga yaqin mehmonlarni qabul qiladi, ayniqsa britaniyaliklar shu yerni xush ko‘radilar. Skandinaviyaliklar xorij turizmida Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Polsha va O‘rta dengizi qirg‘og‘idagi mamlakatlarga ko‘proq e’tibor beradilar.

Buyuk Britaniya. Mamlakatning umumiy maydoni 244101 kv. km. Aholisining soni 67,545,757 kishi bo‘lib (2019), ularning 82% ni inglizlar tashkil etadi. Poytaxti London shahri. Savodxonlik darajasi 99%. Ichki milliy mahsulotning umumiy xajmi 1 trillion 138,4 milliard AQSH dollari (jon boshiga 19641 AQSH dollari). Britaniyaliklar, ayniqsa, ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda faollik bilan sayohat qila boshlashdi. Sayohatlar miqdorining o‘sishiga 1970-yillardagi neft inqirozi va 1980-yillardagi iqtisodiy tushkunlik salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

Shu bilan birga biznes-turlar miqdorining o‘sishi davom etdi. Masalan, agar 1978-yili biznes-turning soni 17 million bo‘lgan bo‘lsa, 1980-yili ularning soni 20 millionga etdi. 1970-yillardan boshlab tashqi turizm ichki turizmga nisbatan faolroq rivojlanmoqda. Britaniyaliklar ta’tillarini dunyoning eng yaxshi kurortlarida Ispaniya, Fransiya, Gretsiya, Kipr, Portugaliya, Tunis va Turkiyada o‘tkazishni xush ko‘radilar. Yoz faslida, ayniqsa Amerika kurortlaridan Mayami britaniyaliklar orasida mashhur bo‘lib qoladi. Ekzotik yo‘nalishlar Tailand, Gambiya hamda Karib dengizi havzasidagi mamlakatlarga sayohat qilish ham muhim o‘rin egallaydi. 1977-1979-yillarda Buyuk Britaniyaga 12,5 million xorij sayyohlari kelgan bo‘lsa, 1980-yillarning boshida ularning soni

biroz qisqardi (11,4 mln). 1992-yili bu ko‘rsatkich 18,1 million turistni tashkil etdi. Buyuk Britaniyaga tashrif buyurayotganlarning 43% ta’tilini o‘tkazish uchun, 21% ish bilan keladi. Xorijlik mehmonlarning 50% Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridan, qolgan qismi Shimoliy Amerikadan tashrif buyuradi.

Londonning metrosi dunyodagi eng qadimgi bo‘lib, 1863-yili ishga tushgan. Qizig‘i shundaki, dastlabki lokomotivlar bug‘ yuritgichlarida ishlagan. Dunyodagi eng hashamatli magazinlar ham Londonda mujassamlashgan. Faqat poytaxtning o‘zida 14000 ga yaqin restoranlar joylashgan. Buyuk Britaniyaning mashhur shaharlaridan biri Oksford, birinchi navbatda, shuhrat qozongan o‘quv markazi sifatida turistlarni jalb etadi. Oksford 912- yili tashkil topgan bo‘lib, hozirga qadar ingliz tilini dunyo miqyosida tashviqot qilishda juda muhim o‘rin egallaydi. Buyuk Britaniyaning shimolida joylashgan Shotlandiyaning qadimgi poytaxti — Edinburg (hozirgi poytaxti Glazgo) turizm tizimida muhim o‘rin egallaydi. Mahalliy mintaqa asosan tog‘ rel`efidan iborat bo‘lganligiga qaramasdan, bu yerda o‘rta asrlarda ko‘plab qasrlar qurilgan. Ayniqsa, l33 metr balandlikdagi qoyada bunyod etilgan qadimgi qasr, sayyohlar orasida katta qiziqish uyg‘otadi. Edinburgda har yili bir marta harbiy orkestrlarning xalqaro festivali o‘tkazilib, «Tatu» nomi bilan mashhur bo‘lgan. Turistlarni Shotlandiyaga jalb etuvchi xususiyatlar qatoriga Lox-Ness ko‘li ham kiradi. Ingliz taomlari ham o‘ziga xos bo‘lib, dunyo restoranlarining taomnomasiga kirgan. Dunyoda mashhur bo‘lgan britaniyaliklarning iborasi «Mening uyim - mening qasrim» mahalliy aholining xarakterini ifodalaydi. Britaniyaliklar uchun azaldan oila va u bilan bog‘liq bo‘lgan barcha muammolar muqaddas hisoblangan. Kamchiliklar ovoza qilinmagan. Shu bilan birga, keyingi yillarda bu sohada ham o‘zgarishlar bo‘la boshladi. Britaniyaliklarning qadimgi urf-odatlarga sodiqligi va ma’lum darajada konservatorligi hayotning ko‘p sohalariga hozir ham ta’sir ko‘rsatadi.

6.4.G‘arbiy Yevropa subregioni

G‘arbiy Yevropa subregioni. Yevropaning bu subregioniga qit’adagi eng ulkan iqtisodiy salohiyatga ega davlatlar Germaniya, Fransiya, shuningdek, Avstriya, Shveytsariya, Belgiya, Niderlandiya, Irlandiya hamda “mitti” davlatlar safiga mansub Lixtenshteyn, Lyuksemburg va Monako kabi mamlakatlar kiradi. Alp tog‘larida joylashgan Avstriya, Shveytsariya va Lixtenshteyn Alp mamlakatlari guruhini tashkil qiladilar. Belgiya, Niderlandiya va Lyuksemburg davlatlariga nisbatan esa ular o‘rtasidagi iqtisodiy integratsiya jarayonlari juda yuqori darajada ekanligini hisobga olgan holda “Benilyuks” umumiy nomi ishlatiladi. Subregion mamlakatlarining iqlim sharoiti mo‘tadil, Fransiya janubida esa iqlimi subtropik. Foydali qazilmalardan Shimoliy dengiz akvatoriyasidagi neft-gaz (Niderlandiya, Buyuk Britaniya), qo‘ng‘ir va toshko‘mir (Germaniya, Fransiya, Belgiya, Buyuk Britaniya), temir rudalari (Fransiya, Germaniya, Lyuksemburg, Belgiya) va kaliy tuzlari (Germaniya) konlari diqqatga sazovor. Alp mamlakatlari gidroenergiya resurslariga boy. G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida tug‘ilish va tabiiy ko‘payish ko‘rsatkichlari juda past, Germaniyada esa ko‘p yillardan buyon depopulyatsiya jarayoni ro‘y bermoqda. Lekin tashqi migratsiya balansi yuqori musbat ko‘rsatkichlarga ega bo‘lganligi bois, subregion davlatlarida aholi o‘sishi davom etmoqda. G‘arbiy Yevropa qit’a subregionlari ichida aholisi eng zich joylashgan hudud hisoblanadi.

Urbanizatsiya ko‘rsatkichlari, Lixtenshteyndan tashqari, barcha davlatlarda yuqori bo‘lib, Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburgda 90% dan baland, Monakoda esa 100 foizga teng. Yevropa va butun jahon miqyosida katta ta’sir doirasiga ega London, Parij, Berlin, Gamburg, Bryussel, Amsterdam, Syurix va ular singari boshqa yirik shaharlarning aynan G‘arbiy Yevropada joylashganligi ham bu subregionning muhim o‘ziga xos xususiyatidir. G‘arbiy Yevropa davlatlarining barchasi rivojlangan davlatlar safiga mansub bo‘lib, jahon xo‘jaligining hududiy tarkibida juda muhim o‘ringa ega. Jahon iqtisodiyotida G‘arbiy Yevropa davlatlari turizm sohalarining xalqaro ahamiyatli darajada rivojlanganligi bilan alohida ajralib

turadilar.

Fransiya maydoni 547,0 ming km2. Aholisining soni 65,244,967 kishini tashkil etadi (2018). Poytaxti Parij shahri. Urbanizatsiya darajasi 73%. Savodxonlik darajasi 99%. Ichki milliy mahsulotning umumiy hajmi 1 trillion 173 milliard AQSH dollari (jon boshiga 20336 AQSH dollari).

Fransiyaning turizm tizimi G‘arbiy Yevropa davlatlaridagi tizimdan birmuncha farqlanadi. Birinchidan, fransuzlarning atigi 18% o‘z ta’tillarini xorijda o‘tkazadi, ikkinchidan fransuzlar, ko‘proq avtomobillarda sayohat qilishni yoqtiradilar, uchinchidan, sayohatchilarning ko‘pchiligi shaharliklardir. Agar yozda fransuzlarning 50% qirg‘oq bo‘ylarida dam olsa, qishda atigi 17% bu yerlarni tanlaydi. Yozda, qo‘shni Ispaniya va Italiyaga turistlarning tashrifi ko‘payadi. 1991- yili Ispaniya 8 million, Italiya esa 7,3 million turistni Fransiyadan qabul qildilar. 1980-1991 yillar mobaynida xorij turistlarining soni Fransiyada 29 milliondan 55 millionga etdi. 2018 yilga kelib bu ko`rsatkich 80 mln.kishidan ortib ketdi. Bu jihatdan u dunyoda eng ko`p turist qabul qiluvchi davlat hisoblanadi. Fransiyaga turistlar asosan Germaniya, Buyuk Britaniya, Belgiya, Italiya, Shveytsariya, Niderlandiya va Ispaniyadan tashrif buyuradi. Sayyohlar, birinchi navbatda Fransuz Riverasi, Parij, Alp hududi, Akvitaniya hamda Langedok-Russilon mintaqalarini xush ko‘radilar. La- Grand-Mot kurortida mashhur yaxta klubi mavjud. «Tu» deb nomlangan kurortlarning majmuasi 30 km uzunlikdagi qumloq qirg‘oqlarida joylashgan. Bu yerda sportning suv turlari rivojlangan. Bu majmuaga Set, Meze, Marsel, Kap-d-Adg kurortlari kiradi. Shuningdek, Valras-Grussan, Lyuka-Barkares, Kane-Arjeles majmualari ham bor. 1960-1970- yillarda katta mablag‘ avomobil yo‘llarning sifatini yaxshilashga qaratildi. Natijada, tashrif buyurayotgan turistlarning soni ancha ortdi. Asrlar davomida Fransiya Yevropa mamlakatlarining, hozirda esa hatto dunyoning moda markazi hisoblanadi. Turli moda uylari «Kristian Dior», «Shanel», «Karden», «Iu Sen Loran» va boshqalar butun dunyoga mashhur. Milliy liboslar ham o‘z ta’sirini, ayniqsa qishloq mintaqalarida, hozirga qadar yo‘qotmagan. Mahalliy qadimgi poyabzal «sabo» (yog‘ochdan yasalgan oyoq kiyimi) hozirda

ko‘pgina mamlakatlarga tarqaldi. Shu bilan birga fransuz taomlari ham jahonda shuhrat qozongan. Umuman olganda, Fransiyada sabzavotlarni ko‘p iste’mol qiladilar. Boshqa Yevropa davlatlariga nisbatan, Fransiyada sutli mahsulotlarni (pishloqdan tashqari) unchalik xush ko‘rmaydilar. Shunga qaramasdan, pishloq ishlab chiqarish Fransiyada yuksak darajada rivojlangan. Mahalliy pishloqlarning turlari 400 dan ortadi. Fransuz taomnomasining o‘ziga xos tomoni mahalliy vinolar bo‘lib, bu ichimlikni iste’mol qilish bo‘yicha Fransiya dunyoda birinchi o‘rinni egallaydi. Fransuz taomlaridan «blanket» (raguning bir turi), buyyabez (baliqli sho‘rvaning bir turi) va boshqa taomlar ko‘p restoranlarda tayyorlanadi. Eng mashhur taomlar qatoriga qurbaqaning qovurilgan oyoqchalari hamda toshbaqali sho‘rva kiradi. Fransuzlar bo‘sh vaqtlarini kichik kafe «bistro»larda o‘tkazishni yaxshi ko‘radilar. Ayniqsa, yakshanba hamda bayram kunlari bunday kafelar gavjum bo‘ladi. Umuman olganda, fransuzlar o‘z ona tilini juda hurmat qiladilar. Fransiyada bo‘lganingizda ingliz tilida gapirmaganingiz ma’qul fransuzlar buni xush ko‘rmaydilar.

Germaniyaning maydoni 356,9 ming km^2, aholisining soni 83 million 870 ming kishi. Poytaxti Berlin. Urbanizatsiya darajasi 87%. Aholisining 95% nemislar, 2% turklardan iborat. Savodxonlik darajasi 99%. Ichki milliy mahsulotning umumiy hajmi 1 trillion 452,2 milliard AQSH dollari bo‘lib, kishi boshiga 17944 dollar. Bu mamlakat transport sohasining rivojlanishi bo‘yicha G‘arbiy Yevropada birinchi o‘rinni egallaydi. Eng yirik aeroport Frankfurt-Mayn shahrida joylashgan. Bu shaharda yiliga ikki marta yirik xalqaro savdo yarmarkasi bo‘lib o‘tadi. Daryo transporti ham (asosan Reyn daryosi bo‘yicha) yaxshi rivojlangan shaharlarda yirik otellarning soni juda ko‘p. Qishloq mintaqalarida kichik otell va kafelar «gastshtete»lar mashhur. Shimoldagi eng yirik shahar Gamburg bo‘lib, turistlarning asosiy qismi shu yerga keladi. Gamburg milodiy IX asrda vujudga kelib, shaharning nomi «o‘rmon qal’asi» ma’nosini anglatadi. Hozirgi vaqtda Gamburg mamlakatning etakchi sanoat markazi bo‘lib hisoblanadi. Gamburg yiliga l5 mingdan ortiq kemalarni qabul qiladi. Lyubek va Kil qadimgi go‘zal shaharlardan bo‘lib, bu yerdagi ibodatxonalar juda

mashhur. Bu shaharlar markazidagi o‘rta asrlar davriga oid tarixiy yodgorliklar kishining diqqatini o‘ziga jalb qiladi. Shtutgart shahri buyuk shoir va olim Shiller nomi bilan bog‘liq. Myunxen shahri o‘z vaqtida katoliklarning markazi bo‘lgan. Bu shaharning nomi «Myonx» rohib, degan ma’noni beradi. Myunxenda saroy, monastir va ibodatxonalar ko‘p. Xalq liboslari hozirgacha katta ahamiyatga ega. Ovqatlanishda turli ko‘rinishdagi kolbasa, sosiska va umuman cho‘chqa go‘shtidan bo‘lgan mahsulotlar katta o‘rin tutadi. Nemis pivosi mashhur bo‘lib, Germaniyada ushbu ichimlikning bir necha yuz turi ishlab chiqariladi. Mahalliy aholi va turistlar orasida juda mashhur maxsus pivoxonalar «kneype» deb ataladi. Mamlakatning shimolida protestantlar, janubida esa katoliklarning soni nisbatan ko‘proq. Katoliklarning milliy kiyimida ko‘k, qizil va yashil ranglarga katta ahamiyat beriladi. Mamlakatda tranzit sayohatchilar ko‘p bo‘lib, ayniqsa Polshadan shop-turga keladiganlarning soni anchagina. Shu bilan birga xorijda o‘z ta’tillarini o‘tkazuvchi nemislarning qismi ortib bormoqda. Nemislar, amerikaliklardan keyin, ta’til davrida eng ko‘p mablag‘ sarflovchi xalq hisoblanadi. 1991-yili jahon turistlari sarflagan pul miqdorining 13% nemislarga to‘g‘ri keldi. Asosiy dam olish mintaqasi esa O‘rta dengizi qirg‘oqlari bo‘lib qolmoqda. Shveytsariya va Avstriyaga 18,4%, Skandinaviya mamlakatlariga nemis turistlarining 5,1% qismi to‘g‘ri keladi. 1990- yili Germaniya birlashgandan keyin Ispaniya, Portugaliya, Turkiya va Kiprga boruvchi nemislarning soni ortdi. Olis turistik yo‘nalishlaridan Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasi, Maldiv orollari, Shri-Lanka va Keniya nemis sayyohlarini o‘ziga jalb eta boshladi.

Germaniyaning o‘zida dam oluvchilarning soni nisbatan kamligi narxlarning yuqoriligi bilan izohlanadi. «Biznes-turlar» asosan Buyuk Britaniya, Yaponiya, Fransiya va Shveytsariyadan bo‘ladi. Mamlakat madaniyatining o‘ziga xosligi milliy liboslarga bo‘lgan katta e’tiborida. Ayniqsa bayram va dam olish kunlari ko‘pgina germaniyaliklar milliy kiyimda yurishni xush ko‘radilar.

Sport ham germaniyaliklar hayotida sezilarli o‘rin egallaydi. Maxsus sport klublari «fereyn»larning soni 50 mingdan ortiq. Bular

15 milliondan ortiq a’zoni birlashtiradi. Ayniqsa futbol, gimnastika, tennis va sportning yana bir qator turlari mashhur.

6.5.Janubiy Yevropa subregioni

Janubiy Yevropa subregioni. Janubiy Yevropa siyosiy xaritasida Ispaniya, Portugaliya, Italiya, Gretsiya hamda Andorra, San-Marino, Mal`ta va Vatikan “mitti” davlatlari joylashgan. Bu davlatlar iqtisodiy-geografi k o‘rni va xo‘jalik rivojlanishi jihatidan uzoq tarixi davomida O‘rta dengiz bilan chambarchas bog‘liqligi sababli Yevropaning O‘rta dengizbo‘yi mamlakatlari deb ham ataladi. Bu mintaqa Yevropa sivilizatsiyasi va madaniyatining chin beshigi hisoblanadi, chunki bu qit’adagi eng qadimgi davlatlar Gretsiya bilan Rim aynan O‘rta dengiz qirg‘oqlarida rivoj topgan. Malta O‘rta dengizdagi orollarda joylashgan kichik davlat bo‘lsa, subregionning qolgan davlatlari geografik o‘rni nuqtai nazaridan yarim orol mamlakatlari hisoblanadi. Andorra, San-Marino, Vatikan davlatlari yarim orollarda joylashsada, dengizga chiqish imkoniyati yo‘q. San-Marino bilan Vatikan anklav davlatlar hisoblanadi, chunki ular faqat bitta davlat, ya’ni Italiya bilan chegaradosh bo‘lib, butunligicha uning hududi bilan o‘ralgan. Janubiy Yevropa mamlakatlaridan Ispaniya va Andorra boshqaruv shakli jihatidan konstitutsiyaviy monarxiya, Vatikan davlati Yevropada yagona mutlaq teokratik monarxiya (davlat rahbari Rim-katolik cherkovi etakchisi hisoblanmish Rim Papasi), qolganlari esa respublikadir. Janubiy Yevropa davlatlari O‘rta dengiz geosinklinal mintaqasida joylashganligi tufayli seysmik jihatdan faol hudud hisoblanadi. Qadimdan olamga mashhur etna, Vezuviy, Stromboli vulqonlari ham Yevropaning shu qismida joylashgan. Foydali qazilmalardan rangli metall rudalari va mineral tuzlar zaxiralari mavjud. O‘rta dengiz tipidagi subtropik iqlim (yozi issiq, birmuncha quruq, qishi esa iliq va yomg‘irli) qishloq xo‘jaligi va turizm uchun juda qulay sharoit yaratadi. Lekin Yevropaning boshqa subregionlarga nisbatan suv resurslar bilan ta’minlanish darajasi pastroq bo‘ib, ayrim hududlarda suv tanqisligi ham sezilmoqda. Janubiy Yevropadagi demografik vaziyatga aholining tabiiy va migratsion ko‘payishining

past ko‘rsatkichlari xos. Ular orasida, ayniqsa, aholisi kamayib borayotgan Ispaniya, Portugaliya va Gretsiya davlatlari alohida ajralib turadi. Rivojlanayotgan davlatlardan, xususan Shimoliy Afrikadan, ko‘plab immigrantlar ko‘chib kelishi bilan bir vaqtda bu yerdan G‘arbiy Yevropa mamlakatlariga tomon emigratsion oqimning faolligi subregionning migratsiya qoldig‘ini ancha pasaytiradi, yuqorida aytib o‘tilgan davlatlarda esa manfiy ko‘rsatkichlargacha tushirmoqda. Janubiy Yevropa rel`efi, asosan, tog‘lardan iborat bo‘lganligi tufayli aholisi juda notekis joylashib, asosan qirg‘oqbo‘yi tekisliklari va daryo vodiylarida joylashgan. Urbanizatsiya Shimoliy va G‘arbiy Yevropa mamlakatlariga nisbatan biroz pastroq bo‘lsada, 60 foizdan yuqori darajada. Yevropaning O‘rta dengizbo‘yi mamlakatlari Shimoliy va G‘arbiy Yevropa davlatlariga nisbatan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari nisbatan past. Ayniqsa, Gretsiya, Ispaniya va Portugaliya iqtisodiyotidagi inqirozli vaziyat Yevropa Ittifoqi doirasida ko‘zga tashlanadi. Italiya garchi “katta ettilik” guruhi a’zosi bo‘lsada, mamlakatning turli hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi keskin farq qiladi. Shimoliy Italiya Yevropadagi eng rivojlangan iqtisodiy rayonlardan biri hisoblansa, Janubiy Italiya, aksincha, Yevroittifoqning eng qoloq rayonlaridan biri hisoblanadi. Xalqaro mehnat taqsimotida Janubiy Yevropa mamlakatlari, eng avvalo, subtropik dehqonchilik (uzum, sitrus mevalari, yong‘oq, zaytun va hokazo) bilan turizmga ixtisoslashgan. Bu subregion dengiz turizmining dunyodagi eng yirik rayoni hisoblanadi.

Italiyaning umumiy maydoni 301,3 ming km^2. Aholisining soni 60,588,366 kishi (2018), (Yevropada Germaniyadan keyin 2-o‘rinda turadi). Poytaxti Rim shahri. Milliy jihatdan aholining 98% ni italiyaliklar tashkil etadi. Savodxonlik darajasi 97%. Ichki milliy mahsulotning umumiy hajmi 1 trillion 88,6 milliard AQSH dollari (jon boshiga 19209 AQSH dollari).

XX asrda Italiya dunyoning eng yirik turistik markazlaridan biriga aylandi. 1991-yili O‘rta dengizi havzasiga tashrif buyurayotgan sayyohlarning 36% aynan shu mamlakatga keldi. Italiyaning asosiy turistik zaxiralariga tog‘lar, ko‘llar va madaniy boyliklar kiradi. Kelayotganlarning 45% ni Italiyaning madaniy-

tarixiy boyliklari qiziqtiradi. Xalqaro turizm mamlakatning shimolida mujassamlashgan. Mehmonlarni qabul qilish bo‘yicha 1-o‘rinni Venetto shahri egallaydi. Barcha turistlarning 20% shu yerga keladi. Undan keyin Toskano va Alto-Adije shaharlari turadi (har biriga 13%). 39 mlnga yaqin italiyaliklar o‘z kurortlarida dam olishni xush ko‘radilar. Emiliya-Romanya, Venetto, Toskano va Lombardiya viloyatlari, o‘rtacha har biri, ichki turistlarning 10% ni qabul qiladi. Mehmonxonalarning asosiy qismi (46,l%) mamlakatning shimoli-sharqida joylashgan. Ayniqsa, Trentino va Alto-Adije hududlarida mehmonxonalar ko‘p qurilgan. 1980-yillarda Yevropa Ittifoqi yordami bilan Italiyaning janubi Medzojorno mintaqasida yangi loyiha bo‘yicha turistik infratuzilma rivojlantirila boshlandi. Natijada qo‘shimcha 65 ming mehmonxona nomerlari tashkil etildi. Turistlarning asosiy qismi 3 yulduzli otellarda joylashadi. SHuningdek kemping, turistik qishloqlar, dam olish uylari, yoshlar markazlari, xususiy xonadonlar, alp uylar tizimi ham yaxshi rivojlangan. Tashqi turistlar asosan qo‘shni Germaniya, Fransiya. Avstriya va Shveytsariyadan tashrif buyuradilar. AQSH va Yaponiyadan kelgan sayyohlar asosan Rim, Florensiya va Venetsiya shaharlarini xush ko‘radilar.

Rim mamlakatning poytaxti bo‘lib, qadimgi yodgorliklarga juda boy. Italiyadagi dengiz kurortlaridan quyidagilari eng mashhur: Liguriya, Rimini, Lido de ezolo, Kaorle, Cherviya, Pezaro, Linyano va boshqalar. Alohida guruh sifatida tog‘ kurortlarini ajratsa bo‘ladi, masalan: Kurmayor, Kronplas, Val Gardena, Sestrier, Madonna de Kampilo, Passo Tonale va boshqalar.

Italiyaning milliy taomnomasidagi eng mashhur hamda dunyo miqyosida tarqalgan taom «pitsa» bo‘lib, uning turlari talaygina. Restoranlarda ko‘p taqdim etiladigan maxsus gazak «chipole» tarkibida qizil qalampir bor. Italiyaliklar orasida «anguila» (baliq sho‘rvaning bir turi) taomi ham mashhur. Ichimliklardan kofe ko‘p imte’mol qilinadi. Spirtli ichimliklardan oq vino «Tokay» hamda qizil vino «Kaberne» sayyohlar orasida ham katta shuhrat qozongan. Italiyaliklar kiyimga katta e’tibor beradilar va ayniqsa, bayramlarda

chiroyli kiyinishni yoqtiradilar. Italiyaliklarga xos bo‘lgan yana bir xususiyat har bir italiyalik o‘z tug‘ilgan hududini juda hurmat qiladi.

Ispaniya maydoni 504750 km^2. Aholisining soni 46,714,997 kishi (2019). Poytaxti Madrid shahri. Savodxonlik darajasi 96%. Ichki milliy mahsulotning umumiy hajmi 565 milliard AQSH dollari (jon boshiga 14622 AQSH dollari).

Qadimda bu mintaqa Iberiya deb nomlangan. Dunyoning eng yirik turistik markazlaridan biri hisoblanadi. Asosiy tashriflar O‘rta dengizi qirg‘oqlari va Balear orollariga to‘g‘ri keladi. Kanar orollarida sayyohlar asosan qishda dam oladilar. Turizm ayniqsa ikkinchi jahon urushidan keyin jadal rivojlana boshladi. Agar 1950-yili tashrif buyurgan turistlarning soni 3 million bo‘lgan bo‘lsa, 1990-yili ularning soni 34,3 millionga etgan bo`lsa 2019 yilga kelib 75 mln. kishidan oshgan. Turizm rivojlanishi tufayli 1960-yillarning o‘rtasida 500 ming, 1975-yili 1 million, 1990-yili esa 2 milliondan ortiq yangi ish joylari tashkil etildi. 1970-yillarning o‘rtasida yirik zamonaviy qurilish faollashdi. 1980-yillarda Benidorm, Salou, Torremolinos va Balear orollaridagi kurortlar qayta ta’mirlandi. 1992-yilli Barselonada bo‘lib o‘tgan Olimpiya o‘yinlari va Sevilya shahridagi Butunjahon ko‘rgazmasi turizm yangi turtki oldi. Shu yillari poytaxt Madrid Yevropaning madaniy markazi deb tan olindi. Ispaniyaning eng mashhur kurortlari: Almeriya, Kosta Brava, Tossa de Mar, Blanes, Kosta del Maresme, Santa Susana, Kalella, Sitjes, Salou, Aventura, Kambrils, Tarragona, Peniskola, Kosta Blanka va boshqalar. Ispaniyaga tegishli va turizm tizimida juda muhim o‘rin egallaydigan mintaqa Mayorka oroli hisoblanadi. Ichki turistlarni qabul qilish bo‘yicha Valensiya shahri 1-o‘rinda turadi.

Ispan taomnomasida dengiz taomlari katta o‘rin egallaydi. Achchiq so‘uslardan «chilindron», «romesko», «aloli» va boshqalari juda mashhur. Maxsus pivoxonalardagi gazaklar bepul tortiq etiladi. Tabiiy hol, Ispaniya haqida ma’lumot berar ekanmiz, «korrida», ya’ni buqalar jangi haqida gapirib o‘tmasdan iloji yo‘q. Sayyohlarni o‘ziga jalb etuvchi mahalliy unsurlardan biri aynan shudir. Shu bilan birga Ispaniyaning o‘zida «korrida»ga munosabat turlicha. Ayniqsa keyingi yillarda Ispaniyada hayvonlarni himoya

qilish harakatlari kuchayganda, «korrida»ni taqiqlovchi markazlar ham paydo bo‘lmoqda.

Portugaliya mamlakatning maydoni 91985 km^2 (shu jumladan, orollarining maydoni 3,4 ming km^2). Aholisining soni 10 milion 600 ming kishi (2018). Poytahti Lissabon shahri. Ichki milliy mahsulotning umumiy hajmi 116,2 milliard AQSH dollari (jon boshiga 11665 AQSH dollari). Mahalliy turizm industriyasi Ispaniyanikidan miqyos bo‘yicha qolsada, ikki mamlakat o‘rtasida juda ko‘p umumiylik mavjud. Masalan, ikkala mamlakatda ham turizm mintaqasi kichik hududlarda, mamlakatning ichkarisida hamda janubiy qirg‘oqlarda joylashgan. Turistlarning eng gavjum joyi Portugaliyaning janubiy qismi Algarva viloyatiga to‘g‘ri keladi. G‘arbiy Afrika qirg‘oqlari yaqinida joylashgan va Portugaliyaga qarashli Madeyra oroli qishki turizmda muhim o‘rin egallaydi. Portugaliyaliklarning taxminan 30% o‘z mamlakatida dam oladi. Bu ko‘rsatkich Yevropadagi boshqa davlatlardan birmuncha pastroq. Portugaliya har yili 20 millionga yaqin turistlarni qabul qiladi. Bularning ko‘pchiligi bir kunlik turistlardir. Sayyohlar asosan Ispaniya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Niderlandiya, Italiya va AQSHdan tashrif buyuradi.

Gretsiya mamlakatning umumiy maydoni 131 957 km^2. Aholisining soni 10 million 741 ming kishi (2018). Poytaxti Afina shahri. Savodxonlik darajasi 95%. Ichki milliy mahsulotning umumiy hajmi 101,7 mlrd AQSH dollari (jon boshiga 9686 AQSH dollari).

Mamlakat hududi asosan orollardan iborat. Gretsiya tarkibiga O‘rta dengizidagi eng yirik orol Krit oroli kiradi. Ko‘p yillar mobaynida mamlakat tarixiy-madaniy turizmga yondashgani sababli ommaviy turizm Gretsiya uchun yangi soha hisoblanadi. Tarixiy-madaniy turizm 1950-yillarda, ayniqsa AQSHdan turistlarni ko‘p jalb etardi. Hozirda turistlar mamlakatga asosan Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Niderlandiya va Fransiyadan tashrif buyurmoqda. Afina Gretsiyaning poytaxti va shu bilan birga asosiy turistik markazi. Omoniya nomli kvartalda nisbatan arzon

buyum va suvenirlar sotiladi. Shu sabab bu yerda sayyohlar doimo gavjum.

Salonika mashhur tarixiy shahar bo‘lib, XV asrda turklar tomonidan qurilgan Oq Minora shaharning ramzi hisoblanadi. Asosiy otellar: «Makedoniya Palas», «Elektra Palas», «Park», «El Greko», «Qirolicha Olga» va boshqalar. Kastoriya shaharning nomi, oliy xudo Zevsning o‘g‘li Kastor ismi bilan bog‘liq.

Gretsiya o‘zining dengiz bo‘yidagi kurortlari bilan shuhrat qozongan. Pieriya kurortining ramzi mahalliy Olimp tog‘i hisoblanib, uning balandligi 2917 metr. Olimp tog‘i va uning atroflaridagi hudud 1937- yildan milliy qo‘riqxona deb e’lon qilingan. Gretsiyaga tegishli bo‘lgan orollar ham turizm infratuzilmasida juda muhim ahamiyatga ega. Ioniya orollari bu yerning asosiy markazi Korfu; Itaka oroli afsonaviy Odisseyning vatanidir. Kikladi orollari bu mintaqa go‘zalligi sababli «Gretsiyaning durdonasi» deb ataladi. Rodos oroli mamlakatning eng qadimgi savdo markazlaridan biri. «Krit oroli Yevropaning eng qadimgi davlat birlashmalari aynan shu yerda paydo bo‘lgan.

6.6.Sharqiy va Markaziy Yevropa subregioni

Sharqiy va Markaziy Yevropa subregioni. Bu sobiq Ittifoqdosh respublikalar hamda sobiq sotsialistik mamlakatlar (Polsha, Chexiya, Slovakiya, Vengriya, Ruminiya, Bolgariya, Sloveniya, Serbiya, Xorvatiya, Bosniya va Gersegovina, Chernogoriya, Makedoniya, Albaniya) kiradi. Yettita davlati – Belarus, Chexiya, Slovakiya, Vengriya, Moldova, Serbiya, Makedoniya, Markaziy Osiyo davlatlari dengizga chiqish imkoniyatiga ega emas. Bolgariya, Albaniya, Makedoniya, Serbiya, Bosniya va Gersegovina, Xorvatiya, Chernogoriya davlatlari Bolqon yarimorolida joylashganligi bois odatda Bolqon mamlakatlari deb nomlanadi. Subregion hududi asosan, ulkan Sharqiy Yevropa tekisligidan iborat bo‘lsada, yirik tog‘ tizimlari ham mavjud. Tog‘lar Chexiya, Slovakiya, Ruminiya, Albaniya davlatlari hududining katta qismini egallaydi. Urbanizatsiya darajasi, Moldova, Bosniya va Gersegovina hamda Sloveniyadan tashqari, 50 foizdan yuqori,

ayrim davlatlarda esa 70 foizdan ham ortib ketadi. Lekin o‘rtacha olganda, boshqa subregionlarga nisbatan Sharqiy Yevropaning shaharlashuv darajasi biroz pastroq. Eng yirik shahar aglomeratsiyalari Moskva, Sankt-Peterburg, Praga, Kiev, Budapesht negizida, Ukrainadagi Donetsk-Dneprbo‘yi va Polshadagi Sileziya sanoat rayonlarida, Rossiya hamda Bolgariyaning Qora dengizbo‘yi sohillarida shakllangan. Aholining milliy tarkibida slavyan xalqlari etakchilik qiladi. Slavyan xalqlari guruhiga rus, ukrain, belarus, polyak, bolgar, serb, xorvat, chex, slovak, bosniyalik, sloven, makedoniyalik, chernogoriyaliklar kiradi. Sharqiy Yevropa mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy darajasi bir-biridan ancha farq qiladi. Garchi bu yerdagi hamma mamlakatlar o‘tish iqtisodiyotidagi davlatlar safiga kiritilgan bo‘lsada, Sloveniya, Chexiya, Vengriya, Slovakiya, Xorvatiya, Polsha kabi davlatlarning aksariyat iqtisodiy ko‘rsatkichlari Yevropadagi rivojlangan davlatlar pog‘onasiga yaqinlashgan bo‘lsa, Albaniya, Makedoniya, Moldovaning ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari birmuncha past bo‘lib, ko‘proq rivojlanayotgan mamlakatlarning darajasiga tortadi.

Chexiya va Slovakiya 1993-yil Chexoslovakiya davlati 2 qismga bo‘linib ketdi. Chexoslovakiya Sharqiy Yevropaning eng yirik turistik markazi edi. Yiliga bu yerga 24,6 million sayyoh kelgan. Mahalliy aholi asosan Vengriya, Germaniya, Polsha va Avstriyaga sayohat qiladi. 1989-1991- yillardan boshlab turizm sohasi tez rivojlana boshladi.

Chexiyaning umumiy maydoni 78864 km^2. Aholisining soni 10 million 649 ming kishini tashkil etib, ularning 94% chexlardan iborat (2019). Poytaxti Praga shahri.

Slovakiyaning maydoni 49035 km^2. Aholisining soni 5 million 455 ming kishi (2019). Ularning 85% slovaklardan iborat. Poytaxti Bratislava. Savodxonlik darajasi 99%. Chexiyada turizmni rivojlantirish uchun yirik xorij sarmoyalari kiritilmoqda. Slovakiyadagi Bratislaua, Koshise, Preshou, Jilina, Banska-Bistrisa va boshqa. Mashhur kurortlar Tatra tog‘ yonbag‘irlarida ko‘p bunyod etilgan. «Ozon», «Elizabeta», «Astoriya», «Yontana» va boshqa sanatoriylar sayyohlarni hamda mahalliy aholini o‘ziga jalb e tadi.

Slovaklarning Zvolen shahrida eksportga chiqariluvchi brinza va dudlangan pishloqlar «oshtepok» va «parenisa» (ishlab chiqarish markazlari Liptov hamda Banska-Bistritsa shaharlari) mashhur.

Vengriya mamlakatning maydoni 93030 km^2. Aholisining soni 9 million 772 ming kishi (2019). Poytaxti Budapesht shahri. Savodxonlik darajasi 99%. Ichki milliy mahsulotning umumiy hajmi 72,5 milliard AQSH dollari (kishi jon boshiga 7042 AQSH dollari).

Vengriya Sharqiy Yevropaning eng barqaror davlati hisoblanadi. Vengriyaga kelayotgan turistlarning asosiy qismi Avstriya, Germaniya, Slovakiya, Sloveniya va Ruminiyaga to‘g‘ri keladi. Tekislik mintaqalarida chorvachilik yaxshi rivojlangan. Mahalliy otliq cho‘ponlar «chikoshi»lar milliy liboslarda yurgani sababli sayyohlarni jalb etadi. Azaldan «chikoshi»lar quritilgan xamir («tarxonya») dan tayyorlangan taomlarni iste’mol qiladilar. Yog‘li ovqatlardan cho‘chqa go‘shtidan tayyorlangan qalampirli taomlar katta o‘rin egallaydi. Vengrlarning quyuq qalampirli sho‘rvasi «gulyash» xorijda ham juda mashhur. Ichimliklardan qora kofe ko‘proq iste’mol qilinadi.

Polsha mamlakat maydoni 313895 km^2. Aholisining soni 38 million 313 ming kishi (2019). Poytaxti Varshava shahri. Savodxonlik darajasi 99%. Ichki milliy mahsulotning umumiy hajmi 226,7 milliard AQSH dollari (jon boshiga 5882 AQSH dollari).

Polsha aholi soni bo‘yicha mintaqadagi eng yirik mamlakat hisoblanadi. Siyosiy o‘zgarishlar 1989-1992-yillarda xorijlik turistlar sonining birmuncha kamayishiga olib keldi. Shu bilan birga G‘arb davlatlaridan, jumladan, Germaniyadan tashrif buyuruvchilar soni o‘sa boshladi. Turizm infratuzilmasi Chexiya va Vengriyaga nisbatan past rivojlangan. Polshada azaldan katolik mazhabining ta’siri kuchli bo‘lgan. 1978-yili asli polyak bo‘lgan Karol Voytila Rim papasi etib saylangandan keyin bu ta’sir yanada kuchayib ketdi.

Polyaklarning milliy kiyimlaridan «kerpse» (yozgi poyabzalning turi), «sukman» (kurtkaning turi) va boshqalarni ajratsa bo‘ladi. Liboslarda turli tasvir va ornamentlarga katta e’tibor

beriladi. Chorva mahsulotlarini iste’mol qilish bo‘yicha Polsha Sharqiy Yevropa mamlakatlari ichida yuqori o‘rinni e gallaydi.

Polyak taomnomasida brinza, pishloq va boshqa sutli mahsulotlar ko‘p. Karamdan tayyorlangan taomlar ham mashhur bo‘lib, maxsus sho‘rva «bigos» keng tarqalgan. Shirinliklardan kichik pecheniy turi «nouoletka» iste’mol qilinadi. To‘y marosimlarida azaliy urf-odatlar qishloq mintaqalarida saqlanib qolgan.

Ruminiya mamlakat maydoni 237500 km^2. Aholisining soni 19 million 401 ming kishi. Poytaxti Buxarest shahri. Qirg‘oq bo‘yi va tog‘ zaxiralari bilan boy bo‘lgan Ruminiyada turizmi ancha rivojlangan. Tashrif buyurayotganlarning asosiy qismi Sharqiy Yevropa mintaqasiga to‘g‘ri keladi. Yevropaning boshqa qismlaridan tashrif buyurgan sayyohlar 13% ni tashkil etadi.

Yirik shaharlardan Buxarest, Kluj-Napoka, Timishoara, Iasi, Brashou, Krayoua, Konstansa va boshqalarni ta’kidlash joiz. Yirik kurortlardan Mamaya, Kostineshti, Sinaya, Predyal, Poyana-Brashou va boshqalar turizm infratuzilmasida juda muhim o‘rin egallaydi. Milliy kiyimlar «chiorechi» (shimning turi), «kechule» (uchli qalpoqning turi), «suman» (to‘nning turi) sayyohlarda qiziqish uyg‘otadi. Milliy taomnomada sabzavot muhim o‘rin egallaydi. Ovqatlardan «cho‘rba» (ko‘katli sho‘rva) iste’mol qilinadi. Bizning kabobimizga o‘xshash ruminlarning taomi «mititey» deb ataladi. Karpat tog`ida tog` turizmi, (Durau) ekoturizm rivojlangan. Ishlov berilgan echki suti juda mashhur. Ichimliklardan qora kofe ko‘proq iste’mol qilinadi. Spirtli ichimliklardan engil vinolar hamda olxo‘rili aroq «suyka» mashhur.

Bolgariya mamlakat maydoni 110994 km^2. Aholisining soni 7 million kishi bo‘lib (2019), ularning 85% bolgarlardan iborat. Poytaxti Sofiya shahri. Urbanizatsiya darajasi 71,7%. Savodxonlik darajasi 98%. Ichki milliy mahsulotning umumiy hajmi 43,2 milliard AQSH dollari (jon boshiga 4902 AQSH dollari). 1989-yili g‘arbdan kelayotgan turistlar soni umumiy sayyohlar soniga nisbatan atigi 18% ni tashkil etardi. Tashrif buyurayotganlarning asosiy qismi Sharqiy Yevropa mintaqasidan edi. 1992-yildan g‘arb davlatlaridan kelayotgan turistlarning soni

orta boshladi. Qora dengiz bo‘ylaridagi dam olish maskanlari va tarixiy yodgorliklar mehmonlarni jalb etadi.

Mahalliy taomlar orasida «kebabcheta» (kabobning bir turi), «sarmi» (tok barglaridan tayyorlanadigan taomning turi), «plakiya» (baliqli taom) va boshqalar mashhur. Sharqiy Yevropa davlatlari 1990-yillarning boshidagi qiyinchaliklardan keyin turizm sohasini rivojlantirishga katta e’tibor qaratmoqda.

Shveytsariya. Mamlakat aholisining soni 7 million 724 ming kishidan iborat (2019). Umumiy maydoni 41293 km^2. Poytaxti Bern shahri. Urbanizatsiya darajasi 84%. Savodxonlik darajasi 99%. Ichki milliy mahsulotning umumiy hajmi 158,5 milliard AQSH dollari (jon boshiga 22640 AQSH dollari). Mamlakatning qadimgi nomi «Gelretsiya». Shveytsariya 1815-yildan betaraf mamlakat hisoblanadi. 1291-yili tog‘lik kanton (Shveytsariya viloyatlari shunday nomlanadi) Shvis boshchiligida chet el bosqinchilariga qarshi kurash boshlandi. Keyinchalik Shvis nomidan mamlakatning yangi nomi, ya’ni Shveytsariya kelib chiqqan.

1863-yili Tomas Kuk kompaniyasi Jeneva ko‘li bo‘yiga birinchi turistik guruhning safarini tashkil etdi. 1870-yili Alp tog‘lariga birinchi temir yo‘l o‘tkazilishi bilan turizmning rivojlanishi yanada jadallashdi. Mashhur sog‘lomlashtirish kurortlari Sankt Moris hamda Bad-Ishl bunyod etildi. 1920-yillargacha yozgi turizm ustun edi. Bundan keyingi davrda tog‘ chang‘i sporti rivojlanishi munosabati bilan qishki turizm rivojlana boshladi. Shunga qaramasdan 1990-yillarning boshida barcha sayyohlarning 57% yozgi mavsumga to‘g‘ri keldi. Turistlarning asosiy qismi Germaniyadan tashrif buyuradi. Keyingi o‘rinlarda Niderlandiya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Belgiya, Italiya, AQSH, Yaponiya, Ispaniya va Avstriya turadi. 1980-yillarning o‘rtalarida shveytsar frankining kuchayishi uzoq muddatli turistik tashriflarni qisqartirdi. Qisqa muddatga kelgan sayyohlarning soni oshdi. Xalqaro turizm Shveytsariya xazinasiga har yili 13 milliard shveytsar franki olib keladi. Bu ko‘rsatkich mamlakat milliy daromadining 8% ini tashkil etib, 14% aholini ish bilan ta’minlaydi.

Shveytsariyaliklarning o‘zlari ham sayohat qilishni yoqtiradilar. Ularning 60% asosan O‘rta yer dengizi havzasida dam olib, 10 milliard shveytsar frankiga yaqin mablag‘ni chet elda sarflaydi. Shunday qilib xalqaro turizmga tushayotgan daromad 3 milliard shveytsar frankini tashkil etadi. Mintaqaning rel`efi mahalliy uysozlikka o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Mamlakatning tog‘ qismida terrasasimon binokorlik asosiy xususiyatlardan biri bo‘lib, o‘rmonlar orasidagi uylar, peyzajga o‘ziga xos jozibani kasb etadi. Odatda, uylarda deraza ko‘p bo‘lib, maxsus idishlarda rang-barang gullar etishtiriladi. Shveytsariyaliklar tozalik va ozodalikka juda katta e’tibor berishadi. Shaharliklarning asosiy taomi makkajo‘xoridan tayyorlangan ovqatlar hisoblanadi. Makkajo‘xorili quyuq bo‘tqa «polenta» juda mashhur. Shveytsariyaliklar pishloqdan turli xildagi taomlar ham tayyorlaydilar. Pishloqning oliy navlari «emmental» hamda «gryuer» (bu bizda «shveytsar pishlog‘i» deb nomlanadi) eksport qilinadi. Ichimliklardan sutli kofe ko‘p iste’mol qilinadi. Sport o‘yinlaridan kegli, qishki turlardan tog‘ chang‘isi, bobsley va alpinizm mashhur.

Avstriya. Mamlakatning umumiy maydoni 83856 km^2 ni tashkil etadi. Aholisining soni 8 million 923 ming kishi (2019). Poytaxti Vena shahri. Savodxonlik darajasi 99%. Ichki milliy maxsulotning umumiy hajmi 152 milliard AQSH dollari (jon boshiga 19209 AQSH dollari).

Avstriyaning qulay geografik o‘rni va yuqori sifatli avtomobil yo‘llari tranzit turizmining rivojlanishiga ijobiy ta’sir etadi. Keyingi yillarda Sharqiy Yevropada totalitar tizimning parchalanishi bilan, bu yerdan Avstriyaga tashrif buyurayotgan sayyohlarning soni ancha ortdi. 1990-yillarning boshida Avstriyaga qo‘shni Vengriya, Chexiya, Slovakiya va Polshadan kelayotgan sayyohlarning soni ko‘paydi. Odatda bu tashriflar «shop-tur» ko‘rinishida bo‘ladi. Avstriyaliklarning o‘zi O‘rta dengizi bo‘ylarida dam olishni xush ko‘radilar. Avstriya sportning qishki turlari markazi hisoblanadi. Xalqaro turizm asosan mamlakatning g‘arbiy tog‘ qismida mujassamlashgan. Tashrif buyurayotganlarning 80% Germaniya, Niderlandiya va Buyuk Britaniyaga to‘g‘ri keladi. Keyingi o‘rinlarda Italiya,

Shveytsariya, Fransiya, AQSH, Belgiya, Shvetsiya va Sharqiy Yevropa mamlakatlari turadi. Turistlarning asosiy qismi yozda avgustga, qishda fevralga to‘g‘ri keladi. Keyingi yillarda barcha Alp mintaqasidagi davlatlar singari Avstriyada ham ekologik muammolar ko‘ndalang bo‘layapti. Bu jarayon asosan turistlarning sonini ko‘payishi bilan bog‘liq bo‘lmoqda. Vena mashhur binolaridan «Auliyo Stefan» ibodatxonasi, «Xofburg» saroyi», «Belueder» saroyi, «Madaniy-tarixiy muzey» turistlar orasida ayniqsa mashhur. Avstriyaning eng mashhur kurortlari asosan tog‘ mintaqasida joylashgan. Bularni ichida butun dunyoga mashhur Insbruk kurorti alohida o‘rin egallaydi. Insbrukda ikki marotaba qishki Olimpiada o‘tkazilganining o‘zi so‘zimizning tasdig‘i hisoblanadi. Shu bilan birga Insbruk o‘rta asrlardayoq yirik markaz bo‘lib, bu yerda qator gotik ibodatxonalar ham saqlanib qolgan.

Simmertal nomli tog‘ kurortida Avstriyadagi eng baland tog‘li kanat yo‘li o‘tkazilgan (3250 m). Bu kurortning faqat tog‘ chang‘i trassalarining uzunligi 441 kilometrni tashkil etadi. Lex nomli kurortda Avstriyadagi birinchi tog‘ chang‘i trassalari o‘tkazilgan edi. Alp mintaqasida sutli mahsulotlar ko‘proq iste’mol qilinadi. Dunay pasttekisligidagi hududlarda unli mahsulotlardan tayyorlangan taomlar keng tarqalgan. Bo‘sh vaqtning katta qismini avstriyaliklar sportga bag‘ishlaydi. Chang‘i sporti eng mashhur bo‘lib, uning asoslari hatto maktablar dasturiga ham kiritilgan. Avstriya muzdagi baletning vatani hisoblanadi.

Nazorat savollari:

1.Butunjahon turistik tashkiloti qachon tashkil etilgan?
2. Butunjahon turistik tashkiloti shtab kvartirasi qaysi shaharda joylashgan?
3. Butunjahon turistik tashkilotiga qancha davlat a’zo bo‘lgan?
4.BTT jahon mamlakatlarini nechta yirik regionga ajratgan?
5.2018 yilda Yevropa qancha turist tashrif buyurgan?
6.Yevropa regioni nechta subregionga bo‘lingan?
7.Shimoliy Yevropa subregioniga eng ko‘p tashrif buyurgan shaharni bilasizmi?

Foydalangan adabiyotlar:

1.Александров А.Ю. “Международний туризм”.- М. Аспект пресс 2002.
2.Gulmetor F. E., Allabergenor A. A. Turizm geografiyasi: Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. — T.: «Talqin», 2004
3.Кружалин В.И. География туризма : учебник.- М. : Федеральное агентство по туризму, 2014.
4.Мирзаев М.А Туризм асослари ўқув қўлланма Т-2011
5.Sh. M. Sharipov, V. N. Fedorko, N. I. Safarova, V. A. Rafiqov. Geografiya.-Toshkent,2016
6.UNWTO Tourism Highlights 2019 edition
7.Corneliu Iatsu. Geografiul turizmul.-Romania.Iasi.2013

7-BOB. AMERIKA REGIONI MAMLAKATLARIDA XALQARO TURIZM GEOGRAFIYASI

Reja:

7.1. Amerika regionining turizm geografiyasi
7.2. Shimoliy Amerika subregioni (AQSH, Kanada turizmi)
7.3. Markaziy Amerika subregioni turizmi (Meksika turizmi)
7.4. Janubiy Amerika subregioni turizmi (Braziliya turizmi)
7.5.Karib havzasi subregioni turizmi

7.1.Amerika regionining turizm geografiyasi

Butunjahon turistik tashkiloti yillik xisoboti ma'lumotlariga ko‘ra, Amerika regioniga 2017 yilda jami 209 mln turist qabul qilgan bo‘lib, o‘tgan yilga nisbatan +4% o‘sgan. Jahon turizmidagi turistik tashriflarning 15,7% shu region xissasiga to`g`ri keladi. Mazkur regionda turizmdan kelgan daromad miqdori esa 326 dlrd AQSH dollarini (+1%) tashkil etgan. Bu region boshqa regionlarga nisbatan turistlarni qabul qilish va daromad ko‘rsatkichlarining o‘sish bo‘yicha yuqoridir. Hududiy jihatidan bu region Shimoliy Amerika (soni +3%, tushum +1%) subregioni (AQSH, Kanada davlatlari), Markaziy Amerika (+5%, +4%) subregioni, Janubiy Amerika (+8%, +2%) subregioni, Karib havzasi subregioni (+3%, +4%)ga bo‘linidi.

Amerika regioni 2000 yilgacha Yevropadan keyingi xalqaro turizmning rivojlanganlik darajasi va moliyaviy ko‘rsatkichlari bo‘yicha etakchi turistik region hisoblanar edi. Barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha bugungi kunda ikkinchi o‘rinni Osiyo-Tinch okeani regioni egallagan. Amerika turizm biznesi ikkinchi jahon urushidan keyin rivojlana boshladi. Amerika regioni turizmining rivojlanganlik darajasi ushbu regionda joylashgan mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasi bilan uzviy ravishda bog‘liqdir. Bu regionda turistik infratuzilma va turizm industriyassining rivojlanganlik darajasi bo‘yicha AQSH va Kanada ajralib turadi.

Amerika xalqaro turizmning rivojlanishi ikkinchi jahon urushidan keyin rivojlana boshladi. Amerika mintaqasida turizm

biznesining biznesining rivojlanganlik darajasi, ushbu mintaqada mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasi bilan uzviy ravishda bog‘liq.

3-karta-sxema.Amerika turistik regioni



Ushbu mintaqada turizm xo‘jaligi ya’ni turistik infrastrukturasi, ayniqsa transportning barcha turlarining rivojlanganligi bilan Shimoliy Amerika davlatlari ayniqsa AQSH va Kanada ajralib turadi. Lotin Amerikasi mamlakatlari turizm imkoniyatlarida turistik imkoniyatlar nisbatan sust rivojlangan. Bunga asosiy sabab ushbu davlatlarning turizm yaxshi rivojlangan. Yevropa davlatlaridan uzoqda joylashganligi turistik xizmatlarining yuqori darajada rivojlanmaganligi Lotin Amerikasi mamalakatlarining iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlanmaganligi hisoblanadi.

Amerikada 50 dan ortiq davlatlar va o‘zini-o‘zi boshqaradigan hududlar joylashgan. O‘zini-o‘zi boshqaradigan hududlarning asosiy qismi Karib dengiz havzasidagi Antil ororlllari, Bermud orollari

Kayman orollarida joylashgan. Ular asosan ilgarigi mustamlaka mamlakatlarining qoldiqlari hisoblanadi. Ushbu orollarning ayrimlarida dam olish zonalari dam olish tashkil qilingan. Ana shularga Bermud orollari misol bo‘la oladi. Amerika mintaqasi 3 okean oroliga ya’ni Atlantik,Tinch va Shimoliy muz okeanlari oralig‘ida joylashgan. Ushbu mintaqa uning materik ya’ni Shimoliy va Janubiy Amerika materiklariga bo‘linadi.

Shimoliy Amerika materigining maydoni 24,3 ming km ga teng bo‘lib, uning yer usti ancha murakkab tuzilgan. Uning g‘arbiy qismlari meridional yo‘nalishda Kordilera tog‘larida joylashgan. Uning eng baland cho‘qqisi Mak-Kengli cho‘qqisi bo‘lib, 6193 m shu yerda qimirlashlar bo‘lib turadi va harakatdagi vulqonlar mavjud. Materikning sharqiy qismini keng maydonga cho‘zilgan hamda o‘rtacha balandliklardagi tog‘lar egallab yotadi. Materikning qirg‘oq yoqalari har xil bo‘laklangan. Tinch va Atlantika okean qirg‘oq yoqalari ancha kuchli cho‘zilgan. Kanadaning qirg‘oq yoqalarida qadimgi materik muzliklarining ta’sirida hosil bo‘lgan. Relef shakllari Feldlar keng tarqalgan. Shimoliy Amerika materigining iqlimi xilma-xil bo‘lib, bu yerda shimolda Arktika iqlimidan tortib G‘arbiy janubida tropik iqlim mintaqalari shakllangan. Materiknig qirg‘oq yoqalari okean ta’sirida hosil bo‘lgan iqlimda joylashgan.

Materik shimolida ya’ni Shimoliy muz okeani va Tinch okeani qirg‘oq yoqalarida yiliga 3000 mm, Kordilera tog‘ oralig‘ida 100-200 mm yog‘in yog‘adi. Qishda 42° Shimoliy kenglikda Arktikaning ta’siri kuchli, qor qishda erimaydi. Shu sababli bu yerda qish oylarida dam oladigan qishki sport turlarini rivojlantirish mumkin.

Shimoliy Amerika materigi daryo turiga boy. Ulardan asosiylari Missisipi, Missuri (6420 km). Shimoliy muz okeani daryolari Shimoliy, Yuqori, Kolumbiya, Kolorado va boshqalar. Shimolga va g‘arbga oquvchi daryolar tog‘ daryolarida ular sharsharaga boy. Ushbu daryolarda turizmning maxsus turi reytingni rivojlantirish mumkin. Materik shimolida yo‘llar ko‘p. Materikning shimoldan janubga katta masofaga cho‘zilganligi xilma-xil tabiat zonalarining shakllanishiga olib kelgan. Materikning katta qismini o‘rmon

zonalari keng quloch yoygan. Materikning ichki qismida dasht va chala cho‘l zonalari rivojlangan. Shimoliy Amerika yuqori darajada urbanizatsiyalangan. O‘lkaning katta qismiga madaniy landshaftlar keng quloch yoygan. Tabiiy landshaftlarni asrab qolish maqsadida 50 dan ortiq milliy bog‘lar tashkil etilgan. Milliy bog‘larni tashkil qilish ko‘proq AQSH ga xos bo‘lib, bu davlatda 1978-yildan boshlab, milliy bog‘larni asrash to‘g‘risida qonun qabul qilingan. Hozirgi kunda faqat AQSH ning o‘zida 350 parklar tashkil qilingan bo‘lib, mamlakat maydonining 32 foizini tashkil qiladi.

Janubiy Amerika materigining yer usti tog‘ va tekisliklarining tez-tez almashinib turishligi bilan ajralib turadi. Tog‘li mintaqa Kordilera materigining Tinch okeani qirg‘oq yoqalarini egallab yotadi. Tog‘larning eng baland cho‘qqisi Akanggua-6960 m ga teng. Tog‘lar meridional yo‘nalishida cho‘zilgan va harakatdagi va so‘nggan vulkonlar keng tarqalgan. Materikning asosiy qismini ko‘tarilgan tekisliklardan tashkil topgan. Janubiy Amerika janubiy kenglikda joylashganligi sababli quyosh nurlari ko‘p tushadi va tropik landshaftlari asosiy o‘rinni egallaydi. Bu yerda nam tropik o‘rmonlari va savannalar asosiy o‘rinni egallaydi. Janubiy Amerikada rekreatsion resurslar yetarli darajada foydalanilmayapti. 1492 yilda Xristofor Kolumb tomonidan ochilgan davrda Amerikada yuqori sivilizatsiyaga ega bo‘lgan davlatlar mavjud bo‘lgan. XV asrdan boshlab Amerikaning mustamlakachilar tomonidan zabt etish boshlandi. O‘lkaning janubini ispanlar tomonidan shimolini esa inglizlar tomonidan o‘zlashtirila boshladi. Shu sababli Lotin Amerikasi mamlakatlarida ispan tili keng tarqalgan. 1776-yilda AQSH XIX asrida mustamlakachilikka qarshi kurash evaziga Lotin Amerikasi mamlakatlari mustaqillikni qo‘lga kiritdi. Mahalliy xalqlar (Abarigentlar) Amerikaning ichki qismlarida o‘zlarining madaniyatini saqlab qolishga urindilar. Shu sababli Amerikaga brogan turistlarni hozirgi zamonaviy turistik infrastruktura bilan birgalikda qadimgi xalqlar yashagan joylarning ularning madaniyati qiziqtiradi. Amerikada turizmning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillardan biri bu boshqa turistik mintaqalardan ayniqsa qadimdan turizm markazi hisoblangan. Yevropadan uzoqda joylashganligidir. Shu sabali Amerikada turizm

materik ichkarisida rivojlangan va ular AQSH Kanada va Meksika davlatlarida rivojlangan. Ushbu mintaqalarda turizm rivoji aholi daromadlarining ortishi aholi turmush sharoitining yaxshilanishi bilan bog‘liq. Amerika mintaqasiga keluvchi turistlarning tarkibiga Yevropaning (Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Germaniya va Ispaniyalar) egallaydi. Amerikaga keluvchi turistlar kenglik yo‘nalishda va meridional yo‘nalishida amalga oshiriladi. Materik ichkarisidagi turistlar oqimiga meridional yo‘nalishida turistlar harakati asosiy o‘rinni egallaydi. Kenglik yo‘nalishi bo‘ylab turistlar oqiminig keyin Yevropa, Yaponiya va Tinch okeani havzasidagi davlatlarda kuzatiladi. Amerika turistlari oqiminig keyinda Yevropadan keyin ikkinchi o‘rinni egallaydi. Materik ichkarisidagi turistlar oqimining kelishida AQSH bilan Kanada, AQSH–Meksika o‘rtasidagi aloqalar asosiy o‘rinni egallaydi. Amerikaning rekreatsion resurslari Amerikaga turistlar oqiming kelishiga olib keladi. Ayniqsa Meksika qirg‘oqlari, Karib dengizi havzasiga dam olish uchun turistlar oqimining kelishi ko‘payadi.

Davolanish-sog‘lomlashtirish turizm AQSHda rivojlangan. Shunday turistik markazlar Atlantika okeani va Tinch okeani qirg‘oq yoqalarida rivojlangan.

Ishbilarmonlik turizmi. AQSH, Kanada va Meksikada rivojlangan. Ishbilarmonlik turizmi Lotin Amerikasi mamalakatlari Paragvay, Gvatemala, Kosta-Rika, Peruda yaxshi rivojlanmoqda.

7.2.Shimoliy Amerika subregioni

Shimoliy Amerika subregioniga AQSH, Kanada va Meksika davlatlari kiradi. Bu subregion 2017 yilda 133,3 mln. turist tashrif buyurgan bo`lib, jami Amerika regioniga tashriflarning 10,1% aynan shu subregion xissasiga to`g`ri keladi. Turizmdan keladigan daromad ko`rsatkichi bo`yicha AQSH dunyoda etakchi davlatlardan biridir.

AQSH turizmi. AQSH maydonining kattaligi bo‘yicha dunyoda 3-o‘rinda turuvchi davlat bo‘lib, hududining ko‘lami 9,8 mln.km^2. Aholisining soni 327 million 631 ming kishi. Poytaxti Vashington shahri. Urbanizatsiya darajasi 76%. AQSHga

2017 yilda jami 75,6 mln turist tashrif buyurgan bo`lib, bu jihatdan dunyoda etakchi turustik mamlakatlardan biridir.

Mamlakatda turizm asosan 3 mintaqada Florida, Kaliforniya va shimoli-sharqiy shtatlarda mujassamlashgan. AQSH aholisining taxminan 40% aynan shu hududda istiqomat qiladi. Mamlakatning bu qismida Nyu-York, Pensilvaniya, Virjiniya, Aylend, Nyu-Jersi, Delaver, Merilend va G‘arbiy Virjiniya shtatlari joylashgan. Yevropalik rohiblar 1620-yili hozirgi Boston shahri yaqinida qirg‘oqqa tushganlar. Bu yerda ularning birinchi manzilgohlari saqlanib qolgan. Plyajlar tizimi shimolda Keyp-Kod yaqinida boshlanib, janubda Keyp-Xatterasgacha cho‘zilib boradi. Norfolk va Long-Aylend shaharlari orasida Virjiniya-Bich, Oushn-Siti, Uildud va Atlantik-Siti kurort shaharchalari joylashgan. Men shtatida AQSHda mashhurlik bo‘yicha 2-o‘rinda turuvchi Arkadiya milliy bog‘i joylashgan bo‘lib, yiliga 4 millionga yaqin sayyohlarni qabul qiladi.

Florida shtatida turizm 1870-yillarda rivojlana boshladi. Mayami-Bich shahri yirik dam olish va hordiq chiqarish markazi sifatida shuhrat qozongan. Bu yerda kongress-biznes ham rivojlangan. Shimolroqda, Palm-Bich kurortida VIP - mehmonlar uchun qator villalar bunyod etilgan. Florida shtatining mashhur joylaridan Orlando yaqinidagi «Disney-lend» hamda Kanaveral shahri yaqinidagi «Yazouiy tadqiqotlar markazi»ni ajratsa bo‘ladi. Tashrif buyurayotganlar soni jihatidan Kaliforniya shtati birinchilikni qo‘lda saqlab kelmoqda. Tinch okeani bo‘yida joylashgan bu mintaqa aholisining 90% shaharlarda istiqomat qiladi. Shtatning shuhrat qozongan joylaridan biri - Yosemit milliy xiyoboni hisoblanadi. Kaliforniyaning bosh sayyohlik markazi Los-Anjeles (1781-yili asos solingan) shahri bo‘lib, bu yerda mashhur kinomarkaz - «Golliuud» hamda «Disney-lend» joylashgan.

Nevada shtatida kazinolari bilan mashhur Las-Vegas shahri joylashgan. Arizona shtatidagi Grand-kanon o‘zining betakror go‘zalligi bilan turistlarni o‘ziga rom etadi. Bu yerda maxsus turizm rivojlangan, masalan, alpinizm, speleologiya, tog‘

daryolarida qayiqlarda suzish va boshqalar. Grand-kanon milliy bog‘ga aylantirilgan bo‘lib, yiliga bu yerga 3,5 million mehmon tashrif buyuradi. Tog‘li shtatlar Vayoming, Kolorado, Montana va Yuta o‘zining boy rekreatsion zaxiralari bilan mashhur. Mamlakat madaniyati asrlar davomida turli xalqlarning madaniyati asosida shakllandi. Shunga qaramasdan uning negizi ingliz madaniyati asosiga qurilgan. Turli diniy mazhablar ham AQSH da boshqa mamlakatlarga nisbatan ko‘proq. Hozirda 250 dan ortiq turli mazhablar bo‘lishi bilan birga xristianlik dini ustun turadi. Madaniyatning turli sohalariga Afro-amerikaliklarning ta’siri ham katta va keyingi yillarda yanada kuchaygan. Shuningdek bir vaqtlar mahalliy aholi bo‘lgan hindular madaniyatining ham ta’siri mavjud. Kiyinishda va ovqatlanishda aynan AQSH uchun xos bo‘lgan unsurlar ko‘pgina mamlakatlarda tarqalgan. Masalan: «indigo» materialidan tikilgan kiyim (odatda bu materialni «jinsi» deb ataydilar) ayni paytda dunyo miqyosida tarqalgan. AQSH madaniyatiga xos boshqa xususiyatlar ham mavjud. Bularning ichida «Koka-kola» ichimligi, «Yast food» deb atalmish butun boshli ovqatlanish industriyasi va boshqalar bor. AQSHga tashrif buyurayotgan xorijlik mehmonlar ikki guruhga bo‘linadi:

1) okeanorti mehmonlari;

2) Meksika va Kanada davlatlaridan kelgan mehmonlar. Birinchi guruh barcha tashriflarning 62%ni ta’minlaydi. AQSH aholisi sonining kattaligiga qaramasdan xorijga unchalik ko‘p odam chiqmaydi. Shu bilan birga ichki turizmning miqyosi juda katta. Mahalliy ta’tillar uzoq muddatli emas (odatda ikki hafta). Shunga qaramasdan amerikaliklar undan unumli foydalanadilar. Mahalliy aholi sayohatlarning ko‘pchiligini avtomobillarda (80%) amalga oshiradi. Sayohatlar 1,5 ming km masofadan ortiqqa cho‘ziladi.

AQSH transport tizimi yuksak darajada rivojlangan. Hatto taksilarda ham kvitansiya beriladi, mijozlar esa harakat davrida sug‘urtalanadi. Shu bilan birga, litsenziyasi bo‘lmagan taksilar tizimi ham mavjud bo‘lib, bularda sug‘urtalash yo‘q. Bunday taksilarni «jipsi» deb ataydilar. AQSHga tashrif buyurganlarning hammasi dastlab immigratsion tekshiruvdan o‘tkaziladi. Yana bir o‘ziga xos xususiyat bu yerda 21 yoshga to‘lmagan shaxslarga

spirtli ichimlik sotilmaydi. AQSH ning eng yirik shahri hamda iqtisodiy poytaxti Nyu-Yorkda jahon miqyosida eng baland ko‘p qavatli binolar joylashgan. Shaharda 60 dan ortiq ko‘priklar qurilgan. Nyu-Yorkning markaziy qismi «Manhetten» deb nomlanib, «Qoyali hudud» ma’nosini beradi. Manhettenga kiraverishda Atlantika okeani bo‘yida butun dunyoga mashhur «Ozodlik haykali» o‘rnatilgan. Mamlakat poytahti Vashington Kolumbiya okrugida joylashgan. Shaharning eng baland binosi Kapitoliy bo‘lib, qadimgi Rim me’morchiligi uslubida qurilgan. Diqqatga sazovor tomoni shundaki, Vashingtonda Kapitoliydan baland bo‘lgan binolarni qurish taqiqlangan. Shuningdek, poytaxtda AQSH prezidentining qarorgohi Oq uy joylashgan. Michigan ko‘lining bo‘yida AQSHning eng yirik shaharlaridan biri Chikago joylashgan.

AQSHning Tinch okeaniga chiquvchi eng yirik bandargohi San-Fransisko shahri bo‘lib, amerikaliklar bu yerni «G‘arbiy qirg‘oq durdonasi» deb ataydilar. Shaharda xitoyliklar ko‘p bo‘lib, «Chaynataun» deb nom olgan kvartallar sayyohlarni jalb etadi. San-Fransisko atroflarida uzumzorlar juda ko‘p bo‘lgani uchun bu yerni «Yayn Kantri», ya’ni «uinolar mamlakati» deb ataydilar. Mahalliy vinolar mashhur fransuz vinolari bilan bemalol raqobat qila oladi. Amerikaliklarning milliy ramzi sifatida mahalliy ichimlik - «Koka-Kola» dunyo miqyosida shuhrat qozongan. Yevropaga Amerika qit’asidan borgan makkajo‘xori mahalliy aholi orasida hozirga qadar juda mashhur. Bu o‘simlikning mahalliy nomi «mais» bo‘lib, hindular tomonidan 5000 yil ilgari ham etishtirilgan ekan. Makkajo‘xoridan nafaqat non va yog‘, balki spirtli ichimliklardan «uiski» va hatto tish yuvish pastasi ham tayyorlanadi. Bu noyob o‘simlikdan dunyoda katta shuhrat qozongan «pop-korn» tayyorlanadi. Ogayo shahrida hatto «Pop-korn» muzeyi ochilgan. Yuqoridagi xususiyatlarning barchasi mamlakatga sayyohlar oqimining kengayishida katta ahamiyatga ega bo‘ladi.

Kanada turizmi. Kanadaning umumiy maydoni 9,9 mln km2 bo`lib, u ahonda, Rossiyadan keyin 2- o‘rin turadi. Aholisining soni - 37 million 267 ming kishi. Poytaxti Ottava shahri. Urbanizatsiya darajasi-77%. Kanada 2017 yilda 19,9 mln turistni qabul qilgan.

Kanada ichki turizmining shakli AQSHnikiga o‘xshab ketadi va sharqiy hududlarda mujassamlashgan. Ontario, Kvebek va shuningdek Tinch okean qirg‘og‘idagi Alberta va Britan Kolumbiyasi mintaqalari ayniqsa mashhur. Tashqi turizmning 40% AQSH, Meksika va Karib havzasidagi davlatlarga to‘g‘ri keladi. Keyingi yillarda AQSHdan keluvchilar soni qisqarib, Janubi-Sharqiy Osiyodan tashrif buyuruvchilar soni orta boshladi. Shuningdek, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya va Yaponiyadan kelgan mehmonlar turistlarning katta qismini tashkil etadi. Kanadaning eng yirik shahri Toronto bo‘lib, hindularning tilida bu so‘z «uchrashuvlar joyi» ma’nosini anglatadi. Shaharning eski qismida joylashgan tor ko‘cha Bey strit, mahalliy aholi orasida «Kanada Uoll striti» nomi bilan mashhur. Torontoni mashhur qilgan inshoot dunyodagi eng baland teleminora «Si-En» bo‘lib, uning balandligi 553 metr. Teleminora 1975-yili qurilgan va shu davrdan boshlab, shaharning ramzi va faxri hisoblanadi. Bu yerdagi Niagara sharsharasi xorijlik sayyohlarni o‘ziga tortadi. Sayyohlarda Torontoning Milliy balet, Milliy Opera, San’at markazi, Qirol muzeyi, Konservatoriya va boshqa binolari katta qiziqish uyg‘otadi. Kattaligi bo‘yicha Monreal shahri mamlakatda ikkinchi o‘rinda turadi. Shaharga 1642-yili asos solingan. Mahalliy xususiyatlardan biri-Monreall xiyobonlarining birida, jahondagi mashhur inshootlarning kichraytirilgan nusxalari bunyod etilgan, masalan, Parijdagi Notr-Dam ibodatxonasining nusxasi va boshqalar.

Kvebek shahrining nomi hindular tilida «suvlarning torayadigan joyi» ma’nosini anglatar ekan. Shaharda tarixiy binolar ko‘p bo‘lib, servis darajasi yuqori. Shu bilan birga Kvebek aholisi tarkibida fransuzlar ko‘pligi sababli bu hol o‘ziga xos xususiyatlarni yuzaga keltiradi. Masalan, guldasta sotib olayotganda ingliz tilida gapirsangiz sizdan 20 kanada dollari, fransuz tilida gapirsangiz sizdan ikki barobar kam pul talab etishadi. Kanadaning yana bir yirik shahri Vankurer bo‘lib, unga 1886-yili asos solingan. Vankuverda xitoylik immigrantlar ko‘p bo‘lib, «Chayna taun», ya’ni «Xitoy shaharchasi» ancha keng maydonni egallaydi.

Kanadada ovqatlanish tizimi juda yaxshi rivojlangan. Turli

millatlarga mansub restoranlar talaygina. Masalan, rus restoranlaridan «Dinasti star» va «Ernisaj», italyan restoranlaridan «Rugatti» mijozlarni o‘ziga jalb etadi. «Iton» savdo markazlari turistlar orasida katta shuhrat qozongan.

Meksika-mamlakatning umumiy maydoni 1,9 mln km^2. Aholisining soni-134 million 695 ming kishi (2018). Poytaxti-Mexiko shahri. Urbanizatsiya darajasi-75%. Meksika yiliga 34 mln.dan ortiq turist qabul qiladi (2017). Meksikaliklar ispan madaniyati bilan birga mahalliy hindularning madaniyatini ham qabul qilganlar. Xo‘jalikda keng qo‘llaniluvchi qurol «machete» nomli katta pichoq. Mahalliy binokorlikka xos uylar ko‘p xonali bo‘lib, ichki hovli «patio» deb ataladi.

Erkaklarning milliy liboslarini ichida maxsus yopinchiq «serape», keng shlapa -«sombrero» (ispancha, sombrasoya) turistlar orasida juda mashhur, ayollarning keng ro‘moli «reboso» nafaqat kiyim sifatida, balki yuk ko‘tarish uchun ham ishlatiladi. Suvoriylarning maxsus kiyimi «charro» turistlarni, ayniqsa, o‘ziga jalb etadi. Mahalliy taomnomada makkajo‘xori alohida o‘rinni egallaydi. Bu o‘simlikdan choyga o‘xshash maxsus ichimlik «atole» tayyorlaydilar. Shuningdek makkajo‘xoridan maxsus non- «tortilya» pishiriladi. Spirtli ichimliklardan agava kaktusidan tayyorlangan vino «pilke», hamda aroq «tekila» keng tarqalgan. Lotin amerikaliklarning taomnomasida qalampir katta o‘rin egallaydi.

Meksikaning eng mashhur bayrami «O‘liklar kuni» bo‘lib, bu bayram meksikaliklarning o‘limga bo‘lgan o‘ziga xos munosabatini ifodalaydi (bu kuni, kallasuyak yoki tobut shaklidagi shokoladlar va hokazolar sotuvga chiqariladi).

7.3.Markaziy Amerika subregioni turizmi

Markaziy Amerika subregioniga Beliz, Kosta-Rika, Salvador, Gvatemala, Gonduras, Nikaragua va Panama davlatlari kiradi. Bu subregionga 2017 yilda jami 10,7 mln. turist tashrif buyurgan. Mazkur subregionda etakchilikni Kosta-Rika egallaydi (2,9 mln turist tahrif buyurgan). Bundan tashqari, Panama 2 mln, Gvatemala 1,6 mln, Nikaragua 1,5 mln, eng past

ko`rsatkich Beliz (386 ming) va Gonduras (908 ming) mamlakatlari egallagan. Demak bu subregion davlatlarida xalqaro turizm juda taraqqiy etmagan va siyosiy vaziyat beqaror ekanligi bunga sabab bo`lishi mumkin.

7.4.Janubiy Amerika subregioni turizmi

Janubiy Amerika subregioniga Argentina, Boliviya, Btaziliya, Chili, Kolumbiya, Ekvador, Fransuz Gvianasi, Gayana, Paragvay, Peru, Surinam, Urugvay, Venesuela mamlakatlari kiradi. Bu subregionga 2017 yilda 32,8 mln turist tashrif buyurgan. Mazkur subregionda eng ko`p turist qabul qilgan davlat Braziliya (6,6 mln), Argentina (5,5 mln), Chili (4,4 mln) va Peru (3,4 mln) hisoblanadi. Eng past ko`rsatkich Surinam (257 ming), Fransiz Gvianasi (199 ming) va Gayana (235 ming) mamlakatlari kiradi.

Braziliya mamlakatning umumiy maydoni 8,5 mln km^2. bo‘lib, bu ko‘rsatkich bo‘yicha Braziliya jahonda 5-o‘rinni egallaydi. Aholisining soni 210 million 147 ming kishini tashkil etadi (2019). Bularning 95% braziliyaliklardan iborat. Poytaxti-Brazilia. Urbanizatsiya darajasi-78%. Savodxonlik darajasi-80%. Ichki milliy mahsulotning umumiy hajmi 976,8 milliard AQSH dollari (jon boshiga 6456 AQSH dollari).

Braziliya-Lotin Amerikasining eng yirik davlati va o‘tmishda Portugaliyaning mustamlakasi boshqa davlatlari esa Ispaniyaning sobiq mustamlakalari bo‘lgan. Mahalliy xususiyatlardan biri bu mamlakatda turli millatlarning madaniyatini chatishib ketganligidadir. Bu yerda o‘ziga xos etnoslar ham tashkil topgan, masalan, «mulatlar» oq va qora tanlilarning avlodlari, «metislar» oq tanlilar va hindularning avlodlari, «sambolar» qora tanlilar va hindularning avlodlari.

Rio de Janeyro- Braziliyaning yirik turistik markazi. Bu yerdagi tog‘da bunyod etilgan Iso haykali shaharning ramzi hisoblanib, butun dunyoga mashhur. Mahalliy restoranlar majmuasi «Shurashkari» deb nomlanadi. Rio-de-Janeyroning eng yirik restorani-«Karretao». Ovqatlanish tizimidagi o‘ziga xos xususiyat

ma’lum bir taomni qanday hajmda sotib olishingizga qaramasdan narxi bir xil va ancha arzon bo‘ladi. Bu yerda sayyohlarni «Kopagabana», «Mirador Rio» kabi otellar qabul qilib oladi.

San-Paulu Lotin Amerikasining eng yirik shahri hisoblanadi. Turistlarga mahalliy «Ionlar qo‘riqxonasi» katta qiziqish uyg‘otadi. Bu yerda bozorlarning soni juda ko‘p bo‘lib, deyarli hamma narsani xarid qilsa bo‘ladi. Braziliya mamlakatning poytaxti bo‘lib, o‘ta zamonaviy shaklda bunyod etilgan. 1960-yili bunyod etilgan bu shaharni, ba’zida «texnopolis» deb ham ataydilar. Shaharning bosh me’mori Oskar Nimeer poytaxtning tashqi ko‘rinishini samolyotga o‘xshatgan uning «qanot» qismida aholining istiqomat joylari, «burun» qismida esa asosiy hukumat binolari joylashgan. Shaharda deyarli chorrahalar yo‘q bo‘lib, «qanot»larda avtomobillar juda kam. Mamlakatga qimmatbaho elektron buyum olib kirayotgan bo‘lsangiz, uning narxidan 30% soliq to‘lashingiz kerak bo‘ladi. Mahalliy xususiyatlardan biri bu yerda turli tropik kasalliklar tarqalgan. Shu sabab, Braziliyada bo‘lsangiz har xil hashoratlardan ehtiyot bo‘lishingiz hamda qaynatilmagan suv ichmasligingiz lozim bo‘ladi.

Milliy taomlardan «feydjoada» (go‘sht, guruch va karamli maxsus ovqat), «uatapa» (dengiz mahsulotlaridan tarkib topgan taom) va boshqalar mashhur. Amazoniya mintaqasida hindu taomnomasi keng tarqalgan, masalan, «tachapa» deb nomlangan go‘shtli taomni 4 kun mobaynida tayyorlaydilar. Ichimliklardan, tabiiy hol, kofe juda keng tarqalgan. Spirtli ichimliklardan mahalliy pivo «kashasa» va aroq «kaypirina» iste’mol qilinadi. Braziliyani butun dunyoga mashhur qilgan narsa o‘ziga xos quvnoq bayramlar, karnavallar. Har yili, fevral oyining ohirida karnavallar bo‘lib o‘tadi. Bu bayramlarga butun dunyodan yuz minglab turistlar tashrif buyuradilar. Karnavallarda 40 mingtagacha aktyorlar qatnashib, ayniqsa «samba» deb ataluvchi raqs juda mashhur bo‘ladi.

7.5.Karib havzasi subregioni turizmi

Karib havzasi subregioniga kiruvchi mamlakatlar turizmi bevosita kruiz turizmi, etnoturizm, rekreatsiya turizmi bilan

bog‘liqdir. Bu subregionga Angiliya, Antigua va Barbuda, Aruba, Bagam orollari, Barbados, Bermud, Virgin, Kayman orollari, Kuba, Dominika, Grenada, Yamayka va boshqa jami 27 ta orollarda joylashgan davlatlar, hududni o‘z ichiga oladi. Ularning xo‘jaligi shakllanishi va rivojlanishida turizmning ahamiyati beqiyosdir.

5-jadval

Karib xavzasi mamlakatlari turizm statistikasi

Karib havzasi mamlakatlari nomi (inglizcha nomi)	2018 yildagi xalqaro turistik tashriflar (ming kishi hisobida)	2018 yildagi xalqaro turizmdan kelgan daromad (ming AQSH dollari hisobida)
Angilia	55	131
Antigua va Barbuda	269	557
Aruba	..	1,855
Bagam orollari	1,627	2,996
Barbados	680	1,081
Bermud orollari	282	508
Britaniyaning Virgin orollari	192	..
Kayman orollari	463	..
Kuba	4,684	3,186
Kyurasao	432	551
Dominica	63	121
Dominican Resp.	6,569	7,184
Grenada	161	144
Guadelupe	..	..
Gaiti	..	459
Jamaica	2,473	2,809
Martinika	537	510
Montserrat	9	8
Puerto Riko	3,068	3,848
Saint Lucia	396	754
Kitts va Nevis	116	157
Maarten	178	630
Vincent va Gren.	80	95
Trinidad va Tobago	375	453
Turks va Caicos	..	571
Virgin orollari	381	1,202
jami	25,678	31,802

Jadval.UNWTO Tourism Highlights 2018 edition ma’lumoti asosida tuzilgan

Nazorat savollari:

1.Amerika regioni nechta subregionga bo‘linadi?
2.Amerika regioni 2017 yilda jami qancha turist qabul qilgan?
3.Amerika regioni 2017 yilda qancha daromad olgan?
4.Amerika regionida xalqaro turizm qachondan boshlab rivojlana boshladi?
5.AQSHda milliy bog‘larni asrash to‘g‘risidagi qonun qachon qabul qilingan?
6.AQSHda qancha milliy bog‘lar tashkil etilgan?
7.Florida shtatida qaysi shahar yirik dam olish markazi sifatida shuxrat qozongan?
8.Grand-Kanon turistik maskani qaysi shtatda joylashgan?
9.Kanadaning Toronto shahri hindular tilida qanday ma’noni anglatadi?
10.Braziliyaning yirik turistik markazi qaysi shahar hisoblanadi?
11.Karib havzasi subregioniga nechta mamlakat kiradi?

Foydalangan adabiyotlar:

1. Александров А.Ю. “Международний туризм” Учебник. М. Аспект пресс 2002.
2.Gulmetor F. E., Allabergenor A. A. Turizm geografiyasi: Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. - T.: «Talqin», 2004
3.Глушко А. А., Сазыкин А. М. География туризма Издательство Дальневосточного университета. Владивосток-2002.
4.Кружалин В.И. География туризма: учебник -М. : Федеральное агентство по туризму, 2014.
5.UNWTO Tourism Highlights 2018 edition

8-BOB.OSIYO –TINCH OKEANI REGIONI MAMLAKATLARI XALQARO TURIZM GEOGRAFIYASI

Reja:

8.1. Osiyo-Tinch okeani turistik regioniga umumiy tavsif
8.2. Shimoli-Sharqiy Osiyo subregioni mamlakatlari turizmi
8.3.Janubi-Sharqiy Osiyo subregioni turizmi
8.4.Avstraliya va Okeaniya subregioni turizmi
8.5.Janubiy Osiyo subregioni turizmi

8.1. Osiyo-Tinch okeani turistik regioniga umumiy tavsif

Butunjahon turistik tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, Osiyo-Tinch okeani regioniga 2017 yilda jami 323 mln turist qabul qilgan bo‘lib, o‘tgan yilga nisbatan +6% o‘sgan. Mazkur regionda turizmdan kelgan daromad miqdori esa 390 dlrd AQSH dollarini (+3%) tashkil etgan. Demak, boshqa regionlarga nisbatan Osiyo-Tinch okeani regioni turistlarni qabul qilish va daromad ko‘rsatkichlarining o‘sish bo‘yicha eng yuqori bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Geografik jihatidan bu region Shimoli-Sharqiy Osiyo (soni +3%, tushum-5%) subregioni (Xitoy, Koreya, Yaponiya davlatlari), Janubiy Osiyo (+6%, +13%) subregioni, Janubi-Sharqiy Osiyo (+9%, +9%) subregioni, Okeaniya subregioni (+6%, +6%), Janubiy Osiyoga bo‘linidi. Bu turistik makroregion ko‘lamining kattaligi bilan ajralib tursada, bu jihatdan region ichida turist ayriboshlashda ma’lum darajada qiyinchilik tug‘diradi. Shuningdek, turizmda etakchi hisoblangan Yevropadan ancha olisda ekanligi ham ta’sir ko‘rsatadi. Osiyo-Tinch okeani regionining o‘ziga xos geografik joylashuvi iqlimiy, rekreatsion, madaniy-tarixiy va boshqa turistik resurslarning turlicha bo‘lishiga sharoit yaratadi.

Osiyo-Tinch okeani regioni bugungi kunda iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari bo‘yicha turlicha bo‘lib, jumladan iqtisodiy jihatdan rivojlangan Yaponiya, Avstraliya, Yangi Zellandiya, tez rivojlanib borayotgan XXR, Koreya Respublikasi, Singapur, Malayziya, Tailand kabi davlatlar, iqtisodiy rivojlanishi nisbatan past

Kombodja, Laos, Vetnam, Okeaniya mamlakatlarining mavjudligi bilan boshqa turistik makroregionlardan farq qiladi.

Osiyo-Tinch okeani regionining yana bir jihati aholisi tez sur'atlar bilan o‘sib borayotganligidir. Bu ham turizmning shiddat bilan rivojlanib borishiga ma'lum darajada ta'sir ko‘rsatadi.

4-karta-sxema. Osiyo-Tinch okeani regioni



Osiyo-Tinch okeani regionida turizmning rivoji uzoqqa borib taqalmaydi. Binobarin, 1970 yilda turizmda o‘sish 3,2%, 2000 yilda 16% o‘sgan bo‘lsa, 2020 yilda 27% o‘sishi prognoz qilinmoqda. Bu region turistik tashriflar va daromad ko‘rsatkichlari bo‘yicha bugungi kunda Amerika turistik regionini quvib o‘tib dunyoda 2-o‘ringa chiqib oldi. Turizmdan keladigan foyda bo‘yicha Xitoy etakchi bo‘lsa, undan so‘ng Avstraliya, Yaponiya, Koreya Respublikasi turadi. Turizmga ajratiladigan xarajatlar miqdori bo‘yicha Yaponiya, XXR, Koreya Respublikasi, Tayvan, Singapur, Malayziya etakchidir. Avstraliya esa uyushtiriladigan sayohatning eng qimmat yo‘nalishi bo‘lib, o‘rtacha har bir turistdan 2000 AQSH

dollari talab etiladi. Bu esa dunyo ko‘rsatkichlaridan 3 barobar ortiqdir.

Osiyo-Tinch okeani regioni turizmdagi ulushi jihatidan tafovut mavjud bo‘lib, Sharqiy Osiyo 58%, Janubi-Sharqiy Osiyo 34%, Avstraliya va Okeaniya ulushi esa 9% ga to‘g‘ri keladi. Jami turistik tashriflarning 33% XXRga to‘g‘ri kelishi shundan dalolat beradiki, bu davlatdagi 300 ta shahar turistlarni qabul qilish va xizmat ko‘rsatishda regionda etakchi shaharlardan hisoblanadi. Bundan tashqari Syangan (Gonkong), Makao (Aomin) va Tailand xissasi ham juda yuqoridir.

Osiyo-Tinch okeani regionida ishbilarmonlik turizmi jami turistik tashriflarda 1960-yillarda 80% ni tashkil etgan bo‘lsa, hozirgi kunga kelib 21% ni tashkil etadi. Ayniqsa Yaponiya, XXR, Singapur, Tayvan, Avstraliya ishbilarmonlik turizmi rivojlangan mamlakatlardandir. Singapur Osiyo-Tinch okeani regionining ishbilarmonlik turizmi poytaxti hisoblanadi.

Turistik sayohatlarda tanishuv va dam olish turizmi XXR,Tailand, Malayziya, Indoneziya, Avstraliya, Singapur davlatlari, ko‘ngilochar turistik tashriflarda Yaponiya dunyoda AQSHdan keyingi o‘rinda turadi. Osiyo-Tinch okeani regioniga turistik motivlar asosan plyaj, egzotik tabiat, tarixiy-madaniy, milliy an’analar etakchi o‘rinda turadi.

Osiyo-Tinch okeani regionida ajoyib kurortlar Xitoy (Xaynan oroli), Tailand (Pittaya, Pxuket, Samuy kurortlari), Indoneziya (Bali oroli), Malayziya (Pinang), Avstraliya (Gold-Koust) kurortlari dunyoga mashhurdir. Sog‘liqni-tiklash va sog‘lomlashtirish turizmida tibet meditsinasi, igna bilan davolash, fitoterapiya, massaj kabilar bo‘yicha XXR, Tailand, Fillipin etakchi bo‘lsa, balneologik resurslarga Yaponiya, XXR, Avstraliya, Yangi Zellandiya ajralib turadi. Okeaniyadagi orol mamlakatlar o‘zining tabiani, an’analari, turmush-tarzi sayyohlarni diqqatini tortadi. Tanishuv turizmi Osiyo-Tinch okeani regionining eng ommabop marshrut yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, tarixiy (Buyuk Xitoy devori, Xitoy oshxonasi), arxitektura, milliy oshxona sayyohlarni jalb etadi.

8.2.Shimoli-Sharqiy Osiyo subregioni mamlakatlari turizmi

Shimoli-Sharqiy Osiyo subregioniga XXR, Gonkong, Yaponiya, KXDR, Koreya Respublikasi, Makao (Xitoy), Mongoliya, Tayvan (Xitoy) mamkalatlari kiradi. Bu subregionga yiliga 154,3 mln.dan ortiq turist qabul qilgan (2017). Eng ko`p turist qabul qilgan mamlakatlarga XXR (59,2 mln), Yaponiya (24 mln), Gong Kong (26,5 mln), Koreya (17,2 mln) va Tayvan (10,9 mln) shular jumlasidandir.

Xitoy Xalq Respublikasining umumiy maydoni 9,5 mln km^2 bo`lib, maydonining kattaligi bo`yicha jahonda 3-o‘rinni egallaydi. Aholisining soni 1 mlrd. 408 mln kishi (2019) bo`lib dunyoda 1-o‘rinni egallaydi. Poytaxti Pekin shahri hisoblanadi. Urbanizatsiya darajasi - 30%. Savodxonlik darajasi - 78%. Yalpi ichki mahsulotning umumiy hajmi 3 trillion 500 milliard AQSH dollarini tashkil etadi. Xitoy Tinch okeani qirg‘og‘idagi asosiy turistik mamlakat bo`lib, 300 ta shahrida turizm rivojlangan.

Xitoy l978-yildan boshlab dunyoga «ochiq eshiklar» siyosatini yurgiza boshlashi natijasida turizmning rivojlanishi uchun qulay imkoniyat yaratildi. l980-yillarning o‘rtalarida sayyohlik sohasi rivojlanishining 2- bosqichi kuzatildi. Bu davrda yirik otellar, birinchi navbatda Pekin va Shanxay shaharlarida bunyod etildi. Pekindagi yirik otellar quyidagilar «Palas», «Bambuk bog‘i», «Tiantan» va boshqalar. Shanxay shahrining otellari: «Garden», «Mandarin», «Piis» va boshqalar, Keyingi yillarda Chende shahri ham kengayib turistlarni o‘ziga jalb etmoqda. Chende otellari: «Uayt Suen», «Dongfang», «Landmark» va boshqalar. l979-l988 yillari sayyohlar asosan Yaponiyadan, so‘ngra AQSH, Buyuk Britaniya va Avstraliyadan tashrif buyurdilar. Ichki turizm ham rivojlanib, l987- yili mahalliy sayyohlarning soni 290 millionga yetdi. Boy turistik zahiralar va tarixiy yodgorliklar mamlakatning Shimoli-Sharqi hamda markazida joylashgan. l997-yili Gonkong Xitoyga o‘tib, «Bitta mamlakat-ikki tizim» deb nom olgan siyosat yurgizila boshlandi. Gonkongga turistlar asosan Yaponiya, AQSH, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya va Buyuk Britaniyadan tashrif buyuradilar. Gonkongliklar ta’tillarini asosan Tailandda (barcha

ta’tillarning 90%) o‘tkazadilar. Biznes turlarni esa gonkongliklar Filippin, Indoneziya, Singapur va Yaponiyada amalga oshiradilar. Xitoyning, Portugaliya hukmronligi ostida bo‘lgan hududi-Makao (Aomin) l999-yili Xitoy ixtiyoriga o‘tdi. Turistlarning ko‘pchiligi bu yerga katerlarda Gonkongdan kazinoda o‘ynash uchun keladi.

Xitoyni butun dunyoga mashhur qilgan qadimgi inshoot «Buyuk Xitoy devori» hisoblanadi. Xitoyliklarning o‘zi bu yodgorlikni «Uzun devor» deb atashadi. Devorning uzunligi 6300 kilometr bo‘lib, sayyoradan tashqarida, ya’ni kosmik fazodan ko‘rinib turuvchi, inson tomonidan yaratilgan yagona inshoot hisoblanadi. Bu haqida Oyda bo‘lib qaytgan amerikalik astronavtlar guvohlik beradilar. Turistlarni jalb etuvchi xususiyatlardan biri — Xitoy bilan Nepal chegarasida joylashgan Himolay tog‘lari hamda ushbu tog‘ tizmasida joylashgan dunyodagi eng baland cho‘qqi Everest (Jomolungma) hisoblanadi.

Xitoy taomnomasi ham butun dunyoda mashhur bo‘lib, jahon restoranlarida keng tarqalgan. Xitoy taomlarini tayyorlash uchun kerak bo‘ladigan barcha mahsulotlar avval mayda qilib to‘g‘raladi.

Yaponiya - mamlakatning umumiy maydoni 337,9 ming km^2. Asosiy hudud 4 oroldan iborat va hammasi bo‘lib 4000 dan ortiq orollarda joylashgan. Aholisining soni l24 million 776 ming kishi. Poytaxti -Tokio shahri. Urbanizatsiya darajasi 78% va bu ko‘rsatkich bo‘yicha Yaponiya jahonda yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Tashqi turizm bu mamlakatda l960-yillarning ohirida rivojlana boshladi. l973-yili 2,2 mln, l984-yili 4,6 mln, l990-yili l0 mln yaponiyaliklar xorijga safar qildilar. Yaponiyaliklar asosan Tinch okean havzasidagi mamlakatlarga AQSH, Gonkong, Janubiy Koreya va Singapurga sayohat qiladilar. Yevropa ham yana bir muhim turistik markaz sifatida, o‘ziga yaponiyaliklarni jalb etadi. Umuman olganda yaponlar dunyodagi eng ko‘p sayohat qiluvchi xalqlar qatoriga kiradi. Shu bilan birga mamlakatga tashrif buyuruvchilar soni nisbatan kam. Jahon turistlarining atigi 0,23% Yaponiyaga tashrif buyurar ekan. Yaponiyaliklar qator mamlakatlarda turizmni rivojlantirish maqsadida, ayniqsa, keyingi yillarda, katta sarmoya kiritmoqda. Mablag‘larning asosiy qismi

mehmonxona biznesini rivojlantirish yo‘nalishiga qaratiladi. Yaponiyaga tashrif buyuruvchi turistlarning soni l980-yillarda o‘sa boshladi. Mehmonlar asosan Tayvan, Janubiy Koreya va AQSHdan tashrif buyuradilar. Yevropaliklar asosan biznes-turlarni amalga oshiradi.

Yaponiyaning poytaxti-Tokioga l603- yili asos solingan. Hozirgi vaqtda bu yer mamlakatning bosh sayyohlik markazi hisoblanadi. Turistlarni Tokioda qadimiy xiyobonlar «Xibiya», «Siba», «Asakusa», «Meydzi» va boshqalar o‘ziga rom etadi. Balandligi 333 metr bo‘lgan poytaxtning teleminorasi shaharning ramzlaridan biri hisoblanadi. Tokioning bosh savdo ko‘chasi «Ginza» deb nomlanib, bu yerda deyarli barcha buyumlarni xarid qilish mumkin. Elektrotexnik buyumlarni maxsus, juda yirik savdo majmuasi -«Akixabara»dan sotib olish mumkin.

Umuman olganda, Yaponiyaning o‘ziga xos madaniyati mavjud bo‘lib, eng qiziqarlisi shundaki, bu mamlakat texnologiya jihatidan yuksak rivojlanganligiga qaramasdan o‘z madaniyatining ko‘p qirralarini saqlab qolgan. Yapon ayollarining milliy libosi «kimono» bo‘lib, turistlarni o‘ziga jalb etadi. Yaponlarda hech bir xalq madaniyatida uchramaydigan xususiyatlar mavjud. Yapon madaniyatining yana bir o‘ziga xos tomoni mahalliy yozuv. Ushbu yozuv «iyeroglif» deb nomlanib, uning asosi Xitoyda yaratilgan. Yaponlar ovqatni maxsus tayoqchalar «xasi» yordamida iste’mol qiladilar. Spirtli ichimliklardan guruchdan tayyorlanadigan aroq «sake», iste’mol qilinadi. Mahalliy madaniyatning eng e’tiborli tomonlaridan biri choy ichish marosimidir. Yaponiyada bu marosimga o‘rgatuvchi hatto maxsus maktablar ham mavjud. Yana bir muhim xususiyat Yaponiyada servis sohasidagi xizmatchilarga odatda choychaqa berilmaydi.

Koreya Respublikasi - mamlakatning umumiy maydoni 98,5 ming km^2. Aholisining soni 53,7 mln. Kishi (2018). Poytaxti — Seul shahri. Urbanizatsiya darajasi 66%. Savodxonlik darajasi 87%. Ichki milliy mahsulotning umumiy hajmi 452,8 milliard AQSH dollari (jon boshiga 9700 AQSH dollari). Mahalliy aholi o‘z yurtini «Choson», ya’ni «tonggi musaffolik o‘lkasi» deb ataydilar.

l999-yili Koreya turizm industriyasining rivojlanishi eng yuqori darajaga chiqdi. Koreya, l999-yili «Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti» (OECD) 39 a'zosi ichida l,96 mlrd AQSH dollarli ijobiy balans bilan l3-o'rinni egalladi.

«Sayohat va turizm bo'yicha xalqaro kengash» (WTTC) tashkilotining xulosasiga ko'ra 200l- yilni Koreya turizm industriyasining 2000-yilga nisbatan o'sishi 9,9% ni tashkil etdi. 200l-yil ohiriga kelib turizm sohasi, Koreyada 420 mingga yaqin kishini ish bilan ta'minladi. Koreya 2018 yilda 15,347 ming turist qabul qilib, undan kelgan daromad 15,319 mln AQSH dollarini tashkil etgan.

8.3.Janubi-Sharqiy Osiyo subregioni turizmi

Janubi-Sharqiy Osiyo subregioniga Bruney, Kambodja, Indoneziya, Laos, Malayziya, Myanma, Fillipin, Singapur, Tailand, Sharqiy Timor, Vetnam mamlakatlari kiradi. Subregionga 113,2 mln (2016) turist tashrif buyurgan bo`lib, eng ko`p turist qabul qilgan mamlakatga Tailand (32,5 mln), Malayziya (26,7 mln), Singapur (12,9 mln), Vetnam (10 mln) davlatlaridir.

Singapur mamlakatning nomi «singa-pura», ya'ni «arslon shahri» ma'nosini anglatadi. Umumiy maydoni 636 kv. km. Aholning soni 5 million 469 ming kishi (2018). Bularning 77,4% xitoyliklar, l4,2% malayliklar, 7,2% hindlardan iborat. Poytaxti Singapur shahri. O'ta zamonaviy mamlakat bo'lib, eng yangi kommunikatsion tizimga ega. Shu sabab bu yerda dam olish sayohligi bilan birga biznes-turizm yo'nalishi ham yaxshi rivojlangan. Mashhurligi bo'yicha yevropaliklar orasida Tailanddan keyin 2-o'rinni egallaydi. Turizm sohasi l965-l982-yillarda rivojlanib ketdi. l980-yillarning ohirida sayyohlik sohasining yillik o'sish darajasi l4-l5% ni tashkil etdi. l990-yillarda bu ko'rsatkich l0,6% bo'ldi. Mehmonlarning ko'pchiligini osiyoliklar tashkil etadi (l992-yili 65%). Keyingi o'rinni Yevropa (l5-l9%), Avstraliya va Yangi Zelandiya (l2%) hamda AQSH (6%) turistlar egallaydi. AQSH va Gonkongdan tashrif buyurganlarning katta qismi biznes-tur yo'nalishida

keladi. Ichki turizm ham yaxshi rivojlangan bo‘lib, l99l-yili mahalliy aholi 4,8 million sayohatlarni amalga oshirdi. Singapurliklar asosan Malayziya, Indoneziya, Tailand va Gonkong mamlakatlariga sayohat qiladilar. Singapur 2018 yilda 13,909 ming turist qabul qilib, undan kelgan daromad 20,528 mln AQSH dollarini tashkil etgan

Indoneziyani «ming orollar mamlakati» deb ataydilar. Aslini olganda bu ibora bo‘rttirish emas, aksincha, Indoneziya l3667 orollarda mujassamlashgan. Orollarning faqat 6044 tasida o‘z nomi mavjud va 992 tasida aholi istiqomat qiladi. Mamlakatning umumiy maydoni 1,9 mln km^2. Indoneziya insoniyatning eng qadimgi markazlaridan biri hisoblanadi. Aholisining soni 266 million 357 ming kishi (2018). Poytaxti Jakarta shahri. Urbanizatsiya darajasi 35%.

Indoneziya jahondagi eng yirik islom davlati bo‘lib, aholining 84% musulmonlardan iborat. Davlat xazinasiga mablag‘ tushirish bo‘yicha turizm sohasi 5- o‘rinda turadi (neft, gaz, yog‘och va to‘qimachilik mahsulotlaridan keyin). l980-yillarda turizm tez rivojlandi. l992-yili xorijlik mehmonlarning soni 3 millionga yetdi. Turistlar asosan Singapurdan tashrif buyuradilar. Keyingi o‘rinlarda Yaponiya, Malayziya, Avstraliya, Tayvan, AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Niderlandiya va Janubiy Koreya mamlakatlari turadi. Ichki turizm nisbatan past rivojlangan. Masalan, l99l-yili xorijga 450 ming indoneziyaliklar safar qildilar. Indoneziya 2018 yilda 12,948 ming turist qabul qilib, undan kelgan daromad 14,110 mln AQSH dollarini tashkil etgan

Tailand mamlakatning yana bir nomi «Pratet-tay». Umumiy maydoni 5l3,l km^2. Aholisining soni 71 million 37 ming kishi (2018). Poytaxti Bangkok shahri. Janubi-Sharqiy Osiyoda yevropaliklar orasida eng mashhur mamlakat. Safarlar soni bo‘yicha keyingi o‘rinlarni Malayziya, Yaponiya va Tayvan egallaydi. Yevropaliklar Tailandga nisbatan uzoq muddatga (o‘rtacha 9-l4 kun) kelgani bilan birga, kam pul sarflaydilar. Tailand 2018 yilda 36,483 ming turist qabul qilib, undan kelgan daromad 63,042 mln AQSH dollarini tashkil etgan

Malayziya maydoni 329,7 ming km^2. Aholisining soni 41 million 700 ming kishi (2018). Poytaxti Kuala-Lumpur shahri. Urbanizatsiya darajasi 54%. Mahalliy turizm bozori birinchi navbatda Singapur bilan bog‘liq. Masalan, l99l- yili xorijlik mehmonlarning 58,3% aynan shu mamlakatdan tashrif buyurdi. Tashrif sonlari bo‘yicha keyingi o‘rinlarda Tailand (9,3%), Yaponiya (7,l%), Yevropa mamlakatlari (7%) mintaqalari turadi. Oxirgi yillarda Xitoy va Tayvandan kelayotgan sayyohlarning soni orta boshladi. Ichki turizm ancha yaxshi rivojlangan. Mahalliy aholi asosan Singapurda dam olishni xush ko‘radi. l99l-yili Singapurga borgan sayyohlarning soni 9,5 millionga yetdi. Shuningdek, Tailand va Indoneziya mamlakatlariga ham malayziyaliklar ko‘p tashrif buyuradilar. Malayziya 2018 yilda 25,832 ming turist qabul qilib, undan kelgan daromad 19,143 mln AQSH dollarini tashkil etgan

8.4.Avstraliya va Okeaniya subregioni turizmi

Avstraliya va Okeaniya subregioni 2018 yilda jami 17 mln turist qabul qilgan bo‘lib, ushbu sohadan tushgan daromad 61,0 mlrd. AQSH dollarini tashkil etgan.

Avstraliya janubiy yarim Shardagi Avstraliya qit’asi. Tasmaniya oroli hamda Hind va Tinch okeanlarining bir qancha orollaridan iborat davlat. Hududi 7,7 mln. km^2. bo‘lib, aholisi 25,2 mln. kishi. Buyuk-Britaniya va Irlandiyadan kelganlarning avlodlari hisoblanadi. Yirik shaharlari va asosiy sanoat markazlari: Sidney, Brisben, Adelanda, Pert, Nyukasl, Melburn, Kanberra shaharlaridir. 1901 yil 1-yanvarda mustaqillikka erishgan. Avstraliya evropaliklar tomonidan 1788 yili ochilgan.

Avstraliya iqtisodiyoti yuqori darajada rivojlangan industrial-agrar mamlakat. AQSH. Buyuk-Britaniya. Yaponiya kapitalining iqtisodiyotdagi salmog‘i juda katta. Yalpi ichki mahsulotning 24%ini sanoat, 5%ini qishloq xo‘jaligi, 58%ini savdo, moliya-xizmat sohalari tashkil etadi.

Turizm Avstraliya YAIM 3,9%ini beradi. 2010 yilda Avstraliyaga 5,8 mln. xorijiy turistlar tashrif buyurgan bo‘lsa 2018

yilda 9,2 mln ga etdi. Avstraliyaga asosan Yangi Zellandiya, Yaponiya, Buyuk Britaniya, AQSH, XXR,GFR, Janubiy Koreya, Singapur Malayziyadan turistlar tashrifi amalga oshiriladi. Mamlakatning asosiy turistik shaharlari Sidney, Melburn, Brisben va Kerns shaharlari hisoblanadi.

Yangi Zelandiya Tinch okeanining janubi-g‘arbiy qismida joylashgan davlat. Kuk bo‘g‘ozi bilan ajratilgan ikkita yirik shimoliy va janubiy oroldan va Styuart, Chatem, Kermadek, Kempbell va boshqa kichik orollardan tashkil topgan. Hududi 270,5 ming km^2 bo`lib, aholisi 4,8 mln (2018) kishini tashkil etadi. Aholining 79%i Yevropadan ko‘chib kelganlar avlodi. 9,6% yerli aholi, qolgan qismi osiyolik. polineziyalik etnik guruhlardan iborat. Yirik shaharlari Oklend. Kraystcherch, Danidin, Vellington. Yangi Zelandiya orolini evropaliklardan birinchi bo‘lib gollandiyalik dengizchi A.Tasman 1642 yili ochgan. 1769 yildan boshlab esa J.Kuk tomonidan o‘rganilgan. 1839 yildan boshlab, bu yerlar britaniyaliklar tomonidan zabt etilgan va Yangi aholi ko‘chib kela boshlagan. 1840 yili Vaytang daryosi yonidagi bir qishloqda mahalliy Maoriy qabilasi bilan ingliz hukumati o‘rtasida Shartnoma tuzilib, unga ko‘ra Yangi Zelandiya erlariga Britaniya suvereniteti o‘rnatildi, hamda mahalliy qabilalar bilan bo‘ladigan o‘zaro munosabatlar kelishib olindi. 1907 yili mamlakatga yarim mustamlaka maqomi, 1931 yilda esa ichki va tashqi munosabatlarda mustaqillik huquqi berildi.

Yangi Zelandiya yuksak rivojlangan industrial-agrar davlat hisoblanadi. Shunisi harakterliki, ilg‘or davlatlar kabi bu yerda ham xizmat ko‘rsatish sohalari etakchi hisoblanadi va YAIM ning 64,6% shu sohaga to‘g‘ri keladi.

Tashqi iqtisodiy aloqalarda dengiz transporti muhim ahamiyat kasb etadi. Asosiy dengiz portlari: Vellington, Oklend, Yangi Zelandiya jon boshiga hisoblaganda tashqi savdo hajmi jihatidan jahonda birinchi o‘rinlarda turadi. Bu soha YAIMning deyarli 30% ni tashkil etadi. Asosiy savdo sheriklari: Avstraliya, AQSH, Buyuk-Britaniya, Yaponiya, Germaniya, Koreya, XXR mamlakatlari kiradi.

Yangi Zelandiyada ishga yaroqli aholining 65% xizmat ko‘rsatish sohalarida faoliyat ko‘rsatadi. Mamlakatga yiliga 2-2,5 mln. xorijiy turistlar tashrif buyuradi. Xalqaro turizmdan yiliga 3 mlrd. AQSH dollariga yaqin daromad ko‘riladi. Yangi Zelandiya turizm bozorini asosiy ta’minlovchi mamlakatlar Avstraliya. AQSH. Buyuk-Britaniya. Yaponiya. Germaniya. Koreya. Tailand. XXR va ASEAN mamlakatlari aholisi hisoblanadi. Yangi Zelandiya mamlakati xalqaro turizm harakatlarining iqtisodiy tahlil natijasi ko‘rsatishicha. jahon turistik tashriflarining 0,29%i. Osiyo va Tinch okeani mintaqasiga qilingan tashriflarning 1,6% Yangi Zelandiya mamlakatiga to‘g‘ri keladi. Yangi Zellandiya 2018 yilda 3,686 ming turist qabul qilib, undan kelgan daromad 11,004 mln AQSH dollarini tashkil etgan.

Okeaniya turizmining asosiy destinatsiyalari sifatida Kuk orollari, Fidji, G‘arbiy Samoa, Taiti, Mikroneziya orollari, Meloneziya va Polineziya kiradi. Yangi Zellandiyaga qarashli Kuk orollari 15 ta orolchalardan iborat bo‘lib, bu orollarda ommaviy turizmda dayving-tur, 1 kunlik jungliga sayohat marshruti, okeanda baliq ovlash kabi turlar chet ellik turistlarni o‘ziga jalb qiladi. G‘arbiy Samoa yer yuzining eng cheka hududi sifatida sivilizatsiyadan olisdagi maskan sifatida qiziqarli marshrutlar tashkil etilgan. Yangi Kaledoniya Tinch okeanidagi Fransiyaga qarashli hudud bo‘lib, u yerda endemik turga xos fauna va flora ekoturizmni rivojlantirishga zamin yaratadi.

8.5.Janubiy Osiyo subregioni turizmi

Janubiy Osiyo subregioni yer sharida aholi eng zich yashaydigan hududlar qatoriga kiradi. Bu regionda aholi soni 1,5 mlrd. kishiga yaqinlashmoqda. Ushbu regionga Afg‘aniston, Bangladesh, Hindiston (17,4 mln turist qabul qilgan bo‘lib, u subregionda etakchi davlatdir), Butan (274 ming) Nepal (1,173 ming), Shri-Lanka, Maldiv orollari (1,484 ming), Eron (7,296 ming)ni o’z ichiga oladi. 2018 yilda subregionga jami 32,817 ming turistlarni qabul qilgan bo‘lib, undan kelgan daromad ko‘rsatkichi 43,620 mln AQSH dollarini tashkil etgan.

Janubiy Osiyo subregioni turizmi tarixiga nazar tashlasak, bu mintaqada turizm juda sekinlik bilan rivojlangan. Masalan, 1970 yildan 1996 yilgacha, ya’ni 26 yil davomida xalqaro turizm 20% ga o‘sganligi kuzatilgan. 1970 yilda bu mintaqaga 0,9 mln. xorijiy turistlar tashrif buyurgan bo‘lsa 1996 yilda 4,5 mln. turistlar tashrif buyurgan. 1985-1993 yillarda turistik tashriflar soni o‘sgan bo‘lsa ham tushumlar miqdori bo‘yicha pasayish kuzatilgan. 1994 yildan boshlab sekinlik bilan bo‘lsa ham o‘sish kuzatilgan. 1996 yil Janubiy Osiy mamlakatlariga 4,4 mln. xorijiy turistlar tashrif buyurgan. Turizm tushumlari 3.963 mlrd. AQSH dollarini tashkil etgan.

Mazkur subregion 2000 yillarda jahon turizm tashriflarining 0,76% jahon turizm tushumlarining 0,94%i to‘g‘ri kelgan. Bu mintaqada siyosiy barqarorlik, o‘zaro kelishmovchiliklar, turizm sohasi bo‘yicha sarmoya siyosatini yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi sababli xalqaro turizm sust darajada rivojlangan. 2002 yilda Janubiy Osiyo mintaqasi mamlakatlariga 6,079 mln. xorijiy turistlar tashrif buyurgan. 1996 yilga nisbatan o‘sish sur’atlari 24,4% ni tashkil etgan. Jahon bo‘yicha turizm tashriflarining 0,88% Janubiy Osiyo mintaqasi mamlakatlariga to‘g‘ri kelgan. Xalqaro turizm tushumlari 5,367 mlrd.AQSH dollarni tashkil qilgan. Har bir turistik tashrif 2000 yilda 882 AQSH dollarga to‘g‘ri kelgan. Janubiy Osiyo mintaqasi xorijiy turistlarni o‘ziga jalb qilish bo‘yicha 2002 yilda tarixiy ahamiyatga molik muvaffaqiyatlarga erishdi. 2002 yilda jahon turizm harakatlari 2,7% ga o‘sishga erishilgan edi. Janubiy Osiyo mintaqasida oldingi yilga nisbatan o‘sish sur’atlari 6,8% ni tashkil etdi. Bu yillik o‘sish dunyo bo‘yicha o‘rtacha o‘sishdan yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

Bu regionda xalqaro ahamiyatga molik tadbirlar bo‘lib o‘tmagan bo‘lsada. Eron va Hindistonning ekzotik dam olish joylari xorijiy turistlarning diqqat e’tiborini o‘ziga jalb etib kelmoqda.

Mintaqaga nisbatan turizmni rivojlantirish geografik o’rinda joylashgan. Mintaqaning asosiy qismida joylashgan davlatlar okeaniga chiqish imkoniyatiga ega. Faqatgina Butan va Nepal quruqlikning ichki qismida joylashgan.Osiyoning janubida joylashgan davlatning iqtisodiy jihatdan yuqori darajada

rivojlanmagan. Shu bois turizm bu mintaqada turizm rivojiga salbiy ta’sir ko’rsatadi. Mintaqa juda katta maydonni egallaydi. Bu esa turizmni rivojlantirish uchun juda katta imkoniyatlarni ochib beradi. Bu yerda cho’l namtropik o’rmonlari,tog’ tundra va tog’ muzliklari keng tarqalgan.Himolay tog’ida dunyoning eng baland cho’qqisi Jamolungma cho’qqisi (8848m). Bu yerda sport, alpinistik turizmini rivojlantirish imkoniyatini beradi.

Maldiv orollari mamlakatning asosiy daromad manba dengizda cho’milib dam olishdan iborat. Hindiston davlati tanishuv, sog‘lomlashtirish turizmi rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Hindiston buddaviylik dini markazlari sifatida mashhurdir. Islom madaniyatiga xos madaniy arxitektura markazlaridan biri Boburiylar tomonidan qurilgan Toj-mahal ansambli jahonning etti mo‘jizasi sifatida mashhurdir.

Hindiston Osiyo qit’asining janubida joylashgan davlat bo`lib, maydoni 3,287,732 km^2. Yirik shaharlari: Dehli (8,4 mln. aholi). Kalkutta (11 mln). Bombey (12,6 mln). Madras (5,4 mln). Bangalor (4,1 mln). Haydarobod (4,3 mln). Ahmadobod (2,7 mln). Aholisining ko‘pligi jihatidan dunyoda Xitoy Xalq respublikasidan keyin 2-o‘rinda turadi. Aholisining soni 1 mlrd 366 mln.dan ortiqroq.

XIX-asrning o‘rtalaridan to 1947 yilgacha Buyuk Britaniyani mustamlakasi bo‘lgan. 1947 yil 15 avgustda mamlakat siyosiy mustaqillikka erishdi. 1950 yil 26 yanvarda respublika deb e’lon qilindi. Hindistonda 500 dan ortiq qabilalar itiqomat qiladi. Ular 100 dan ortiq turli tillarda so‘zlashadilar. Ammo hind va ingliz tillari rasmiy til hisoblanadi. Aholining 83% hinduizm. 11% islom diniga e’tiqod qilishadi. Shu bilan birga Sinx, Xristianlik, Jaynizm, Buddizm va boshqa dindorlar ham bor.

Mamlakatda ishga yaroqli aholining 60% qishloq xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatadi. Sanoatda bu ko‘rsatkich 20% ga teng. Shunisi diqqatga sazovvorki, iqtisodiy qoloqlik bilan birga ishlab chiqarishda jahon fani va texnikasining so‘nggi yutuqlari ham keng qo‘llaniladi. Iqtisodiyotning rivojlanishi nihoyatda notekis bo‘lib, o‘sish bilan birga pasayishlar davri takrorlanib turadi. Aholi o‘rtasidagi moddiy tabaqalanish juda kuchli, ya’ni kambag‘allar

bilan birga juda katta boylar ham mavjud. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra 250 mln. aholi qashshoqlik darajasidan past holatda xayot kechirmoqda. 70 mln. aholini ahvoli yuqori darajada ta’minlangan. Aholining 60% savodsiz. 40 mln. aholi doimiy ravishda ishsizlar guruhiga kiradi.

Hindiston dunyoning eng qadimiy va madaniyati yuksak mamlakatlardan biri bo‘lib hisoblanadi. Shuning uchun ham xorijiy turistlarni bu mamlakatga qiziqishlari katta. Hindistonda xalqaro turizmni rivojlantirish imkoniyatlari juda katta. Hindistonning tarixiy-me’moriy yodgorliklari, tarixiy joylari, muqaddas ziyoratgohlari xorijiy turistlar xordiq chiqarishi uchun qulay bo‘lgan milliy ruhdagi dam olish maskanlari, tabiati an’anaviy hunarmandchilik, xalq ommaviy san’ati dunyo aholisini doimiy ravishda jalb qilib kelgan. 2002 yilda Hindistonga 2,649 mln. xorijiy turistlar tashrif buyurgan bo‘lsa 2018 yilda 17,427 mln kishiga etgan. Janubiy Osiyo mamlakatlariga qilingan tashriflarning 53,1% Hindistonga to‘g‘ri kelgan, tushumlari bo‘yicha 65,5% ni tashkil qilgan. Har bir xorijiy tashrif Hindistonda 765 AQSH dollarini tashkil etgan.

Eron Islom Respublikasi hududi 1648 ming kv.km. Aholisi 83,7 mln (2018). Yirik shaharlari: Tehron (6,5 mln. aholi), Mashhad (1,8 mln), Isfaxon (1,1 mln), Tabriz (1,1 mln), Sheroz (965 ming), Shimolda Kaspiy dengizi. janubda Fors, Ormuz va Ummon qo‘ltiqlari bilan o‘ralgan. Bu qo‘ltiqlardagi Keshm. Xarmuz, Xark va boshqa orollar ham Eron mamlakatiga tegishli. Aholisining etnik tarkibi: forslar 65%. ozariylar 18% kurdlar 5% qurdlar, arablar, turkman va blujlar, umuman 30 dan ortiq xalqlar yashaydi. Rasmiy tili fors tili hisoblanadi. Islomning shia yo‘nalishiga aholining 90%i e’tiqod qiladi.

Eron 1979 yilning 1-aprelida Islom Respublikasi deb e’lon qilingan. 1979 yilning 11 fevrali milliy bayram kuni, ya’ni Shoh hokimiyatini ag‘darilgan kun. Xozirgi kunda davlat qo‘shilmaslik harakatiga qo‘shilgan.

Bu mamlakat tarixida Iroq bilan bo‘lgan 1980-1988 yillardagi uzoq muddatli urushni alohida ta’kidlab o‘tish zarur. Chunki, urush

yillari yiliga 14-15 mlrd AQSH dollari hajmida harajatlarni talab qilar etdi. Oqibatda davlat iqtisodiyotiga katta talofat etkazildi.

Eron industrial-agrar davlat bo‘lib, uning iqtisodiyotida neftni qazib olish va qayta ishlash sanoati muhim o‘rinni egallaydi. Bu soha yalpi ichki mahsulotning katta qismini tashkil etadi. U davlat byudjetining 3/1 tashkil etadi. Valyuta kirimining 37% ini ta’minlaydi. 1960 yildan OPEK a’zosi, neft qazib oluvchi davlatlar ichida Saudiya Arabistoni va Rossiyadan keyingi o‘rinda turadi. YAMM 310 mlrd. AQSH dollari, jon boshiga esa 4720 AQSH dollarni tashkil etadi.

Mamlakat yer yuzasining yarmidan ko‘prog‘ini tog‘lar tashkil etadi. Eron jahondagi eng qadimiy davlat bo‘lib, tarixi va madaniyati nihoyatda boy. Eronda xalqaro turizmni rivojlantirish imkoniyatlari juda katta. 2002 yilda Eron Islom Respublikasiga 1,342 mln. xorijiy turistlar tashrif buyurgan bo‘lsa 2018 yilga kelib 7,296 mln. ga etdi. Janubiy Osiyo mamlakatlariga qilingan tashriflarning 22,2% Eron Islom Respublikasiga to‘g‘ri kelgan. 2017 yilda Janubiy Osiyo mintaqasi tushumlari bo‘yicha 10,1%ni tashkil qilgan. Har bir xorijiy tashrif Eron Islom Respublikasida 750 AQSH dollarni tashkil etgan.

Nazorat savollari:

1.Osiyo-Tinch okeani regioni nechta subregionga bo‘linadi?
2. Osiyo-Tinch okeani regioni yiliga qancha turist qabul qiladi?
3. Osiyo-Tinch okeani regionida iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan davlatlarni sanab bering?
4. Osiyo-Tinch okeani regioni turizmida qaysi davlat etakchi hisoblanadi?
5.Tanishuv va dam olish turizmida etakchi davlatlarni sanab bering?
6.Ko‘ngilochar tashriflar bo‘yicha etakchi davlatni ayting?
7.Kimano qaysi halqning milliy libosi hisoblanadi?
8.Arslon shahri ma’nosini beradigan shahar nomini qaysi shaharga aytiladi?
9.Avstraliyadagi turizm eng rivojlangan shaharlarni sanab bering?

Foydalangan adabiyotlar:

1.Александров А.Ю. “Международний туризм” Учебник. М. Аспект пресс 2002.

2.Биржаков М.Б. Введение в туризм.- Москва.2003

3.Gulmetor F. E., Allabergenor A. A. Turizm geografiyasi: Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. — T.: «Talqin», 2004

4.Глушко А. А., Сазыкин А. М. География туризма Издательство Дальневосточного университета. Владивосток-2002.

5.Кружалин В.И. География туризма: учебник -М. : Федеральное агентство по туризму, 2014.

6.Здоров А.Б. Экономика туризма.- Москва. «Финансы и статистика» 2004.

7.UNWTO Tourism Highlights 2018 edition

9-BOB.O`RTA SHARQ REGIONI

Reja:

9.1. O’rta Sharq turistik regioniga umumiy tavsif
9.2.O’rta Sharq turistik regioni etakchi mamlakatlari turizmi
9.2.1.Birlashgan Arab Amirliklari turizmi
9.2.2.Saudiya Arabistoni turizmi
9.2.3.Misr Arab Respublikasi turizmi

9.1. O’rta Sharq turistik regioniga umumiy tavsif

O’rta Sharq turistik regioniga Osiyoning janubiy-sharqida joylashgan Arab mamlakatlari va Afrikaning shimolida joylashgan Misr Arab Respublikasi hamda Liviya kiradi. Mazkur turistik region jami 14 ta davlatni o‘z ichiga oladi. Mintaqa geografik, tarixiy va ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan xilma-xil bo’lgan katta hududni egallaydi.

Mintaqa 3 ta qit’a, ya’ni Yevropa, Afrika va Osiyoning chorrahasida joylashgan. Mintaqadagi davlatlar Atlantika va Hind okeaniga chiqish imkoniyatlari katta. Ayniqsa, Misr Arab Respulikasi hamda Birlashgan Arab Amirliklarining dengizga chiqish imkoniyati katta.

Mintaqa rel`efi xilma-xil bo’lib, asosan ko’tarilgan tog’ oldi mintaqa hududlari,hamda qadimgi tekisliklar Mesopotomiya, Nil deltalaridan tashkil topgan. Mintaqa iqlim subtropik va tropik iqlimi mintaqalaridan iborat bo’lib, havo haroratining yil davomida yuqori bo’lishi, havoning quruqligi bilan ajralib turadi. Asosiy cho’l landshaftlari keng tarqalgan. Yaqin Sharq mamlakatlari ko’plab tarixiy va madaniy yodgorliklarga boyligi bilan ajralib turadi. Qadimgi yodgorliklardan qadimgi Rim madaniyatiga, o’rta asrlarga oid, arab madaniyatiga oid yodgorliklar keng tarqalgan. Umuman olganda, bu turistik region turizmni rivojlantirish nuqtai nazaridan qulay mintaqalaridan hisoblanadi. Mintaqa tabiiy va madaniy yodgorliklarning o’ziga xosligi ushbu mintaqaga boshqa mintaqalardan turistlarni jalb qilish imkoniyatiga ega. Mintaqada ichki turizmni rivojlantirish imkoniyatlari ham davlatlar aholisining diniga e’tiqod qiladilar. Ular bir-birlari bilan til madaniyati yaqin.

Mintaqada transport tarmoqlari sust rivojlangan. Mamlakatlarning iqtisodiy jihatdan rivojlanishi xilma-xil. Bundan tashqari, O‘rta Sharq mamlakatlarining siyosiy jihatdan barqaror emasligi turizm rivojiga salbiy ta’sir ko’rsatadi. Buni quyidagi jadval ma’lumotlaridan ham ko‘rish mumkin.

6-jadval

O’rta Sharq turistik regioni turizm ko‘rsatkichlari (2018 yil holati bo‘yicha)

№	Mamlakatlar nomi	Turistik tashrif (ming kishi)	Turizmdan kelgan daromad (mln AQSH dollari)
1	Baxreyn	-	-
2	Misr	11346	11615
3	Iroq	-	-
4	Iordaniya	4150	5249
5	Quvayt	-	-
6	Livan	1964	8400
7	Liviya	-	-
8	Oman	-	-
9	Falastin	606	245
10	Qatar	1819	5565
11	Saudiya Arabistoni	15293	12038
12	Suriya	-	-
13	BAA	15920	21375
14	Yaman	-	-

Izoh. BTT 2018 yil xisobotiga ba’zi mamlakatlar ma’lumot berilmaganligi uchun statistik ma’lumot ko‘rsatilmadi

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rish mumkinki, ushbu turistik regionda yaqqol etakchi davlat sifatida Birlashgan Arab Amirliklari va Saudiya Arabistoni ajralib turibdi. Turistik regionga tashriflarning 75-80% ga yaqini ikkita davlat xissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

BTT 2018 yilda chop etgan yillik xisoboti ma’lumotlariga ko‘ra O‘rta Sharq regioniga 2017 yilda jami 58 mln turist qabul qilgan bo‘lib, o‘tgan yilga nisbatan +5% o‘sgan. Mazkur regionda turizmdan kelgan daromad miqdori esa 68 dlrd AQSH dollarini (+13%) tashkil etgan. Demak, boshqa regionlarga nisbatan O‘rta Sharq regioni turistlarni qabul qilish va daromad ko‘rsatkichlarining o‘sish bo‘yicha yaxshi bo‘lganligini ko‘rsatadi. Ammo bu

regiondagi geosiyosiy beqarorlik ko‘pgina mamlakatlar turizmi rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatib kelmoqda.

Misr Arab Respublikasidagi Xurgada va Sharm Al Sheyx va boshqa dam olish oromgohlari xalqaro ahamiyatga ega. Bundan tashqari, Qizil dengizida hosil bo’lgan marjon qoyalar bu yerda turizmini rivojlantirish imkoniyatlarini beradi.

Ishbilarmonlik turizmida BAA etakchilik qilasa, ziyorat turizmida esa Saudiya Arabistoni rivojlangan.

5-karta-sxema.O`rta Sharq turistik regioni

9.2.O’rta Sharq turistik regioni etakchi mamlakatlari turizmi

9.2.1.Birlashgan Arab Amirliklari turizmi

Birlashgan Arab Amirliklari (maydoni 83,600 km^2 aholisi 9,7 mln kishi, YYIM aholi jon boshiga 69,896 AQSH dollarini tashkil etadi) Arabiston yarim orolida joylashgan davlatlardan biri bo‘lib, neft sotish hisobiga iqtisodiyotini rivojlantirgan. Eng yirik shahri va asosiy sayyohlik markazi Dubay bo‘lib, Yaqin Sharqning bosh biznes markazi hisoblanadi. Dubayda dunyodagi eng yirik supermarket «Markaz» joylashgan. Bu yerda deyarli hamma narsani sotib olishingiz mumkin.

Mamlakatning yana bir yirik shahri Abu-Dabi bo‘lib, turistlarni «Jazira Bich» «Xalida- Palas» va boshqa otellar qabul qiladi. Birlashgan Arab Amirliklarining Sharja shahri turistlar iborasi bo‘yicha «Shaxrizoda ertaklaridagi shahar» qiyofasida gavdalanadi. Keyingi yillarda arab mamlakatlarida turizm infratuzilmasini rivojlantirishga katta e’tibor berilmoqda. Mamlakatning «Emirats» nomli avialiniyasi dunyodagi eng ishonchli havo yo‘llari kompaniyalaridan biri bo‘lib, o‘ziga xos servis xizmatlarini taqdim etadi. Masalan, bu kompaniya samolyotlaridagi o‘rindiqlarning orqa qismlari maxsus teleekranlar bilan ta’minlangan. Yo‘lovchilar bu ekranlarda hatto ko‘tarilish va qo‘nish daqiqalarini ham kuzatishlari mumkin bo‘ladi.

Mamlakatda tozalik va ozodalikka juda katta e’tibor beriladi. Axlat tashlaganda juda yirik jarimalar bilan jazolanadi. Amirliklar, ularni sayyohlar rasmga tushirsa yoqtirmaydilar. Bu xususiyatni eslab qolsangiz foydadan holi bo‘lmaydi.

9.2.2.Saudiya Arabistoni turizmi

Saudiya Arabistonining maydoni 2,l mln km^2. Aholining soni 33 million kishi (2018). Poytaxti Ar-Riyod shahri. Urbanizatsiya darajasi- 80%. Deyarli butun Arabiston yarim orolini egallagan yirik davlat. Mamlakatda islom dinining eng yirik ibodatxonasi muqaddas Ka’ba Makka shahrida joylashgan. Saudiya Arabistoni davlat tuzumi bo‘yicha mutloq monarxiya bo‘lib, mahalliy hukmdor sulton deyarli cheksiz hokimiyatni o‘z qo‘lida mujassamlashtirgan. Bu davlatda shariat qonunlari asosiy huquqiy majmua sifatida hukmronlik qiladi. Yuqoridagi xususiyatlar sayyohlik sohasiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Mamlakatga spirtli ichimliklar va hatto pivo olib kirish mumkin emas. Shuningdek, oziq-ovqatlardan kolbasalarning barcha turlari va cho‘chqa go‘shtini olib kirish ham ta’qiqlangan. Muqaddas shaharlar Makka va Madinaga musulmon bo‘lmagan shaxslarning kirib kelishlariga umuman ruxsat berilmaydi.

9.2.3.Misr Arab Respublikasi turizmi

Misr Arab Respublikasining umumiy maydoni 1 mln km^2. Aholisining soni 99 million kishi (2019) bo‘lib, ularning 98% misrliklardan (shrqiy xamit guruhiga kiruvchi arablar) iborat. Poytaxti Qohira shahri. Urbanizatsiya darajasi 50%. Savodxonlik darajasi 48%. Ichki milliy mahsulotning umumiy hajmi l7l milliard AQSH dollari (jon boshiga 30l0 AQSH dollari). 2010 yilda 14 mln dan ortiq turist qabul qilgan bo`lsa, 2014 yiolda 9,6 mln, 2016 yilda 5,2 mln.ni tashkil etgan. Demak, siyosiy vaziyatning beqarorligi turizmda salbiy dinamika ko`rsatkichini bergan. Bu mamlakatda turizm sohasi asosan madaniy-tarixiy yodgorliklar, mashhur ehromlar, saroylar va fir’avnlar ibodatxonalari bilan bevosita bog‘liq. Ushbu yodgorliklar Nil vodiysida (shimolda-Qohiradan, janubda Osvon suv omborigacha) mujassamlashgan. l980-yillarda Misr hukumati Qizil dengiz qirg‘oqlarida plyaj turizmini rivojlantira boshladi. Reja bo‘yicha, bu yerdagi asosiy turistik markaz Xurgada shahrida bo‘lishi belgilandi. l990-yillarda bu mintaqada G‘arbiy Yevropadan tashrif buyurgan sayyohlar uchun 7 ta turistik markaz tashkil etildi. l990-yillarning oxirida xorijlik turistlarning soni 2 milliondan oshib ketdi. Sayyohlarni qabul qilishda Misrning qadimiy shaharlari muhim ahamiyat kasb etadi. Qohira tarixiy hujjatlarga ko‘ra milodiy 969- yili tashkil topgan. Shaharda mamlakatning 20% aholisi istiqomat qiladi. Qohiradan shimolroqda 3000 yil avval ham mashhur bo‘lgan Misrning qadimiy poytaxti Memfis shahri joylashgan. Qohiraning eng yirik oteli «Xilton». Mashhur «Misr muzeyi» l858-yili fransuz qadimshunosi Miret tomonidan tashkil etilgan bo‘lib, turistlar orasida katta shuhrat qozongan. Muzeyda mashhur fir’avn Tutanxamon xazinasi ham saqlanadi. Bu yerda hammasi bo‘lib l00 mingdan ortiq eksponatlar saqlanadi. Giza Misrning eng mashhur yerlaridan biri. Bu yerda butun dunyoga mashhur bo‘lgan ehromlar joylashgan. Shu qatorda fir’avn Xeops (Xufu) ehromi alohida o‘rin egallaydi. Bu ehromning hozirgi balandligi l37 metr bo‘lib, uning qurilishiga 2 milliondan ortiq tosh ketgan. Ehrom yaqinida, balandligi 20 metr bo‘lgan Katta Sfinks ham

mashhur. Eng qadimgi ehrom fir’avn Joser qurdirgan ehrom hisoblanadi.

Iskandariya O‘rta dengizi bo‘yidagi bu qadimgi shaharga miloddan avvalgi 332-33l-yillarda makedoniyalik Iskandar tomonidan asos solingan. Ptolemeylar sulolasi davrida Misrning poytaxti bo‘lgan. Sobiq qirollarning saroyi «Al Montada» bo‘lib, bu majmuaning bir qismi hozirgi vaqtda hashamatli otelga aylantirilgan. Iskandariyadagi «Yunon-Rim muzeyi» turistlar orasida mashhur bo‘lib, aynan shu yerda katta shuhrat qozongan «Tanagra» haykali saqlanadi. Osron qadimda Misrning Sudan bilan savdo qiluvchi asosiy markazi bo‘lgan. Osvon suv ombori l30 milliard kub. metr sig‘imli bo‘lib, xalq xo‘jaligida katta ahamiyatga ega. Qoyalarda o‘yib yasalgan qadimgi Misr ibodatxonalari Abu Simbel yaqinida joylashgan bo‘lib, sayyohlar orasida juda mashhur. Bu ibodatxonalar 3200 yil ilgari fir’avn Ramzes II sharafiga bunyod etilgan ekan. Yaqin atrofda joylashgan Luksor shahrida miloddan avvalgi XV-XII asrlarga oid «Amon-Ra» ibodatxonasi joylashgan. Keyingi yillarda Misrda tanishuv turizmi, arxeologik turizm, plyaj turizmi rivojlanib bormoqdaki, bu esa turistlarni mamlakatga jalb etamoqda. Yangi kurortlardan Matru, Safaga, Marsa Alam, Ras-Sidr va boshqalar. 2018 yilda 11 mlndan ortiq turist tashrif buyurgan bo‘lib, undan kelgan daromad 11 mln AQSH dollaridan oshib ketdi.

Hozirgi vaqtda Misrning «Qadimgi yodgorliklarni muhofaza etish qo‘mitasi» oltita yirik ibodatxonani qayta ta’mirlash to‘g‘risidagi loyihani ko‘rib chiqmoqda. Bu inshootlar Luksor hamda Osvon hududida joylashgan: Kom Ombo, Edfy Dendar, Karnak va boshqalar. Bu loyiha, kelajakda amalga oshiriladigan ulkan rejaning bir qismi hisoblanadi.

Nazorat savollari:

1.O‘rta Sharq turistik regioni nechta qit’ada joylashgan?
2. O‘rta Sharq turistik regionida nechta davlatni qamrab olganligini bilasizmi?
3. O‘rta Sharq turistik regionida turizm sohasida etakchi davlatni ayting?

4. O‘rta Sharq turistik regioni 2017 yilda qancha turist qabul qilgan?
5. O‘rta Sharq turistik regioni turizmiga ta’sir e’tuvchi salbiy omillarni ayting?
6.Ziyorat turizmi qaysi davlatda rivojlangan?
7.Xurgada dam olish maskani qaysi davlatda joylashganligini bilasizmi?

Foydalangan adabiyotlar:

1.Александров А.Ю. “Международний туризм” Учебник. М. Аспект пресс 2002.
2.Глушко А.А., Сазыкин А.М. География туризма-ВЛАДИВОСТОК, Издательство Дальневосточного университета 2002
3.Gulmetor F. E., Allabergenor A. A. Turizm geografiyasi: Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. — T.: «Talqin», 2004.— l28 b.
4.Зячинляев П.Н., Фалкович Н.С. “География международного туризма” -М. Мысл. 1972.
5.Мирзаев М.А Туризм асослари ўқув қўлланма Т-2011
6.Маматкулов Х.М. Халқаро туризм.-Самарканд, 2012
7.Солиев А.С., Усмонов М. Туризм географияси.-Самарқанд, 2005
8.Тухлиев И ва бошқалар Туризм: назария ва амалиёт. Дарслик Т-2010
9.www.UNWTO/report/2018

10-BOB. AFRIKA TURISTIK REGIONI

Reja:

10.1. Afrika turistik regioniga umumiy tavsif
10.2. Shimoliy Afrika subregioni turizmi
10.3. Sahroi Kabir atrofi subregioni turizmi

10.1. Afrika turistik regioniga umumiy tavsif

Afrika turistik regioni ekoturizm va etnoturizm, safari marshrutlarning eng qiziqarli ob'ekti sifatida dunyo sayyohlarini o'ziga jalb etadi. Afrikada turizm rivojlanayotgan sohalardan biri bo'lib, keyingi yillarda ushbu regionda turizm tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Biroq Afrika qit'asi siyosiy jihatdan unchalik barqaror emas. Shu sababli bu yerda turizm rivoji bir xil dinamik rivojiga ega emas. O'tgan asrning 80 yillaridan, 90 yillarning boshlarida Afrikada turizm rivojida turg'unlik davri bo'ldi. Chunki, bu davrda afrikaliklar orasida turli kasalliklar keng tarqaldi. Regionga turistlar oqimini oshirish uchun sohaga xarajatlar miqdorini kamaytirishga majbur bo'ldilar.

XIX asr oxirlariga kelib Yevropaliklar tomonidan Afrikaning 90 % hududi bosib olindi. Fransuzlar Afrikaning Shimoli va markaziy qismini bosib ola boshladi. Bular Jazoir, G'arbiy Sahroi Kabir, Tunis, Fransuz Kongosi, Seyshal orollari, Uganda bo'lsa portugaliyaliklar tomonidan-Angola, Mozambik, San-Tome, Yashil Burun orollari qaratildi. Germaniya esa Tanzaniya, Ruanda, Burundi, Togo, Gana, Kamerun, Eretriya, Somalining bir qismini egalladi. Afrikada mustahlakachilikka qarshi kurash XX asrdan boshlandi va ayniqsa XX asrning 60 yillarida eng cho'qqisiga chiqdi. Afrikaning hozirgi hududida 50 dan ortiq davlatlar va hududlar mavjud. Bu esa hozirgi kunda Afrika turizmi uchun donor vazifasini o'tamoqda.

Afrika boshqa qit'alarga nisbatan o'ziga xos xususiyatga ega. U geografik o'rniga ko'ra ekvator uning qoq o'rtasidan kesib o'tadi. Geografik jihatidan bu qit'a 5 ta subregionga bo'linadi. Jumladan, Shimoliy Afrika, G'arbiy Afrika, Markaziy Afrika, Sharqiy Afrika, Janubiy Afrika regionlaridir.

6-karta-sxema. 1884 yildagi holat bo‘yicha Yevropaning Afrika koloniyalari

7-karta-sxema.Afrika qit’asi subregionlari

Butunjahon turistik tashkiloti rayonlashtirishi bo‘yicha esa Shimoliy Afrika va Subsaxara turistik subregioniga ajratilgan. Tabiat zonalari kenglik yo‘nalish bo‘ylab joylashgan. Afrika ekvatorial va tropik iqlim mintaqasi hukmronlik qiladi. Shuning uchun iqlim issiq va quruq. Lekin materik ichkarsidagi evatorial mintaqada yil davomida havo harorati +24S, yog‘in 2000 mm dan oshadi. Bu o‘simliklar vegitatsiyasi va fauna va florasining shakllanigiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Janub va Shimolidagi tropik mintaqasida esa yog‘in 100 mm bo‘lishi iqlimining quruq va

xaroratning juda issiq bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Shuning uchun Afrika eng issiq qit’adir. Afrikaning ½ qismi, ya’ni 14 mln km^2 maydoni cho‘l va chalacho‘lllardan tashkil topgan. Maydoni 8 mln km^2 dan ortiq bo‘lgan dunyodagi eng katta Saxroi Kabir cho‘lining shakllanishiga bevosita iqlimining quruqligi zamin yaratgan. Eng sersuv daryosi Kongo bo‘lsa eng uzuni Nil hisoblanadi. Bundan tashqari, Zambezi, Niger, Limpopo, Oranj daryolari mavjud. Tanganika va Nyasa ko‘llari Afrika tektorik cho‘kmasida joylashgan. Tanganika ko‘li chuqurligi bo‘yicha dunyoda Baykal ko‘lidan keyin 2-o‘rinda turadi. Afrika florasi nihoyatda xilma xil va boydir. Bu yerda 40 mingdan ortiq yuksak o‘simliklar dunyosi bo‘lib, ularning ko‘pchiligi endemik hisoblanadi. Zambezidagi Viktoriya sharsharasi dunyodagi eng katta sharsharalardan biri hisoblanadi. Bu esa yil davomida turistlar oqimining kirib kelishiga olib keladi

Afrika qirg‘oq yoqalari Atlantika okeani suvlari bilan yuvilgan. Qo‘ltiqlar kam. Afrikaning eng baland cho‘qqisi Klimanjaro-5895 m. Afrika yer usti tuzilishi tekislik, qirlar, yassi tog‘liklar va pasttekisliklardan iborat. Asosiy o‘rinni qirlar va ko‘tarilgan yassi tog‘lar egallaydi. Afrika iqlimining eng avvalo uning ekvator kengliklarida joylashganligi. Shu sababli bu yerda ekvatordan Shimolga va janubga tomon doimiy yashil o‘rmonlar, savannalar dasht, tropik cho‘l va chala cho‘llar, O‘rta yer dengiz tipidagi doimiy yashil o‘rmonlardan iborat. Tog‘larda balandlik mintaqalari keng tarqalgan. Eng uzun daryo Nil. Bundan tashqari yirik daryolar-Zambezi, Niger, Zimbabveda-Viktoriya sharsharasi joylashgan. Ko‘llarning asosiy qismi-uning sharqiy qismida joylashgan. Asosan tektonik ko‘llar va chuqur. Afrika florasi nihoyatda xilma xil. Bu yerda o‘simliklarning 40 dan ortiq turi uchraydi. Afrikada tabiiy landshaftlar tez-tez almashinib turadi. Bu esa Afrikaga turistlar oqimini o‘ziga jalb qiladi. Ayniqsa joylar Keniya, Tanzaniya, Uganda, JAR, Namibiya, Botsvanada keng tarqalgan.

Keniya Afrika davlatlari ichida milliy bog‘larning keng tarqalganligi bilan birinchi o‘rinni egallaydi (mamlakat maydonining 15 % ini milliy bog‘lar tashkil qiladi). Ushbu milliy bog‘da-sherlar, jirafalar, Afrika bo‘yvollari, antilopalar muhofaza

qilinadi. Qushlarning 450 turi uchraydi. Tanzaniyaning Serengeti milliy bog‘i ham xalqaro ahamiyatga ega. Bu yerda antilopalar, gienalar, zebralar, sherlar, leopart, jirafalar, begimotlar, geopardlar uchraydi.

Milliy parklar Janubiy Afrika Respublikasi hududida, G‘arbiy Afrikada 30 milliy bog‘lar, 75 qo‘riqxonalar mavjud. Shimoliy Afrikada o‘nlab milliy bog‘lar joylashgan. Shulardan eng kattasi Marokkoda joylashgan Tazena milliy bog‘i bo‘lib unda joimiy yashil dub daraxtlar saqlanib qolingan. Afrikada tarixiy va madaniy yodgorliklar keng tarqalgan. Bundan joylar Shimoliy Afrikada keng tarqalgan. Yevropaliklar uchun Afrika xalqlarining urf odatlari qiziqarli hisoblanadi.

Shunga qaramasdan Afrika turistlar oqimining kelish va ketishiga ko‘ra boshqa qit’lardan orqada. Bunga asosiy sabab, Afrika davlatlarining iqtisodiy jihatdan past rivojlanganligi, turizm infrastrukturasining sust rivojlanganligi, quruqlikda yo‘llarning yaxshi emasligi ichki turizm rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Mamlakatlar o‘rtasida barqaror tinchlikning yo‘qligi va boshqalar.

8-karta-sxema. Afrika turistik regioni

Xalqaro turizm rivojlangan Shimoliy Afrikada Tunis, Marokko, Sharqiy Afrikada Keniya, Janubida JAR, Zimbabve va boshqalar. Tunis va Marokkoda-madaniy hordiq chiqarish, dengizda cho‘milish, tomosha qilish rivojlangan. Afrika qirg‘oq bo‘ylari bo‘ylab dengizda suzish turizmi rivojlangan. Davolanish turizmi endilikda shakllanmoqda (Tunis, Marokko, Jazoir). Ishbilarmonlik turizm Kongo, Zimbabve, Efiopiada yaxshi rivojlanmoqda. Afrikaga Asosan AQSH, Kanadadan va Yevropadan keladi.

Butunjahon turistik tashkiloti yillik xisoboti “UNWTO Tourism Highlights 2019 edition” jurnali ma’lumotlariga ko‘ra Afrika regioniga 2018 yilda jami 67 mln turist qabul qilgan bo‘lib, o‘tgan yilga nisbatan +7% o‘sgan. Mazkur regionda turizmdan kelgan daromad miqdori esa 38 mlrd AQSH dollarini (+2%) tashkil etgan. Geografik jihatidan bu region Shimoliy Afrika (soni +10%, tushum+4%), (Misr va Liviyadan tashqari) subregioni va Subsaxara Afrika (+5%, +1%) subregionlariga bo‘linadi.

10.2.Shimoliy Afrika subregioni turizmi

Afrika regioni turizmida o‘ziga xos mavqega va janubiy qismidan farqli jihati bilan ajralib turadigan 5 ta mamlakat (Sudanning 2011 yilda Janubiy va Shimoliy Sudanga bo‘linishini hisobga olsak)ni qamrab oladi. Bu subregion Janubiy Afrika, ya’ni, subsaxara turistik subregionidan madaniyati, tili, urf-odatlari, diniy e’tiqodi va boshqa turistik resurslari jihatidan farqlanadi. Shuningdek, geografik o‘rni jihatidan bu subregion jahon turizmida etakchi hisoblangan Yevropaga nisbatan yaqinligi ham ahamiyatlidir. Shimoliy Afrika subregioniga 2017 yilda jami 21,6 mln turist tashrif buyurgan va undan kelgan daromad 9,9 mlrd AQSH dollarini tashkil etgan. Bu ko‘rsatkichni davlatlar darajasida taqsimlaydigan bo‘lsak, Jazoir (2,4 mln turistik tashrif va 141 mln AQSH dollari), Morokash (11,3 mln/7,4 mlrd AQSH dollari), Sudan (813 mln/1,0 mlrd AQSH dollari), Tunis (7,0 mln/1,3 mlrd AQSH dollari).

10.3. Sahroi Kabir atrofi subregioni turizmi

Bu subregion Afrika turistik regionida katta maydonni egallaydi. Unga Saxroi Kabir atrofidagi barcha davlatlar, ya'ni butun bir Janubiy Afrikani qo‘shib hisoblaymiz. Mazkur subregionga jami 48 ta mamlakatni birlashtirib, asosan 6 ta mamlakatga tashriflar 1 mln turistdan oshadi. 2018 yil ma'lumotiga ko‘ra, subregionga jami 43,2 mln turist tashrifi amalga oshirilgan bo‘lib, undan kelgan daromad ko‘rsatkichi 27,7 mlrd AQSH dollarini tashkil etgan. Jumladan, JARga 10,4 mln turist tashrif buyurgan bo‘lsa, Zimbabve (2,5 mln), Kot-d-var (1,9 mln), Uganda (1,8 mln), Keniya (1,4 mln), Mavritaniya (1,3 mln) asosiy etakchilikni egallaydi. Subregionda 30 dan ortiq milliy parklar 75 ta qo‘riqxonalar fauna va florasi dunyo sayyohlarini boshqa yerda uchramaydigan turistik marshrutlarni taklif etadi. Binobarin, YUNESKO e'tirofi bo‘yicha subregionda 3 ta yo‘nalishdagi turistik destinatsiya etakchi o‘rinda turadi. Birinchidan, tabiatga uyushtiriladigan safari turistik marshruti bo‘yicha eng diqqatga sazavvor maskanlar sifatida quyidagilarni kiritish mumkin:

-Kruger milliy parki (Janubiy Afrika);
-Selous Game qo‘rinqxonasi (Tanzaniya);
-Amboseli qo‘riqxonasi (Keniya);
-Serengeti milliy parki (Tanzaniya);
-Kalaxari qo‘riqxonasi (Botsvana);
-Bereneti tabiat qo‘riqxonasi (Madagaskar);
-Virunga (Gorilla) milliy parki (Kongo, Zair).

Ikkinchidan, tabiiy geografik jihatidan sayyolarni o‘ziga jalb qiladigan ob'ektlari sifatida:

-Klimanjaro vulqoni (Tanzaniya);
-Keniya milliy parki tabiati (Keniya);
-Ngorongoro krateri (Tanzaniya);
-Viktoriya cho‘kmasi (Zambiya);
-Kamale tepaligi (Kamerun tog‘lari);
-Zuma qoyasi (Nigeriya);
-Table milliy parki tabiati (JAR) va boshqalar.

Uchinchidan, madaniy turistik destinatsiyalarga:

-Timbuktu shahri (Mali);
-Peters Vakuluka (Kot-Di Var);
-Ashanti milliy madaniy markazi (Gana);
-Buyuk Zimbabve (Zimbabve);
-Robbin oroli madaniyati (JAR);
-Soveto shahri (JAR);
-Lalibeladagi qoyasigagi shahar (Efiopiya);
Aboeudagi Ansient shahri (Benin) va boshqalar.

Ishbilarmonlik turizmida JAR etakchi o‘rinda turadi. Shuningdek, keyingi yillarda Kongo, Zimbabve, Efiopiya mamlakatlarida ham rivojlanib bormoqda. Sog‘liqni tiklash va sog‘lomlashtirish turizmi Keniya va JAR etakchidir. Ko‘pgina mamlakatlaridagi siyosiy notinchlik, ijtimoiy muammolar, infratuzilmaning yetarli darajada emasligi turizmni tashkil etish va rivojlantirishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Nazorat savollari:

1.Afrika turistik regioni nechta subregionga bo‘linadi?
2.Afrika turizmining turg‘unlik davri qaysi yillarga to‘g‘ri keladi?
3.Afrika turizmining donor davlatlari taqsimotini bilasizmi?
4.Afrika geografik jihatdan nechta regionga bo‘linadi?
5.Afrikadagi eng katta ko‘l nomini ayting?
6.Afrikadagi eng katta sharshara nomini bilasizmi?
7.Afrikaning eng baland nuqtasi qaysi cho‘qqi hisoblanadi?
8.Afrika bugungi kunda qancha turist qabul qilmoqda?
9.Afrikada eng ko‘p turist qabul qiladigan davlatni bilasizmi?
10.Shimoliy Afrika turistik subregioni qancha turist qabul qiladi?
11.YUNESKO Afrikani nechta yo‘nalishdagi turistik destinatsiyaga ajratadi?

Foydalangan adabiyotlar:

1.Александров А.Ю. “Международний туризм” Учебник. М. Аспект пресс 2002.
2.Глушко А.А., Сазыкин А.М. География туризма-ВЛАДИВОСТОК, Издательство Дальневосточного университета 2002

3.Gulmetor F. E., Allabergenor A. A. Turizm geografiyasi: Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. — T.: «Talqin», 2004.— l28 b.
4.Зячинляев П.Н., Фалкович Н.С. “География международного туризма” -М. Мысл. 1972.
5.География туризма: учебник/В.И.Кружалин, Н.С.Мироненко, Н.В. Зигерн-Корн, Н.В. Шабалина.-М.:Федеральное агентство по туризму, 2014.
6. Самойленко А.А. География туризма.-Растов на Дон-2003
7.Solor.org/books.World Regional Geography-2014
8.www.UNWTO/report/2018

9-karta-sxema.Afrika til oilasi

10-karta-sxema.Afrikada tarqalgan dinlar



III QISM. O`ZBEKISTONNING TURIZM ISTIQBOLLARI

11-BOB.O‘ZBEKISTONNING TURIZM IMKONIYATLARI VA SALOHIYATI

Reja:

1.11. O‘zbekiston turizm imkoniyatlari tahlili
1.11. O‘zbekiston turizmining «Buyuk ipak yo‘li» brendi
11.2. O`zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishning milliy modelini yaratish
11.3. Tabiat yodgorliklarining turizmdagi roli
11.4.O‘zbekistonda qishloq turizmini rivojlantirish istiqbollari

11.1. O‘zbekiston turizm imkoniyatlari tahlili

O‘zbekistonda jahon madaniyati xazinasiga kiruvchi ko‘plab tarixiy va madaniy arxitektura yodgorliklari mavjud, ushbu bebaho merosimizning bugungi kunda 140 ta ob’ekti YUNESKO tomonidan muhofazaga olingan va tarixiy ob’ektlar ro‘yxatiga kiritilgan. Jumladan YUNESKO ning «Jahon merosi» ro‘yxatiga Xivadagi Ichan Qal’a 1990 yil, Buxoroning tarixiy markazi 1993 yil, Shahrisabzning tarixiy markazi 2000 yilda, Samarqand shahri 2001 yilda ushbu ro‘yxatga kiritilgan.

O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlatirish va uni yangi bosqichga ko‘tarish borasida, avvalo ko‘hna madaniy va arxitektura yodgorliklariga boy bo‘lgan Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Marg‘ilon kabi shaharlar muhim ahamiyatga ega. Bu shaharlarda butun dunyo aholisini hayratga soluvchi va lol qoldiruvchi qadimiy tarixiy yodgorliklar mavjud. Yer yuzining turli mamlakatlarida istiqomat qiluvchi har bir inson bu shaharlarni o‘z ko‘zlari bilan ko‘rish orzusida yashaydi.

Hozirgi paytda turizm sohasi mamlakatlar va mintaqalar iqtisodiyotini rivojlantirish uchun muhim ahamiyat kasb etishi va u XXI asr jahon xo‘jaligining ustuvor tarmoqlaridan biri ekanligi ma’lum bo‘lmoqda. Shu tufayli turizm faoliyatini ravnaq toptirish masalasi 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Xarakatlar strategiyasining iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning

ustuvor yo‘nalisharida ham o‘z aksini topgani bejiz emas. Zero bu soha besh yil ichida davlat siyosatida ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Hozirgi kunda respublikamiz turizm sohasidagi xarajatlari YAIM ga nisbatan foizda olganda 2018 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra 1% ni tashkil etgan xolos, Qozog‘istonda ushbu ko‘rsatkich 4,2%, Armanistonda 3,8%, Tojikistonda 2,9%, Rossiyada 2,7% hamda Qirg‘izistonda 1,8% tashkil etgan. Mamlakat ichida turizm sohasidagi xarajatlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, 2018 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra O‘zbekiston 1,4% tashkil etgan bo‘lsa, Gruziya-5,0%, Tojikiston-4,0%, Ukraina-3,3%, Ozarbayjon-2,8%, Qirg‘iziston-2,7%, Rossiya-2,6%, Qozog‘oston-2,2%, Armaniston-1,9% ni tashkil etgan. Ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha Filippin-14,6%, Meksika-9,9% hamda Germaniya davlati-9,9% bilan etakchilik qilmoqda. Yuqoridagi ko‘rsatkichlar tahlili asosida shuni xulosa qilish mumkinki, respublikamizda turizm sohasini jadal rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy, ma’muriy va huquqiy muhitni yaratgan holda, eng samarali tartibni joriy etish, hududlarning iqtisodiy salohiyati va daromadlari bazasini kengaytirish, yangi ish o‘rinlari yaratish, yurtimizga keladigan turistlar oqimini ko‘paytirish, shuningdek, milliy turizm mahsulotlarini jahon bozorida faol va kompleks ilgari surish bo‘yicha ishlarni amalga oshirish zaruratini keltirib chiqaradi. Umuman olganda, respublikamizni turizm sohasida yetakchi davlatlar qatorida bo‘lishi uchun barcha imkoniyatlar borligini inobatga oladigan bo‘lsak, bu sohaga katta hajmdagi investitsiyalarni jalb etish orqali turizm sohasidagi yangi innovatsion g‘oyalarni keng targ‘ib etish muhimligini belgilab beradi.

O'zbekiston turizm sohasi rivojlanishida salmoqli salohiyatiga ega davlatdir. Bu ko'plab noyob tabiat ob'ektlarining mavjudligi, boy madaniy va tarixiy meros bilan ham bog'liqdir. Yildan-yilga O’zbekiston Respublikasiga xorijliklarning tashrifi ortib bormoqda. Ohirgi 15 yillikni oladigan bo‘lsak xorij fuqarolarining O‘zbekistonga tashrifi 15,5 marta, yoki 2002 yildagi 442,1 ming kishidan 2017 yilda 2847,9 ming kishiga yetgan. O‘zbekiston fuqarolarining chet ellarga tashrifi 2017 yilda 5182,5 ming kishini

tashkil etgan, bu 2002 yilga taqqoslanganda 6,5 marta ko‘p. 2017 yilda O‘zbekistonga tashrif buyurgan xorij fuqarolarining safar maqsadlari bo‘yicha taxlil qilinganda: 2272,3 ming kishi (84,7%) qarindoshlarni yo‘qlash maqsadida, 203,7 ming kishi (7,6 %) turistik maqsadda, 159,9 ming kishi (5,9 %) xizmat yuzasidan, 28,7 ming kishi (1,1 %) davolanish maqsadida, 18,5 ming kishi (0,7 %) tijorat maqsadida, 6,9 ming kishi (0,3 %) o‘qish maqsadida tashrif buyurganini ko‘rishimiz mumkin.

4-chizma

2017 yilda O‘zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari sonining safar maqsadlari bo‘yicha taqsimlanishi, ming kishi



Xorijlik tashrif buyuruvchilarning asosiy qismi MDH davlatlari orasida Qozog‘iston Respublikasiga to‘g‘ri keladi - 1783,8 ming kishi (yoki MDH davlatlaridan kelganlarning 67,7 %), Tojigiston 261,9 ming kishi (9,9 %), Rossiya 143,9 ming kishi (5,5 %), qolgan davlatlar 16,9 % (bular Turkmaniston (62,5 ming kishi), Ozarbayjon (4,3 ming kishi), Belarus (3,0 ming kishi), Ukraina (0,7 ming kishi).

2017 yilda xorijlik tashrif buyuruvchilarning asosiy qismi uzoq xorijiy mamlakatlar orasida Turkiyaga to‘g‘ri keladi (55,2 ming kishi), keyingi o‘rinlarda Koreya (37,4 ming kishi), Xitoy (19,7 ming kishi), Germaniya (7,8 ming kishi), BAA (5,8 ming kishi), Fransiya (5,7 ming kishi), Isroil (4,2 ming kishi), Yaponiya (4,1 ming kishi), Pokiston (3,8 ming kishi), Buyuk Britaniya (3,3 ming kishi), Malayziya (3,2 ming kishi), AQSh (1,5 ming kishi) va boshqa davlatlar (61,0 ming kishi). Oxirgi 5 yillikni ko‘radigan bo‘lsak, faoliyat ko‘rsatayotgan turistik firma va tashkilotlarning soni oshgan. Misol uchun 2012 yilda ularning soni 345 ta bo‘lgan bo‘lsa, 2017 yilga kelib 104 taga ko‘paygan va 449 taga yetgan.

Xuddi shunday xizmat ko‘rsatilgan tashrif buyuruvchilar ham 2012 yilda 203,7 ming kishi bo‘lgan bo‘lsa, 2017 yilda 782,7 ming kishini tashkil etgan. Ulardan qabul qilinganlari 2012 yilda 102,4 ming kishidan 2017 yilda 167,4 ming kishiga yetdi.

5-chizma

Turistik firma va tashkilotlarning soni va xizmat ko‘rsatilgan tashrif buyuruvchilar



2017 yilda O‘zbekiston Respublikasida turistik firma va tashkilotlarning asosiy qismi Toshkent shahrida (321 ta) joylashgan bo‘lib, ular tomonidan 70,8 ming xorijlik fuqarolarga xizmat ko‘rsatilgan. Samarqand viloyati bo‘yicha esa 57 ta turistik firma va tashkilotlar faoliyat ko‘rsatmoqda, ular tomonidan 13,1 ming xorijlik fuqaroga xizmat ko‘rsatilgan. Xorazm viloyati bo‘yicha esa 8 ta turistik firma va tashkilotlar mavjud, ular tomonidan 51,2 ming xorijlik fuqaroga xizmat ko‘rsatilgan. Yurtimizda 2017 yilda 676 ta mehmonxona mavjud bo‘lgan bo‘lib, 17703 nomerlar (xonalar) va 34140 ta joylarga ega.

6-chizma

2017 yilda turistik faoliyatni amalga oshirgan firma va tashiklotlarning soni xududlar kesimida



1 yulduzli mehmonxonalar 143 ta, 2 yulduzli mehmonxonalar 19 ta, 3 yulduzli mehmonxonalar 96 ta, 4 yulduzli mehmonxonalar 38 ta, 5 yulduzli mehmonxonalar 9 tani tashkil etgan. 2017 yilda

mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari xodimlari soni (o‘rindoshlarsiz) 7383 tani tashkil etadi. Ulardan 1731 ta xodim oliy ma’lumotli, 213 ta xodim esa kasbiy sayyohlik ma’lumotiga ega. Ayollar 3468 nafarni tashkil qilib, xodimlarning 47 % ini tashkil etadi. Lavozim toifalari bo‘yicha taxlil qiladigan bo‘lsak, 1649 nafari mehmonxona ma’murlari, 694 nafari menejerlar, 2006 nafari mehmonxona shveysari va oqsochlar va 937 nafari restorat va bar xodimlarini tashkil etadi. 2 jadvalda mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari xodimlari sonini xududlar kesimida ko‘rish mumkin.

7-jadval

2017 yilda mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari xodimlari soni, kishi

	Jami (o‘rindosh-larsiz)	ulardan lavozim toifalari bo‘yicha:			
		mehmonxona ma’murlari	menejerlar	mehmonxona shveysari va oqsochlar	restoran va bar xodimlari
O‘zbekiston Respublikasi	7383	1649	692	2006	937
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	150	49	15	53	10
Andijon	203	39	8	62	15
Buxoro	543	170	71	182	43
Jizzax	167	53	7	22	16
Qashqalaryo	257	75	19	106	26
Navoiy	330	76	17	119	50
Namangan	150	46	14	53	10
Samarqand	639	171	67	156	59
Surxondaryo	273	75	15	65	20
Sirdaryo	57	18	10	13	10
Toshkent	500	128	33	115	3
Farg‘ona	354	68	30	87	17
Xorazm	410	97	37	130	56
Toshkent sh.	3350	584	349	843	602

O‘zbekistonda 460 ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari ob’ektlari mavjud. Bular 18 ta dam olish pansionati, 41 ta dam olish uylari va bazalari, 8 ta kemping, 71 ta katta yoshlilar uchun sanatoriya, 33 ta bolalar uchun sanatoriya va 289 ta boshqa joylashtirish vositalari. Jami nomerlar (xonalar) soni 15607 ta, joylar soni esa 57099 tadan iborat.

Jami joylashtirilgan shaxslar soni 632,8 mng kishi, ulardan 11,1 ming nafari MDH davlatlaridan, 5,9 ming nafari esa uzoq xorijiy mamlakatlardan. Jami tunab qolishlar soni 599724 sutkani tashkil etadi, undan 79030 sutka MDH fuqarolari xissasiga, 8461 sutkasi uzoq xorijiy mamlakat fuqarolari xissasiga to‘g‘ri keladi. YAIMda turizmning ulushi 2016 yilda 2,4 % ni tashkil etgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2014 yilda 2,7 %, 2015 yilda esa 2,6 % tashkil etgan. Turizmning eksportdagi ulushi esa 2014 yilda 7,8 %, 2015 yilda 9,5 %, 2016 yilda esa 10,4 % tashkil etgan.

Respublikamiz YAIM turizm ulushi 2018 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra 2,7 foizni tashkil etgan xolos.

8-jadval

Jahon mamlakatlari YAIMda turizm ulushi to‘g‘risidagi ma’lumot (foizda, 1 yanvar holatiga ko‘ra)

№	Mamlakatlar	Yillar				
		2014	2015	2016	2017	2018
1.	Maldiv orollari	80,4	84,5	74,5	74,8	76,6
2.	Gruziya	20,4	20,9	25,2	27,1	31,0
3.	Meksika	14,8	14,9	15,7	15,9	16,0
4.	Armaniston	12,2	12,8	14,0	14,6	15,7
5.	Ispaniya	13,8	14,1	14,1	14,5	14,3
6.	Ozarbayjon	8,2	8,6	10,2	13,2	14,6
7.	Malayziya	13,0	14,2	13,4	13,8	13,4
8.	Turkiya	12,2	12,2	12,0	11,1	11,6
9.	Xitoy	9,6	10,0	10,5	11,0	11,0
10.	Germaniya	10,4	10,6	10,7	10,7	10,7
11.	Tojikiston	8,9	9,3	8,6	8,6	8,3
12.	Qozog‘iston	5,9	4,9	5,6	6,0	6,0
13.	Ukraina	5,1	5,5	5,4	5,4	5,7
14.	Rossiya	4,8	4,9	4,7	4,9	4,8
15.	O‘zbekiston	2,8	2,7	2,8	3,0	2,7

Bundan tashqari, davlatning turizm sohasidagi xarajatlari to‘g‘risida tahlil qiladigan bo‘lsak 173 davlat orasida respublikamiz 2018 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra 1,0 % ni tashkil etgan holda 145 o‘rinni egallagan. MDH davlatlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, ushbu ko‘rsatkich Qozog‘istonda-4,2%, Armaniston-3,8%, Gruziya-3,4%, Ozarbayjon-2,9%, Tojikiston-2,9%, Rossiya-2,7%, Qirg‘iziston-1,8% ni tashkil etgan. Respublikamizda turizm sohasini eksportdagi ulushi 2018 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra 11,4% ni, turistik faoliyatni amalga oshirgan firmalar soni 449 tani tashkil etgan. Respublikamizga sayyoh sifatida keluvchilarning asosiy qismini 2017 yilda qarindoshlarini yo‘qlab kelganlar bo‘lib, ular 2272,3 ming. kishini tashkil etgan.

7-chizma.

Turizm sohasiga davlat xarajatlari, YAIMga nisbatan foizda



Sayyoh sifatida 203,7 ming kishi kelgan, MDH davlatlari orasida Qozog‘istondan 1783,8 ming kishi tashrif buyurgan. Respublikamizga tashrif buyuruvchilar sonining ortib borishini hisobga olib O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi PF-5611-sonli “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni hamda PQ-4095-sonli “Turizm tarmog‘ini rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlarida 2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasida mehmonxonalar qurishning maqsadli

parametrlari ishlab chiqildi. Unga ko‘ra 2021 yilga borib, mehmonxonalar soni 2394 tani tashkil etishi rejalashtirildi. 2018 yilda respublikamizda jami 886 ta mehmonxona bo‘lib, Buxora viloyatida-160 ta bo‘lsa, eng kam mehmonxona Samarqand viloyatida 13 tani tashkil etgan xolos.

2021 yilda borib, viloyatlar kesimida eng ko‘p mehmonxona Buxoro (369 ta) va Samarqand (236 ta) viloyatlarida qurish rejalashtirildi. Ammo amalga oshirilayotgan ishlar turizm sohasini rivojlantirish uchun muhim omillardan sanaladi. Bu sohani rivojlantirish uchun yuqoridagi tahlillar asosida turizm sohasini rivojlantirishda yangi innovatsion g‘oyalarni tatbiq etish orqali amalga oshirish muhim sanaladi. Hozirgi vaqtda elektron tarmoqlarga etkazib berilayotgan turistik axborotning ko‘p qismi statistik axborotdir. Shu sababdan turizm sohasini rivojlantirishda rivojlangan davlatlar tajribalarini keng qo‘llash orqali yangi loyihalarni ishlab chiqish zarur. Respublikamizda faoliyat olib borayotgan turizm firma va tashkilotlari tomonidan zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali tarzda foydalanilgan holda diqqatga sazovor joylarni internet reklamalari orqali namoyon etilishi mamlakatimizga turistlar oqimining oshishiga olib keladi.

11.2.O‘zbekiston turizmining «Buyuk ipak yo‘li» brendi

l877- yili mashhur nemis olimi Karl Rixtgofen o‘zining «Xitoy» nomli yirik ilmiy asarida ulkan Yevroosiyo materigining turli qismlarini bog‘lovchi yo‘llar tizimini «Ipak yo‘li» deb atagan, keyinchalik «Buyuk ipak yo‘li» atamasi qabul qilingan.

Miloddan avvalgi II asrgacha ham Sharq bilan G‘arb o‘rtasida O‘rta Osiyo karvon yo‘llari orqali amalga oshirilgan aloqalar mavjud bo‘lgan. Bunga Tog‘li Oltoydagi Poziriq qo‘rg‘onidan topilgan, Kichik Osiyoda tayyorlangan buyumlar, Afg‘oniston va O‘rta Osiyodan topilgan yunon buyumlari misol bo‘lishi mumkin. Iskandar Maqduniy saltanati tuzilishi bilan bu aloqalar to‘g‘ri yo‘lga solingan. «Buyuk ipak yo‘li» ning sharqiy qismini barpo etishda so‘g‘diylar katta rol o‘ynaganlar. Iskandar Maqduniy tomonidan

So‘g‘diyona mamlakati istilo etilishi bilan ko‘plab so‘g‘diylar Sharqqa tomon ko‘chganlar va «Buyuk ipak yo‘li» ning markaziy qismini O‘rta Osiyodan tortib Xitoyning Chanan shahrigacha bo‘lgan oraliq masofada savdo faktoriyalari (manzilgohlari) bunyod etganlar. O‘z navbatida Xan imperiyasi miloddan avvalgi birinchi ming yillik oxirida o‘z hududini O‘rta Osiyo tomon kengaytirish siyosatini yurgizib, bu yo‘nalishga alohida e’tibor qaratadi va bu yo‘l haqida ma’lumot to‘plash, ayg‘oqchilik va diplomatik maqsadlarida elchi Chjan Szyanni yuboradi. Ammo O‘rta dengizning sharqida joylashgan Suriyadagi Giyerapol shahridan Serika (Xitoy) gacha bo‘lgan masofa bo‘ylab tuzilgan dastlabki batafsil yo‘l xaritasi makedoniyalik savdogar May Tisian (milodiy l00-yil) tomonidan tuzilgan. Bu ma’lumotlar Klavdiy Ptolemeyning «Geografik qo‘llanma»sida saqlangan. Ptolemey o‘z navbatida bu ma’lumotlarni tarixchi Marinning taxminan l07-ll4-yillar oralig‘ida yozilgan va bizgacha yetib kelmagan asarlaridan olgan. Ushbu ma’lumotlarga ko‘ra, «Buyuk ipak yo‘li» 2 katta qismga bo‘lingan: Giyerapoldan Toshminor (Toshqo‘rg‘on)gacha va Toshminordan Serikagacha. Yo‘lning O‘rta Osiyo qismi Ariya (hozirgi Turkmanistonning janubi va Afg‘onistonning shimoli-g‘arbida joylashgan viloyat)dan boshlangan. Ariyadan Marg‘iyonadagi Antioxiyaga (Bayramali shahri yaqinidagi ko‘hna Marv shahri xarobasi) ketgan, so‘ngra sharqqa burilib, Baqtra (Shimoliy Afg‘onistondagi Balx shahri)ga borgan. Bu yerdan yo‘l shimol tomon yo‘nalib, Termiz atrofida Amudaryodan o‘tgan va so‘ngra 2 tomonga ketgan. Yo‘lning birinchisi, Shimol bo‘ylab Temir darvoza orqali Marokanda (Samarqand)ga, u yerdan Farg‘onaga ketilgan, ikkinchisi janubiysi esa Surxondaryo vodiysi bo‘ylab komedlarning tog‘li o‘lkasi (hozirgi Qorategin)ga olib borgan. Har ikki yo‘nalish ham Tosh- minorga olib borgan. Uni ayrim olimlar Toshkent hududida, boshqalari Oloy vodiysida joylashgan, deb hisoblaydilar. Toshminordan so‘ng yo‘l O‘rta Osiyo hududidan tashqariga chiqqan, Ergashtom atrofida «saudogarlar qo‘nimgohi» joylashgan, so‘ngra yo‘l Takla-Makon cho‘lidan o‘tib Dunxuanga, so‘ngra Xitoyning qadimgi poytaxti Chananga olib borgan. Bu

yerdan yo‘l ehtimol shimoli-g‘arbga Koreya va Yaponiyaga ketgan bo‘lsa kerak. Milodiy V-VIII asrlarda «Buyuk ipak yo‘li»ning Yettisuv orqali Choch (Toshkent vohasi) So‘g‘d, so‘ngra Poykend, Marv bo‘ylab Eron Xurosoniga eltuvchi shimoliy qismi muhim ahamiyat kasb etgan. Ayni shu davrda Eron orqali Vizantiyaga ipak olib o‘tish taqiqlanganligi munosabati bilan so‘g‘d savdogarlari Vizantiya va Turk xoqonlari vositachiliklarida So‘g‘d va Xorazmdan Kaspiy dengizini aylanib o‘tib, Shimoliy Kavkazdagi dovonlardan oshib, Qora dengiz va keyinchalik Konstantinopolgacha bo‘lgan yo‘l tarmog‘ini ochadilar. G‘arbda yuksak qadrlangan, qiymati jihatidan oltin va qimmatbaho toshlarga tenglashtirilgan ipak vositasida Vizantiya imperatorlari Yevropadan jangchilar yollashgan va qo‘shni «uaruar» german va slavyan qabilalarining hukmdorlarini o‘z tomonlariga og‘dirib olishgan, chunki ipak ularda yanada qadrliroq sanalgan. Ipak bu paytda 3 buyuk davlat: Vizantiya imperiyasi, Sosoniylar Eroni va Buyuk Turk xoqonligi o‘rtasida iqtisodiy raqobat obektiga aylangan. Biroq, bu «ipak yo‘li» uzoq vaqt mavjud bo‘lmagan, chunki VI asrning ikkinchi yarmida Xitoy ipak ishlab chiqarish bo‘yicha monopol huquqdan mahrum bo‘lgan, asr oxirida esa Vizantiya shu qadar ko‘p miqdorda ipak yetishtirar ediki, uni Xitoydan keltirishga hech qanday ehtiyoj qolmagan. Vizantiya ipak sanoatining barpo etilishi va uni asta-sekin Kavkazortiga va O‘rta dengiz mamlakatlariga tarqalishi bilan Buxoro ipak yo‘lining tarixi tugaydi. Keyingi asrlarda, ayniqsa mo‘g‘ullar saltanati davrida, garchand Sharq bilan G‘arbni bog‘lovchi karvon yo‘li mavjud bo‘lgani haqida ko‘plab ma’lumotlarga oid qator dalillarni keltirish mumkin bo‘lsa-da, lekin «ipak yo‘li» nomini unga shartli ravishda qo‘llash mumkin, chunki bu yo‘lning ahamiyatini endilikda ipak emas, balki boshqa tovar va maqsadlar belgilar edi.

l987-yili YUNESKO madaniy taraqqiyot bo‘yicha BMT ning umumjahon dekadasi doirasida «Ipak yo‘li muloqot yo‘li» xalqaro dasturini qabul qildi. Bu dastur O‘rta Osiyo xalqlari boy madaniy tarixini keng qamrovda tadqiq etishni nazarda tutadi. Biroq uning asosiy maqsadi Sharq bilan G‘arb o‘rtasida yanada

mustahkamroq madaniy va iqtisodiy aloqalar o‘rnatish, ushbu buyuk qit’alarda yashovchi ko‘p sonli xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni yaxshilashdan iborat. Ko‘plab (30 dan ziyod) xalqaro ilmiy konferensiya (jumladan, Samarqand, l990-yil oktabr, 2014 noyabr; Buxoro, l996-yil fevral) va seminarlar o‘tkazildi. Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab birgalikda xalqaro ekspeditsiyalar uyushtirildi, kinofilmlar yaratildi, kitoblar, risolalar va maqolalar chop etildi, ba’zi arxeologik va me’moriy yodgorliklar ta’mirlandi. Ba’zi bir Sharq mamlakatlarida (Hindiston, Xitoy, O‘zbekiston, Shri-Lanka, Yaponiya) Buyuk ipak yo‘lini o‘rganish bo‘yicha maxsus ilmiy institutlar barpo etilgan. Masalan, BMT va YUNESKO qaroriga ko‘ra Samarqand shahrida Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti ochilgan. l997-yili may oyida O‘rta Osiyoni Eron bilan bog‘lagan «Saraxs-Mashhad» temir yo‘li uchastkasi qurilishi tugallandi, bu bilan O‘rta Osiyo mamlakatlari Fors qo‘ltig‘iga, Yevropa mamlakatlari esa O‘rta Osiyoga chiqish imkoniga ega bo‘ldilar. Ilmiy va madaniy dasturlardan tashqari «Buyuk ipak yo‘li»ni tiklash bo‘yicha jahonshumul ahamiyatga ega bo‘lgan loyiha amalga oshirilmoqda (Yevropa- Kavkaz-Osiyo transport yo‘lagi: TRASEKA). Navbatdagi vazifa O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi temir yo‘l uchastkasini qurishdir. Mana shu reja amalga oshgudek bo‘lsa, Atlantika okeanidan tortib Tinch okeanigacha bo‘lgan masofada «Buyuk ipak yo‘li»ning «temir yo‘l» varianti to‘la tiklangan bo‘ladi. O‘zbekistonda «Buyuk ipak yo‘li»ni tiklashga katta e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekistonda tashkil qilingan asosiy sayyohlik yo‘nalishlari qatoriga «Buyuk ipak yo‘li» sayyohlik yo‘nalishi ham kiradi. l994-yili Toshkent va Samarqandda Jahon sayyohlik tashkilotining «Ipak yo‘li» loyihasini ishlab chiqish bo‘yicha xalqaro yig‘ilishi o‘tkazilib, unda O‘zbekiston mazkur qadimiy yo‘nalishning markazi deb belgilandi. l995-yil 2-iyunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti «Buyuk ipak yo‘li»ni qayta tiklashda O‘zbekistonning ishtirokini kuchaytirish va respublikada xalqaro sayyohlikni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar to‘g‘risida farmon qabul qildi. Shu asosda «O‘zbekturizm» milliy kompaniyasi «Ipak yo‘li» o‘tgan tarixiy

manzillar bo‘ylab 200 dan ortiq yo‘nalishlar ishlab chiqdi. Ular asosiy sayyohlik zonalarini qamrab oladi va Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva hamda Farg‘ona vodiysi shaharlari bo‘ylab o‘tadi. «Buyuk Ipak yo‘li»ning tarmoqlari hisoblangan Andijon, Namangan, Farg‘ona, Termiz, Nukus shaharlari orqali o‘tuvchi yo‘nalish «Farg‘ona oltin halqasi» Qo‘qon, Farg‘ona, Andijon, Namangan shaharlarini o‘z ichiga oladi.

«Buyuk Ipak yo‘li» sayyohlik yo‘nalishida turistlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularga namunali xizmat ko‘rsatish maqsadida yangi shinam mehmonxonalar, kempinglar, motellar, umumiy ovqatlanish va dam olish maskanlari bunyod etilmoqda. Shu sababli bu yo‘nalishlar bo‘ylab safar qiluvchilar soni yil sayin ortib bormoqda.

11.3.O`zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishning milliy modelini yaratish

Bugungi kunda ekologik turizm jadal rivojlanib borayotgan turizm industriyalarining biridir. Bu soha jahon turizm industriyasidagi ulushi - 4% ni, ekoturizm xizmatlaridan olinadigan daromad 55 mlrd dollar va uning yillik o‘sishi 30% tashkil qilmoqda. Bu ko‘rsatkich 2020 yilga borib jahon turizm industriyasining asosiy strategik yo‘nalishlaridan biriga aylanishi mutaxassislar tomonidan bashorat qilinmoqda.

O`zbekiston tarixiy va madaniy obidalarga boy turistik mamlakatlardan biridir. Bundan tashqari uning tabiiy va ekoturistik salohiyatidan turizm maqsadlarida hududlarda etarlicha foydalanilmayapti. Buning uchun xorij tajribasi asosida ekoturizmni rivojlantirishning milliy modelini yaratish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tabiiy resurslarning tobora kamayib borayotganligi, atrof-muhit muhofazasining sayyoraviy chegaralarda tobora keskin xolatlarni keltirib chikarayotganligi, tabiiy inqirozlarning oldini olish, tabiatni kelgusi avlodlar uchun muhofaza qilishda ekologik turizmni rivojlantirish xalqaro miqyosda tan olingan najot

yo‘llaridan andoza olish, tajribalardan oqilona foydalanish muhimdir.

O`zbekistonda ekoturizmning rivojlanishi nafaqat ma’naviyatimiz, ilm-fan, madaniyat, ma’rifat, tabiatni muhofaza qilish, ekoturistlarni jalb qilish, biologik xilma-xillikni saqlash muammolarini xal qilishga balki, shu bilan birga iqtisodiy masalalarni, mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitini yaxshilash, aholini yangi ish joylari bilan ta’minlash, mamlakatimiz iqtisodiyotining o‘sishiga katta xissa qo‘shadi.

Mamlakatimiz ekoturizm resurslariga boy davlatlar katorida turadi va Markaziy Osiyoning, dunyo mamlakatlarining o‘zaro aloqalarini geografik jihatdan bog‘lovchi davlatdir. Shu sababli ichki va xalqaro turistik oqim va ekoturistik oqim ham bizda kuchayishining juda katta imkoniyatlari hamda salohiyatlari bor.

Jahonda ekoturizmni rivojlantirishda yagona, har bir davlatlarning tabiiy iqlim sharoitiga, ulardagi turizm resurslaridan foydalanishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri mos keladigan, qulay bo‘lgan modellar yoki usullar hozirgacha ishlab chikilgan emas. Lekin, ekoturizmni rivojlantirishda milliy parklardan va davlat tabiiy qo‘riqxonalaridan foydalanish masalalari yaxshi tadqiq qilingan.

Milliy parklar - bu tabiiy landshaftni va undagi biologik xilma-xillikni, bir va bir necha ekologik tizimlarni har taraflama muhofaza qiluvchi, aholining dam olish tizimini yaratishga imkoniyatlar yaratuvchi, hosil qiluvchi va dunyoning ko‘plab davlatlari ekoturizmda foydalanayotgan, biri-birini qo‘vvatlab kelayotgan tabiiy majmualardir. Hozirgi vaqtda dunyoda 3 mingdan ortiq milliy parklar bor. Dunyoda milliy parklardan foydalanishda ko‘pdan-ko‘p usullar, uslubiyatlar va modellar bor. Bunday modellar hozir ham ixtiro qilinmoqda. Ko‘p xollarda dunyodagi milliy parklardan ekoturizmda foydalanishda xususiy moliyaviy ta’minot oldinga surilmoqda. Ekoturizmning prinsiplari bo‘yicha ham ekoturist dam oladi va tabiat bag‘rida dam olganligi uchun minimal soliq, xaq to‘laydi.

Milliy moliyalashtirish manbalari asosida rivojlanayotgan milliy parklar asosan o‘z davlatidagi xomiylar hisobiga faoliyat olib boradi. Hozirda bunday davlatlar soni dunyoda 30 dan ortdi.

Ularning yillik daromadi 1 mlrd.AQSH dollaridan oshdi. Mahalliy manbadan daromad qiluvchi milliy parklar o‘zlarini asosan ekoturizmdan olinadigan foyda hisobidan moliyalashtirmoqdalar. Milliy parklardan ekoturizmda foydalanishdan Kanada davlati har yili 250 mln dollar, AQSH esa 870 mln dollar foyda olmoqdalar. Yaponiyaning milliy parklariga har yili 316 mln ekoturist tashrif buyuradi. Shulardan 252,8 mln. yaponlarni, 6,2 mln. xorijiy ekoturistlarni tashkil qiladi. Hozirgi vaqtda milliy parklarning 4 ta modeli bor. Bu modellarning alohida - alohida model sifatida ajratilishi o‘ziga xos xususiyatlarga asoslangan:

1. Amerika modeli.

2. Yevropa modeli.

3. Park rezervat modeli

4. Osiyo odeli.

1. **Amerika milliy parklari modelida** muhofaza qilinadigan hududlarning juda kattaligi, betakror tabiati bilan xususiyatlanadi. Masalan, Grenlandiya milliy parki - 70 mln. ga Afrikadagi Markaziy Kalaxari parki - 5,2 mln.ga, Amerika Qo‘shma Shtatlaridagi Alyaska milliy parki -7,3 mln.ga, Kanada davlatidagi Bud- Baffalo - 4,4 mln.ga, Mo‘g‘iliston davlatidagi Gobi milliy parki -5 mln.ga, Rossiyadagi Kolima milliy parki 3 mln.ga.

Bu modelda milliy park tashkil qilishni birinchi bo‘lib Amerika Qo‘shma shtatlari boshlagan. AQSH xukumati 1872 yilda hozirda dunyoga mashhur Yellouston milliy parkini tashkil qildi. AQSH va Kanada davlatlari bu modelda foydalanishda insonning xo‘jalik faoliyati kuchayib borayotgan bo‘lsa ham o‘z hududlari chegarasida milliy parklarning maydonlarini tobora kengaytirib bormoqdalar. Hozirgacha Kanada davlati milliy parklar hududlarini 12 % ga kengaytirdi. Bu milliy parklar davlat tasarrufida, ba’zi xollarda yirik korporatsiyalarga ijaraga beriladi, lekin miliy parkning tabiati muhofazasi nazorat huquqini davlat o‘zida saqlab qoladi.

Bu modeldagi milliy parklarni moliyalashtirish juda baland. Milliy parklarni saqlash uchun davlat ham, federal shtatlar ham mablag‘ ajratadi. Bunga qo‘shimcha bo‘lib xususiy mulkdorlar ham mablag‘ qo‘shishadi (milliy parklardagi rekreatsiya xizmatlarining

yarmi xususiy sektorda). Shuning uchun ham Shimoliy Amerika modelidagi milliy parklar) dunyodagi eng boy milliy parklardir. Milliy parkni rivojlantirishda AQSH va Kanada xukumati o‘zaro teng shartnoma asosida hamkorlik qilishadilar, milliy parkdan dam olish va ekoturizmda foydalanishning zamonaviy, yangi texnologiyalarini yaratadilar.

Xalqaro ekologik turizm rivojida Amerika modelining ko‘plab davlatlarda ishlatilayotganligi bu modelning jahonda birinchi marotaba mamlakat aholisining dam olishini va rekreatsiyaga bo‘lgan ehtiyojini qondirish edi. Eng muhimi, Amerika davlati mahalliy aholini ish bilan ta’minlashning, har bir hududlarning ijtimoiy- iktisodiy rivojlanishini rejalashtirishni jahondagi boshqa davlatlarga qaraganda juda erta boshlagan edi.

Ikkinchidan, AQSH va Kanada davlatlarining maydonlarining kattaligi, bu hududlarda aholining keng tarqalganligi, ovchilikning juda kuchayib borayotganligi tabiatni va tabiat resurslarini muhofaza qilish xalqaro miqyosda kuchayib borayotganligi ham bu ikkala davlatning o‘zaro hamkorlikda jahonda birinchilardan bo‘lib milliy parklarni tashkil qilish va ulardan dam olish, tabiatni muhofaza qilishda ekologik turizmni rivojlantirishning zarurligini o‘z vaqtida tushunib etgan edi.

Shu nuqtai-nazardan Yevropa davlatlarining olimlari, ekologlari kun tartibidagi bu muhim masalani echishning ilmiy-amaliy muammolarini tadqiq qilishga kirishgan edilar. Natijada global muammolardan biri bo‘lgan tabiatni va uning resurslarini saqlab qolish va kelajak avlodlarga etkazishda xalqaro miqyosda ekologik turizmni rivojlantirishning davlat dasturlari ishlab chiqila boshlandi. Shu tariqa ekologik turizmni rivojlantirishning xalqaro modellarini ishlab chiqish o‘sha vaqtdagi davr talabi edi.

Sivilizatsiya taraqqiyoti insoniyatning dam olishini ham birinchi o‘rinlarga chiqarishi natijasida va sayyoramiz tabiatini oqilona saqlab qolishning eng ustuvor yo‘nalishlari aynan tabiat bag‘rida dam olish va uning saqlanib qolishiga yordam berish ham xalqaro ekologik muammolarda ustuvor masalalarga aylangan edi. Shu nuqtai nazardan AQSH va Yevropa milliy ekologik modelidan foydalanishni ko‘plab davlatlar tezda qabul qilishdi.

2.Yevropa modeli. Birinchi Yevropa milliy parki 1909-yilda Shvetsiyada tashkil topgan. Bu modelning o‘ziga xos afzalliklari Buyuk Britaniyada ishlab chiqildi. Bu modelda ishlash G‘arbiy Yevropa va Yaponiyada tashkil qilindi va tobora rivojlanib bormoqda. Bu modelning asosiy xususiyatlari milliy parklarning hududlari kichikligi va aholining ekologik bilim va madaniyat yuqori darajadaligi bilan farklanadi. Bu modelni moliyalashtirish davlat tomonidan amalga oshiriladi. Shuning uchun ham transport, yo‘l kommunikatsiyalari va ekoturizm infratuzilmalari juda yuqori darajalarda tashkil qilingan.

Yevropa modelidagi milliy parklarning yana bir xususiyati shundaki, deyarli 50 % milliy parklar xususiy sektorda. Milliy parklarning eng katta shiori - mamlakat aholisining sog‘ligini tiklash va dam olish sharoitlarini yaratish hisoblanadi. Shuning uchun ham ichki ekoturistlar oqimi juda katta, lekin tashqi ekoturizm oqimi ham katta miqdorlarni tashkil qiladi.

Yevropa davlatlaridagi milliy parklarning tashkil qilinishi muhitini va sharoitini hisobga olsak, dastlab shunday omilga e’tibor berish kerakki, yevropaliklar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda boshqa xalqlarga nisbatan ancha oldinga chiqib olgan xalqlardir. Ularning aholi eng zich joylashgan materikda yashayotganligi ilmiy-texnika rivojlanib borayotganligi uchun ham ikkinchidan, bu davlatlada yashayotgan xalqlarning ijtimoiy-siyosiy ongi va madaniyatining juda yuqori bo‘lganligi ham o‘z davlatlari rahbariyati oldiga tabiat muhofazasini dadil qo‘yganligi, o‘zlarining ham global ekologik muammolarning tobora kuchayib borayotganligi o‘z vaqtida tushunib olganliklari edi.

3. Rezervat - park modelining rivojlanish konsepsiyasi butunlay boshqacha - bu milliy parklarni moliyalashtirish davlat hisobidan emas balki, aksincha davlatni quvvatlashdir. Bu milliy parklarning faoliyat ko‘rsatishdagi bosh prinsipi- o‘z kuchiga ishonch, g‘oyasi o‘zini-o‘zi ta’minlashdir. Bu model XX asr o‘rtalarida shakllandi va hozirda rivojlanayotgan davlatlarda keng yoyilib bormoqda. Milliy parkka kirish bahosi juda past va shuning uchun ham ichki va tashqi turistlar juda ko‘p tashriflar qilishmoqda.

Rezervat park modelidagi eng muhim omil evropaliklarning ekologik ong va ekologik madaniyatining juda yuqori bo‘lganligi bilan belgilanadi. Bu milliy park tizimining ishlashida juda katta ma’no bor. Binobarin, evropaliklar «o‘z uyingni o‘zing ozoda tut» shiorini ommaviy ravishda qabul qiladilar va unga to‘liq amal qilib kelmoqda. Yevropaliklarning o‘zaro hamkorlikda mustaxkam, birodarlikda ekanligini jahondagi xalqlar tarix saboqlaridan juda yaxshi bilishadi. Ikkinchidan, Yevropada yashayotgan xalqlar hayotning har qanday muammolarini birlashmasdan hal qilib bo‘lmasligini ham juda yaxshi bilishadi. Uchinchidan, park rezervat tizimini tashkil qilish yo‘li bilangina zamonaviy sanoat kuchli rivojlangan Yevropaning hozirgi tabiatini saqlab qolish va kelgusi avlodlarga etkazish mumkinligini ular ancha erta angladilar.

4. **Osiyo modeli** hozirgi vaqtda shakllanish bosqichida. Bu modeldagi milliy parklarning faoliyat ko‘rsatish asosan davlat tasarrufida. Osiyo davlatlari o‘z ichki turizmida ham xalqaro miqyosda rivojlanib borayotgan, tabiat muhofazasida va mahalliy aholi ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim istiqbolli yo‘nalishlarni ta’minlaydigan ekologik turizmni rivojlantirishda milliy parklar va alohida muhofazadagi hududlardan foydalanish tizimini yaratishga yoki tadqiq qilishga jiddiy kirishgan emas.

Ekologik turizmni rivojlantirishdagi Osiyo modeli yuqorida qayd qiganimizdek, endigina rivojlanish yo‘lida. Osiyodagi davlatlardan Xindiston, Tayland, Janubiy Koreya va Yaponiya davlatlari ko‘p yillardan beri ekologik turizmni rivojlantirib borayotgan davlatlar qatoriga kiradi.

So‘nggi yillarda alohida muhofazadagi hududlardan ekologik turizmda foydalanish asta-sekinlik bilan va o‘ta xushyorlik bilan oldinga siljiy boshladi. Bu yo‘nalishda BMT ning vakolatxonasining xalqaro loyihasi asosida Badayto‘qay davlat qo‘riqxonasi xalqaro biosfera rezervatiga aylantirildi. Bu biosfera rezervatidan xalqaro “Econet” tizimida ekologik turizmni rivojlantirish boshlandi. Chunki, biosfera rezervatida mahalliy aholi ham yashaydi. Bu aholi ekoturistlarga ekoturistik xizmatlarni ko‘rsata boshladi

5.Avstraliya modeli. Ilmiy adabiyotlar tahlilidida ma’lum bo‘ladiki, Avstraliya ekologik turizmni uning tamoyillariga

asoslanib tashkil qilgan va jahonda ekologik turizmni ilmiy-amaliy qoidalariga asosan rivojlantirayotgan etakchi davlat hisoblanadi. Bu davlat ekologik turizmni o‘z davlatining hududlarida tashkil qilganda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning davlat dasturlarini ishlab chiqadi va hududning tabiiy resurslarini hisobga olgan holda ekologik turizmni rivojlantirish imkoniyatlarini o‘rganadi.

Eng muhimi shundaki, ekologik turizmni tashkil qilishda mahalliy aborigen aholining ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari hisobga olinadi va ekoturistik xizmatlarni amalga oshirish to‘liq ularga topshiriladi. Ikkinchidan, mamlakatdagi shtatlarning ma’muriyatining taklif va tavsiyalarini ham to‘liq hisobga oladi. Mamlakatdagi tabiatshunos, ekolog va biolog olimlar xaltali xayvonlar yurti bo‘lgan Avstraliyaga moliyaviy jihatdan imkoniyatlarga ega bo‘lgan turistlarning kelishini juda yaxshi bilishadi. Shuning uchun ham ular ekoturistik mahsulotlarni turli-tuman mavzularda tayyorlashadi. Hozirda xalqaro turizmda Avstraliyaning ekoturistik marshrutlari juda ommaviylashgan va katta ekoturistik oqimlarni xosil qilgan xalqaro ekoturistik marshrutlari muvaffaqiyat bilan ishlamoqda. Avstraliya modelining muvaffaqiyat bilan ishlayotganligining eng muhim omillaridan biri shundaki, barcha hududlarda tashkil qilinayotgan ekoturistik xizmatlarga faqat o‘sha hududning mahalliy aholiga xizmatlar ko‘rsatadi. Bu usulda ishlash mahalliy aholining ish bilan ta’minlanishini xal qiladi va mahalliy qishloqlarning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini o‘z vaqtida xal qiladi. Bavariya o‘rmonlari milliy parkini ko‘pincha ekologik turizmni rivojlantirishning xalqaro Yevropa-2 modeli deb ham nomlashadi. Bu milliy parkning tashkil qilinishi tizimi ham ekologik turizmni rivojlantirishda butunlay yangicha usullarni qo‘llashdan boshlandi. Ekologik turizmni tashkil qilishda va milliy parklar, alohida muhofazadagi hududlardan ekologik turizmda foydalanishda asosan davlat tashabbuskor bo‘lgan bo‘lsa Bavariya o‘rmonlari milliy parkini mahalliy xukumat tashkil qildi va asosiy shior tabiat va uning resurslarini muhofaza qilishda davlatga yordam berish tizimini ishlab chiqdi.

Yuqorida keltirilgan Yevropa-2 modelining asosiy ko‘rsatkichlaridan ham bu tizimning barcha ish yuritish xolatlarini tezda anglab olish mumkin va kichik maydonlarda ham, alohida muhofazadagi hududlarda ham, tabiiy resurslarni muhofaza qilishda ham ekologik turizmni rivojlantirishda ham Bavariya o‘rmonlari milliy modelini muvaffaqiyat bilan qo‘llash mumkin bo‘ladi.

Yevropa mamlakatlarining maydonlari Amerika va Kanada yoki Afrika davlatlaridagidek katta hududlarni egallagan milliy parklari yo‘q bo‘lsada Yevropa xalqlarining ham siyosiy ham ekologik madaniyatining yuqori bo‘lganligi g‘oyatda zich joylashgan davlatlar o‘z davlatlari hududlarida saqlanib qolgan tabiatni muhofaza qilishda ekologik turizmni rivojlantirish yo‘llarini ustalik bilan topdilar. 1993 yilda landshaft bioxilma-xilligi va turlarni saqlash bo‘yicha «Panevropa strategiyasi» jahonda birinchi ekologik tarmoq – “Econet”ning tuzilganligini e’lon qildi. Ekonet tizimidagi davlatlar hozirga kelib alohida qo‘riqlanadigan hududlarni muhofaza qilish va ratsional foydalanishning quyidagi texnologiyasini ishlab chiqdi. Ekonet tizimi hozirga kelib nafaqat Yevropa davlatlarida balki, butun jahondagi davlatlarning alohida muhofaza qilinadigan hududlarining ekologik muvozanatini saqlashda ekologik turizmni jadal rivojlantirish maqsadlarida ommaviy ravishda qo‘llanilmoqda. Chunki, olimlarning xulosalariga ko‘ra alohida muhofazadagi hududlarni ekologik bilimli va ekologik ongli kishilar davlat nazoratiga qaraganda yaxshiroq muhofaza qiladilar.

Yuqoridagi ekoturizmni tashkil qilishda jahon davlatlari tajribasini o‘rganish asosida O`zbekistonda ham ekoturizmni tashkil etishning milliy modelini yaratish maqsadga muvofiqdir.

Eng avvalo O`zbekistonda joylashgan davlat qo‘riqxonalarida milliy rezervatlar tashkil qilish, ya’ni qo‘riqxona ichida qo‘riqxona tabiati, undagi bioxilmaxillikka zarar etkazmasdan undagi qo‘riqlanayotgan o‘simlik, hayvonot olamiga turistlar tomosha qiladigan turistik marshrutlar ishlab chiqish lozim. Bunday tajriba Nurota-Arnosoy qo‘riqxonasida tashkil qilingan rezervati misol bo‘la oladi. Rezervatga kirish joyida turistlarni maxsus yo‘laklar orqali kirish uchun gidlar, turistlar foydalanish uchun transport

vositalari (otlar, tuyalar) qo‘yilgan. Turistlarning dam olishi uchun mexmonxonalar tashkil qilingan. Shunday rezervatni respublikamiz hududidagi boshqa qo‘riqxonalarda, shu jumladan xorijiy sayyohlar eng ko‘p tashrif buyuradigan Samarqand shahri atrofida joylashgan «Zarafshon» qo‘riqxonasida amalga oshirish mumkin.

Bundan tashqari, respublikamiz tog‘oldi va tog‘li hududlarida juda ko‘p ziyorat qiladigan muqaddas qadamjolar joylashgan. Ushbu qadamjolarga mahalliy aholi tashrif buyuradilar. Lekin bunday muqaddas joylarga ziyorat qilish stixiyali ravishda amalga oshiriladi. Hech qanday tartib yo‘q. Bunday joylarga Samarqand viloyati hududidagi joylashgan Xazrati Dovud ziyoratgohini misol qilib ko‘rsatish mumkin. Bu erga kelayotgan ziyoratchilarni tartibli ravishda tashkil qilish davlat tomonidan amalga oshirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ekologik turizmni rivojlantirishda xalqaro ekologik modellardagi yana bir muhim tuzilmalarning mohiyati va mazmuni shundan iboratki, bu modellarda ishlashda birinchi navbatda tabiatni va uning resurslarini muhofaza qilish oldinga qo‘yilgan. Ikkinchidan, mahalliy aholining ijtimoiy- iqtisodiy manfaatdorligi ta’minlangan. Uchinchidan, davlat va mahalliy boshqaruvlar ekoturizmni rivojlantirish dasturlarini qabul qilishda insonning dam olishini ta’minlovchi sharoitlarni qonunlar asosida mustahkamlagan. To‘rtinchidan, ekoturizmni rivojlantirishda imtiyozli davlat yordami tizimlarini ishlab chiqqan. Beshinchidan, xalqaro ekoturistik faoliyatlarga ham milliy parklarning tabiat muhofazasidagi faoliyatlariga ham davlatning ekologik nazorati davlat qonunlari asosida tashkil qilingan.

Mamlakatimizda ekologik turizmni rivojlantirishda xalqaro ekoturistik modellarni qo‘llash bo‘yicha quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

1. Ekologik turizmni vatanimizda rivojlantirishda birinchi navbatda ekologik turizmni rivojlantirishda xalqaro modellarning tavsif va tariflarini, bu modellarning maqsadi va vazifalarini, modellar bo‘yicha amalga oshiriladigan ishlarni batafsil o‘rganish talab qilinadi:

2. Mamlakatimizda ekologik turizmni rivojlantirishda xalqaro ekologik modellarni qo‘llash ob’ektlari ekoturistik foydalanish nuqtai nazaridan mufassal o‘rganilishi lozim:
3. Alohida muhofaza qilinadigan hududlar va tabiat qo‘riqxonalari, milliy bog‘lardan ekologik turizmni rivojlantirishda foydalanishning huquqiy va me’yoriy xujjatlarini davlat miqyosida ishlab chiqish:
4. Ekologik turizmni rivojlantirishda mamlakatimizning ekoturistik resurslari va ob’ktlari xalqaro va ichki turizm bo‘yicha darajalarga bo‘linishi, bu ob’ektlarning turizmda foydalanish imkoniyatlarini o‘rganish:
5. Ekologik turizmni rivojlantirishdagi eng muhim masalalardan biri-ekologik turizm resurslari madaniy markazlardan ancha uzoq masofalarda joylashganligi sababli bu maskanlarda turistik infratuzilmalarning tashkil etilmaganligi hisoblanadi. Shuning uchun ham birinchi navbatdagi vazifalardan biri alohida muhofazadagi hududlar, davlat tabiat qo‘riqxonalari va milliy bog‘larimizda ekoturistlarga infratuzilma tizimini va xizmatlarini tashkil qilish:
6. Mamlakatimizda ekologik turizmni rivojlantirish dolzarb masalalardan ekanligi va bu istiqbolli yo‘nalishda ekologik turizmni rivojlantirishning xalqaro modellarini qo‘llashning reklamalarini ishlab chiqish hamda xalqaro va ichki turizm bozorlariga chiqarish:
7. Ekologik turizmni rivojlantirishda yana bir muhim masalalardan biri shundan iboratki, turizm boshqaruvida «O`zbekistonda turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi»da va uning viloyatlardagi mintaqaviy bo‘limlarida, ekskursiya sayohat byurolarida -«Ekologik turizmni tashkil kilish va boshqarish tizimi»ni tashkil qilish tuzilmalari shakllantirilish:
8. Istiqbolda ekologik turizmni rivojlantirshdagi yana bir dolzarb masalalardan biri - barcha viloyatlarimizda aholining qiziqishini, tadbirkorligini va tashabbuskorligini tashkil qilish, aholining ijtimoiy va iqtisodiy manfaatdorligini ta’minlovchi imtiyozli davlat qarorlarini ishlab chiqish:
9. Ekologik turizmni rivojlantirishdagi eng muhim muammolardan biri bo‘lgan yana bir masala shundan iboratki, ekoturizmni xarakatga keltiruvchi ixtisoslashgan maxsus turistik firmalar yoki

turistik tashkilotlar xanuzgacha tashkil qilinmayapti. Shuning uchun ham mamlaktimizning barcha viloyatlarida ekologik turizmni tashkil qiluvchi va ekoturistik xizmatlarni ko‘rsatuvchi turistik firmalar tashkil qilish:
10. Mamlakatimizda ekologik turizmni rivojlantirishda ruxsat berilgan ekologik turizm resurslariga turistik marshrutlar ishlab chiqishni yo‘lga qo‘yish va bu turistik marshrutlarning reklamasini xalqaro va ichki turizm bozoriga chiqarish:
11. Turizm mutaxassislari tayyorlanayotgan institut, universitetlar va turizm kollejlarida «Ekologik turizm»fanini majburiy ta’lim tizimiga kiritish:
12. Mamlakatimiz oliy ta’limida ekologik turizm bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash.

11.4. Tabiat yodgorliklarining turizmdagi roli

Mamlakatimiz tarixida yangi burilish davri bevosita barcha sohalarda olib borilayotgan tub islohatlarning mazmun va mohiyatidan, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning kelgusidagi ustuvor yo‘nalishlarini belgilash bilan tavsiflanadi. Binobarin, turizm sohasini isloh qilish va yanada rivojlantirish, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish, turizm turlari va uning barqaror ishlashini ta’minlovchi mexanizmlarni takomillashtirish va «O‘zbekistonning milliy turizm modeli»ni yaratish tizimini tashkil etish mamlakatimiz turizm tarixida yangi bosqichni belgilab beradi. O‘zbekistonda turizmni jadal rivojlantirish, mavjud ulkan turizm salohiyatidan yanada to‘liq va samarali foydalanish, madaniy-tarixiy turizm bilan birgalikda sohaning boshqa tarmoqlarini, xususan ekoturizm, ma’rifiy, etnografik, gastronomik, sport, davolanish-sog‘lomlashtirish (rekreatsiya turizmi), ishbilarmonlik, qishloq va agroturizmni, bolalar, o‘smirlar va yoshlar turizmi, oilaviy turizm kabilarni rivojlantirish hisobiga turizmning yangi yo‘nalishlarini hududiy tashkil etish va rivojlantirish bugungi kunda soha oldida turgan ustuvor vazifaga aylandi. Binobarin, **O‘zbekiston Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi**

farmoni loyihasi muhokamaga qo‘yildi. Hujjatda 2017-2021 yillar oralig‘ida O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi rejasiga turizm tarmog‘ini samarali rivojlantirish masalasi qo‘yilganligi buning yaqqol misolidir. Shuning uchun Prezidentimiz **«Turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora tadbirlari to‘g‘risida**»gi Farmoni bevosita sohani kompleks rivojlantirishning yangi bosqichga olib chiqishni nazarda tutadi. Vaholanki, hududlarda turizm imkoniyatlaridan etarli darajada foydalanilmayotganligi sababli iqtisodiyotdagi ulushi past darajada ekanligi ma’lumdir. Qolaversa tumanlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbol dasturlarida turizmni bosqichma bosqich rivojlantirish konsepsiyasi mukammal ishlab chiqilmagan. Binobarin, kichik hududlar darajasida turizmni majmuali tadqiq etish orqaligina sohani iqtisodiyotning muhim bug‘iniga aylantirish imkoniga ega bo‘lish mumkin.

Ma’lumki, yurtimizda 7000 dan ortiq tarixiy qadamjolar, me’moriy-arxitektura yodgorliklari mavjud. Ammo hududlarda milliy va xalqaro turizmni rivojlantirishning istiqbolli modeli yaratilmagan. Birgina Samarqand viloyati hududida 1105 ta arxeologik, 60270 ta me’moriy, 37 ta diqqatga sazovor joylar, 18 ta monumental, 21 memorial, jami 1851 ta moddiy-ma’naviy meros ob’ektlari mavjud. Bu ob’ektlardan turizm maqsadida samarali foydalanilmayapti. Chunki, ob’ektlarda infratuzilma shakllanmaganligi va boshqa sabablarga ko‘ra turizm maqsadida ishlatilmayapti. Ko‘pgina tabiat yodgorliklari inson xo‘jalik faoliyatida foydalanish uchun em xashak yig‘iladigan, mol boqiladigan, tomorqa erlari sifatida e’tibordan chetda qolib ketgan. Masalan, tabiatning noyob yodgorliklari hisoblangan Omonqo‘tondagi Lev g‘ori atroflari odam borib bo‘lmaydigan darajada panjaralar bilan bekitilib, yaylov va qishloq xo‘jaligida foydalanadigan erlarga aylantirilgan.

Tabiatning noyob yodgorliklaridan turizmda keng foydalanish katta samara beradi. Binobarin, inson bu tabiat bilan chambarchas bog‘liq mavjudot bo‘lib, hamma vaqt uning sir sinoatlari odamni o‘ziga ohangrabodek tortib keladi. SHuning uchun bo‘lsa kerak,

inson tabiat qo‘ynidagi sodir bo‘lgan va vujudga kelgan xodisa va jarayonlarni o‘rganishga qiziqishi tabiiy xoldir. Tabiat bilan jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar jiddiy tus olgan bir davrda undan oqilona foydalanishning eng samarali yo‘li turizm sohasidir. Evropa davlatlarida noyob yodgorliklardan turizm maqsadida keng foydalanib kelmoqda.

Tabiatning noyob yodgorliklari atamasini birinchi bo‘lib fanga mashhur nemis sayyohi, geograf va tabiatshunos olim Aleksandr Gumboldt 19-asrda kiritgan. Tabiat tomonidan yaratilgan barcha obektlarni ham tabiatning noyob yodgorliklari deb bo‘lmaydi. Tabiatning noyob yodgorliklariga, odatda, kishini o‘ziga jalb qiluvchi, ichki va tashqi tabiiy kuchlar yoki insonning muhandislik faoliyati ta’sirida yo‘qolib ketishi mumkin bo‘lgan, o‘tgan geologik davrlarda vujudga kelgan tog‘ jinslarining emirilishi natijasida ochilib qolgan qoya va kesmalarning er yuzasiga chiqib qolishi, qadimgi o‘simlik va hayvonlarning toshqotgan qoldiqlari, izlari, manzarali sharsharalar, g‘orlar va ular ichidagi ajoyib hosilalar, ko‘llar, daryolar va boshqalar kiradi. Noyob tabiat yodgorliklarining muhim xususiyatlaridan biri ularning ilmiy, nafosat va geologik tarixiy ahamiyatga egaligidir. Ko‘pchilik noyob tabiat yodgorliklarining vujudga kelishida tabiiy omillar (geomorfologik, arxeologik) bilan bir qatorda boshqa omillar ham qatnashadi. Yodgorliklarning vujudga kelishida mazkur omillar bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Bunga misol qilib O‘zbekiston va boshqa hududlarda uchraydigan geologik, geomorfologik, arxeologik yodgorliklari ko‘rsatish mumkin. Toshkent viloyati Xo‘jakent qishlog‘i yonidagi ohaktoshlardan tashkil topgan qoyalar ham geologik hamda geomorfologik yodgorliklar bo‘lib, bu erlarda qadimiy ajdodlarimiz qurol yasagan ustaxonasi va g‘or devorlariga chizib ketgan rasmlar saqlangan. Shuningdek, bunday yodgorliklar guruhiga O‘zbekiston janubidagi Ko‘hitang tizmasidagi ohaktoshlarda hosil bo‘lgan Zarautsoy g‘orida ibtidoiy odamlar tomonidan tabiiy bo‘yoq bilan 20-30 ming yillar ilgari chizilgan bir qancha hayvonlar, hasharotlar va ov manzaralarini aks ettiruvchi rasmlar ham misol bo‘la oladi.

Suv, shamol va quyosh ta’sirida tabiatda uchraydigan noyob manzaralar kishini o‘ziga tortadi va bu yaratilgan tabiat yodgorliklari turistlarni xayratga solmasdan ko‘ymaydi. Binobarin, san’at muzeylarida saqlanayotgan durdona rasmlarni zavq-shavq bilan tomosha qilinadi, ularni yaratgan rassomlarning mahoratiga qoil qolinadi. Chunonchi, tabiat ham o‘z holicha “qudratli rassom”dir. Uning uzoq geologik yillar davomida tog‘ cho‘qqilari, go‘zal vodiylar, chuqur daralar, ulkan sharsharalar, g‘orlar, qoyatoshlar, qaynoq buloqlar va boshqalar shular jumlasidandir. Tabiatning o‘ziga xos bu tuhfalarini tomosha qilish turistlarni hamma vaqt o‘ziga tortadi.

Masalan, Bolqon yarim orolidagi bir g‘oring ichidan oquvchi daryoda 6 ta sharshara, Shimoliy Amerikadagi Mamont g‘orining ichidan oqib o‘tadigan 3 ta daryoning 8 ta sharsharasi bor. Fransiyadagi Bkije nomli g‘or ichidagi daryo hosil qilgan sharsharaning balandligi 30 m dan ziyod. Vaholanki, bunday ajoyib g‘orlar yurtimizda ko‘plab uchraydi. Jumladan Qirqtov platosidagi varonkasimon g‘orlar, Kelsi g‘ori, Lev g‘ori, Amir Temur g‘ori kabilar speloturizmdagi ahamiyati nihoyatda kattadir.

Yurtimiz hududlarida minglab mo‘jizaviy va g‘ayratomuz maskanlar mavjud. Ammo ular xalqaro turizm maqsadlarida foydalanilmayapti. Masalan, Misring Giarfeh vodiysida, Saksoniya Shveysariyasida shamol kuchi bilan vujudga kelgan tosh darvoza va qo‘ziqorinsimon toshlar, Shimoliy Amerikadagi Kolorado vodiysida “Xudolar bog‘i” deb atalgan joyda tog‘ jinslaridan xilma xil shakllar paydo bo‘lgan, bulardan eng g‘aroyibi tebranuvchi xarsangtoshdir. Shamollar ta’sirida qimirlaydigan Argentinadagi Tandil toshi turistlarning eng gavjum maskanlaridir. Yurtimizda ham Sangijumon toshi o‘zining g‘aroyibligi bilan ulardan qolishmaydi. Turkiston va Morguzar tog‘lari tutashgan xushmanzara joyda Zomin tog‘-o‘rmon davlat qo‘riqxonasi joylashgan. Qo‘riqxonada yilning barcha fasllarida, yoz-u qishda, o‘zining yam-yashil libosi bilan atrofdagi hududdan ajralib turuvchi archazorlar o‘sadi. Go‘yoki tabiat o‘zining bor go‘zalligini shu erga in’om etganday. Archazorlar orasidagi yolg‘iz so‘qmoqdan borar ekansiz, ko‘z oldingizda ajoyib manzara namoyon bo‘ladi, ya’ni, xalq orasida

“Qirqqiz qal’asi”, “Savat ko‘targan kelinlar”, “Kuyovtosh”, “Qirq go‘zal” nomlari bilan ma’lum bo‘lgan tabiat yodgorliklariga duch kelasiz. Ushbu tabiat yodgorliklari vujudga kelgan hudud Guralash va Zomin massivlari (dengiz sathidan 2000-3200 m balandlikda) deb atalib, Zomin va Sangzor daryolari vodiylarida joylashgan. Qizilto‘rg‘ay daryosining o‘ng tomonida, uning o‘zanidan 300-700 m balandlikda joylashgan va tabiatning nodir yodgorliklaridan hisoblangan “Qirqqiz qal’asi” (maydoni 3-4 gektar) bu yerda alohida o‘rin egallaydi. Qal’aning janubi-sharqida qiz tasviri haykal sifatida (balandligi 12 m, belining diametri 1 m, yerga tegib turgan etagining diametri 2 m ga yaqin) ko‘tarilgan.

Molguzar tog‘ining noyob tabiat yodgorliklaridan biri “Kuyovtosh” deb ataladi. U Guralash soyining quyi oqimida, dengiz sathidan 1000-1900 m balandlikda joylashgan. Bu yerdagi past va o‘rtacha balandlikdagi tog‘lar, adirlar, keng daryo vodiylari va go‘zal vohalar birlashib, chiroyli manzana hosil qiladi. Vodiylarda keng (200-800 m) terrasalar vujudga kelgan. Geologik tuzilishiga ko‘ra hudud, asosan, to‘rtlamchi davrning yumshoq g‘ovak va uzoq tog‘ jinslaridan tashkil topgan. Daryolar o‘zanlarida qum aralash shag‘al toshlar bilan biriga sellar ishi natijasida keltirilgan xarsangtoshlar ham uchraydi. Biroq qattiq tog‘ jinslari (ohaktoshlar, dolomitlar, marmarlar) ko‘p tarqalmagan. “Kuyovtosh” ustunsimon shaklga ega va Guralash soyining o‘ng qirg‘og‘idagi ikkinchi terrasasida, Qorashaqshaq qishlog‘idan 4-5 km sharqda hosil bo‘lgan. Uning balandligi va diametri 10 m lar chamasida. “Kuyovtosh” joylashgan hududning iqlimi yumshoq, yillik yog‘ingarchilik miqdori 400-500 mm, o‘rtacha yillik hanonat 10-11 daraja. Yoz oylari salqin. Buloqlar ko‘p.

Jizzax viioyatining Shimoliy Nurota tog‘ tizmasidagi Qo‘ytosh tog‘i ham (eng baland joyi To‘ng‘izlitov, 1905 m) O‘zbekistondagi afsonaviy joylardan biri. Bu yerdagi xarsangtoshlar uyumiga uzoqdan nazar tashlansa, ular yoyilib yuigan qo‘y podalarini eslatadi.

Tabiat yodgorliklari sirasiga noyob qoyalarni ham kiritish mumkin. Toshkent viloyatining Xo‘jakent qishlog‘i hududida, Chirchiq daryosining chap qirg‘og‘ida joylashgan qoyaning chiroyli

manzarasi uzoqlardan ko‘zga tashlanadi. Qoya toshko‘mir davri (taxminan 290 - 350 min yil aval) ohaktoshlaridan tashkil topgan va yangi tektonik harakatlar natijasida er yuzasiga chiqib qolgan. Karst jarayonlari rivojlanishi natijasida bu yerda turli kattalikdagi 20 dan ortiq g‘or paydo bo‘lgan. G‘orlaming birida tosh davrida yashagan ibtidoiy odamlar manzilgohi topilgan. Ushbu g‘or devorlarida ular tomonidan o‘yib ishlangan rasmlar saqlanib qolgan. Ajoyib manzarali noyob qoyalardan yana bin Jizzax viloyati hududida Sangzor daryosining o‘rta oqimida qad ko‘targan “Temur darvozasi”dagi qoyadir. U ham toshko‘mir davrida ohaktoshlardan shakllangan. Qoyaning nihoyatda ajoyib va sirli manzarasi bu yerdan o‘tayotgan har bir yo‘lovchining e’tiborini o‘ziga tortadi.

Geograf M.A.Hoshimovning ta’kidlashicha “Temur darvozasi” qadimdan ma’lum bo‘lgan. U haqda qadimgi yunon olimi Arrianning yozishicha, Iskandar Maqduniy (Zulqarnayn) Sug‘diyona poytaxti Marokandani bosib olgandan so‘ng, Tanais (hozirgi Sirdaryo) tomon yurish qilgan. Bu yurishda Iskandarning 30 mingdan ziyod lashkari ushbu darvoza orqali o‘tgan. Chunki, bu joy sharqqa borish uchun juda qulay bo‘lgan.

O‘rta Osiyoning tekislik qismida uchraydigan tog‘lar (Qoratov, Nuratog‘, Qoratepa) 500 - 600 m dan 1000 - 1200 m gacha, Tyanshan tog‘larida 2000 - 2500 m dan 4000 m gacha, Pomir tog‘larida esa 4000 - 4600 m gacha ko‘tarilgan. Mahalliy aholi bu ko‘tarilishlarga “sandiqlar”, “sirtlar”, “supalar” deb nom qo‘ygan. Ularning usti tekis yoki salgina to‘lqinsimon, yonbag‘irlari, asosan, darasimon daryolar vodiysi bilan kesilgan bo‘lib, o‘zanidan tik xarsangtosh ko‘tarilgan. Daryolar bilan zich va chuqur kesilgan O‘rta Osiyo tog‘lari sharoitida bunday tekislangan yuzalaming mavjudligi, ulardan faqat yaylov sifatida foydalanilmoqda. Biroq bu manzaralar sayyohlarni maroqli dam olishini ta’minlaydigan maskanga aylantirish mumkin. Shuningdek, Piskom tizmasining janubi-sharqiy yonbag‘irlarida joylashgan bir qancha yuzalar “katta sandiq”, “kichik sandiq”, “bog‘ toi” nomlari bilan ataladi. Bunday tekis joylar Jizzax viloyatida ham bor. Ularni B.Bahritdinov va A.Saidovlar “Molguzar supasi” deb atashgan. “Supa” Molguzar tog‘ining shimoli-sharqiy qismida, Zomin tog‘-o‘rmon qo‘riqxonasi

hududida joylashgan nihoyatda so‘lim va orombaxsh maskanlardan biri. “Supa” atrofidagi joylardan ancha baland (dengiz sathidan balandligi 2000 -2500 m), yuzasi deyarli yassi, tekis bo‘lib, sharqiy chegarasi Qashqasuv havzasi, g‘arbiy chegarasi Xatirchi dovonining meridiani bo‘ylab o‘tadi. Karst jarayonlari ta’sirida vujudga kelgan voronkasimon botiqlar bor. Yuzasi ko‘plab soylar bilan kesilgan. “Supa”ning asosiy boyligi va go‘zalligi-uning geografik o‘rni, iqlimi, o‘simlik va hayvonot dunyosidir. Hududida kamyob va nodir hayvonlar (tog‘ echkisi, tog‘ qo‘yi, oq tirnoqli ayiq, ko‘plab sayroqi va yirtqich qushlar) yashaydi. Bu erda dam olish uylari, davolash muassasalari tashkil etilgan.

Janubiy Nurota tog‘larining shimoli-g‘arbiy qismidagi Oqtog‘ tizmasida (Samarqand va Navoiy viloyatlarida) “Sangijumon”, ya’ni, “tebranuvchi tosh” deb nom olgan xarsangtosh bor. Xarsangtoshning og‘irligi taxminan 225-235 tonna, aylanasi 19 m, diametri 9 m, balandligi 6 m ga yaqin. “Sangijumon” kabi tebranuvchi xarsangtoshlar Zarafshoi tizmasining o‘rta qismida borligi ma’lum, shuningdek, ular yer kurrasining boshqa joylarida (masalan, Argentinaning Buenos-Ayres shahriga yaqin joyida) ham uchraydi. Ko‘pchilik bunday maskanlar turizmda keng foydalanmoqda.

Stalaktit, stalagmit va stalagnatlar yer sharidagi ko‘pchilik yer osti g‘orlarida uchraydi. Ularning kattaligi, yoshi ham turlichadir. Chexiyadagi ba’zi bir yer osti qasrlari ichidagi stalagmitlar diametri 0,5 m, balandligi bir necha metr bo‘lib. ularning yoshi 1250 yildan ziyodligi aniqlangan. AQSHdagi Karlsbad yer osti qasridagi balandligi 18,9 m va diametri 4,9 m stalagmitning yoshi 60 min yil ekanligi ma’lum. Bu qasrda balandligi 21 m va diametri 5 m li, yoshi ham katta stalagmit bor. Italiya va Fransiya chegarasidagi Margare tog‘larida hosil bo‘lgan g‘orlardagi stalaktitlar balandligi 50-100 m ga etadi. Avstriyadagi Katerlax g‘orida 2000 dan ortiq stalagmit bor. Ayrim yer osti qasrlari ichida havo harorati juda past bo‘lib, tomayotgan suv tomchilari bug‘lanmay, muzga aylanadi. M.Abdujabborov Zarafshon tog‘larida ana shunday muz g‘orini topib, uni «Nuriddin» deb atagan. O‘rta Osiyoning issiq iqlimli sharoitida muz g‘orlarining mavjud bo‘lishi kishini ajablantiradi.

Dengiz sathidan 2500 m balandlikda, qor chizig‘idan deyarli 1000 m pastda joylashgan bu g‘orning umumiy uzunligi 45 m ga etadi. Yoz faslida ham g‘or ichida qor va muz saqlanib turadi. O‘rta Osiyodagi yana bir muzli yer osti qasri Zarafshon vodiysining yuqori qismida joylashgan Makshevat g‘oridir. Bu g‘or dengiz sathidan 3000 m baland (Yer kurrasida eng balanda joylashgan g‘orlardan). U murakkab tuzilishga ega bo‘lib, bir qancha yo‘lak va zallardan iborat. Zallarning osti va devorlari muz bilan qoplangan. G‘orni tekshirgan M. Hoshimovning fikricha, bu yerda muz paydo bo‘lishining asosiy sababi uning dengiz sathidan balandda joylashganligidir. Haqiqatan ham bu erda qish fasli uzoq davom etadi, yog‘ingarchilikning asosiy qismi qor shaklida tushadi, g‘or ichkarisida havo harorati doim past. Bu o‘ziga xos mikroiqlim g‘or turizmini rivojlantirish uchun qulaydir. Umuman olganda tabiatning bunday noyob yodgorliklaridan turizm maqsadlarida foydalanish juda katta ahamiyatga egadir. Bizningcha, kelajakda bunday noyob ob’ektlarga ilmiy asoslangan reja asosida geografik va turistik ekspeditsiyalar tashkil etish va turistik marshrutlar ishlab chiqish kerak. Tabiatning nodir go‘shalari odatda insoniyatdan biroz xoliroq xududda joylashganligi uchun ulardan foydalanishda ilmiy yondoshgan xolda faqatgina turistik marshrutlar asosida turizmda foydalanish zarur deb hisoblaymiz.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, bizningcha tabiatning noyob yodgorliklaridan turizm maqsadida foydalanish uchun quyidagi masalalarga e’tibor qaratish lozimdir:

- «O‘zbekistonda turizmning milliy modelini» ishlab chiqishda tabiatning noyob yodgorliklaridan turizmda foydalanishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish;

- hududlardagi noyob yodgorliklar ruyxatini qayta ko‘rib chiqish va guruhlashtirish hamda eng noyob va turizmda jozibador bo‘lgan ob’ektlarni turistik marshrutlarga qo‘shish;

-mamlakatimizda «eng noyob va eng antiqa tabiat yodgorligi» nominatsiyasi bo‘yicha turistik aksiya o‘tkazish;

-tumanlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning istiqbol rejalarini ishlab chiqishda qishloq va ovullarda turizm salohiyatini tadqiq etish masalasini inobatga olish va boshqalar.

11.5.O‘zbekistonda qishloq turizmini rivojlantirish istiqbollari

Ma’lumki, bundan 15-20 yillar avvallari turistik ob’ektlarning asosiy qismi shahar joylarida va qisman shahar atroflarida hududlarda turistlarni qabul qilishi va xizmat ko‘rsatish imkoniyatlari mavjud bo‘lgan bulsa, bugungi kunga kelib qishloq joylaridagi turistik ob’ektlar ham xalqaro marshrutlarga kirib borishi qishloq turizmini hududiy tashkil etish va rivojlantirishda muhim qadamlardan biri bo‘ldi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Geografik tadqiqotlarda aholi manzilgohlaridan biri hisoblangan shaharlar keng ko‘lamli o‘rganilgan. Ammo qishloq joylari turistik jihatdan nisbatan kam o‘rganilgan. Binobarin, qishloq joylari ham murakkab ijtimoiy kategoriyalardan hisoblanadi. Geografiya fanlari tizimida qishloq joylar – bu kompleks tadqiqot ob’ektlaridan biridir. Boshqa soha vakillaridan farqli, o‘laroq, geograflar, eng avvalo qishloq joylarni, ularning komponentlarini (tabiati, rekreatsiya va turistik ob’ektlari, aholisi, xo‘jalik tarmoqlari) alohida olingan holda, hamda bir butunlikda, ya’ni majmuali tarzda rivojlanishining hududiy qonuniyatlarini o‘rganishga asosiy e’tiborni qaratadilar. Qishloq joylar katta-katta maydonlarni, muayyan tabiiy shart-sharoit, go‘zal manzara, ekzotik makon va boshqa salohiyati, aholi, uning joylashuv tizimi va ijtimoiy tuzilmalarini hamda ishlab chiqarish salohiyatini o‘zida mujassamlashtirgan hududlar yig‘indisidan iboratdir.

Hozirgi davrda qishloq joylar bir butun, kompleks tarzda o‘rganilgan tadqiqotlarni etarli deb bo‘lmaydi, ammo iqtisodiy va ijtimoiy geografiya va turdosh fanlar doirasida uning komponentlari (turli darajada va aspektlarda) tadqiq etilgan. Ayniqsa, mustaqillik yillarida mamlakatimizda qishloq joylarni (xuddi shahar joylari kabi) har tomonlama o‘rganishning zarurligi ko‘pchilik geograflar mutaxassislar (A.Soliev, M.Nazarov, Z.Tojieva, A.Sattorov) tomonidan ta’kidlangan.

Qishloq joylar-bu shaharlardan tashqaridagi aholi yashaydigan barcha joylardir. Qishloq joylarga berilgan bunday qisqa va lo‘nda ta’rifni V.A.Maksimov (1992) yanada rivojlantirgani holda, uni tabiiy sharoit va resurslar, qishloq aholisi va uning o‘ziga xos

turmush tarzi, odamlar mehnati natijasi-turli-tuman asosiy fondlar, qishloq aholisining ishlab chiqarish faoliyati kabilar bilan boyitdi. Qishloq joylarni geografik tadqiq etishning metodologik muammolaridan biri-uni o‘rganishdagi turli yo‘nalishlarni o‘zaro nisbati va bog‘liqligidir. So‘nggi yillarda qishloq joylarni sotsial-geografik jihatdan tadqiq etish ishlari kuchaymoqda. Ularni asosiy mazmuni esa qishloq joylarning barcha qirralarini aholi va uning turmush sharoitlari va faoliyati nuqtai-nazaridan baholashga qaratilgan. Qishloq joylarning barcha elementlarini bir xilda o‘rganilgan deb bo‘lmaydi. Qishloq xo‘jaligidan tashqari moddiy ishlab chiqarishning boshqa elementlari, va shuningdek xizmat ko‘rsatish sohalari, qishloq turizmi, agroturizm kabi sohalar yaxshi o‘rganilmagan. Qishloq joylar aholisining o‘ziga xos turmush sharoitlari va hayot tarzi, qadriyatlari, an’ana va urf-odatlari qishloq turizmini hududiy tashkil etish nuqtai nazaridan o‘rganish katta ahamiyatga ega deb, hisoblaymiz. O‘zbekistonga tashrif buyuruvchi chet ellik sayyohlarning mamlakatimizda sayohat qilish vaqtini uzaytirish, mahalliy turistlar uchun dam olishning yangi turlarini tatbiq etish maqsadida Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tomonidan agroturizmni rivojlantirish ustida ishlar olib borilmoqda.

2018 yil uchun davlat dasturining 104-punkti - Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalar ijrosi maqsadida 4 aprel kuni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan "Agroturizmni rivojlantirish dasturi" tasdiqlandi.

Agroturizm Ispaniya, Italiya, Buyuk Britaniya, Gretsiya va Fransiyada yaxshi rivojlangan. Bu mamlakatlarga borgan sayyohlar muayyan vaqt davomida qishloq joylarda yashab, mahalliy xalq madaniyati, urf-odatlari, turmush tarzi bilan tanishishadi, an’anaviy qishloq xo‘jalik ishlarida ishtirok etishadi. Masalan, Buyuk Britaniyada fermerlarning 60 foizi turizm sohasidan tizimli ravishda daromad olishni yo‘lga qo‘yishgan, o‘rtacha yillik daromad 10-50 ming AQSH dollarini tashkil qiladi.

Qishloq turizmi uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va rivojlantirish istiqbollari. Bugungi kunda qishloq turizmi turizmning yangi va istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanib, mamlakat ichki

va xalqaro turizmini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qishloq joylarida turizmni rivojlantirish ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan tadbirkorlik faoliyatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qishloq hududlarini barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi. Xususan, qishloq joylarida infratuzilmalar faoliyatini rivojlantirishda, qishloq aholisi turmush darajasini oshirishda, mahalliy aholi daromadini o‘stirishda, yangi ish o‘rinlarini yaratishda, madaniy urf-odatlar va milliy an’analarni qayta tiklashda, shuningdek, atrof-muhitni himoya qilishda qishloq turizmi muhim rol o‘ynaydi.

Qishloq turizm (agroturizm) bu kishilarning doimiy yashash joyidan qishloq uylariga, qo‘rg‘onlariga va fermer xo‘jaliklariga turistik sayohatni amalga oshirishi hisoblanadi. Qishloq turizmi qishloq joylarida dam olish va mazmunli hordiq chiqarish hisoblanib, bugungi kunda insonlarning asosiy zaruriy ehtiyojiga aylanib bormoqda. Shaharning shovqin suroni, kuchli toliqib ishlash jarayoni, havoning ifloslanishi, shahar aholisini tinch, osoyishta va sof havosi bo‘lgan tabiat qo‘yniga chiqishga undaydi. Bunday dam olish insonning tabiatga yaqin bo‘lishi, yaxshi dam olishi, yangidan kuch-quvvat to‘plash sharoitini berishi bilan birgalikda, mazkur joyni tarixi, madaniyati, etnografiyasi, urf-odatlari, me’moriy yodgorliklari va hunarmandchiligi bilan yaqindan tanishish imkoniyatini beradi. SHuningdek, mahalliy aholining o‘ziga xos kiyinish madaniyati, milliy taomlari, folklori, tili yoki shevasi bilan yaqindan tanishish hamda qishloq joylarini suratga olish, mevalar terish va boshqa qiziqarli mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanish imkoniyatini yaratadi.

So‘nggi yillarda butun dunyo bo‘ylab qishloq turizmiga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Xususan, Yevropaning Italiya, Fransiya, Germaniya, Buyuk Britaniya kabi davlatlarida qishloq turizmi yuqori darajada rivojlangan. Ushbu davlatlarda, qishloq turizmi dengizga sayohat qilishdan keyingi ikkinchi o‘rinni egallaydi. Statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, EIning 35 foiz shahar aholisi, ta’til davrini qishloq joylarida o‘tkazishni afzal bilishar ekan. Gollandiyada esa uning ulushi ancha yuqori hisoblanib, 49 foizni tashkil qiladi.

Italiya qishloq turizmi bo‘yicha yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda real daromad olish bo‘yicha Yevropada eng oldingi o‘rinlardan birini egallab, ushbu faoliyat turidan o‘rtacha yiliga 350 mln. AQSH dollari miqdorida foyda oladi. Shuningdek, qishloq turizmi atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatni asrashda turli xil vositalarni topish imkoniyatini yaratadi. Ko‘pchilik davlatlarda milliy qishloq landshaftlarini yaratish va saqlashda turizmning ushbu faoliyat turi muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Shveysariya go‘zal Alp tog‘larining yaylovlari, gollandlarning tegirmonlari va kanallari, Italiyaning eski parklari va villalarini saqlashda qishloq turizmining roli katta bo‘ldi.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda qishloq turizmi “aralash” va “sof” shakllarga ajratiladi. Birinchisi, ya’ni qishloq turizmini “aralash” shaklida chorvachilik, meva-sabzavot etishtirish bilan shug‘ullanadigan fermer xo‘jaliklari qo‘shimcha faoliyat sifatida sayyohlarni qabul qilishadi. Fermer xo‘jaliklarining ushbu faoliyat turidan oladigan daromadi umumiy daromadning 25 foizini tashkil qiladi. Bu mablag‘larning katta qismi uylar qurish, intererlar yangilash, mehmonlarda sharoit yaratish uchun sarflanadi. Ikkinchisi, ya’ni “sof” shaklida faqat turistlarga xizmat ko‘rsatish hisoblanadi (asosan, qishloq uylarida mehmonxona xizmatlari va boshqa xizmat turlari ko‘rsatiladi). Shuni alohida ta’kidlash lozimki, qishloq turizmi birinchi navbatda, turizmning rekreatsion, madaniy, ixtisoslashgan (ovchilik, baliqchilik) kabi turlari bilan chambarchas bog‘liq. Bularning barchasini qishloq turizmi o‘z ichiga olib, an’anaviy turistik mahsulotlarga bo‘lgan talabni oshirishga xizmat qiluvchi kompleks turlarni tashkil qilishga asos bo‘ladi.

Yevropa Ittifoqi tomonidan qishloq turizmini rivojlantirishga qaratilgan siyosiy-iqtisodiy islohotlar yaqin yillar ichida o‘zining samarasini berdi. Turizm industriyasini ushbu tarmog‘ini yuqori sur’atlarda rivojlantirish uchun, bir qator davlatlar agroturizm to‘g‘risidagi qonunlarni qabul qilgan. Jumladan, Italiyada “Agroturizm” to‘g‘risidagi qonun 1985 yilda qabul qilingan bo‘lib, u mamlakatda qishloq turizmini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga mustahkam zamin yaratgan. Qonun qabul qilingandan so‘ng 10 yil ichida Italiya qishloqlarida dam oluvchi sayyohlar soni

3 barobarga oshgan. Shuningdek, ko‘pchilik Yevropa davlatlarida agroturizmni rivojlantirish va samarali tashkil qilish bo‘yicha uzoq muddatli strategik ahamiyatga ega bo‘lgan dasturlar qabul qilingan.

Qishloq turizmini rivojlanishida yana bir muhim bo‘lgan omillardan bir agroturistik mahsulotlar, o‘rta daromadga ega iste’molchilar talabini qondirayotganligi bilan izohlanadi. Bugungi kunda ushbu iste’molchilar Yevropa agroturizmi segmentida juda katta ulushni tashkil qiladi. Ushbu sohada yaratilayotgan turmahsulotlar nisbatan kam harajat talab qiladi. Ya’ni, agroturizm “baho-sifat” ko‘rsatkichi bo‘yicha boshqa turmahsulotlar bilan bemalol raqobatlashishi mumkin. Rivojlangan mamlakatlar tajribasiga nazar tashlansa, agroturistik mahsulot quyidagilarni o‘z ichiga oladi.

8-jadval

Agroturistik mahsulot konsepsiyasi

Diqqatga sazovor, jozibador joylar	Turli xil tadbirlar	Xizmatlar
1. Maxsus qishloq xo‘jaligi ekinlari etishtiriladigan maydonlar; 2Qishloq xo‘jaligi muzeylari; 3. Turli manzarali ekzotik bog‘lar; 4.Hunarmandchilik mahsulotlari bozorlari.	1. Qishloq xo‘jaligi yarmarkalari, ko‘rgazmalarini tashkil qilinishi; 2. Turli mavzudagi mahalliy va milliy festivallarni tashkil etilishi; 3.Maxsus tadbirlar.	1. Fermer xo‘jaliklarida tashkil qilingan turlar; 2. Qishloq mehmonxonalari; 3. Muqobil tibbiy davolanish xizmatlari; 4. Agrobiznes faoliyatini turoperatorlar bilan birga tashkil qilinishi;

Jadvalga ko‘ra agroturistik mahsulotning asosiy tarkibiy qismlari qishloq joylaridagi diqqatga sazovor joylar, turli xil tadbirlar hamda xizmatlardan iborat.

Rivojlangan Yevropa davlatlari qishloq turizmida ko‘rsatiladigan xizmatlarni, joylashtirish vositalarini standartlashtirish va tasniflashga mo‘ljallangan maxsus tavsiyalar, xalqaro darajada tan olingan me’yorlar nafaqat davlat yoki milliy institutlar kesimida, balki Yevropa Ittifoqining xalqaro dasturlar doirasida, ya’ni agroturistik faoliyat sub’ektlari assotsiatsiyasini faol ishtiroki bilan amalga oshiriladi. Go‘zal geografik va o‘ziga xos tabiiy sharoitga ega mamlakatimiz hududlarida qishloq turizmini

rivojlantirish uchun barcha shart-sharotilar hamda imkoniyatlar mavjud. “O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish konsepsiyasi”da agroturizmga ekologik turizmning asosiy tarmoqlaridan biri sifatida qaralib, “agroturizm – qishloq halqini turmushi, urf-odati bilan yaqindan tanishish” deb ta’rif berilgan. 2013 yil 17 aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2013-2016 yillarda qishloq joylarda xizmat ko‘rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingan edi. Mazkur qarorga ko‘ra, mamlakatimizda ekologik, tibbiy-sog‘lomlashtirish, sport turizmi, shuningdek, yakka tartibdagi qishloq mehmonxona uylari negizida agroturizmni o‘z ichiga olgan zamonaviy turistik xizmatlar turlarini ustuvor rivojlantirish zonalari alohida belgilab olingan. So‘nggi yillarda mamlakatimizning ko‘pchilik mintaqalarida turizm sohasini rivojlantirish uchun maqsadli dasturlar qabul qilinmoqda. Ushbu dasturlarda har bir mintaqaning o‘ziga xos bo‘lgan tabiiy sharoiti, iqlimiy xususiyatlari, boy milliy-madaniy merosi hamda qishloq ahlining urf-odatlari va an’analarini hisobga olgan holda, qishloq turizmini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Xususan Qashqadaryodagi Varganza qishlog`i 2019 yilda respublikamizda birinchi **agroturizm qishlog`i**ga aylantirildi.

Mamlakatimizda qishloq turizmi ekologik turizm bilan birgalikda faol rivojlanmoqda. Toshkent viloyatining Bo‘stonliq tumani, Jizzax viloyatining Zomin tumani, Namangan viloyatining Pop tumani, Samarqand viloyatining Urgut tumanining dam olish zonalari agroturizmni rivojlantirish uchun juda katta imkoniyatlarga ega.

Bugungi kunga kelib mamlakatimizning qishloq joylarida oilaviy tadbirkorlik va kichik biznesni samarali rivojlantirishda agroturizm muhim o‘rin egallaydi. Hozirda mamlakatimizda agrar sohani rivojlantirishda fermer xo‘jaliklarining ulushi tobora ortib, kengayib bormoqda. Ular tomonidan yirik tabiiy hududlar, jumladan: o‘rmon hududlari, baliqchilik, chorvachilik xo‘jaliklari, meva va uzumchilik bog‘lari, sabzavot va poliz mahsulotlari etishtiradigan hududlar tashkil etilib, ushbu hududlarda fermerlar tomonidan dala shiyponlari, xizmat ko‘rsatish komplekslari barpo

etilmoqda. Bu esa qishloq joylarda agroturizm sohasini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirishda muhim omil bo‘lib hisoblanadi.

Turizm sohasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli tadbirlarga qaramasdan, mamlakatimizda agroturizm faoliyatini samarali tashkil qilishda ba’zi muammolar mavjud ekanligini qayd qilib o‘tish lozim:

– mavjud me’yoriy-huquqiy hujjatlarda “agroturizm”, “qishloq turizmi”, “yashil turizm”, “eko-agroturizm”, “fermerlik turizmi” tushunchalarining mohiyati to‘liq ochib berilmagan;

– qishloq turizmini tartibga soluvchi maxsus qonunchilik mexanizmi shakllanmagan;

– qishloq joylarida agroturizm faoliyatini rivojlantirish imkoniyatlari to‘g‘risidagi axborotlar bilan qishloq aholisi etarli darajada ta’minlanmagan;

– qishloq joylarida agroturizmni samarali tashkil qilish uchun malakali kadrlar etishmaydi.

Bizning fikrimizcha, yuqoridagi muammolarni bartaraf qilish uchun, jahon tajribasidan kelib chiqib, O‘zbekistonning barcha mintaqalaridagi mavjud imkoniyatlarni va o‘ziga xos shart-sharoitlarni hisobga olgan holda, yaqin istiqbolda qishloq turizmini (agroturizm) quyidagi yo‘nalishlarda tashkil qilish maqsadga muvofiqdir:

1. Mamlakatimizda qishloq turizmini tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tartibga soluvchi qonunchilik bazasini shakllantirish.

2. Qishloqlardagi mavjud turistik resurslar asosida, oilaviy biznesni rivojlantirish orqali kichik mehmonxonalar va agroturizmni samarali faoliyatini ta’minlaydigan turli xil infratuzilma ob’ektlar, asosan xususiy agroturistik xo‘jaliklarni tashkil qilish.

3. Qishloq joylarida turizmni samarali rivojlantirish maqsadida ijtimoiy-madaniy muhitni shakllantirish (“tarixiy qishloq”, “milliy qishloq” va h.k).

4. Turistlarni qabul qilishga mo‘ljallangan, ularni mazmunli dam olishini to‘liq ta’minlaydigan kichik madaniy-tarixiy, turli xil etnografik markazlarni tashkil qilish.

5. Qishloq joylaridagi joylashtirish vositalari va infratuzilmalarga xos bo‘lgan, ko‘p tarmoqli, ya’ni turistik, ko‘rgazmali, reklama namoyishli, madaniy-targ‘ibotli, ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarishga xos bo‘lgan, davlat hamda xususiy qishloq xo‘jaligi parklarini tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida qayd qilib o‘tilgan yo‘nalishlarning har birini amalga oshirish uchun mamlakatimizda barcha imkoniyatlar mavjud. Yurtimizning yirik sarmoyadorlarini agroturizmning boshqa shakllariga, eng avvalo yirik xususiy agroturistik ob’ektlarga mablag‘ qo‘yishga jalb qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunday ob’ektlar sirasiga madaniy-tarixiy parklar, etnomadaniy majmualar, ilmiy-tadqiqot markazlari va boshqalar kiradi. Ushbu loyihalarni amalga oshirilishi, nafaqat iqtisodiy jihatdan samarali, balki, ijtimoiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi, xususan, bugungi yoshlarni o‘z vatanini, tarixini, madaniyatini yaxshi bilishda, milliy qadriyatlarni anglashda, umuman, bir so‘z bilan aytganda o‘z vatanini sevish hamda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Mamlakatimizda qishloq turizmining rivojlanishi iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi va ijobiy samara beradi. Xususan, davlatimiz uchun:

- soliq tushumlari oshadi;
- milliy urf-odatlar va an’analarni o‘rganishga qiziqish ortadi;
- qishloq ahlining o‘ziga xos hayot tarzi va an’anaviy qadriyatlar keng targ‘ib qilinadi;
- xalq hunarmandchiligi yanada rivojlanadi;
- hududlarning madaniy va tarixiy merosi asrab-avaylanadi;
- qishloq joylarida ishlab chiqarish sohasi yanada rivoj topadi.

Qishloq aholisi uchun:

- yoshlar uchun *“kichik Vatan”*ning tarixiy-madaniy ahamiyatini anglatadi, uning mamlakat hamda jahonda mashhurligidan faxr hissini oshiradi;
- yangi ish o‘rinlari yaratilib, mahalliy aholining bandlik muammosi hal qilinadi;
- qishloq aholisining daromadi oshadi;
- qishloq joylarida uy-joy fondi tuzilmasi yanada rivoj topadi;
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining sotuv hajmi ortadi.

Turistlar uchun:

- ✓ mahalliy aholining o‘ziga xos tarixi, an’analari, urf-odatlari, gastronomiyasi, madaniy-ma’naviy jihatdan rivojlanishi bilan yaqindan tanishish imkoniyati yuzaga keladi;
- ✓ go‘zal tabiat qo‘ynida dam olib, sog‘liqni qayta tiklash imkoniyati paydo bo‘ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, mamlakatimizda qishloq turizmini barqaror rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanilsa, mamlakatimiz qishloqlari yanada obod bo‘ladi, aksariyat yoshlar yangi ish o‘rinlari bilan ta’minlanadi, qishloq xalqining turmush faravonligi yanada oshadi.

Nazorat savollari:

1.O‘zbekistonda YUNESKO tomonidan nechta ob’ekt babaho me’ros ob’ekti sifatida ro‘yxatga olingan?
2.Xarakatlar strategiyasining nechanchi bo‘limida turizmni rivojlantirish nazarda tutilganligini bilasizmi?
3.O‘zbekiston YAIM da turizm ulushi necha foiz?
4.O‘zbekiston YAIM turizmga ajratiladigan xarajatlar necha foizni tashkil etadi?
5.O‘zbekistonga tashriflarning maqsadiga ko‘ra necha foizni yaqin qarindoshlarini ko‘rish maqsadida amalga olirilgan?
6.O‘zbekistonda qancha mehmonxonalar turizmga xizmat qilmoqda?
7.O‘zbekistonning eng mashxur turistik brendini bilasizmi?
8.Milliy parklarning nechta modelini bilasiz?
9.Samarqand viloyatida nechta arxeologik ob’ektlar mavjud?
10.Sangijumon toshi qaysi viloyatda joylashgan?

Foydalangan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni -Toshkent, 2017

2.O‘zbekiston Respublikasining «Turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni, 2017.
3.Абдужабборов. М.А. Карст гор Южного Узбекистана. - Т.: 1990.
4. Абдусаломов Ғ. Туризм соҳасида ютуқлар кўп, камчиликлар ҳам йўқ эмас//Зарафшон газетаси, 24 декабр, 159 (22.797)-сон.
5.Александрова А.Ю. Международный туризм:Учебник-М.:Аспект Пресс,2002-470 с.
6.Бродский А.А. Охраны природы в Туркистане.-Тошкент,1993
7.Хошимов М. Ўзбекистоннинг экологик туризми.-Самарқанд, 2012
8.Ердавлетов С.Р География туризма: история, теория, методы, практика - Алматы. 2000
9.Комилова Ф. Халқаро туризм бозори. –Т.: TDIU, 2001.
10.Хайитбоев Р., Матякубов У. Экологик туризм.-Самарканд. 2010
www.stat.uz
www.lex.uz

12-BOB. O‘ZBEKISTONNI TURISTIK RAYONLASHTIRISH MASALALARI

Reja:

12.1. O‘zbekistonni turistik rayonlashtirish omillari
12.2. O‘zbekistonni turistik rayonlashtirishning ba’zi masalalari
12.3. O‘zbekiston turistik rayonlariga umumiy tavsif
12.3. O‘zbekiston turistik rayonlariga umumiy tavsif
12.3.1.Toshkent turistik rayoni
12.3.1.Mirzacho`l turistik rayoni
12.3.1.Farg`ona turistik rayoni
12.3.1.Zarafshon turistik rayoni
12.3.1.Janubiy turistik rayoni
12.3.1.Quyi Amudaryo turistik rayoni

12.1.O‘zbekistonni turistik rayonlashtirish omillari

Turistik rayonlashtirishda bir qancha geografik omillar muhim rol o‘ynaydi. Jumladan, hududning geografik o‘rni va joylashuvi, tabiiy sharoiti va resurslari, xo‘jalik ixtisoslashuvi kabi omillar shular jumlasidandir. O‘zbekiston hududlarin turistik rayonlashtirishda avvalo uning geografik o‘rni katta ahamiyatga ega bo‘lib, u Buyuk Ipak yo‘li chorraxasida joylashganligidir. O‘zbekiston turizm imkoniyatlarining bir qancha afzalliklari mavjud, jumladan:

1.Qulay geografik joylanish (Buyuk Ipak yo‘li chorrahasida);
2.Rang–barang landshaftlari;
3.Asosan Buyuk ipak yo‘lida joylashgan boy madaniy tarixiy meros;
4.Barhayot boy an’ana va urf-odatlari;
5.Samimiy mehmondo‘stlik;
6.Turli xil ajoyib taomlari;
7.Boshlang‘ich infrastruktura;
8.Mehnat resurslarining nisbatan arzonligi.

Hozirgi kunga kelib foydalanishga yaroqli 500 dan ortiq madaniy yodgorliklar o‘ziga xos takrorlanmas tarixiy-madaniy ansambllar, arxitektura yodgorliklari tanishuv va diniy turizm

istiqbolida ahamiyatlidir. Respublikamizda hozirgi kunga kelib 7000 dan ortiq tarixiy obidalar, monumental arxitekturaga xos manzillar mavjud. Bular Budda diniga mansub topilmalar, Iskandar Zulqaynarning yurishlari arablar istilochiligi, mo‘g‘illar bosqini, hamda Amir Temur va temuriylar imperiyasi va boshqa davrlardan dalolat beruvchi sayyohlik ob’ektlarini tashkil etadi. Bunday arxitektura yodgorliklarining ayniqsa Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlarida juda yaxshi saqlanib qolingan. Ushbu shaharlardagi arxitektura yodgorliklari o‘zining ahamiyati, ko‘rinishi va jozibadorligi jihatidan Misr ehromlari, Hindiston, Qadimgi Yunoniston va Rimdagi arxitektura yodgorliklaridan qolishmaydi. Respublikamizda kelayotgan xorijiy sayyohlarning 76,2% turistik markazlar Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent shaharlariga to‘g‘ri kelmoqda. Qolgan 24,6% xorijiy sayyohlar Farg‘ona vodiysidagi tarixiy yodgorliklarni ko‘rishga qiziqishadi. Lekin Farg‘ona vodiysida ekoturizm va tog‘ turizmini rivojlantirish imkoniyatlari yuqori, buning uchun ekoturizmni hududiy tashkil etish bo‘yicha nazariy va amaliy ishlar va shu sohadagi ilg‘or tajribalarni o‘rganish kerak va turizmga mahalliy va xorijiy ishbilarmonlar investitsiyalarini kiritish ma’lum darajada ijobiy natija beradi. Buning uchun maxsus turistik zonalarni tashkil etish konsepsiyasini ishlab chiqish kerak. Binobarin, hududlar miqyosida tahlil etiladigan bo‘lsa respublikada turizmning 40% Toshkent shahriga, 37% esa Samarqand, Buxoro va Xorazm viloyatlariga, 16% esa Farg‘ona vodiysi va Surxondaryo viloyatiga to‘g‘ri keladi. Respublikning 50% maydonini egallagan boshqa viloyatlarga respublika turistik ishlab chiqarish quvvatining 7% to‘g‘ri keladi, xolos. Demak, qolgan 7 % hududlar turistik salohiyatidan samarali foydalanish mexanizmini yo‘lga qo‘yish uchun bizningcha maxsus turistik zonalarni tashkil etish va bir qancha imkoniyatlar yaratilishi bo‘yicha geoturistik siyosat olib borish maqsadga muvofiqdir. Respublika Davlat statistik qo‘mitasining bergan ma’lumotiga ko‘ra hozirgi kunda turizm mamlakat yalpi ichki mahsuloti ishlab chiqarishdagi ulushi 2 % ga yaqinini tashkil qiladi. Shuni hisobga olib mamlakatimizning boy turistik imkoniyatlaridan yanada kengroq foydalanish masalasini qo‘ymoqda. Xulosa o‘rnida shuni

ta’kidlash lozimki, quyidagi masalalarga e’tibor qaratish turizm istiqbolida va hududlarda maxsus turistik zonalarning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi:

-O‘zbekistonning geografik o‘rni va joylashuvidan kelib chiqqan holda turizm sohasiga o‘ziga xos yondoshish, optimal rivojlantirish uchun xorij tajribasini o‘rganish;

-turistik atlas yaratishning nazariy va metodologik asoslarini ishlab chiqish;

- tabiiy sharoit va o‘ziga xos iqlim xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tanishuv, rekreatsiya va dam olish va sog‘lomlashtirish maskanlarini kartalashtirish va turist qabul qilish yukini geografik va ekologik baholash;

- turistik reklamalarni tashkil etishning hududiy jihatlarini tadqiq etish;

- maxsus turistik zonalarni tashkil etish asoslarini hududiy jihatlarini o‘rganish;

Transport omilining roli. Mamlakatimizning turistik transport infratuzilmasi yuksalib, sohaning yurtimiz iqtisodiy taraqqiyotiga qo`shayotgan hissasi yildan-yilga ortib bormoqda. Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida mamlakatimizda xalqaro turizm bilan birga, ichki turizm ham izchil rivojlanmoqda. Sayyohlik turagentlari orqali turlari tashkil etish, orqali xorijdan ko`plab sayyohlarni jalb etmoqda.

Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan, mamlakatimizda sayyohlik sohasini rivojlantirishga qaratilayotgan alohida e`tibor samarasida yurtimizning barcha hududlarida, jumladan, O`zbekistonning asosiy turistik markaz shaharlari Buxoro, Samarqand, Xiva va Toshkentlarda ham sayyohlikning barcha yo`nalishlari jadal rivojlanib, transport infratuzilmasiga bo`lgan e`tibor yildan-yilga yaxshilanmoqda.

Bunga, eng avvalo, tarkibiy qayta o`zgartirishlarni chuqurlashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilashni jadallashtirish hisobiga erishilayapti, desak, ayni haqiqatni aytgan bo`lamiz.

Yo`l-transport va kommunikastiya infratuzilmasining jadal taraqqiyoti bunga yaqqol misol bo`la oladi.

Transport infratuzilmasini tasniflash jarayonida BTT (UNWTO) Butunjahon turistik tashkiloti turizm maqsadlarida qo`llaniladigan transportni uch turga klassifikatsiyalaydi:

- quruqlikda harakatlanuvchi;
- suv;
- havo transportlari.

Quruqlikda harakatlanish vositalaridan turizm maqsadlarida ko`proq avtomobil va temiryo`l transportlaridan foydalanish maqbul hisoblanadi. Avtomobil transporti turizmda keng foydalaniladi. Chunki u turistlarni “Eshikdan eshikkacha” eltib qo`yishni ta`minlaydi. Ushbu maqsadlarda muntazam yo`lovchi tashish uchun reys avtobuslari va nomuntazam – turistik korxonaning xususiy transporti va turistning shaxsiy transporti qo`llaniladi.

Temir yo`l transporti o`rta masofalarga turistlarni maqbul narxlarda tez va qulay sharoitda yetib borishlarini ta`minlaydi. Alohida hollarda temiryo`l transporti turistik sayohat maqsadlarida ham foydalanishi mumkin.

Suv transporti vositalari orasida suv osti (ekskursiya suv osti qayiqlari) va suv usti (teploxodlar, sayohat kemalari, dengiz paromlari, sayr kemalari, yaxtalar, katerlar) transportlari farqlanadi. Turizmda suv transporti vositalari ta`minoti bilan bog`liq masalalari asosan dengiz va daryoda turistik maqsadlarda muntazam va nomuntazam yo`lovchi tashish misolida qarab chiqiladi.

Umuman olganda, transport davlatning eng asosiy iqdisodiy negizi bo`lib, aholini uzog`ini yaqin qiluvchi vositadir. Transport yo`llarisiz, avtomobilsiz, temir yo`llarsiz va aviatrasportsiz mamlakatni iqtisodiyotini yaxshilab bo`lmaydi. Hozirgi davrda, ko`plab rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiyot transport vositalar orqali erishilyapti.

Havo transporti. XXI asrda kelib bu transportga bo`lgan talab, boshqa transport vositalariga qaraganda ancha yuqoridir. Bilamizki, bu mamlakatdan bu mamlakatga tez va qulay eltib qo`yuvchi transport vositasi bu: havo transportidir. Mustaqillikdan so`ng O`zbekistonda 11 ta “xalqaro aeroportlar” shu jumladan, "Qarshi", "Farg`ona", "Termiz", "Andijon", “Namangan”, "Navoiy", “Urganch”, “Buxoro”, "Samarqand", “Toshkent” va

Qoraqalpog`istonning “Nukus” xalqaro aeroportlari, mamlakatning ichki aholisini, hamda, chet el fuqarolarini uzog`ini yaqin qilib, kun-u tun xizmat qilib kelmoqda.

“O`zbekiston havo yo`llari” milliy aviakompaniyasining aviaparki Boeing- 757/767, Boeing-787-8 Dreamliner – “Orzu laynerlari”, A-320, IL-114-100 yo`lovchi hamda Boeing-767-300BCF Yuk tashuvchi zamonaviy havo kemalaridan iborat. Shu bilan birga, O`zbekiston aviakompaniyasi o`quv-mashq markazi, Boeing-757/767, A- 320 samolyotlari trenajyorlari, shuningdek A-320 va IL-114-100 noyob full-flight- simulyatorlari o`rnatilgan. Trenajyor majmuasi hamda samolyotlarning kompozitsion komponentlarini ta`mirlash va xizmat ko`rsatish bo`yicha noyob markazga ega bo`lgan “Uzbekistan Airways Technics” aviakorxonasiga ega. “O`zbekiston havo yo`llari” milliy aviakompaniyasida 15 ming nafarga yaqin xodim xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda, **“O`zbekiston havo yo`llari” milliy aviakompaniyasi muntazam ravishda** Yevropa va Osiyo mamlakatlari, Amerika va Yaponiyaning 40dan ortiq shahriga parvozlar bajaradi. Aviakompaniya vakolatxonalari jahonning 25ta mamlakatida faoliyat ko`rsatadi. Yaqinda kunlarda 2020 – yilgacha yana 2 yangi turdagi samolyot olib kelishni rejalashtirib, O`zbekiston havo yo`llari samolyotlarni sonini yana 2 layner bilan to`ldirish maqsadida.

**Temir yo`l transporti.** “O`zbekiston temir yo`llari” AJ O`zbekiston respublikasi hududida joylashgan sobiq O`rta Osiyo temir yo`llari bazasida 1994 yil 7 noyabrda tashkil topgan. Umumiy temir yo`l uzunligi 3645 kmni tashkil etadi. Jamiyatda 54.7 mingdan ortiq xodimlar faoliyat ko`rsatadi. Yillik yukni ayirboshlash barcha turdagi transportlarning yuk ayirboshlashi qo`shilmasining 90% tashkil etadi.

O`zbekiston temir yo`llarida barcha yo`nalishlar yo`lgan qo`yilgan. O`tgan besh yil ichida “O`zbekiston temir yo`llari”da bo`lgan o`zgarishlar yaqqol ko`zga ko`rinib turadi. Misol uchun, o`tgan 25 yil davrda mobaynida Toshkent-Surxondaryo, Toshkent-Samarqand-Buxoro temir yo`llarini rekonstruksiya qilinib, tezyurar poezd (Afrosiyob) bilan ta`minlandi. Bundan tashqari, O`zbekiston

– Xitoy kompaniyalar hamkorlikda, Toshkent-Andijon yangi yo`nalishda temir yo`li yotqizilib, ayni damda, aholini tez va qulay transport sifatida xizmat qilib kelmoqda.

“O`zbekiston temir yo`llari”ni statistik ma`lumotlariga tahlil qilish natijisida o`tgan 2 yil davr mobaynida temir yo`llarni elektrifikatsiya qilishdan tashqari, *jo`natilgan yuk*, *jo`natilgan yo`lovchilar*, *tashilgan yo`lovchilar* va *eksplutatsiya temir yo`l uzunligi*da o`zgarish uncha katta farq bilan erishilmagan. Masalan: 2 yilda jo`natilgan yuk, jo`natilgan yo`lovchi va tashilgan yo`lovchilarni tahlil qilib chiqsak, quyidagi 1-diagramma farqini kuzatishimiz mumkin. Shuningdek, eksplutatsiya temir yo`l uzunligi bilan elektrifikatsiya yo`li solishtiradigan bo`lsak, ikki yil mobaynida, eksplutatsiya temir yo`l uzunligi bo`lgan o`zgarish, 2015-yilgan qaraganda 2016-yilda 66,2 kmga yo`l yangi temir yo`llar yotqizilgan, hamda elektrifikatsiya yo`li esa 2015-yilgiga qaraganda 2016-yilda 525,8 km temir yo`lni elektrifikatsiyalashgan.

2015-2016 yillar mobaynida elektrifikatsiyalashgan yo`llar asosan Samarqand-Buxoro va Toshkent-Andijon temir yo`llaridir. Bu o`zgarishlarni 2-diagramma orqali kuzatishimiz mumkin. Shuningdek, 2015-yil 6-noyabrda “O`zbekiston temir yo`llari” aksiyadorlik jamiyati va Ispaniyaning “PATENTES TALGO, S.L.U” kompaniyasi o`rtasida yana 2 yuqori tezlikda harakatlanuvchi elektropoezd xarid qilish bo`yicha shartnoma imzolangan edi. Shartnomaga muvofiq, ushbu zamonaviy elektropoezdlarning ikkinchisi ham yurtimizga olib kelindi. Yangi zamonaviy elektropoezd 287 yo`lovchiga mo`ljallangan. Unda ekonom toifali vagonlar soni 2011-yilda olib kelingan “Afrosiyob”ga qaraganda 2 taga ko`p. Bu bir vaqtning o`zida qo`shimcha 72 yo`lovchini o`z manziliga yetkazish imkoni demakdir deb railway.uz xabardor qilgandi. Bu bilan birga, Joriy yilning mart oyida mamlakatimizga olib kelingan yuqori tezlikda harakatlanuvchi “Afrosiyob” elektropoezdi bugungi kunda Toshkent-Buxoro- Toshkent yo`nalishida muntazam qatnovini amalga oshirib, yo`lovchilarga xizmat qilmoqda. Yaqin yillar ichida “O`zbekiston temir yo`llari” AJ tomonidan zamonaviytirilgan

poezdlar bilan ta`minlanib, sifatli temir yo`llar yotqizilib, aholiga bo`lgan xizmat ko`rsatish sifatini yanada yaxshilash maqsadida.

Avtomobil transporti. Mustaqillikning ilk yillaridan ishonchli va qulay transport infratuzilmasini yaratish davlatimiz siyosatining ustuvor yo`nalishlaridan biri etib belgilangan. Tarixan qisqa davrda qurib bitkazilgan xalqaro ahamiyatga ega avtomobil yo`llari, ko`priklar Vatanimizning iqtisodiy va madaniy rivojlanishini ta`minlashda, xalqimizning uzog`ini yaqin qilishda muhim omil bo`lmoqda.

Respublikada bunyodkorlik ishlarini davom e`ttirish maqsadida, 2011-2015 yillarda transport va kommunikasiya infratuzilmasi qurilishini jadal rivojlantirish dasturining qabul qilinishi ishlab chiqarish, transport va muhandislik-kommunikasiya infratuzilmasi tarmog`ini mamlakat va hududlar iqtisodiyotini istiqbolli taraqqiy e`ttirish bo`yicha amalga oshirilgan dasturlar bilan uzviy bog`liq holda yanada rivojlantirish imkonini berdi. Ushbu dasturga muvofiq, 2012 yilda qariyb 500 kilometrlik to`rt yo`lakli zamonaviy avtomobil yo`llarini qurish va rekonstruksiya qilish ishlari yakunlandi. Shuningdek, ayni damda qator loyihalar, maqsadlar qilib borilmoqda. Misol uchun, Toshkent shahrida, 2 yil davr mobaynida, asosiy qatnov yo`llarni qaytadan rekonstruksiya qilib, yangi, qulay va xavfsiz ko`priqlar bunyod etildi. Buxoro viloyatida esa Olot-Qarako`l-Jondor avtotrassa yo`lini sifatli qilib asfaltlar yotqizilayotganligi, shu bilan birga Kogon tumanida qulagan ko`prik o`rnida, ko`p yillar xizmat qiladigan yangi, sifatli ko`prikni qurib bo`linganligidir. Agarda avtomobil va shahar elektr transportlar bo`yicha yo`lovchilarni tashish va yo`lovchilar tashish aylanmasini 2000-2015 yillarni kuzatib chiqadigan bo`lsak 3-diagrammada yoritilgan.

O`zbekistonda transport infratuzilmasini yana yaxshilash, yo`lovchilarga xizmat sifatini oshirish va qolaversa, chet mamlakatlar bilan aloqani ko`proq ko`payishini ta`minlash kerak deb o`ylayman. O`zbekistonda transport infratuzilmasini rivojlantirish muammolari:

- ✓ Yo`l bo`yi, yo`lning qatnov qismlar va turistik shahar markazlardagi yo`l bo`ylarida, aniq, ko`rinadigan, sifatli, yorqin,

jahon standartlariga mos keladigan yo`l ko`rsatkichlar, shu bilan birga aniq axborot beruvchi yo`l ko`rsatkichlarning yo`qligi;

- ✓ Mehmonxonalar, restoranlar, bar, davlat korxonalari, markaziy bog`lar va bozorlarning oldilarida avtomobillarni uchun avtomobil qo`yish joylarida muammolar mavjudligi va avtomobil qo`yish maydonchasi mavjud emasligi;
- ✓ Yo`nalishli shaharlararo, viloylatlararo qatnaydigan avtobuslarning aniq jadval berilmaganligi, hamda, mijozlar xizmatning sifati yaxshimasligi;
- ✓ Temir yo`llar bekatlarida avtomat bankomat (self service ticket bancomat) mavjudmasligi, shu bilan birga, temir yo`l kassalar oldida tartibsiz navbatlarning kelib chiqishi oldinini oladigan navbatni tartib bilan qo`yadigan maxsis aparatni mavjud emasligi;
- ✓ Viloyatlarda, shaharlarda, va tumanlarda ko`zi ojiz istiqomat qiladigan manzillari oldidagi yo`llarda maxsus tovushli svetaforlarning mavjud emasligidir.

Ushbu muammolar yechimi uchun bir qancha takliflarimiz quyidagilardan iborat:

- ➢ Yo`l bo`yi, yo`lning qatnov qismlarida va turistik markaz shaharlarning yo`l bo`yida, aniq ko`zga ko`rinadigan, turli turdagi ranglar bilan ajratib ko`rsatadigan zamonaviy, electron yo`l ko`rsatkichlar o`rnatish orqali, ham mahalliy aholini ham chet el sayyohini chetdan avtomashina bilan keldigan turistlarni yo`l transport hodisasini, shu bilan birgalikda, mo`ljallagan manzillariga tez va xavfsiz yetib olish, shu bilan birga, shaharning tarixiy markazlaridan boshlab butun shaharda yagona dizayndagi informatsion ko`rsatkichlar o`rnatish (yakka tartibdagi mustaqil sayyohlar uchun qo`shimcha qulayliklar yaratish maqsadida);
- ➢ Temir yo`llarda bekatlarida avtomat bankomatlar (self service ticket) o`rnatish orqali, bekatlarda tartibsiz navbatlarni paydo bo`linishi sabab, bir qancha salbiy muammolarni kelib chiqishi, shuningdek, temir yo`llarning bekatlarida zamonaviy yangi texnologiyalar bilan ta`minlash, mahalliy aholini yangicha texnologiyalarga bo`lgan tushunchalarni oshirish, kelajakda yangi

g`oyalarni paydo bo`lishiga olib kelish maqsadida;

- Piyoda va velosipedlar uchun yurishga mo`ljallangan zonalarni tashkil qilish va takomillashtirish.

Yuqoridagi takliflarni hayotda tadbiq etishdan ko`rilayotgan natijalar qisqacha quyidagilardan iborat:

- Buxoroga tashrif buyuruvchi sayyohlarning mustaqil tarzda sayohat qilishlari uchun qo`shimcha qulayliklar yaratilgani sababli, shaharning turistik obro`i oshishi;
- Shaharning turistik infratuzilmasi sifati sezilarli darajada oshadi va shaharning jozibadorligi ma`lum miqdorda oshadi;
- Shaharlarning transport infratuzilmasini yanada yaxshilash orqali ham ichki va tashqi turizmni sayohchilarga sifatli xizmat ko`rsatib, turizmi rivojlangan davlatlar qatorasiga kirish orqali ko`zda tutiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, O`zbekistondagi transportlarning infratuzilmasini qisqa muddat ichida, yangi texnologiylar, sifatli yo`llar orqali, shu bilan birga, ertalabdan kechgacha xizmat qiluvchi professional kadrlarni malakasini oshirish, aholini va chet el sayohlarga qilingan xizmatdan rozi bo`lishlari, har doim zarur deb o`ylayman. Yuqorida aytilgan ba`zi kamchiliklarni ko`rib chiqib, o`zimizga muofiqlashtirsak, transport infratuzilmasi sohasidan ozgina bo`lsa ham siljitgan bo`lardik.

12.2.O‘zbekistonni turistik rayonlashtirishning ba’zi masalalari

Turistik rayonlashtirish va rayon ichidagi turistik majmualarning o‘zaro aloqadorligi bevosita ishlab chiqarishining o‘sishiga, uning tizimlarini yaxshilashga, shuningdek, iqtisodiyotning turizmga to‘g‘ridan-to‘gri aloqador bo‘lmagan sohalarida ham mehnat unumdorligini oshirishga ko‘maklashadi. Bundan tashqari, turistik iste’mol ko‘p bo‘lgan iqtisodiy jarayonlarni rag‘batlantiradi, noturistik tarmoqlar uchun qo‘shimcha bozor ochadi va bu bevosita ishlab chiqarishni rivojlantirishga olib keladi.

Demak, turizm sohasida qo‘shimcha xizmatlarning paydo bo‘lishi yangi ish joylarni vujudga keltirishga, turistlarni joylashtirish, ovqatlantirish, transport xizmatlarini tashkil etish, qo‘shimcha xizmatlarni amalga oshirishga imkoniyat yaratadi Buning uchun, bizningcha, mintaqaning ho‘jaligi, aholisi, soni, tarkibi va boshqa xususiyatlarni o‘rganish bilan bir qatorda O‘zbekiston Respublikasi turistik imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ularni ilmiy jihatdan chuqur o‘rganish maqsadida rayonlashtirish katta ahamiyatga ega. Biroq, ta’kidlash lozimki, turistik rayonlashtirishning nazariy va metodologik masalalari uzil-kesil echilmagan.

Ma’lumki, iqtisodiy geografiyada rayonlar eng avvalo ikki shaklda ajratiladi: integral (oraliq) va sohaviy (tarmoq) rayonlar. Shuningdek, rayonlashtiriladigan ob’ekt hududiy uzluksiz yoki diskret, ya’ni areal ko‘rinishda bo‘ladi. Ikkinchi shakldagi rayonlashtiriladigan hodisa yoki voqelik hududning ayrim joylarida mavjud bo‘ladi, xolos. Masalan, turistik rayonlashtirishda tabiiy landshaftlarni jozibaligi (attraktivnost) hisobga olinganda, turli rayonlar – cho‘l, tog, voha va boshqa landshaft rayonlari ajratiladi va ular butun mamlakatni qoplab oladi. Ayni vaqtda ijtimoiy-madaniy nuqtai nazardan turistik rayonlashtirishda belgilangan rayonlar areal (azonal) ko‘rinishda bo‘ladi. Chunki, arxeologik yodgorliklar, arxitektura va shaharsozlik ob’ektlari, qadamjo va boshqa turistik elementlar hududning faqat ayrim joylarida uchraydi. Binobarin, ana shunday ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy-madaniy ob’ektlarni turistik jihatdan rayonlashtirish ancha qiyinchiliklar tugdiradi.

Turistik rayonlashtirish sohaviy yoki tarmoq rayonlar turkumiga kiradi. Bunday rayonlar ham hududiy mehnat taqsimoti va hududiy ixtisoslashuv asosida vujudga keladi. Rayon shakllantiruvchi omillar sifatida tabiat manzaralari (peyzaj, landshaft), ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-tarixiy ob’ektlar va turistik infratuzilma xizmat qiladi. Mironenko, Pirojnik, Tverdoxlebovlar fikricha, hududiy turistik tizim yoki majmualar turistik rayonlarga nisbatan tor tushunchadir. Biz ham aynan shu fikr tarafdorimiz. Zero, hududiy turistik majmualar (HTM) yuqorida ta’kidlaganimizdek, turistik

rayonlarning ichida shakllanadi va ularning quyi pogonalariga mos keladi.

Turizm geografiyasi (TG) uchun hududiy turistik majmua (HTM) tushunchasi katta ahamiyatga ega. Bizningcha, HTM– ma’lum bir hududda yagona infratuzilma asosida turli turistik ob’ektlarning o‘zaro aloqadorlikda rivojlanishi va uni boshqarishni anglatadi. HTM avvalo V.S.Preobrajenskiy tomonidan ilgari surilgan hududiy turistik tizim (HRT) bilan chambarchas bogliq. Ammo HTM bilan HRT o‘rtasidagi tofovut ko‘proq ularning hududiy jihatdan qanday masshtabni egallashi yotadi. HTM tushunchasi HRT dan farqli o‘laroq kichik (lokal) hududni egallashi bilan ajralib turadi hamda tizim tarkib qoidasiga muvofiq serqatlamli, pog‘onasimon bo‘ladi.

Turistik rayonlashtirishda mintaqalarning geografik o‘rni hamda turistik ob’ektlarning o‘zaro aloqasini, foydalanish imkoniyatini inobatga olishni lozim topdik. Turistik rayonlarga ham integral rayonlar kabi ma’muriy iqtisodiy birliklar doirasida ko‘rish ma’qulroq. Chunki, bunday miqyosda statistika masalasi, boshqaruv muammolari osonroq o‘z echimini topadi. Yuqoridagi keltirilgan fikrlarga tayangan holda O‘zbekistonni mavjud iqtisodiy rayonlar to‘rini e’tiborga olib quyidagi tartibda ko‘rishni lozim topdik:

1. Toshkent turistik rayoni (Toshkent shahri va Toshkent viloyati);
2. Mirzacho‘l turistik rayoni (Sirdaryo va Jizzax viloyatlari);
3. Fargona turistik rayoni (Namangan, Andijon, Fargona viloyatlari);
4. Zarafshon turistik rayoni (Samarqand, Buxoro, Navoiy, viloyatlari);
5. Janubiy turistik rayoni (Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari);
6. Quyi Amudaryo turistik rayoni (Xorazm viloyati, Qaraqalpogiston Respublikasi).

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, respublikaning har bir turistik rayoni o‘ziga xos turistik ob’ektlarga ega. Ulardan oqilona

foydalanish O‘zbekistonni turizm rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqishiga imkon beradi.

12.3. O‘zbekiston turistik rayonlariga umumiy tavsif

12.3.1.Toshkent turistik rayoni

Toshkent turistik rayoni o`z ishiga Toshkent shahri va Toshkent viloyatlarini birlashtiradi.Bu turistik rayon mamkalatimiz turizm salohiyati va turistik tashrif va xizmatlar sohasida etakchilik qiladi. Binobarin, turistik rayonda mamlakat poytaxti joylashganligi, xalqaro aeroportning mavjudligi, tabiatining nihoyatda jozibadorligi, umuman turistik resurslarga boyligi uning boshqa turistik rayonlardan ancha ustunligini belgilaydi.

Toshkent viloyati 1938 yil 15-yanvarda tashkil topgan. Uning maydoni 15,3 ming km^2 bo`lib, aholisi 2018 yil 1 yanvar holatiga ko`ra 2876,7 ming kishi tashkil etadi. Viloyatda jami 15 ta tuman, 16 ta shahar va 97 ta shaharcha hamda 885 ta qishloqlar bor.

Toshkent shahri tarixiy manbalarda bundan 2000 yil avval hozirgi Toshkent shahri o‘rnida yirik va obod shahar bo‘lganligi qayd etiladi. V-VIII asrlarda esa Toshkent Choch, Shosh, Shoshkent, Binkat degan nomlar bilan atalgan hamda shu nomlar bilan atalgan davlatlarning poytaxti bo‘lgan. VI asrda Toshkent Turk xoqonligi tarkibiga qo‘shib olingan. VIII asrda Toshkentni arablar bosib olgan. O‘zaro urushlar, ko‘chmanchilarning hujumlari oqibatida Toshkent bir necha marotaba vayron etilgan. Natijada, IX asrda Toshkent avvalgi joyida emas, Bo‘zsuv etagida qayta bunyod etilgan. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha Toshkent hozirgi nomi bilan XI asrdan boshlab atala boshlangan. XIII asrda Toshkentni Xorazmshoh istilo qilgan va u l2l4-yilda mo‘g‘ul qo‘shinlarining yo‘lini to‘sish maqsadida shaharga o‘t qo‘ydirib yuborgan. Shundan so‘ng shahar faqat temuriylar davrida qayta tiklangan. Ulug‘bekning vafotidan so‘ng toju-taxt uchun boshlangan o‘zaro urushlardan foydalangan mo‘g‘il xoni Yunusxon Toshkentni bosib olgan. l503-yilda Shayboniyxon Toshkentni

bosib olgan va shaharni o‘z amakilari Ko‘chkunchixon va Suyunchxo- jaxonlar (Ulug‘bekning nabiralari)ga topshirgan.

XVI asrning birinchi yarmida Toshkentda qurilish ishlari jonlangan. Jumladan, Baroqxon va Ko‘kaldosh madrasalari qurilgan, bu binolar hamon qad ko‘tarib turibdi. l597-yilda qozoq xoni Tavakkal, l6l3-yilda esa ashtarxoniylar Toshkentni o‘ziga bo‘ysundirgan. l723-yilda Toshkentni ko‘chmanchi jung‘orlar egallagan va ularning hukmronligi l758-yilgacha davom etgan. l8l0- yilda Toshkent shahri Qo‘qon xonligiga qo‘shib olingan. Toshkent shahri hayotining markazi Chorsu bozori bo‘lib, bu yerga turli shahar va mamlakatlardan savdogarlar kelishgan. Ularga shaharda va shahar atrofida qurilgan karvonsaroylar xizmat ko‘rsatgan. Shaharlarning xo‘jalik hayoti qishloq aholisining faoliyati bilan chambarchas bog‘lanib ketgan, chunki shahar hunarmandlari atrof qishloqlardan xomashyo keltirsa, ayni paytda qishloq aholisi o‘zining ehtiyojini shaharda qondirgan.

Me’moriy va tarixiy yodgorliklar: Oqtepa (VI-VIII va XI asrlar), No‘roz tepa (X-XII va XV asrlar), Tarnoush tepa (VII-VIII va X-XI asrlar), Qo‘rg‘ontepa manzilgohi (III-XIII asrlar), Ming o‘rik (I-VIII asrlar).

Jome masjid (XV-XIX asrlar), O‘rta Osiyoda eng yirik madrasalardan biri Ko‘kaldosh (XVI asr) ham kiradi. Mashhur Shayxontohur majmuasiga shayx Xovandi Tohur maqbarasi (XIV-XIX asrlar), Qaldirg‘ochbiy maqbarasi (XV asr), Yunusxon maqbarasi (XV-XVI asrlar) kiradi. Yuqoridagilardan tashqari qator boshqa yodgorliklarni ham ajratib ko‘rsatish mumkin, masalan, Hazrati Imom majmuasi. Bu majmuaga Kaffol Shoshiy va Suyunchxo‘ja- xon maqbaralari (XVI asr), Baroqxon madrasasi (XVI asr), Shayx Zayniddin bobo maqbarasi (XII-XV asrlar), Xayrobod eshon maqbarasi va masjidi (XVIII-XIX asrlar), Sayid Abulqosim madrasasi (XIX asr), Nuriddin bobo maqbarasi (XVI asr), Cho‘pon Ota (XVIII-XX asrlar) majmuasi va boshqa yodgorliklar kiradi.

12.3.2. Mirzacho‘l turistik rayoni

Mirzacho‘l turistik rayoni Jizzax va Sirdaryo viloyatlarini birlashtiradi. Turistik rayonda turizm ixtisoslashuvida dam olish va ekoturizm, tog` turizmi, plyaj turizmi kabilarni tashkil etish imkoniyatlari juda yuqoridir.

Jizzax viloyati 1973 yil 29-dekabrda tashkil topgan. Uning maydoni 21,2 ming km^2 bo`lib, aholisi 2018 yil 1 yanvar holatiga ko`ra 1337,0 ming kishi tashkil etadi. Viloyatda jami 12 ta tuman, 6 ta shahar va 42 ta shaharcha hamda 579 ta qishloqlar bor.

O‘rta asrlarga oid qo‘pgina qal’a-qo‘rg‘on va karvonsaroylar, tepa va ko‘rg‘onlar Kultepa, Oqtepa, Rabot, Qo‘rg‘ontepa, Xonimqo‘rg‘on, Kaltepa kabi nomlar bilan ataladi. Bularning soni l00 dan ortiq. Jizzax va G‘allaorol tumanlari hududidagi Takalisoydagi qoyatoshlarda ibtidoiy chorvachilik, ovchilik davriga oid mingdan ortiq rasm, Baxmal, G‘allaorol, Jizzax tumanlarida juda ko‘p yer osti yo‘llari saqlanib qolgan. Parpiota, Malik Girko‘shok, Avliyo Serob, Nuriddin masjidlarining qoldiqlari saqlangan. Forish tumanida qadimiy «Band» to‘g‘oni qoldig‘i hozir ham mavjud. Jizzax tumanida Uzunota qabri bor. Bu yerda sohibqiron Amir Temur l404-yil dekabrning so‘nggi kunida bir kecha tunaganligi tarixiy manbalarda qayd etilgan. Jizzax ruslar tomonidan bosib olingandan so‘ng rus harbiy ishboshilari nazoratida mahalliy aholi kuchi bilan barpo etilgan bir qancha imoratlar (uyezd hokimi binosi, rus askarlari qarorgohi, qamoqxona, cherkov) saqlanib qolgan.

Sirdaryo viloyati 1963 yil 16-fevralda tashkil topgan. Uning maydoni 4,3 ming km^2 bo`lib, aholisi 2018 yil 1 yanvar holatiga ko`ra 821,9 ming kishi tashkil etadi. Viloyatda jami 8 ta tuman, 5 ta shahar va 25 ta shaharcha hamda 260 ta qishloqlar mavjud. Markazi Guliston shahri**.** Geografik joylashuviga ko`ra, viloyat shimolidan Qozog‘iston Respublikasi, sharqdan Toshkent viloyati**,** janubidan Tojikiston Respublikasi va g‘arbdan Jizzax viloyati bilan chegaradosh.

Sirdaryo viloyati relefi asosan, to‘lqinsimon tekislik bo‘lib, janubidan shimoliy-g‘arbga pasayib boradi. Mirzacho‘l dashtining

bir qismi viloyat hududiga kiradi. Sharqida keng Sirdaryo vodiysi joylashgan. Mezozoy va kaynozoy davrida, asosan, cho‘kindi jinslarning qalin qatlami bilan qoplangan. Sho‘ro‘zak, Mirzarabot, Sardoba kabi botiqlar mavjud. Tekislik qismi daryolar oqizib keltirgan yotqiziklardan hosil bo‘lgan, ba’zi joylarini ko‘l, botqoq va sho‘rxok erlar egallagan. Sirdaryo viloyatida yangi kanallar, zovurlar qazilib, cho‘l o‘zlashtirildi va ekin maydonlarga aylantirildi. Tekislik qismida irrigatsiya inshootlari qurilib, paxtazor, bog‘ va tokzorlar barpo qilindi. Adirlar lalmikor erlar va yaylovlardan iborat. Ob-havosi keskin o‘zgaruvchan va quruq. Yillik o‘rtacha temperaturasi 14°. Yanvarning o‘rtacha temperaturasi shimolida -6°, janubida -2°. Qishda havo tez soviydi va harorat -30° gacha (Gulistonda -35°) pasayadi. Ba’zan, qish o‘rtalarida havo birdaniga isib, keyin sovib ketadi. Kech ko‘klamda va yerta kuzda ham kora sovuq tushib o‘simlikning o‘sish davrini qisqartiradi. Yozi quruq va issiq. Iyulning o‘rtacha temperaturasi 27-29°. Yozda harorat 32-45° gacha ko‘tariladi. Ko‘pincha issiq shamol (garmsel) tuproqni quritadi va o‘simliklar rivojlanishiga yomon ta’sir qiladi. Vegetatsiya davri 218 kun. Yillik yogin 180-220 mm, asosan, qishda yog‘adi. Yozda kuchli bug‘lanish sababli yer osti suvlari yuza maydonlarning sho‘r bosadi. Noyabrdan martgacha teztez esib turadigan "Bekobod shamoli" tezligi 20-25 m/sek. (Boyovut tumanida 40 m/sek.)ga etadi. Bahorda esadigan bu xildagi shamol unib chikayotgan g‘o‘zalarni ba’zan nobud qiladi. Keyingi yillarda ixota daraxtzorlari barpo qilindi. Tuproqlari, asosan, och tusli kuchsiz joylashgan bo‘z tuproq bo‘lib, kam va o‘rtacha sho‘rlangan, mexanik tartibiga ko‘ra, qumoq va soz tuproqlardir. Tekisliklarda sho‘rxok va sho‘rxoksimon tuproq uchraydi. Yer osti suvining chuq. 5–6 m. Sho‘ro‘zak massivida, hali o‘zlashtirilmagan pastqam joylarda sho‘rxoklar keng tarqalgan.

Qadimgi Sirdaryo tarixi haqida ma’lumot beruvchi muhim yozma manba qad. yunon tarixchisi Arrianning "Iskandarning harbiy yurishlari" asaridir. Bu asarda Sirdaryo "Tanais", "Yaksart" nomi bilan yuritiladi. Mil. av. 3-2-asrlarda O‘rta Osiyoning shimoliy rayonnlarida 5 ta mayda davlatlardan iborat Qang‘yuy davlati ittifoqi yuzaga keladi. Uning tarkibiga hozirgi Sirdaryo viloyati

hududlari ham kirgan. Ushbu davrda ko‘chmanchi aholining viloyat hududiga kelib o‘rnashishi yer tanqisligini yuzaga keltiradi. Natijada hozirgi Xovos tumanining g‘arbiy qismlari ham aholi tomonidan o‘zlashtiriladi. Sho‘rbuloqsoyning quyi qismida eski Xovos yodgorligi, Shirinsoyning quyi qismida Munchoqtepa yodgorligi qad ko‘taradi.

Sirdaryo viloyati hududi ilk bor alohida o‘lka- Ustrushona sifatida Beyshi, Suyshi va Tanshu kabi Xitoy yilnomalarida tilga olinadi. Undan oldingi manbalarda Sharqiy Sao (suvi yo‘q) deb yuritiladi. Uning bunday nomlanishi hududda qo‘shni Choch va Sug‘ddan farqli ravishda daryolarning ko‘p bo‘lmaganligi bilan izoxlanadi. Nisbatan o‘lkaning to‘laroq nomlanishi Tanshu yilnomalarida ("Shuaydushana", "Suydushana" nomlari bilan) berilgan. Tan imperatorlari saroyida o‘lka nomi, shuningdek, Layviy (mag‘rurligini sezgan holda bo‘ysunmoq) deb ham yuritilgan. Viloyat qad. aholisining tili sug‘d tiliga o‘xshash tilda so‘zlashuvchi Sirdaryo va Amudaryo oralig‘ida yashagan aholi tiliga yaqin bo‘lgan. Xan davri yozma manbalarida Dovon (Farg‘ona)dan to Ansi (Baqtriya)gacha bo‘lgan hudud aholisi turli shevalarda gaplashsalarda, birbiriga yaqin tidda gaplashganlar va o‘zaro birbirini tushunganlar deyiladi.

Milodiy 6-asrda Turk xoqonligi davrida mahalliy aholining turk qabilalari bilan munosabatlari rivojlanadi. Qudaandachilik munosabatlari o‘rnatiladi. Ustrushona afshini Xasan ibn Haydar turk lashkarboshisining qiziga uylangan. 8-asrga oid Xitoy yozma manbasi Syuandzanda yozilishicha, o‘lka "Sutulisen" deb nomlanadi. Shuningdek, unda shim.g‘arbda katta cho‘l (Mirzacho‘l) joylashganligi, o‘lka hukmdori Bosi tog‘i (Turkiston tog‘ tizmasi)ning shim. yon bag‘rida yashaganligi haqida ma’lumotlar bor. O‘lkada zarb qilingan 6-8-asrlarga oid tangalar Ustrushonaning ilk hukmdorlari Chirdmish, Satagari, Raxang haqida ma’lumot beradi.

Hokimiyat shu davrda otadan bolaga o‘tgan. 8-asr boshida Ustrushonaga arablar bostirib kirgan. Ustrushona arab va Tan sulolasi o‘rtasidagi kurash maydoniga aylangan. 749 yilda xitoyliklar yurish qilgan bo‘lsa, 751 yilda Ustrushonani arablar

bosib olgan. Fakatgina 9-asr boshlaridan Haydar ibn Qavus arab xalifasi xizmatiga kiradi.

893 yilda afshinlar sulolasi ag‘darib tashlanib Ustrushona Somoniylar davlati tarkibiga kiritshshi. O‘rta asrlardagi Ustrushona haqida birmuncha to‘liq ma’lumotlar arab yozma manbalarida mavjud. Ularda aytilishicha, o‘lka hududi Xo‘janddan Samarqandgacha, Sirdaryo daryosi va Mirzacho‘ldan to Hisor tizma tog‘larigacha bo‘lgan. Istaxriy (10-asr) ma’lumotiga ko‘ra, Ustrushonaning ko‘pgina qismini tog‘lar egallagan bo‘lib, unda "kemalar suzishi mumkin bo‘lgan daryo ham, ko‘l ham yo‘q". Havkalga binoan, Movarounnaxrning boshqa viloyatlari qatori Ustrushona ham qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan ajralib turardi. Bu mahsulotlar viloyat tashqarisiga, jumladan, Xo‘jandga chiqarilgan. Ayrim shaharlarda bozorlar bo‘lgan. Ustrushonaliklarning fahri Mink va Marsmandada ishlab chiqarilgan temir qurollar bo‘lib, ular Xurosonda ishlatilgan va Iroqqacha shu qurolyarog‘ bilan qurollanganlar. Ustrushona poytaxti Bunjikat sh. bo‘lgan. O‘rta Osiyodagi boshqa davlatlar qatori Ustrushona ham keyingi hayotida qoraxoniylar, mo‘g‘ullar, temuriylar, shayboniylar va boshqa davlatlari tarkibidagi tarixiy davrlarni boshidan kechirgan.

Qadimgi viloyat axoliey, asosan, soy va chashmalar bo‘ylarida vohavoha bo‘lib hayot kechirishgan. Viloyat hududida Xo‘jamushkentsoy, Sho‘rbuloqsoy, Mug‘olsoy, Tagobsoy, Sarmichsoy singari suv manbalari bo‘lgan. Suv balansining buzilishi manzilgohlarning yo‘q bo‘lib ketishiga yoki boshqa joyga ko‘chib o‘tilishiga olib kelgan.

Sirdaryo viloyatida qadimgi kanallarning izlari, sardobalar mavjud. 70 km uzunlikdagi O‘rinboyo‘g‘iz, Iskandarariq, Buxoroariq juda qadimiy kanallardir. 15-asrda Shohrux va Ulug‘bek Sirdaryodan Mirzacho‘lga kanal orqali suv chiqartirgan. Keyinchalik Mirzacho‘lning janubi-sharqida Bo‘zariq, Sirdaryoning o‘ng tomonida Dalvarzinariq barpo etilgan. Qiyot ko‘li yonida Sirdaryodan suv oladigan mayda ariqlar bo‘lgan. 1872 yilda Bekobod yonida Kaufman kanali (13 km), 1878-82 yillarda To‘ng‘izariq (6 km) qazildi. 1883-85 yillarda Iskandarariq va

Buxoroariq qayta kavlandi. 1891-95 yillarda Farhod tog‘i yonida maxsus to‘g‘on (Shohto‘g‘on) qurildi. 1896 yilda hozirgi Do‘stlik kanali qazilib Mirzacho‘lning ichkarisiga suv yuborildi. 1897 yilda Mirzacho‘lda birinchi marta 6 ga erga paxta ekildi. 1899 yilda 8 ming ga, 1907 yilda 9,09 ming ga, 1910 yilda 12,2 ming ga, 1915 yilda 34,5 ming ga yer sug‘orilib, 19 ming ga erga paxta ekildi. 1926 yilda 180 km ariq va kanallar qazildi, sug‘oriladigan maydonlar 53 ming gektarga etdi, 1927 yilda 60 ming ga (shundan paxta 27 ming ga), 1929 yilda 68 ming ga, 1934 yilda 134 ming ga, 1938 yilda 154 ming ga (shundan paxta 40 ming ga) yer sug‘orildi. 1942 yilda 180 ming ga yer (shundan 70 ming ga er paxta) sug‘orildi. 1943-48 yillarda Farhod GES, bosh to‘g‘on Do‘stlik kanaliga tutashtirildi. Boyovut kanali va Farxod suv ombori qurildi. Natijada Mirzacho‘lning jan. qismi va Dalvarzin cho‘lini sug‘orish masalasi hal qilindi. 1956-59 yillarda Qayroqqum suv ombori va GES (quvvati 126 ming kVt) qurildi. 1956 yillarda sug‘oriladigan yerlar maydoni 280 ming gektar erga etdi. 1960 yilda Janubi Mirzacho‘l kanali (128 km) qazildi. 1958 yilda sho‘r suvlarni oqizish uchun 90 km uzunlikdagi Markaziy Mirzacho‘l kollektori qurilib, Boyovut va Ettisoy kollektorlariga qo‘shildi. Viloyat qududidan Sirdaryo oqib o‘tadi.

12.3.3. Fargona turistik rayoni

Fargona turistik rayoni O`zbekiston gavhari sifatida e`tirof etiladi. Turistik rayon boshqa rayonlardan o`zining tabiati, so`lim go`shalari, etnoturistik, agroturistik, ekoturistik, gostronomik salohiyati kabi imkoniyatlari bilan ajralib turadi.

Andijon viloyati 1941 yil 6-martda tashkil topgan. Uning maydoni 4,3 ming km^2 bo`lib, aholisi 2018 yil 1 yanvar holatiga ko`ra 3032,3 ming kishi tashkil etadi. Viloyatda jami 14 ta tuman, 11 ta shahar va 78 ta shaharcha hamda 456 ta qishloqlar bor.

Andijon shahrining paydo bo‘lishi va nomining kelib chiqishi haqida turli xil afsona va rivoyatlar mavjud. Ayrim manbalarda shahar nomi «andi», «adoq» («azoq») kabi urug‘ atamalari bilan bog‘liqligi ko‘rsatilgan. Bir vaqtlar bu yerda andilar (hindlar)

yashagan va shaharning nomi «Andukon» deb atalgan, degan rivoyat ham bor. Andijonning Ark qismida va Shahristonda olib borilgan arxeologik qazilmalar natijasida VII-VIII asrlarga oid buyumlarning topilishi uning O‘rta Osiyodagi ko‘hna shaharlardan biri ekanligini tasdiqlaydi. O‘rta asrlarda shahar Arki mudofaa devorlari bilan o‘rab olingan. Arab xalifaligi davrida Andugon deyilgan. Andijon ilk bor yozma manbalarda X asr arab sayyohlari Ibn Havkal va Muqaddasiy asarlarida Andugon shaklida qayd etilgan. XI asrda shahar Qoraxoniylar hukmronligi ostiga o‘tgan. XI-XII asrlarda Farg‘ona vodiysining yirik savdo va hunarmandchilik markaziga aylangan. Shahar mo‘g‘ullar istilosi davrida vayron etilgan va manbalarda qayd etilishicha, XIII asr oxirlarida mo‘g‘ul xonlari bo‘lmish Tuva va Xaydu tomonidan qayta tiklangan. Andijon XIV asrning 70-yillarida Farg‘ona vodiysi bilan birga Amir Temur davlati tarkibiga kirdi. XV asrning ikkinchi yarmidan Andijon Temuriylar davlatiga qarashli Farg‘ona viloyatining poytaxti bo‘lgan. Ayniqsa, Umarshayx mirzo va uning o‘g‘li Zahiriddin Muhammad Bobur davrida shaharda xo‘jalik, fan, madaniyat rivoj topgan. Andijon XVI asrdan boshlab Farg‘ona vodiysi markaziga aylandiNamangan shahri l620-yilda Farg‘onaning qadimgi poytaxti Axsikant qattiq zilzila oqibatida vayron bo‘lganligi uchun aholi Namangan atrofiga ko‘chgan. Namangan tuz koni («namak kon») yaqinida qurilgan edi. Uning nomi manbalarda XVII asrdan boshlab uchraydi. XVIII asrda Qo‘qon xonligi hududiga kirgan. l842-l845-yillarda shahar baland devor bilan o‘ralgan.

Qo‘qon shahri tarixiy manbalarda Qo‘qonga oid ma’lumotlar X asrdan boshlab uchraydi. Qo‘qonning yoshi 2000 yildan ortiqdir. Ma’lumotlarda «Huvoqand» («Hauo- qand», «Ho‘qand») degan nomlar bilan qayd etilgan.

Qo‘qon shahri XVIII-XIX asr birinchi yarmida nafaqat xonlikning, ayni paytda O‘rta Osiyoning yirik shaharlaridan biri edi. Uzoq o‘tmishda Qo‘qondan Xitoy va Hindistonga boradigan, u yerlardan keladigan karvon yo‘li o‘tgan. Qo‘qon shahri bir necha marta tashqi dushmanlar tomonidan vayron qilingan. Shahar XIII asrda oxirgi marta mo‘g‘ullar tomonidan yakson

qilindi. Qo‘qon l709-yilda qayta tiklangan va l740-yilda xonlik poytaxtiga aylantirilgan. l842-yilda mustahkam devor bilan o‘ralgan. Shaharga l2 darvozadan kirilgan. Shaharning l2 darvozali bo‘lishiga sabab uning ma’muriy jihatdan l2 dahaga bo‘linganligi edi. Bu davrda shaharda 80 ming (ba’zi ma’lumotlarda 3l ming) aholi yashagan. Shaharda l5 ta madrasa, 540 masjid bo‘lgan. Madrasalar ichida Madalixon, Norbo‘tabek, Jome, Hojimoyim, Xoja Dodxoh, Mingoyim madrasalari ajralib turadi. Ularning har birida 38 tadan l00 tagacha hujrasi bo‘lgan.

Tarixiy yodgorliklar: Norbo‘tabiy madrasasi (l799-yil), Madalixon madrasasi, Madrasayi Kamol qozi (l820-yil), Madrasayi Tutqotaz, Madrasyi Haqquli mingboshi (l825-yil), Madrasayi Miyon hazrat, Madrasayi Mohlaroyim, Madrasayi Hakim to‘ra (l795-yil), Madrasayi Xonxoja eshon (l789-yil), Madrasayi Buzrukxoja (l80l-yil), Madrasayi Pirmuhammad yasovul (l802-yil), Madrasayi Xojabek (l805-yil), Madrasayi Oxund devonbegi (l805-yil), Madrasayi Mingoyim (l802-yil), Madrasayi Jome (l8l7-yil) va boshqalar.

Namangan viloyati 1941 yil 6-martda tashkil topgan (1967 yil 18 dekabrda qayta tashkil etilgan). Uning maydoni 7,4 ming km^2 bo`lib, aholisi 2018 yil 1 yanvar holatiga ko`ra 2720,4 ming kishi tashkil etadi. Viloyatda jami 11 ta tuman, 8 ta shahar va 120 ta shaharcha hamda 403 ta qishloqlar bor.

Respublikaning sharqiy, Farg‘ona vodiysining shimoliy qismida joylashgan. Viloyat Farg‘ona vodiysining shimoliy qismida, asosan, Sirdaryoning o‘ng sohilida joylashgan. Yer yuzasi balandligi 400-750 metr bo‘lib, shimolga tomon balandlashib boradi. SHimoliy CHotqol va Qurama tog‘lari bilan o‘ralgan. Tog‘ oldilari balandligi 1000-1200 metr adirlardan iborat. Viloyat geologik faol xududda joylashgan. 8 ballgacha zilzilalar bo‘lib turadi. Katta maydonni egallagan Qoraqalpoq cho‘lida dehqonchilik qilinadi. Rangli metall konlari bor. Gips, oxaktosh va boshqa qurilish materiallari olinadi, Viloyatning qator hududlaridan shifobaxsh mineral suvlar (Chortoq, Chodaksoy, Shahand, Uchqo‘rg‘on) topilgan. Iqlimi kontinental. Yozi issiq, uzoq, qishi

nisbatan yumshoq va qisqa. Havo xaroratining sutkalik tebranishi keskin, yog‘in kam. Tekislikda yanvarning o‘rtacha temperaturasi -3,5 daraja s, iyulniki 25 s. Yillik yog‘in tekislik va tog‘ oldilarida 100-200 mm., tog‘ etaklarida 600 mm. gacha. Namangan shahri atrofida vegetasiya davri (229 kun) bo‘lib, Farg‘ona vodiysining janubiy va sharqiy tomonlariga qaraganda eng uzoq davom etadi.

Mamlakatimizning ko‘p asrlik tarixi va mustaqillik davridagi taraqqiyotida Namangan viloyati o‘zining boy o‘tmishi, madaniyati bilan muhim o‘rin egallab kelgan. Namangan Farg‘ona vodiysidagi qadimgi shaharlardan. Shahar ko‘chmanchi chorvadorlar va dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi o‘troq aholi yashaydigan chegarada vujudga kelgan. Namangan qishlog‘i haqidagi dastlabki ma’lumot 14-asrlar oxiriga tegishli. Bobur o‘zining "Boburnoma" asarida Namanganni qishloq sifatida eslatib o‘tgan. Tarixchilarning xabar berishicha, bu erga 1582 yilda asir olingan forslar keltirib joylashtirilgan. 1643 yilgi vaqf hujjatida ham shahar deyilgan. Shahar tuz koni yaqinida barpo bo‘lganligi uchun nomi "namak kon" so‘zlaridan deb taxmin qilinadi. 1620 yil Farg‘ona vodiysining qadimgi poytaxti Axsi (Axsikant) zilziladan vayron bo‘lgach, uning aholisi yaqinroq joylashgan Namanganga ko‘chib o‘tadi. 1813 yilda Qo‘qon xonligida bo‘lgan rus elchisi Filipp Nazarov Namangan shahar hokimining devor bilan o‘ralgan saroyida ancha lashkar saqlanganligini yozgan.

1819-1822 yillarda Yangiariq kanali qazilib, shaharning suv ta’minoti ancha yaxshilanadi. 1842-45 yillarda shahar atrofi mustahkam devor bilan o‘rab olindi. 1876 yil fevralda Qo‘qon xonligi tugatilgach, Namangan uezd shaharlaridan biri bo‘lib qoldi. 19-asr ohirlarida eski shahar yonida yevropaliklar o‘zlari uchun muassasa va turar joy binolari qurdilar. Natijada "yangi shahar" vujudga keldi. Ayni vaqtda sanoat korxonalari xam barpo etila boshladi. 1914 yil shaharda 40 dan ortiq korxona (shundan 17 tasi paxta tozalash zavodi) bor edi. Keyingi o‘n yilliklar ichida shaharda engil, oziq ovqat va mashinasozlik sanoati korxonalari hamda Namangansoyda GES lar qurildi.

Namangan shahrida otashnafas shoir va mutafakkir Boboraxim Mashrab (1657-1711), To‘raqo‘rg‘onda shoir, tilshunos,

ma’rifatparvar Isxoqxon Junaydullo o‘g‘li Ibrat (1862-1937), Chustda shoir Muhammmadsharif Egamberdi o‘g‘li So‘fizoda (1869-1937) va boshqalar yashab ijod qilganlar. Namangan shahri va viloyatida saqlangan me’moriy yodgorliklar asosan 18-20 asr boshlarida bunyod etilgan. Namangandagi Mulla Qirg‘iz madrasasi 20-asr boshlarida shahar markazida qurilgan. Madrasa uning qurilishiga rahbarlik qilgan shaxs-usta Qirg‘iz nomi bilan atalgan. Ushbu madrasa yaqinida ayni vaqtda Ota Valixon to‘ra masjidi ham qurilgan. Mavlon buva majmuoti mahaliy shoirga bag‘ishlangan bo‘lib, uning qurilgan sanasi (1806 yil) peshtoqiga bitilgan. Maqbara shoirlarning ziyorat xonasiga aylangan. Xo‘ja Amin maqbarasi 18 asr o‘rtasida barpo etilgan. Binoning bosh fasadini bezashda 12-14 asrlar bezak usuli (o‘yma sopol taxtachalari) dan foydalanilgan.

Farg‘ona viloyati 1938-yil 15-yanvarda tashkil etilgan. Respublikaning sharqida, Farg‘ona vodiysining janubida joylashgan bo`lib, shimoldan Namangan, Andijon viloyatlari, janub va sharqdan Qirg‘iziston, g‘arbdan Tojikiston Respublikalari bilan chegaradosh. Maydoni 6,8 ming $km^2$ bo`lib, u viloyatda jami 3644,9 ming kishi yashaydi (2018). Shahar joylarida yashovchi aholi jami aholining 56,7 foiziga to`gri kelmoqda. (2017). Tarkibida 15 tuman, 4 shahar bor. Farg‘ona viloyati asosiy sanoat tarmoqlari-yoqilg‘i (neftni qayta ishlash), engil (paxta tozalash), oziq-ovqat sanoati, qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlari: donchilik, paxtachilik, bog‘dorchilik, uzumchilik va go‘sht-sut chorvachiligi, parrandachilik, ipakchilikka ixtisoslashgan.

Farg‘ona viloyati O‘zbekistonning qadimgi madaniyat o‘choqlaridan biri. Viloyat hududida topilgan tosh davri manzilgohlari va qoyatoshlariga solingan suratlar vodiyda odamlar eng qadimgi davrlardan beri yashab kelganliklaridan darak beradi. Farg‘ona viloyatining tosh davri yodgorliklarini 1954-yil A.P.Okladnikov rahbarligidagi arxeologlar o‘rgangan. Vodiyning sharqiy qismidagi Qayroqqum, Xo‘jag‘or va Uchqo‘rg‘on makonlaridan muste davriga oid tosh qurollar topildi. Vodiyning g‘arbiy qismidagi qadimgi tosh davri madaniyatiga oid manzilgohlar muste davridagi Qal’acha, Jarqo‘ton va Qapchig‘ay

tosh qurollar ishlash ustaxonalari topilib o‘rganildi. 1958-yil birinchi marta Markaziy Farg‘onadan mezolit davriga oid mikrolit tosh qurollari topildi. Shuningdek, Markaziy Farg‘onadagi Uzunko‘l va Tayloqko‘l atroflaridan mezolit va neolit davrlariga oid 24 ta manzilgoh borligi aniqlandi (1965). So‘x vohasidagi 28 g‘or va ungurlar (Selungur, eshma, Obishir, Sur, Bel, Zim, Ovikambar, Bog‘ishim va boshqalar) ro‘yxatga olindi. Obishir g‘orlaridagi madaniy qatlam yaxshi saklangan. G‘orlarni qazish jarayonida mezolit davriga oid tosh qurollar, xayvon suyaklari topilgan. Bular o‘sha davr turmushini o‘rganish imkonini beradi.

1967 va 1969-70 yillarda Sankt-Peterburgdagi Ermitaj muzeyi xodimlari mezolit va neolit davrlariga oid 35 ta manzilgoh topdilar. Farg‘ona viloyatining arxeologik yodgorliklarini o‘rganishda Katta Farg‘ona kanalining qazilishi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.Kanalni qazish jarayonida jez davri, quldorlik va zamindorlik jamiyatlariga oid yodgorliklar topildi va tekshirildi. Quva va Toshloq tumanlari o‘rtasidagi Akbarobod qishlog‘ida jez davriga oid manzilgoh, Marg‘ilonsoyning chap sohilida Oqtom qabristoni bo‘lganligi aniqlandi. Farg‘ona viloyatining Quva tumanida quldorlik davriga oid Taxyontepa, Farg‘ona shahrida Simtepa (Chimtepa) kabi yodgorliklar topib o‘rganilgan. Ayniqsa, Quva shahridagi miloddan avvalgi 5-asr va o‘rta asr boshlariga oid topilmalar yaxshi tekshirilgan. 10-11-asrlarga doir tarixiy manbalarda bu shahar obodligi va kattaligi jihatidan vodiyda Axsikatdan so‘ng eng yirik shahar deb qayd qilingan. Arxeologik materiallar Marg‘ilon shahri 10-asrda katta qishloq bo‘lib, 11 - 12-asrlarda shaharga aylanganligini, Rishton esa 10-asrda katta shahar bo‘lsa ham, 11-12 asrlarga kelib qishloq qiyofasiga kirib qolganligini isbotlaydi. O‘troq dehqonchilik**,** chorvachilik bilan shug‘ullangan Chust madaniyatiga oid manzilgohlardan topilgan yodgorliklar Farg‘ona vodiysini o‘rganishda muhimdir. U yerda ishlab chiqarish kuchlari va xo‘jalikning taraqqiyoti jez davrining ohirida dehqonchilik qabilalarining ijtimoiy tuzumida o‘zgarish yuz berishiga, natijada ibtidoiy tartiblar tugab jamiyatdagi tabaqalanishga olib kelgan. Ro‘zg‘or anjomlarida xususiy mulkchilik kurtaklari ko‘zga tashlanadi. Arxeologik tekshirishlar natijasi Farg‘ona viloyatida

qadimdan odamlar yashab, ovchilik, dehqonchilik, chorvachilik bilan shug‘ullanganligidan, kishilik jamiyatining keyingi bosqichlarida esa madaniyat rivojlana boshlaganligidan dalolat beradi.

Qo‘qon shahri Farg`ona vodiysidagi eng katta turistik shaharlardan biri bo`lib, Qo`qon xonligi markazi sifatida mashxur sahardir. Markaziy bog‘ hududidagi Xudoyorxon qarorgohida 2019 yil 10-15 sentyabr kunlari Xalqaro hunarmandchilik festivali bo‘lib o‘tdi.

12.3.4. Zarafshon turistik rayoni

Zarafshon turistik rayoni Buxoro, Samarqand va Navoiy viloyatlarini birlashtiradi. Bugungi kunda bu rayon tarixiy, arxitektura va madaniy turizmning markazi sifatida nafaqat mamlakatimizda qolaversa dunyoga mashxurdir. Xususan, ochiq osmon ostidagi shaharlar turistik resurslari jahon turistlarini o`ziga jalb qiladi. Turistik rayon huduhining kattaligi bevosita turli xil tabiiy va madaniy resurslarning turlicha taqsimlanishiga zamin yaratadi.

Buxoro viloyati 1938 yil 15-yanvarda tashkil topgan. Uning maydoni 40,3 ming km^2 bo`lib, aholisi 2018 yil 1 yanvar holatiga ko`ra 1881,3 ming kishi tashkil etadi. Viloyatda jami 11 ta tuman, 11 ta shahar va 69 ta shaharcha hamda 1469 ta qishloqlar bor.

Buxoro viloyati qadimiy davr, ilk va o‘rta asrlarda qurilgan me’moriy yodgorliklarga juda boy. Hozirgi vaqtda Buxoro davlat me’moriy-badiiy muzey qo‘riqxonasi hisobida 997 ta tarixiy yodgorliklar mavjud. Turondagi eng qadimiy yodgorliklardan biri, Buxoro hukmdorlarining qarorgohi Buxoro arki (mil. av I asr) bugungi kungacha saqlangan. Shahar yonidagi Fathobodda Sayfiddin Boharziy maqbarasi (XIII asr), Bayonqulixon maqbarasi (XIV asr), Buxoro tumanidagi Sumiton qishlog‘ida Chorbakr ansambli (XVI asr), Hazratbobo masjidi (XVIII asr), Amirning yozgi qarorgohi Sitorai Mohi Xosa saroyi (XIX-XX asrlar), Vobkent tumanida Vobkent minorasi (XII asr), Chashmai Ayyub maqbarasi (l208-yil), Hoja Mahmud Anjir Fag‘naviy

maqbarasi (XIII asr), Abdurahmon Vali maqbarasi (XIV asr), Vobkent hammomi (XVI-XVII asrlar), Toshmasjid (XVI-XVIII asrlar), So‘fi Dehqon xonaqohi (XVII-XVIII asrlar), Jondor tumanida Varaxsha shahrining xarobalari (VII asr), Mahmud Torobiy dahmasi (XIII asr), Qizbibi majmuasi (XV asr), Kogon tumanidagi Qasri Orifonda Hazrat Bahouddin majmuasi, Abdulazizxon honaqohi va Dahmai Shohon (XIV-XVI asrlar), Hazrat Mir Kulol (XIV asr), Kogon shahrida Temiryo‘lchilar (sobiq Amir) saroyi (XIX-XX asrlar), Peshku tumanida Xo‘jam Bandi Kushod va Xo‘jam Said Po‘lat maqbaralari (XVIII-XIX asrlar), Romitan tumanida Xoja Ali Rometoniy Xojai Azizon va Xoja Muhammad Boboyi Samosiy maqbaralari (XIV asr), Mulla Mir Hakim xonaqohiShofirkon tumanida Vardonze shahrining yodgorligi (VI-VII asrlar), Hazor Nur dahmasi (VIII asr), Xoja Orif Revgariy Mohitobon maqbarasi (XIII asr), Qorovulbozor tumanida Bo‘zachi va Qorovulbozor sardobalari (XVII asr), Qorako‘l tumanida Poykend shahrining xarobalari (VIII asr), Shoburxon ota maqbarasi va masjidi, G‘ijduvon tumanida Hazrat Abduxoliq G‘ijduvoniy Xojai Jahon (XII asr) masjidi va maqbarasi, Ulug‘bek madrasasi (XV asr), Toshmasjid va Dehqonbobo xonaqohi (XV-XVI asrlar), Chorsu masjidi (XVIII-XIX asrlar) kabi noyob me’moriy obidalar saqlangan. Shuningdek, Buxoro vohasida Raboti Malik karvonsaroyi va Malik sardobasi (XI asr), Karmana shahrida Mirsaid Bahrom maqbarasi (X-XI asrlar), Qosim shayx xonaqohi (XVI asr) mavjud. Bu tarixiy yodgorliklarda Sharq me’moriy an’analari o‘zaro uyg‘unlashib ketgan. O‘zbek xalqi tomonidan ikki ming yil mobaynida bunyod qilingan bu obidalar ajdodlarimizning boy iste’dodi va badiiy mahoratidan, katta yaratuvchilik qudratidan dalolat beradi. Buxoro Sharqning qadimiy shaharlaridan biri. Arxeologik ma’lumotlarga ko‘ra, Buxoroga miloddan avval l000 yillik o‘rtalarida asos solingan. Uning nomi ilk o‘rta asr Xitoy manbalarida turlicha (An, Ansi, Ango, Buxo, Buku, Buxe, Buxaer, Buxala, Buxuala, Fuxo, Puxuala va boshqalar) atalgan. Bu atamalardan avvalgi uchtasi Buxoroning Xitoycha nomlari bo‘lib, qolgani Buxoro so‘zining Xitoy tilidagi talaffuzidir. O‘rta asr arab

manbalarida esa Buxoro Numijkat, Navmichkat, Bumichkat (Yangi qo‘rg‘on), Al-Madina As- sufiyya (mis shahar), Madinat at-tujjor (Savdogarlar shahri), Foxira (Faxrli shahar) kabi nomlar bilan tilga olingan. Buxoro atamasi sanskritcha «uixora» so‘zining turk-mo‘g‘ulcha shakli -«buxor» («ibodatxona») dan kelib chiqqan deb taxmin qilingan. Keyingi tadqiqotlarda bu atama sug‘diycha «bug‘» yoki «bag‘» («tangri») hamda «oro» («jamol») so‘zlaridan iborat bo‘lib, «tangri jamoli» deganma’noni anglatadi, degan fikr ilgari surilmoqda. Darhaqiqat, Zarafshon daryosining quyi oqimida joylashgan Buxoro va uning atrofidagi yerlar qadimda nihoyatda xushmanzara hayvonot va o‘simlik dunyosi betakror, ko‘l va oqar suvlarga boy bo‘lib, tarixchi Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asaridagi ma’lumotlar ham buni tasdiqlaydi.

Buxoro zaminida mashhur, donishmand allomalar voyaga yetganlar, o‘qib, ijod etganlar. Abu Xavs Kabir Buxoriy (767-832), Imom al-Buxoriy, Ibn Sino, Narshaxiy, Daqiqiy, Rudakiy, Balamiy, Abduxoliq G‘ijduvoniy, Bahouddin Naqshband, Sayfiddin Boharziy, Nosir Buxoriy, Shamsiddin Buxoriy, Ubaydulloh Buxoriy, Hofiz Tanish Buxoriy, Mushfiqiy, Turdi Farog‘iy, Ahmad Donish, Fitrat, Sadriddin Ayniy, Fayzulla Xo‘jayev, Ibrohim Mo‘minov, Jalol Ikromiy shular jumlasidandir. l997-yilning oktabrida Buxoroning 2500 yilligi O‘zbekistonda keng nishonlandi. 50 dan ortiq tarixiy-me’moriy obidalar ta’mirlandi, yangi istirohat bog‘lari, xiyobonlar barpo qilindi.

Buxoroning islomga qadar bo‘lgan siyosiy tarixi xususidagi ma’lumotlar mil. avvalgi VII-VIII asrlar bilan chegaralanadi. Buxoro VI-VIII asrlar boshida Buxorxudotlar hokimligi poytaxti edi. 709-yili uni arab xalifaligi fath etgan, 9-l0-asrlarda esa u somoniylar poytaxti bo‘lgan. 999-yil Buxoroni qoraxoniylar, l220-yil mo‘g‘ullar bosib olgan. l370- yildan Buxoro Amir Temur va Temuriylar davlati, XVI asr boshida Shaybo- niylar (l533-yil bu davlat poytaxti Samarqanddan Buxoroga ko‘chirilishi tufayli Buxoro xonligi deb atala boshlagan) va l533-yildan l920-yilgacha Buxoro xonligi (amirligi) markazi bo‘lgan, so‘ng shahar Buxoro bosqini natijasida sho‘rolar tomonidan bosib olingan va l920-yil 8-

sentabrdan boshlab Buxoro xalq Sovet Respublikasi (BXSR) ning poytaxti bo‘lgan.

Navoiy viloyati 1992-yilda tashkil etildi. Viloyatning umumiy hududi 111,0 ming km2 bo`lib, viloyatda 964,7 mingdan ortiq doimiy aholi yashaydi (2018). Navoiy viloyati tarkibida 8 ta qishloq tumani mavjud. Ulardan tashqari viloyatda 6 ta shahar, 47 ta shaharcha, 577 ta qishloqlar.

Viloyat shimoldan va shimoli-sharqdan Qozog‘iston Respublikasi hududi bilan, janubi-sharqdan mamlakatimizning Jizzax, Samarqand, janubdan Qashqadaryo, janubi-g‘arbdan esa Buxoro viloyatlari bilan chegaradoshdir.

Viloyatning tabiati o‘ziga xos rang-barang bo‘lib, shimoli-g‘arbiy qismida Qizilqum sahrosi cho‘llari, janubi-sharqiy qismida osmono‘par Nurota tog‘ tizmalari hamda Zarafshon daryosining o‘rta qismida boy va turfa-xil dehqonchilik dalalari yastanib yotibdi. Zarafshon daryosi bilan birgalikda Aydarko‘l, Sho‘rko‘l, To‘dako‘l kabi ko‘plab yirik suv manbalari viloyat tabiatini yanada rang-barang bo‘lishligiga hissa qo‘shmoqda. Navoiy yosh va navqiron viloyat bo‘lsada, uning insoniyat tamadduniga katta hissa qo‘shgan qadimiy va betakror tarixi bor. Bular Sarmishsoy darasidagi iptidoiy qoyatosh suratlari, Uchtut chaqmoqtosh shaxtalari, Raboti Malik karvonsaroyi va Sardobasi, Qosim Shayx Azizon xonaqohi va Nurotaning noyob me’moriy obidalari kabi bebaho madaniy me’ros obektlaridir. Viloyat tarkibida 8ta tuman mavjud bo‘lib, ular – Karmana, Nurota, Xatirchi, Qiziltepa, Konimex, Uchquduq, Tomdi, Navbahor tumanlaridir. SHuningdek yirik sanoat korxonalari negizida 2 ta yirik shahar- Navoiy va Zarafshon shaharlari har tomonlama rivojlanib, obod hududga aylanib bormoqda. Ayni paytda Navoiy viloyati Respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy hayotida o‘zining munosib o‘rniga ega bo‘lishi bilan bir qatorda ulkan bunyodkorlik ishlari va tarixiy jarayonlar amalga oshirilmoqda. Viloyat tabiiy resurslarga, shu jumladan, rangli metall va qurilish xom-ashyo materiallariga boy hisoblanadi. Navoiy Kon Metallurgiya kombinati Davlat korxonasi dunyoda eng sof oltin ishlab chiqaruvchilaridan biridir. Shuningdek, “Navoiyazot” OAJ, “Elektrkimyo zavodi” qo‘shma

korxonasi, “Navoiy issiqlik elektr stansiyasi” OAJ, “Qiziqumsement” OAJ singari yirik korxonalar faoliyat ko‘rsatmoqda. Qulay geografik joylashuvi hisobga olinib, 2008-yilda viloyatda Navoiy Erkin industrial iqtisodiy zona tashkil etilib, Janubiy Korea, Hindiston, Xitoy va Singapur kabi xorijiy hamkorlar bilan keng ko‘lamli faoliyat olib bormoqda. Navoiy aeroporti negizida xalqaro intermodal logistika markazi tashkil etilgan bo‘lib, u orqali “O‘zbekiston havo yo‘llari” va “Korean Air” hamkorligida jahonning turli mamlakatlariga yuk tashish ishlari yo‘lga qo‘yilgan. Bugungi kunda viloyatning barcha shahar va qishloqlarida bir-biridan shinam zamonaviy tipdagi namunaviy qo‘rg‘onlar bunyod etilgan bo‘lib, yurtimiz husniga chiroy qo‘shmoqda. Navoiy viloyati mamlakatimizda hududiy jihatdan eng katta viloyat bo‘lib, Qoraqalpog‘istondan keyingi ikkinchi o‘rinni egallaydi. Uning umumiy hududi 110,99 ming kv. kmni tashkil etadi. Viloyat o‘ziga xos tabiiy sharoitiga ko‘ra yirik uch qismga bo‘linadi: viloyatning shimoli-g‘arbiy qismini Qizilqum cho‘li egallagan. Janubi-sharqiy qismida Nurota tog‘ tizmalariga tegishli Qoratog‘, Oqtog‘ singari tog‘lar bo‘lsa, Zarafshon daryosi vohasining o‘rta qismida viloyatning dehqonchilik zonasi o‘rnashgan. Navoiy viloyati zaminida shifobaxsh, sho‘r va er osti chuchuk suv zaxiralari aniqlangan bo‘lib, Tomdibuloq, Qaraqota, Chingildi atroflaridan topilgan suvlardan xalq salomatligini mustahkamlash hamda xo‘jalik yumushlarida unumli foydalanilmoqda. Viloyatning asosiy suv manbai Zarafshon daryosi hisoblanadi. Hududda dehqonchilik maydonlari Amu-Buxoro mashina kanalining Navoiy, O‘rtacho‘l, Amu, Sumbul, Mayna tarmoqlari hamda Zarafshondan suv oladigan Konimex, Tos, Shovot, Chovli, o‘ng va chap qirg‘oq, Navkar kanallari orqali suv bilan ta’minlanadi. Shuningdek, Quyimozor, To‘dako‘l suv omborlarida kuz-qish mavsumida kerakli suv zaxiralari hosil qilinadi. Viloyatda 32 ta yirik suv chiqarish elektr nasos stansiyalari ishlab turibdi.

Viloyatning shimoli va g‘arbida ko‘chma qum barxanlari, gilli cho‘l zonalari yastanib yotadi. Mazkur kengliklar, ayniqsa, bahor oylarida turfa tabiiy giyohlar, o‘t-o‘lanlar, rang-barang o‘simliklar

bilan bezanadi. Cho`l hududi cho`l ekoturizmini tashkil etish imkoniyatlarini yaratsa, tog` hududlari esa tog` ekoturizmini tashkil etish uchun katta imloniyatlarga egadir. Nurota ziyoratgohi viloyatda, qolaversa respublikadagi eng diqqatga sazavvor maskanlardan biri hisoblanadi.

Samarqand viloyati 1938 yil 15-yanvarda tashkil topgan. Uning maydoni 16,8 ming km^2 bo`lib, aholisi 2018 yil 1 yanvar holatiga ko`ra 3753,3 ming kishi tashkil etadi. Viloyatda jami 14 ta tuman, 11 ta shahar va 88 ta shaharcha hamda 1829 ta qishloqlar bor. Samarqand O‘rta Osiyoning eng qadimgi shaharlaridan biri. Miloddan avvalgi 329-yili Makedoniyalik Iskandar tomonidan bosib olingan. Bu davr tarixiy manbalarda Maroqanda (Smarakanda) nomi bilan tilga olinadi Qadimda Samarqand So‘g‘diyonaning poytaxti bo‘lib, mintaqa sivilizatsiyalari orasida juda muhim o‘rin tutgan. Shahar VIII asrda arablar tomonidan egallanadi. X asrdan boshlab Somoniylar saltanati tarkibiga kiradi. l220-yili mo‘g‘ullar tomonidan vayron etiladi. Samarqand Amir Temur saltanatining poytaxtiga aylangan davrda shahar to‘la tiklanib, dunyoning eng go‘zal shaharlari qatoriga qo‘shildi. Me’moriy va tarixiy yodgorliklar: hozirgi davrga qadar qator yodgorliklar saqlanib qolgan. Masalan, eng mashhur markazlardan biri Registon maydonidagi me’moriy majmua, ya’ni Tillakori madrasasi (XVII asr), Sherdor madrasasi (XVII asr), Ulug‘bek madrasasi (XV asr); Shohi Zinda majmuasi (XIV-XV asrlar), Bibi xonim jome masjidi (XIV-XV asrlar), Go‘ri Amir maqbaralar majmuasi (XV asr), Ruxobod maqbarasi (XIV asr), Oqsaroy (XV asr), Ishrat xona (XIV asr), Abdidarun majmuasi (XV asr), Xo‘ja Ahror me’moriy majmuasi (XV asr), Ulug‘bek rasadxonasi (l429-yil), Hazrat Xizr masjidi (XIX asr), Xo‘ja Nisbatdor masjidi va minorasi (l90l-yil) va boshqalar. (Izox. Samarqand viloyati turizm imkoniyatlari keying bobda atroflicha berilgan)

12.3.5. Janubiy turistik rayoni

Janubiy turistik rayon geografik joylashuviga ko`ra mamlakatimiz janubiy viloyatlari hisoblangan Qashqadaryo va

Surxondaryo viloyatlaridan tashkil topgan. Bu turistik rayon turizm salohiyati jihatidan keying yillarda tez rivojlanib, xorijiy sayyohlarni ham jalb qilmoqda. Binobarin, bu rayonda tabiiy va arxitektura, arxeologik, ziyorat, rekreatsion, etnoturistik, agroturistik imkoniyatlari mavjud.

Qashqadaryo viloyati 1943 yil 20-yanvarda tashkil topgan. Uning maydoni 28,6 ming km^2 bo`lib, aholisi 2018 yil 1 yanvar holatiga ko`ra 3175,0 ming kishi tashkil etadi. Viloyatda jami 13 ta tuman, 12 ta shahar va 123 ta shaharcha hamda 1046 ta qishloqlar mavjud.

Qashqadaryo vohasida miloddan avvalgi asrlarda vujudga kelgan, yoshi jahonning eng qadimgi manzillari bilan bo‘ylashadigan shaharlar bor. Shahrisabz va Qarshi ana shunday shaharlardandir. Shahrisabz va Qarshining 2700 yillik yubileylari nishonlanishi va ularning ulug‘ yoshi jahon miqyosida tan olinib, hukumatimiz qaroriga muvofiq bayram sifatida tantana qilingani fikrimizning yorqin isbotidir.

Qarshi shahrining kechmishi qadimiy Erqo‘rg‘on, Zahhoki Moron, Nasaf (Naxshab) – Shulluktepa manzillarida o‘tgan. Arxeologlarning ma’lumotlariga qaraganda, Qarshi vohasida birinchi shahar hozirgi qarshi shahridan shimolda joylashgan qadimgi Erqurg‘onda miloddan avvalgi VI-II asrlarda shakllangan. Eramizdan avvalgi VI-II asrlarda u ikki qator devor bilan o‘ralgan va maydoni 150 gektar (tanob)ni tashkil etgan.

Qarshi vohasi markazining tarixi Bobil (Iroq), Aleksandriya (Misr), Erevan (Armaniston), Taksila (Pokiston) kabi qadimgi shaharlar rivojiga o‘xshashdir. Chunonchi, VI asrda Turk hoqonligi va eron sosoniylari tomonidan eftalitlar imperiyasiga qarshi olib borilgan janglarda Erqo‘rg‘on yonib, vayronaga aylangan. Shundan so‘ng, Qarshi vohasi poytaxti Erqo‘rgonning Janubiy-G‘arb tomonidagi Qashqadaryoning Janubiy sohili bo‘yida, hozirgi Shulliktepa o‘rnida qad ko‘taradi. U tarixda Naxshab (arabcha - Nasaf) nomi bilan ma’lum va mashhur.

Naxshab XIII asrda Chingizxon bosqinchilari tomonidan vayron qilingach, voha markazi uchinchi marotaba hozirgi Qarshining eski shahar qismi o‘rnida qayta tiklangan. Shu tariqa

Erqo‘rgon, Naxshab va Qarshi shaharlari Qarshi voxasi markazining taraqqiyot bosqichlarini o‘zida mujassam etgan. Erqo‘rg‘on va Zahhoki Moron (mil.avv. II-I asrlar)da arxeologlar tomonidan topilgan ko‘hna ashyolar o‘zbek xalqining ajdodlari eng qadimgi zamondan o‘troq hayot kechirib, davlat tuzumi asosida shahar madaniyatini yaratganligini va hunarmandchilik, san’at rivojlanganligini tasdiqlaydi.

Nasaf IX-XII asrlarda Janubiy Sug‘dning asosiy shaharlaridan hisoblangan. Unda rabot, shahriston, karvonsaroylar, masjid va madrasalar mavjud bo‘lgan. Manbalarda Nasafning Boyon guzarida buyuk muhaddis Imom Buxoriy istiqomat qilganligi, Nasafda xadisshunoslik maktabi faoliyat ko‘rsatganligi va bu shahar IX-X asrlarda o‘ziga xos ilmiy-madaniy markazlardan biri darajasiga ko‘tarilganligi qayd etilgan. Mazkur shaharda turli davrlarda 200 dan ziyod Nasafiylar yashab, ijod etgan.

Istiqlol tufayli O‘zbekistonda madaniy merosga nisbatan munosabat ijobiy tomonga o‘zgardi. Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, Shahrisabz kabi qadimiy shaharlarning qutlug‘ yubileylari o‘tkazilib, ulardagi umumbashariy madaniyatning bebaho durdonalari bo‘lgan me’moriy obidalar qayta tiklandi. Xuddi shunday navbat o‘zining boy tarixi va madaniy merosiga ega bo‘lgan Qarshi shahriga ham etib keldi va shahar yubileyi nishonlandi.

Qarshining hozirgi kungacha saqlangan me’moriy yodgorliklari - Ko‘kgumbaz, Qashqadaryo ko‘prigi, Qarshi hammomi, Sharofboy, Bekmurodboy, Qilichboy, Abdulazizboy madrasalari, Odina jome’ masjidi, Qarshi sardobasi, Abu Ubayda bin al-Jarroh ziyoratgoxi va Xonaqo masjidi majmuasi hukumatimiz va xalqimiz ardog‘ida.

Qarshi shahridagi Ko‘kgumbaz masjidi, Qashqadaryo ustiga qurilgan g‘ishtko‘prik, qadimiy hammom va madrasalar o‘zbek me’morchiligining noyob namunalaridan bo‘lib, ularning har biri o‘z tarixiga ega. Bu obidalar O‘zbekistondagi ko‘plab tarixiy-madaniy yodgorliklar kabi yuksalishu ulug‘vorlik davrlarini ham, e`tiborsizlik va tahqirona tazyiqlarni ham, vayrongarchilik va tushkunlik holatlarini ham boshidan kechirgan.

Hozirgi O‘zbekistonning Qashqadaryo viloyati qadimgi sug‘d vohasining unumdor dehqonchilik hududini egallagan bo‘lib, qadimda o‘z suvlarini amudaryoga quyuvchi zarafshon va Qashqadaryo daryolari oralig‘ida, Movarounnahrning qoq markazida joylashgan. Movarounnahrning barcha tarixiy rivojlanish bosqichlari ushbu viloyat bilan chambarchas bog‘liqdir. Kitob va Shahrisabzda joylashgan qadimgi shaharlarda olib borilgan qazish ishlari davomida arxeologlar tomonidan topilgan xilma xil moddiy boyliklar va tangalar silsilasi antik so‘g‘diyonaga xos bo‘lgan boy madaniyatdan dalolat beradi. Antik davrdan keyingi ilk asrlardagi mustaqil davlatlar hisoblanmish Kitob, Zahoki Maron va Qarshi yaqinidagi Yerqo‘rg‘on shaharlari tarixiy qatlamlarda yorqin iz qoldirgan. yangi eraning V asri kelib esa antik shaharlarning tanazzulga yuz tutishi kuzatiladi. IV-VII asrlarda birin-ketin ilk feodallarning mustahkam qal’alari paydo bo‘la boshladi. (Muddintepa, Sho‘rtepa, Shullikto‘pa va boshqalar shular jumlasidandir). Arxeologik qazishmalar mobaynida IV-VII asrlarda mavjud bo‘lgan Kadjartepa, Tog‘aytepa, Ko‘xnafazli shaharchalarining qoldiqlari topildi. Shu vaqtda kesh viloyati (kitob va Shahrisabz) va naxshab (hozirgi Qarshi shahri) turk hoqonligi davlatining to‘qqiz federatsiyasi tarkibiga kirardi. Ular muxtoriyat hisoblanar hamda Samarqandda hukmronlik qiluvchi hoqonga hiroj to‘lardi.

Ko‘kgumbaz XVI asr oxirlarida Abdullaxon II (1557-1598) hukmdorligi davrida Markaziy Osiyoda katta qurilishlar avj olgan. Qarshi shahrida usha vaqtda Madrasa, hammom, xashamdor Ko‘kgumbaz namozgohi qo‘rilgan, hatto Qashqadaryo o‘stiga ko‘prik ham solingan.

Ko‘kgumbaz masjidi hayit namozlari uchun mo‘ljallaigan bo‘lib, unda xalq har yilda ikki marta «Ramazon» va «Qo‘rbon» hayitlari marosimlaridagina to‘planardi. Hayit namozi masjidlari namozgoh yoki musallo deb ham yuritilgan. Namozlar paytida ko‘plab xalq yig‘ilganligi sababli namozgohlar shahardan tashqarida, kengroq joylarga qurilgan. Odatda, guzar, jome’ va hokazo masjidlarning devori yoki binolar bilan o‘ralgan hovlisi bo‘lgan. Namozgohlar esa ochiq, keng maydonda mehrob devori

bilan qiblaga qaratilgap yagona binodan tashkil topgan. Ko‘kgumbaz jome’ masjidi ana shunday namozgohlardan bo‘lib, o‘tmishda «Namozgoh», «Juma masjidi» deb atalgan.

Qashqadaryo ko‘prigi pishiq g‘ishtdan ravoqli ko‘prik. qurish tajribasi O‘rta Osiyoda ilgaridan rasm bo‘lgan, ilk o‘rta asrlar davriga kelib u ancha takomillashtirilgan. Bizgacha etib kelgan ko‘hna ko‘priklar XVI asrning ikkinchi yarmiga taalluqli bo‘lib, ular orasida Qashqadaryo ustida qurilgan ko‘prik eng katta hisoblanadi. Daryo o‘zanini kesib o‘tgan, g‘ishtdan qurilgan ko‘prikning o‘n ikkita mustahkam pilpoyasi oyoqlari keng va past ravoqlar orqali tutashtirilgan. Ko‘prikning uzunligi - 122 metr, eni – 8,2 metr, daryo tubidan o‘rtadagi yul qoplamigacha bo‘lgan balandligi – 5,35 metr.

Surxondaryo viloyati 1941 yil 6-martda tashkil topgan. Uning maydoni 20,1 ming km^2 bo`lib, aholisi 2018 yil 1 yanvar holatiga ko`ra 2537,9 ming kishi tashkil etadi. Viloyatda jami 14 ta tuman, 8 ta shahar va 114 ta shaharcha hamda 865 ta qishloqlar mavjud. Ma’muriy markazi-Termiz shahri.

Termiz Amudaryoning o‘ng sohilida, O‘zbekistonning janubiy qismida, Afg‘oniston chegarasiga yaqin, o‘rtacha 310 m balandlikda joylashgan. Iqlimi kontinental, issiq va quruq, yozi jazirama issiq (O‘zbekistondagi eng issiq shahar – eng yuqori harorat 49,5°, 1914 yil 21 iyunda qayd etilgan), qishi iliq va qisqa. Yillik o‘rtacha harorat 16–18°. Yanvarning o‘rtacha harorat 2,8–3,6, iyulniki 28–32°. Ba’zida, qishda sovuq–20° va undan ham past bo‘ladi. Yillik yog‘in 133 mm.

Arxeologik topilmalar, arab va yunon manbalarida keltirilgan ma’lumotlar Termizning sharqdagi qadimiy shaharlardan biri ekanligidan dalolat beradi. Shaharning qulay geografik o‘rni, strategik ahamiyatga molik joyda bo‘lganligi, sharqni g‘arb, jan.ni shimol bilan bog‘lovchi savdo chorrahasida barpo etilishi, uning tez sur’atlar bilan rivojlanishiga zamin yaratgan. Buyuk ipak yo‘lining muhim bir tarmog‘i ham Termiz orqali o‘tgan.

Qadimiy sharq sivilizatsiyasining shakllanishida Termizning o‘ziga xos o‘rni bor. Ko‘xna Termizning qal’a qismida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalari va yozma manbalarning tahliliga

ko‘ra shaharga mil.av.1 ming yillikning o‘rtalarida asos solingan. Termiz Sug‘diyona, Xorazm, Marg‘iyona va Parfiya davlatlari bilan madaniy va savdo aloqalarini o‘rnatgan. Topilmalarga qaraganda shaharning Hindiston bilan madaniy va savdo aloqalari ham juda faol va uzviy bo‘lgan.

Mil.av. 4–3 asrlarda 10 ga maydonni egallagan Termizning qadimiy qal’asi o‘rnida aholi manzili bo‘lgan. Hofizi Abruyning yozishicha, shahar nomi "Taramastxa" (baqtriycha "narigi sohildagi manzil") so‘zidan olingan bo‘lib, asrlar davomida turlicha atalib kelgan (mas., Antioxiya, Demetrias, Tarmid, Tarmiz, Tami, Tamo), 10-asrdan Termiz deb atala boshlagan.

Termiz mil. av. 3–2 asrlarga kelib Baqtriyaning eng rivojlangan, siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlaridan biriga aylandi. Ashyoviy dalillarga ko‘ra bu davrlarda shaharda me’morlik va hunarmandchilikning bir qancha sohalari (kulolchilik, degrezlik va metallsozlik, shishasozlik), Salavkiylar, Yunon Baqtriya shohlari tovarpul muomalasi Movarounnahrning boshqa shaharlariga qaraganda ancha oldin rivojlanganligidan dalolat beradi.

Termiz shahrining gullab yashnagan davri Kushonlar hukmronligi davriga to‘g‘ri keladi. Bu davrda Termiz hududiy jihatdan kengayib, shim. Baqtriyaning yirik shahriga aylangan. shaharda shu davrga oid me’morlik va hunarmandchilik binolari va namunalari, turli nafis sopol va shisha idishlar, fil suyagi, qimmatbaho metall va toshlardan tayyorlangan zargarlik buyumlari kabi topilmalarning ko‘plab qayd qilinishi buning dalilidir. Masalan, Dalvarzintepadan topilgan va fil suyaklaridan yasalgan shaxmat donalari yer yuzida aniqlangan eng qadimiy. shaxmat donalari (mil.2-asr) hisoblanadi. O‘sha davrda Termiz Kushonlar davlatining muhim shahri va buddizmnint markazlaridan biri bo‘lgan.

Shaharni Termizshoxlar idora qilgan. O‘sha davrda Termiz Termizshoxlar hokimligining poytaxti bo‘lib turgan. Arablar bosib olgan davrda (686–704) Termiz 70 gektarga yaqin maydonni egallagan, to‘rtburchak shaklidagi qal’adan iborat bo‘lgan. 10-asrda yozilgan "Hudud ul olam" asarida Termiz "Jayxun bo‘yidagi kurkam va obod shahar. Qal’asi daryo bo‘yida, ulkan bozori

mashhur, Xuttalon va Chag‘oniyon ahli shu yerda savdo qiladi", deb ta’riflangan.

10–12 asr Boshlarida Termiz ravnaq topgan. Toxaristonning yirik shahri, hunarmandchilik va savdo markaziga aylangan. Termiz vaqt vaqti bilan G‘aznaviylar, Qoraxoniylar, Qoraxitoylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar davlatlari tarkibida bo‘lgan. Mo‘g‘ullar istilosidan so‘ng, 14-asrda Termiz Surxondaryo sohiliga yaqin joyda yangidan qad. ko‘tardi. shahar o‘z o‘rnini bir necha bor o‘zgartirsada, asrlar davomida o‘z nomini Tarmita, Antioxiya Tarmita, Tarmiz, Tirmiz, Termiz ko‘rinishlarida saqlab kelgan.

Amir Temur Movarounnahrni egallagach (1370), Termiz Surxondaryo vohasi bilan birga Temur davlati tarkibiga kirdi. 1407 yilda Temuriy Xalil Sulton farmoni bilan daryo sohilidagi Termiz qal’asi qayta tiklandi. Ko‘p o‘tmay o‘z tangalarini zarb etadigan katta shaharga aylandi. 1504-1505 yillarda shaharni shayboniyxon egalladi. Keyinchalik turli sulolalar tasarrufida bo‘lib, 18-asrning 2-yarmida shahar o‘zaro urushlar natijasida butunlay vayron qilingan.

O‘zbekistonni qo‘shni Afg‘oniston, Pokiston, Hindiston va boshqa davlatlar bilan bog‘lovchi yo‘l Termiz orqali o‘tishi shaharning siyosiy va iqtisodiy hayotida muhim o‘rin egallaydi. 2002 yil 2 aprelda o‘zining 2500 yillik yoshini nishonlagan Termiz shahri ko‘plab katta voqealar va larzalarni boshidan kechirgan. Butun tarixi davomida Termiz Markaziy Osiyo xalqlari madaniy taraqqiyoti va o‘zbek xalqi davlatchiligi tarixida muhim rol o‘ynagan. «Buyuk Ipak yo‘li»ning asosiy chorrahalaridan biri sifatida dunyo sivilizatsiyasi rivojiga sezilarli darajada hissa qo‘shgan qadim shahardir. Buddizm dinining va u bilan bog‘liq bo‘lgan memorchilik an’analarining Xitoy va Uzoq sharq mamlakatlariga tarqalishi ham aynan Termiz orqali yuz bergan.

Termizning geografik jihatdan qulay joylashishi, iqlimi va strategik mavqei ko‘plab davlatlar va hukmdorlarning diqqat e’tiborini o‘ziga tortar edi. Shuning uchun u eron va grek, arab va mo‘g‘ul bosqinchilarining hujumlariga duchor bo‘ldi, Movarounnahr ichki qon to;kishlarini boshidan kechirdi, mahalliy hokimlar zulmidan azob chekdi. Termiz istilochilarning olovli janglarida yonib ketar, kulga aylanar, qaddini rostlab paydo

bo‘lardi, o‘sib shon-shuhrat va qudratga ega bo‘lardi. U yana halok bo‘lardi, yonardi, kulga aylanardi va yana o‘zini tiklab ulg‘ayardi. shu sababli Termizning har safar qaytadan tiklanishi qadimgi o‘rnida yuz bermagan.

Ko‘hna Termiz yoki Kushon Termizi amudaryo bo‘yida rivoj topgan bo‘lsa, Chingizxon bosqinidan song u sharqroqda Surxondaryo bo‘yida qad ko‘tarib gullab-yashnaydi. XVIII asrning ikkinchi yarmidagi o‘zaro urushlar tufayli vayronaga aylangan Termiz XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab janubroqda Pattakesar qishlog‘i zaminida bunyod etiladi va ravnaq topadi. Ko‘hna Termiz obidalari o‘zining takrorlanmasligi bilan hamisha qadimgi davr mualliflari, ilk o‘rta asr Xitoy sayyohlari va musulmon davri tarixchilarining diqqat-markazida bo‘lib keldi.

Rivoyatlarga ko‘ra, Termizni miloddan avvalgi VII asrda Baqtriyaning birinchi podshosi Zaroastr bunyod etgan. Miloddan avvalgi VI asrda bu yerlarni bosib olgan eron ahamoniylari Termizni juda ko‘hna shahar deb ta’riflashgan. shahar Aleksandr Makedonskiy bosqiniga qadar Ahamoniylar davlatiga bo‘ysungan.

Termizning tarixiga kirgan ilk nomlaridan biri Taramasta – Taramata (baqtrcha – daryo qirg‘og‘i) bo‘lgan. MIloddan avvalgi 327 yili Aleksandr Makedonskiy Termizni zabt etib, shaharni o‘z nomi bilan Aleksandriya deb ataydi. Aleksandr Makedonskiy hukmronligi tugaganidan keyin Grek-Baqtriya davlatining asoschisi Demetriy shaharga Demetris nomini beradi. Miloddan avvalga I asrda Grek-Baqtria davlatining kushonlar tomonidan tor-mor qilinishi munosabati bilan Termiz, yozma manbalarning guvohlik berishicha, Ta-limmi shahri deb Xitoy manbalarida esa, Tu-mi (Tami) deb atala boshlaydi. Termiz asosan kushonlar davrida (mil. avv. I – mil. III asrlar) yuksak rivojlanadi. Bu davrda Termiz Hindiston bilan g‘arb, shimol, sharq mamlakatlari bilan bo‘g‘laydigan savdo yo‘llaridagi yirik shaharga aylanadi. Termizda ko‘plab budda ibodatxonalari quriladi.

V–VI asrlarda Termiz yuz bergan urushlar oqibatida goh eftaliylar hukmronligi, gohida eron sosoniylari hukmronligi ostida bo‘ldi. VII asrdab boshlab Termizni termizshohlar sulolasi boshqardi. 705 yili Termizni arab istilochilari zabt etdilar. IX–XII

asrlarda Termiz yirik feodal shahar sifatida ma’muriy, savdo, hunarmandchilik va ilm-ma’rifat markaziga aylandi. Bu davrda shaharni o‘rab turgan istehkom devorning uzunligi 10 km ni tashkil etib, 9 ta darvozasi bo‘lgan. shu davrda Termizda dunyoga mashhur bo‘lgan shoirlar, allomalar, muhaddislar, diniy va dunyoviy olimlar etishib chiqdi.

IX–XII asrlarda Termiz G‘aznaviylar, Saljuqiylar va Qoraxoniylar davlarlari tasarrufida bo‘ldi. 1206 yili Xorazmshoh Muhammad davlati ixtiyoriga o‘tdi. 1220 yili Chingizxon qo‘shinlari tomonidan 11 kunlik qamaldan song vayron qilindi. XIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab Termiz eski o‘rnida emas, sharqroqda Sulton Saodat maqbarasi tevaragida yana rivojlandi. Temuriylar davlati tarkibiga o‘tgandan keyin u gullab-yashnaydi va shahri g‘ulgula nomini oldi.

Termiz shayboniylar davlati tasarrufiga o‘tgandan keyin ham rivojlanishda davom etdi. Kohna Termiz qal’asini qayta tiklash ishlari olib borildi. Minoralar, masjidlar va xonaqohlar qurildi. XVIII asrning ikkinchi yarmida olib borilgan o‘zaro janglar, taxt talashishlar tufayli Termiz butunlay vayron bo‘ldi. Faqat Salovat va Pattakesar qishloqlarigina saqlanib qoldi. Masjidlar, minoralar va saroylar quladi. XVII asrning ikkinchi yarmida Surxondaryo bo‘yidagi Ko‘hna Termizdan janubda Pattakesar qishlog‘i paydo bo‘ldi. Qishloqning kengayib borishi hisobiga oradan bir asr o‘tgandan keyin hozirgi Termiz shahri qad ko‘tardi. Yangi Termizning vujudga kelishi Rossiya-Angliya munosabatlarining keskinlashgan davriga to‘g‘ri keldi-ki, Rossiya bu joylarda o‘z ta’sirini kuchaytirish maqsadida O‘rta Osiyoga harbiy yurishlarini boshlab yuborgan edi.

1873 yilning 28 sentyabridagi shartnoma Buxoroni Rossiyaga qaram davlatga aylantirgan bo‘lsa, 1888 yil 23 iyundagi qo‘shimcha shartnoma ruslarning Termizga kelishi va bu yerda istehkomlar qurish masalasini hal qilgan edi. 1893 yilning 15 yanvarida Termiz Buxoro amiri tomonidan Rossiya hukumatiga berilgan edi. Yangi Termizda Rossiya manfaatini himoya qilish maqsadida qurilishlar boshlandi, ko‘plab harbiy qismlar keltirildi. Tuproqqo‘rg‘on va mustahkam istehkom qurildi. Termir yo‘l qurilishi, telegraf, aloga,

elektr tarmoqlarining tortilishi Termizning rivojlanishi va Amudaryo bo‘yidagi harbiy-strategik ahamiyatga ega bo‘lgan shaharga aylanishiga olib keldi. 1917 yilgi davlat to‘ntarishidan keyingi Sovet imperiyasi davrida ham Termiz o‘zining xarbiy-strategik ahamiyatini yo‘qotmadi. Bu davrda Termizda katta-katta inshootlar qurildi. Ma’muriy binolar qad ko‘tardi. Ilm-fan rivojlandi, madaniyat va san’at ravnaq topdi.

Mustaqillik yillarida Termiz chiroyini yanada ochdi, shahar ko‘chalari boshqadan qurilib, ravon va keng ko‘chalarga aylantirildi, istirohat bog‘lari, sharqona usuldagi muhtasham va obod bozorlar, zamonaviy ma’muriy binolar, o‘yingohlar, teatr va kinoteatrlar, ilm-fan maskanlari barpo etildi, borlari ta’mirlandi. Qisqasi, shaharning qiyofasi tanib bo‘lmas darajada o‘zgardiki, bu o‘z navbatida har bir termizlik qalbida quvonch va faxrlanish hissini uyg‘otmoqda.

1999-yil noyabr oyida YUNESCO Bosh konferensiyasining Parijda bo‘lgan 30-majlisida Markaziy Osiyoning qadim shahrlaridan biri Termiz shahrining 2500 yillik yubileyini 2001 yilda xalqaro miqyosda nishonlashga qaror qilindi. Mazkur qaror munosabati bilan Ozbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1999 yilning 27 dekabrida «Termiz shahrining 2500 yillik yubileyini 2001 yilda o‘tkazish va unga tayyorgarlik ko‘rish to‘g‘risida» maxsus qaror qabul qilindi.

Sherobod tumanida "O‘rinbuloq" bulog‘i buyrakdagi toshlarni parchalash hamda "Zarabog‘" qishlog‘idagi "Koriz" suvi ham buyrakdagi toshlarni parchalash va ovqat xazm qilish xususiyatlariga ega bo‘lib, sog‘lomlashtirish va davolash xizmatlarini tashkil etish mumkin. Sherobod tumanidagi "Konpurtepa" mahallasining "Machildi" qishlog‘ida 5 ta xo‘jalik mavjud bo‘lib 25 ga yer maydonda bog‘ va qalin o‘rmonlar mavjud bo‘lib, ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. Termiz tumani “Uchqizil” suv ombori Termiz shahridan 20 km uzoqlikda, O‘zbekistonning eng issiq hududida joylashgan. Bu erda ko‘ngilochar va zamonaviy dam olish maskani barpo etilsa bahorning aprel oylaridan to sentyabr oylariga qadar mahalliy va xorijiy sayyohlar tashrif buyurishlari mumkin.

Qiziriq tumanida “Etim qum” massivida qum sahsosi mavjud bo‘lib, revmotizmni davolash uchun sog‘lomlashtirish maskani qilishga imkoniyat mavjud. Sariosiyo tumanidagi “Sangardak” ziyoratgohida ziyorat va ekoturizmni rivojlantirish uchun mexmonxona va dam olish maskanlari qurish imkoni bor. Viloyatning Boysun, Sariosiyo, Oltinsoy, Uzun va Sherobod tumanlari “Hisor”, “Bobotog‘” va “Ko‘hitang” tog‘ tizmalarida joylashganligi sababli bu erda ekoturizmni rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar mavjud. Surxondaryo – xorijiy va mahalliy turizmni keng yo‘lga qo‘yish uchun yirik salohiyatga ega hudud. Vohada 374 madaniy meros yodgorliklari va tabiiy meros ob’ekti mavjud. Ziyorat, buddizm, agro, sanoat, ekologik va sog‘lomlashtirish turizmini rivojlantirish uchun qulay imkoniyat bor. Hududning madaniy-ma’rifiy va ko‘ngilochar, gastronomik turizmi marshrutlariga ham dunyo ahlining qiziqishi yuqori. Shunga mos ravishda vohaning rang-barang turizm yo‘nalishi belgilab olingan.

Termiz tumanidagi, Al-Hakim at-Termiziy ziyoratgohi, Kokildor ota, Qirqqiz, Sulton Saodat yodgorliklari, Chorgumbaz masjidi, Boysun tumanidagi Hazrati Eshonbobo ziyoratgohi va shifobaxsh suvi, Hazrati Sulton Valiy, Jarqo‘rg‘on tumanidagi Xo‘ja Samandar Termiziy ziyoratgohlari, Oltinsoy tumanidagi Xo‘jaipok ziyoratgohi va shifobaxsh suvi, Uzun tumanidagi Oq ostona bobo maqbarasi, Sherobot tumanidagi Iso Termiziy ziyoratgohi atrofida kichik uy mehmonxonalari qurilishi orqali ziyorat turizmini yanada rivojlantirish mumkin.

12.3.6. Quyi Amudaryo turistik rayoni

Quyi Amudaryo turistik rayoni Xorazm viloyati va Qoraqalpog`iston Respublikasini birlashtiradi. Turistik rayon tarixiy, arxitektura, arxeologik, ekologik va boshqa turistik imkoniyatlari yuqori rayonlardan biridir.

Xorazm viloyati 1938 yil 15-yanvarda tashkil topgan. Uning maydoni 6,1 ming km^2 bo`lib, aholisi 2018 yil 1 yanvar holatiga ko`ra 1815,3 ming kishi tashkil etadi. Viloyatda jami 10 ta tuman, 3

ta shahar va 58 ta shaharcha hamda 559 ta qishloqlar mavjud. Darhaqiqat, respublikamizda yuqorida keltirilgan amalga oshirilgan islohotlar natijasida turizm sohasining jadal va barqaror rivojlanib borishi Xorazm viloyatida turizm sohasining alohida tarmoq sifatida keng taraqqiy qilib borishiga muhim zamin yaratdi. Bugungi kunga kelib, eng muhim ustuvor sohalardan biriga aylandi. Chunki, turizm sohasi o`z navbatida sayyohlik sohasining rivojiga bog`liq bo`lib, uning taraqqiyotini belgilovchi omil hisoblanadi. Bu borada olimlarning ta`kidlashicha, sayohat boshqa xalqlar haqida bilim beradi va masofaviy jihatdan uzoq bo`lgan davlatlarni ham bir-biriga yaqinlashtiradi. Shu bilan birga, turizm sohasi o`z navbatida mehmondorchilik sohasi bilan birgalikda jahondagi xizmatlar, yalpi ichki mahsulot va investitsiyalarning tarkibidagi o`zgarishlarni amalga oshirishga o`z hissasini qo`shmoqda. Buni bevosita Xorazm viloyati turizmi sohasining statistikasi raqamlarida yaqqol kuzatish mumkin. Jumladan, viloyatda 2016-yilda 2012-yilga nisbatan viloyatimizda sayyohlik tashkilotlari soni 36 tadan 72 taga yoki 2 barobarga oshgan. Shundan, mehmonxonalar soni 26 tadan 52 taga yoki 2 martaga ko`paygan. Ushbu raqamlar Urganch shahrida 12 ta, Xiva tumanida 34 ta, Hazorasp tumanida 4 ta va Gurlan tumanida 2 ta mehmonxonalar mavjudligini ko`rsatadi. Shuningdek, turoperator va turagentlik faoliyati bilan shug`ullanuvchi tashkilotlar soni 10 tadan 20 taga etib, 2 martaga oshgan. Ushbu ko`rsatkich Urganch shahrida 9 ta, Xiva tumanida 8 ta, Urganch tumanida 1 ta, Hazorasp tumanida 1 ta va Bog`ot tumanida 1 ta tashkilotlarga to`g`ri keladi. Shular bilan birga, 2016-yilda 10 ta mehmonxona o`z faoliyatini boshladi. Bu Urganch shahrida 4 ta va Xiva tumanida 6 taga to`g`ri keladi. Hamda 3 ta turoperatorlik faoliyati bilan shug`ullanuvchi sayyohlik tashkilotlari ish boshlab, bu Urganch shahrida 1 ta, Xiva tumanida 1 ta va Hazorasp tumanida 1 ta sayyohlik tashkilotlariga to`g`ri keladi.

Bugungi kunda chet el investitsiyasini jalb qilgan holda tashkil etilgan 5 ta mehmonxona faoliyat ko`rsatmoqda. Ular qatoriga “Xeyvak”, “Xiva malikasi”, “Xorazm malikasi”, “Arqonchi” va “Xayat INN” mehmonxonalarini kiritish mumkin. Mehmonxonalardagi o`rinlar soni 1477 tadan 2300 taga yoki 55

foizga oshdi. Viloyatda turizm sohasidagi o`zgarishlar hamda yangi ish o`rinlarining yaratilishi natijasida bugungi kunda jami sayyohlik tashkilotlarida 450 nafardan ortiq xodimlar mehnat qilib kelmoqda.

Xorazm viloyatiga 2015-yilda dunyoning 82 tadan ortiq mamlakatidan xorijiy sayyohlar kelgan. 2016-yilda esa dunyoning 84 tadan ortiq davlatidan xorijiy sayyohlar kelgan. Xorazm viloyatiga dunyoning 5 ta mamlakatidan eng ko`p sayyohlar tashrif buyurdi. Bu ko`rsatkich 2015-va 2016-yillarga to`g`ri keladi. 2016-yilda bu ko`rsatkich 75,8 mingdan ortiqni tashkil qilib, 20 foizga oshgan. 2015-yilda dunyoning 80 dan ortiq davlatidan 40,6 mingga yaqin xorijiy sayyohlar viloyatimizga tashrif buyurishgan bo`lishsa, 2016-yilda bu ko`rsatkich 46,6 mingdan ortiqni tashkil qilib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 15 foizga oshgan. 2012-yilda xorijiy va mahalliy sayyohlarga ko`rsatilgan jami xizmatlarning hajmi 5562,1 mln.so`mni tashkil qilgan bo`lsa, bu 2016-yilda 11389,9 mln.so`mni tashkil qildi va jami ko`rsatilgan xizmatlar hajmi 2012-yilga nisbatan ikki barobarga oshdi. Kelgusida bu ko`rsatkichning yanada yaxshilanishi kutilmoqda.

XVIII-XIX asrlarga oid inshootlar, ayniqsa Xiva shahrida ko‘plab qurilgan. Shaharning nomi qadimgi quduq «Xeyvaq», nomidan kelib chiqqan degan taxminlar mavjud. IV asr boshidan Xiva Xorazm davlati tarkibiga kirgan. 7l2-yili arablar tomonidan bosib olingan. l22l-yili Xiva mo‘g‘ul bosqinchilari tomonidan egallanadi. l388-yili shahar Amir Temur saltanati tarkibiga kiritiladi. l740-yili Eron hukmdori Nodirshoh tomonidan vayron etilgan. XVI asr oxiridan l920-yilgacha Xiva xonligining poytaxti bo‘lgan. l873-yili Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingan. Mashhur me’moriy yodgorliklar ichida Dishan qal’a (Tashqi shahar) hamda Ichan qal’a (Ichki shahar) alohida ahamiyatga ega. Xivaning shuhrat qozongan yodgorliklari qatoriga ko‘plab binolar kiradi. Sherg‘ozixon (l728-yil), Muhammad Amin inoq (l805-yil), Qutlimurod inoq (l809- yil), Musa to‘ra (l840- yil), Sayidboy (l842-yil) madrasalari, Pahlavon Mahmud maqbarasi (l835-yil), Solihboy masjidi (l842-yil), Ko‘xna Ark saroyi (XVII-XX asrlar), Isfandiyorxon saroyi (l9l2-yil), To‘rt Shabboz majmuasi (l885- yil), Oq masjid (l657-

yili asos solingan, XIX asrda qayta bunyod etilgan) va boshqa binolar shular jumlasidandir. Hazoraspdagi Rahmonquli inoq saroyi, Ollohqulixon tomonidan qurilgan Xivadagi Toshhovli nomi bilan ataluvchi ikki qavatli qasr (l832-l84l-yillar) binolari sernaqsh va koshinli bo‘lib, Xorazm me’morchiligining o‘ziga xos uslubini aks ettirgan. Ollohqulixon madrasasi (l832- yil), Muhammad Aminxon madrasasi ham koshinlar bilan bezatilgan. Bu madrasa yonidagi Kalta minor ham moviy tusdagi koshin bilan qoplangan. Bundan tashqari, Ollohqulixon karvonsaroyi va bozor (l835-yil) hamda Polvon darvoza (Muhammad Rahimxon davrida l806- yilda qurilgan) o‘sha davr me’morchiligining yorqin namunalaridan hisoblanadi. Xiva shahridagi bu ajoyib binolar Ko‘hna Urganch me’morchiligi xalq an’anala- rining vorislari tomonidan yaratilgani va ularning ona zaminga bo‘lgan mehru muhabbatlari, o‘tmish merosga bo‘lgan ixlosining yorqin namunasidir.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi 1992 yil 9-yanvarda tashkil topgan. Uning maydoni 166,6 ming km^2 bo`lib, aholisi 2018 yil 1 yanvar holatiga ko`ra 1853,5 ming kishi tashkil etadi. Unda jami 14 ta tuman, 12 ta shahar va 26 ta shaharcha hamda 1128 ta qishloqlar mavjud. Qoraqalpog‘istonning tarixi mamlakatimizning barcha qadimiy mintaqalarining tarixi kabi juda boy, xilma-xil va qiziqarlidir. Bu zaminni o‘ziga xos arxeologik topilmalar qo‘riqxonasi deyish mumkin. Chunki, bu yerda kishining diqqatini tortadigan, hayratlantiradigan ko‘plab arxeologik yodgorliklar mavjudki, ular o‘ta noyobligi va maftunkorligi bilan alohida ajralib turadi.

Tarixiy manbalarning dalolat berishiga ko‘ra, Qoraqalpog‘iston hududida inson jamoalari so‘nggi paleolit davridan boshlab yashay boshlagan. Miloddan avvalgi 5-mingyillikdan 2-mingyillik boshlariga qadar aholi, asosan, Amudaryo bo‘ylarida, Orol va Kaspiy dengizlari yon-atrofidagi cho‘llarda istiqomat qilgan. Miloddan avvalgi 2-mingyillikning oxirida bu hududda sug‘oriladigan dehqonchilik paydo bo‘lgan. Ko‘hna Qo‘yqirilgan qal’a, Oybo‘g‘ir va Burli qal’a xarobalarida olib borilgan qazuv ishlari jarayonida miloddan avvalgi 4-asrga

mansub yozma yodgorliklar, Qo‘yqirilgan qal’a va Oqshoxon qal’ada qadimiy tasviriy san’at va haykaltaroshlik yodgorliklari topildi. Bu obidalar qadimda ayni shu zamindan o‘tgan. Xorazmshohlarning saroyi joylashgan Tuproq-qal’a so‘ngi antik davrning eng ulkan yodgorliklaridan biri hisoblanadi.

Amudaryo va Sirdaryoning quyi qismi, Qoraqum va Qizilqum sahrolariga tutash hududlarda XX asrning 30-yillarida taniqli arxeolog olimlar Yahyo G‘ulomov va Sergey Tolstov rahbarligidagi arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi tomonidan katta ilmiy izlanishlarga asos solingan edi. Keyingi davrda arxeologlar tomonidan turli davrlarga, jumladan, tosh asri va so‘nggi o‘rta asrlarga mansub arxeologik yodgorliklar topildi va atroflicha o‘rganildi. Natijada janubiy Orolbo‘yi aholisining tarixi va madaniyatini qayta tiklash imkoni yaratildi. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi olimlarining jonbozligi tufayli arxeologik izlanishlar bugungi kunda ham qizg‘in davom ettirilmoqda.

Qoraqalpog‘istonda Qoyqirilgan qal’a mil.av. IV asr mil. IV asr. Mizdaxkan arxeologik-arxitektura kompleksi, Mil. avv. IV asr mil. XIV asr Qadim Mizdaxkan arxeologik-arxitektura kompleksi, Shilpiq mil. I-IV asrlar, mil. IX-XI asrlar. Tuproq-qal’a mil, I-IV asrlar Ayaz-qal’a, Qo‘rg‘on mil. IV-III asrlarda qurilgan. Uchta yodgorlikdan iborat (Ayaz-qal’a 1, 2, 3). Katta guldursun. Qal’a mil.av. III-IV asrlar, mil. XII-XIII asrlar Katta Guldursun-Qadim Xorazmning eng yirik chegara qal’alaridan sanaladi.

Qoraqalpog‘iston hududida 5 ta muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tashkil etiladi. Prezident qarori bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida 5 ta muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tashkil etiladi. 20 mart kuni «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi prezident qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq, O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi tasarrufida bo‘lgan Chotqol biosferasi, Zomin, Surxon, Nurota va Qizilqum davlat qo‘riqxonalari, Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervati hamda Davlat qo‘riqxonalari, milliy bog‘lar va ovchilik xo‘jaliklari boshqarmasi Davlat ekologiya qo‘mitasi tizimiga o‘tkazildi.

2019−2022 yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida quyidagi 5 ta muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tashkil etiladi. «Janubiy Ustyurt» davlat qo‘riqxonasi, Beltov, Oqpetki va Oqdaryo-Qozoqdaryo ikki daryo oralig‘i davlat buyurtma qo‘riqxonalari, Sudoche davlat buyurtma qo‘riqxonasi negizida Sudoche ko‘llar tizimi davlat buyurtma qo‘riqxonasi. Shuningdek, Davlat ekologiya qo‘mitasi markaziy apparati tuzilmasida Bioxilmaxillik va muhofaza etiladigan tabiiy hududlar bosh boshqarmasi tashkil etiladi. Qaror bilan, 2019−2022 yillarda muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimini rivojlantirish bo‘yicha «Yo‘l xaritasi» tasdiqlandi.

Nazorat savollari:

1.O‘zbekistonni turistik rayonlashtirishda qanday omillar muhim deb hisoblaysiz?
2. O‘zbekistonda 25% turist qaysi hududga sayohatga chiqadi?
3. O‘zbekistonda turistlar taqsimotida qaysi viloyatlar etakchi o‘rinda turadi?
4. O‘zbekistonning qaysi hududida geoturistik siyosat olib borish maqsadga muvofiqdir?
5. O‘zbekistonda turistik rayonlashtirishda transport omilining xususiyatlari nimalardan iborat?
6. O‘zbekiston nechta turistik rayonga bo‘linadi?
7. O‘zbekistonni turistik rayonlashtirishda qaysi omillar inbatga olingan?
8.Qoraqalpog‘istondagi tarixiy obidalar nomini sanab bering?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Агаларова Е.Г., Косинова Е.А. Особенности формирования агротуристического рынка в России // Молодой ученый. - 2012. № 11
2.Аккулов А. Стимулы для сельского туризма. «Экономического обозрение» №03, 2014.
3.Зачиняев. П.Н., Фалькович Н.С. География международного туризма. - М.: изд. Мысль, 1972

4.Lejla ŽUNIĆ. The impact of agritourism on sustainable development of Bosnia and Herzegovina//– 2012. № 44-45.
5.Крачила Н.П. География туризма. - Киев, 1987
6.Липец Ю.Г, Пуляркин В.А, Шлихтер С.Б. География мирового хозяйства- М. 1999
7.Gulmetor F. E., Allabergenor A. A. Turizm geografiyasi: Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. — T.: «Talqin», 2004
8.“Ўзбекистонда экологик туризмни ривожлантириш концепцияси”. Экология ахборотномаси. №6, 2007
9.Матёқубов У. Қишлоқ туризми унинг ижтимоий-иқтисодий аҳамияти ва ривожлантириш истиқболлари,-Урганч, 2018
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2013-2016 yillarda qishloq joylarida xizmat ko‘rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 1957-qarori. Xalq so‘zi, 2013 yil 17 aprel.
11. **http://agrotourismus-italy.html**

13-BOB.SAMARQAND VILOYATINING TABIIY VA MADANIY TURISTIK RESURSLARI

Reja:

13.1. Samarqand viloyatining geografik o‘rni va joylashuvining turizmdagi ahamiyati

13.2. Turizmda innovatsiyalarning hududiy jihatlari

13.3.Samarqand viloyatida innovatsion loyihalarni amalga oshirish muammolari

13.1. Samarqand viloyatining geografik o‘rni va joylashuvining turizmdagi ahamiyati

Samarqand viloyati 15 yanvar 1938 – yilda tashkil etilgan bo‘lib, maydoni 16,8 ming kv.km yoki respublikamiz hududining 3,7 foizini egallaydi. Hududi jihatdan O‘zbekistonning boshqa viloyatlaridan kichik bo‘lishiga qaramasdan, viloyat aholi soni bo‘yicha respublikada 1-o‘rinda turadi, bu yerda 1.01.2018-yil malumotiga ko‘ra 3719,6 ming aholi istiqomat qiladi. Bu shundan dalolat beradiki, viloyat aholisining zichligi o‘rtacha mamlakat ko‘rsatgichiga qaraganda ancha yuqoridir.

9-jadval

Samarqand viloyati qishloq tumanlarning maydoni va aholisi (2018-y)

	Qisloq tumanlari	Tashkil topgan yili	Tuman markazi	Maydoni, ming km	Aholisi ming kishi	Aholi zichligi, 1 kv km, kishi
1	Bulung‘ur	29.09.1926	Bulung‘ur sh.	0,76	178,9	235,4
2	Jomboy	07.12.1970	Jomboy sh.	0,55	163,1	296,5
3	Ishtixon	18.05.1943	Ishtixon sh.	0,72	241,9	335,9
4	Kattaqo‘rg‘on	02.02.1929	Payshanba sh	1,39	261,6	188,2
5	Narpay	29.09.1926	Oqtosh sh.	0,44	204,9	465,6
6	Nurobod	26.11.1975	Nurobod sh.	4,86	143,8	29,5
7	Oqdaryo	25.12.1968	Loyish sh.	0,37	152,7	412,7
8	Payariq	29.09.1926	Payariq sh.	1,29	238,7	185,0
9	Pastdarg‘om	29.09.1926	Juma sh.	0,87	338,8	389,4

10	Paxtachi	12.04.1973	Ziyodin sh	1,38	138,4	100,2
11	Samarqand	29.09.1926	Gulobod sh	0,48	241,1	502,2
12	Toyloq	09.04.1992	Toyloq sh	0,28	191,7	684,6
13	Urgut	31.12.1964	Urgut sh.	1,12	481,6	430,0
14	Qo‘shrobod	03.04.1978	Qo‘shrobod sh	2,16	125,4	58,0
15	Viloyat bo‘yicha	01.15.1938	Samarqand sh.	16,8	3719,6	221,4

Samarqand viloyati mamuriy jihatdan 14 ta qishloq tumanlari, 11 ta shahar va 88 ta shaharga, 125 ta qishloq fuqorolar yig‘inlari va 1829 ta qishloq aholi punktlari, 1112 ta mahalla va 430 ta shahar mahallalaridan iborat (2018-y).

10-jadval

Samarqand viloyati ma’muriy-hududiy bo‘linishi

	Qisloq tumanlari	Tashkil topgan yili	Tuman markazi	Maydoni, ming km	Aholisi ming kishi	Aholi zichligi, kv km, kishi
1	Bulung‘ur	29.09.1926	Bulung‘ur sh.	0,76	178,9	235,4
2	Jomboy	07.12.1970	Jomboy sh.	0,55	163,1	296,5
3	Ishtixon	18.05.1943	Ishtixon sh.	0,72	241,9	335,9
4	Kattaqo‘rg‘on	02.02.1929	Payshanba sh.	1,39	261,6	188,2
5	Narpay	29.09.1926	Oqtosh sh.	0,44	204,9	465,6
6	Nurobod	26.11.1975	Nurobod sh.	4,86	143,8	29,5
7	Oqdaryo	25.12.1968	Loyish sh.	0,37	152,7	412,7
8	Payariq	29.09.1926	Payariq sh.	1,29	238,7	185,0
9	Pastdarg‘om	29.09.1926	Juma sh.	0,87	338,8	389,4
10	Paxtachi	12.04.1973	Ziyodin sh.	1,38	138,4	100,2
11	Samarqand	29.09.1926	Gulobod sh.	0,48	241,1	502,2
12	Toyloq	09.04.1992	Toyloq sh.	0,28	191,7	684,6
13	Urgut	31.12.1964	Urgut sh.	1,12	481,6	430,0
14	Qo‘shrobod	03.04.1978	Qo‘shrobod sh	2,16	125,4	58,0
15	Viloyat bo‘yicha	01.15.1938	Samarqand sh.	16,8	3719,6	221,4

Jadvaldan koʻrinib turibdiki, maydoni jihatdan eng katta tuman Nurobod, qoʻshrobod boʻlib, keying oʻrinlarni Kattaqoʻrgʻon va Paxtachi tumanlari egallaydi. Aholi sonining koʻpligi jihatdan esa Urgut, Samarqand va Pastdargʻom tumanlari ajralib turadi. Viloyatda aholi zichligi 1 kv.km.da 221,4 ming kishini tashkil etadi. Bu jihatdan tumanlar orasida eng yuqori koʻrsatgich Toyloq tumanida boʻlib bu yerda zichlik 684,6 kishi, Samarqand tumanida 502,2 kishiga teng. Shuningdek, aholi zichligi Narpay, Oqdaryo tumanlarida ham yuqori hisoblanadi. Aholi zichligining eng past koʻrsatkichlari bilan Nurobod va Qoʻshrobod tumanlari ajralib turadi. Samarqand viloyati respublikamiz miqyosida alohida oʻringa ega boʻlib, bu yerda mashinasozlik, ximiya va oziq-ovqat sanoatlari,tamaki, paxta, uzum etishtirish rivojlangan, shuningdek xalqaro turizmga ham ixtisoslashgandir. Viloyatimiz Oʻzbekistonning markaziy qismida, qulay geografik va Zarafshon daryosining gidrogeografik toʻrida joylashgan. Viloyat gʻarb va shimoliy-gʻarbda Navoiy, shimoliy-sharqda Tojikistonning Sugʻd viloyati Panjakent tumani bilan chegaralanadi. Viloyat Zarafshon vodiysida, Zarafshon daryosini oʻrta qismida joylashgan, u vodiyni sugʻorishda va aholi joylashuvida hamda qadim zamonlarda aholi punktlari paydo boʻlishda asosiy roʻl oʻynaydi. Zarafshonning doiymiy suv zahiralariga ega boʻlgan irmoqlari deyarli yoʻq. Samarqanddan yuqoriroqda, Tojikiston Respublikasining Panjakent tumaniga qoʻshni joyda, Zarafshonning togʻ oraliqlaridan boshlanadi. Ulardan eng muhimi qadimgi Dargʻom hisoblanadi, aynan ana shu kanaldan eski Anhor kanali suv oladi va u Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanini ham sugʻoradi. Kattaqoʻrgʻon, Oqdaryo, Tusunsoy suv omborlari, Narpay, Bulungʻur kanallari, Beshariq arigʻi ham dehqonchilik rivoj topgan hududlarni suv bilan taminlaydi. Shu oʻrinda takidlash joizki, viloyat iqtisodiyotini shakillanishida mineral resurslarga koʻra agroiqlimiy sharoitning roʻli katta. Shuningdek, bu yerda turizm va rekreatsiya resurslari mavjud boʻlib, ularning ahamiyati ham sezilarli darajada yuqoridir. Rekreatsiya resurslari, xususan togʻ etaklarida, soy boʻylarida juda koʻp va ulardan foydalanish katta

ahamiyatga ega. Ekoturizm nuqtaiy nazardan g‘orlar, Urgut chinor va buloqlari diqqatga sazovar joylar hisoblanadi.

Samarqand viloyati o‘zining turistik salohiyati bo‘yicha nafaqat O‘zbekistonda, balki dunyoda ham mashhurdir. Viloyatdagi tarixiy, arxitektura va arxeologik obidalar, tabiiy rekreatsiya maskanlari, diniy qadamjolar hamda o‘ziga xos madaniy-etnografik an’analar mintaqa turizm xazinasi hisoblanadi.

Samarqand viloyatida turistik ob’ektlarni o‘rganish va baholash, mintaqa turizmini rivojlantirish hamda hududiy tashkil etishda quyidagi masalalarga ahamiyat berish lozimdir:

- turizmni milliy va mintaqaviy iqtisodiyotdagi o‘rni hamda uning o‘ziga xos jihatlarini asoslab berish;
- turizmni iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning o‘ziga xos yo‘nalishi sifatida o‘rganish;
- Samarqand viloyatida turizmni tashkil etish va uni rivojlantirish uchun mavjud imkoniyatlarni tahlil qilish va baholash;
- mintaqani turistik jihatdan rayonlashtirish va turistik marshrutlarni aniqlash;
- Samarqand viloyatida turizmning rivojlanish muammolarini tadqiq etish va ularni ilmiy asosda echish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni belgilash va h.k.

Samarqand viloyatida mahalliy va xalqaro turizmni rivojlantirishda sayyohlikning turli yo‘nalishlarini, jumladan, tabiiy–rekreatsiya, tarixiy, diniy va madaniy, etnografik turlarini hududiy jihatdan tahlil etish hamda soha oldida turgan muammolar va ularning echimini topish mazkur ishning asosiy himoya jihatlarini belgilaydi.

Turizmni tashkil etish va yuksaltirish mintaqada mavjud sayyohlik marshrutlarini o‘rganish va yangilarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Ammo tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Samarqand shahridan boshlanadigan eng katta turistik marshrutlar Samarqand-Urgut, Samarqand-Omonqo‘ton, Samarqand-Nurobod-Tim, Samarqand-Kattaqo‘rg‘on (Kattaqo‘rg‘on shahri va suv ombori), Samarqand-Miyonqol oroli (Oqdaryo-Ishtixon tumanlari) va boshqa turistik marshrutlarning hozirgi kunga qadar imkoniyatlari aniqlanmagan. Mazkur yo‘nalishdagi sayohatlarda turizmning turli

xillaridan (avtotransport, piyoda, otda, tuyada va h.k) foydalanish mumkin. Tog‘li mintaqa marshrutlarida qatnashish uchun esa kishi jismonan baquvvat bo‘lishi kerak. Bu o‘z navbatida keksa va o‘rta yoshdagi sayyohlarni tog‘ marshrutlaridan barhamand etishda qulayliklar yaratishni talab qiladi. Shu maqsadda maxsus yo‘laklar va osma ko‘targich elektr yo‘llari barpo etish nihoyatda zarurdir. Bunday tadbirlarni amalga oshirish mintaqa tog‘ turizmining kelajakda yuksalishiga va sayyohlik oqimining o‘sishiga olib kelishi shubhasizdir.

Viloyatga keladigan sayyohlarning sonini oshirish va jahon andozalari talabida xizmat ko‘rsatishni tashkil etish mintaqa turizmining eng muhim vazifalaridan biridir. Buning uchun sayyohlik bilan shug‘ullanuvchi o‘rta va kichik turistik firma va korxonalar faolligini oshirish, sayyohlar talabini o‘rganish kabi muammolarni hal qilish talab etiladi. Bizning fikrimizcha, mintaqa turizmini rivojlantirish uchun avvalo:

- sayyohlik firmalariga dastlabki imtiyozli sarmoyalarni maqsadli ajratish va moddiy texnik bazasini mustahkamlashga yordam berish;
- turizm sohasi bo‘yicha tadqiqot olib boradigan oliy o‘quv yurtlari bilan hamkorlikda ish olib borish;
- turli yo‘nalishda faoliyat yuritadigan malakali kadrlar masalasi va mavjud mutaxassislar malakasini xorijiy davlatlarda oshirish;
- xorijiy davlatlarda faoliyat ko‘rsatadigan kichik sayyohlik firmalar ish faoliyatini o‘rganish;
- kichik va o‘rta sayyohlik korxonalarining sayyohlik imkoniyatlari-

dan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish uchun marketing xizmatiga e’tiborni qaratish;

- hududiy turistik majmualar shakllanishini takomillashtirish va ularni tegishli infratuzilma tizimi bilan ta’minlash;
- turizm sohasi orqali aholining bandlik darajasini yaxshilash va h.k.

Bundan tashqiri, viloyat hududidagi barcha turistik ob’ektlarni kadastrlash, ya’ni tarixiy obidalar, arxitektura,

arxeologik yodgorliklar, diniy qadamjolarni, xonaqo va masjidlar turistik ob’ektlar ro‘yxatiga kiritilishi va baholanishi kerak. Shu bilan birga etnografik, tarixiy va qadimiy mahallalar, choyxonalar, milliy an’analar, urf-odatlar, hunarmandchilik va boshqalar ham inobatga olinishi lozim.

Samarqand viloyatida turizmni rivojlantirish uchun, bizningcha, quyidagi muammolar hal etilishi lozim:

- viloyatda turizm sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlarga amaliy yordam berish, xorijiy hamkorlarni topish, huquqiy maslahat va uslubiy yordam ko‘rsatish, dunyo mamlakatlarida o‘tkaziladigan sayyohlik yarmarkalarida qatnashish va ularni viloyatda tashkil etish;
- milliy an’analarni namoyon etuvchi mahalla va choyxonalar hamda qadimiy me’morchilik usullari saqlanib qolgan uylarni aniqlash va turistik marshrutlarga kiritish;
- Samarqand shahrida foytun aravalarda sayr qilishni uyushtirish hamda Afrosiyob hududida o‘rta asr an’analariga xos hovli qurish, xalq amaliy san’ati, xalq og‘zaki ijodi, milliy urf odatlar, marosimlarni sayyohlarga namoyish etishni tashkil qilish;
- viloyat hududigi turistik ob’ektlarga boruvchi yo‘llarni ta’mirlash va obodonchilik ishlarini olib borish;
- mintaqa hududidagi tog‘larning rekreatsiya imkoniyatlari hamda sayyohlik yo‘nalishlarini aniqlash, tumanlardagi tarixiy obidalar, ziyoratgohlar, dam olish maskanlarini o‘rganish, marshrutlariga kiritish;
- Samarqand viloyatidagi mavjud turistik ob’ektlarni keng tashviqot qilish, xususan ularning rivojlangan, ayniqsa musulmon davlatlarida reklamasini tashkil etish va h.k.

13.2.Turizmda innovatsiyalarning hududiy jihatlari

“Innovatsiya” atamasi lotincha “novatio” so‘zidan olingan bo‘lib, “yangilanish” (yoki “o‘zgarish”), “ deb tarjima qilinadi, agar buni yaxlit “Innovatio” ko‘rinishida tarjima qilsak – “o‘zgarishlar yo‘nalishida” deb izohlanadi. Innovation tushunchasi birinchi bo‘lib, XIX-asrning ilmiy tadqiqotlarida paydo bo‘ldi.

“Innovatsiya” tushunchasi o‘zining yangi hayotini “innovatsion kombinatsiyalar”ni tahlil qilish, iqtisodiy tizimlarning rivojlanishidagi o‘zgarishlar natijasida XX-asrning boshida avstriyalik va amerikalik iqtisodchi Y.Shumpeterning ilmiy ishlarida boshlagan. Shumpeter 1900-yillarda iqtisodda ushbu terminni ilmiy qo‘llashga kiritgan dastlabki olimlardan edi. Innovatsiyaga har qanday turdagi yangilik sifatida emas, balki mavjud tizimning samaradorligini jiddiy ravishda oshiradigan omil sifatida qarashimiz lozim. Hudud innovatsion muhitini shakllantirish uchun: maqsad, ilhom, diqqatni jalb etish, boshqa joydan farqli jihati, barcha narsalarni shubha g`alviridan o`tkazish, jarayon, etakchilik, tashabbuskorlik muhimdir.

Innovatsiya – bu bozor talabidan kelib chiqqan holda jarayonlar va mahsulotlarning sifatli o‘sish samaradorligini ta’minlash uchun joriy etilgan yangilikdir. Inson intellektual faoliyati, uning fantaziyasi, ijodiy jarayoni, kashfiyotlari, ixtirolari va ratsionalizatorligining yakuniy natijasi hisoblanadi. YAngi iste’molchilik xususiyatlari yoki ishlab chiqarish tizimlarining samaradorligini sifatli oshirish orqali bozorga mahsulot (tovarlar va xizmatlar)ni etkazib berish – innovatsiyaga misol bo‘la oladi. Binobarin, turizmda innovatsiyalarni kiritish turistlar oqimining oshirish va motivatsiyasi shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Chunonchi, turizm faoliyatida jozibadorlik (attraktivnost) innovatsiya bilan bog‘liqdir. “Jozibadorlik-innovatsiya-turizm” tushunchalari hudud turistik salohiyatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Ўzbekiston turizm sohasida ulkan imkoniyatlarga ega, xususan mamlakatda jami 7300 tadan ortiq madaniy meros ob’ektlari, shu jumladan 4300 tadan ortiq arxeologik ob’ektlar, 2000 dan ortiq arxitektura ob’ektlari mavjud. Ulardan 500 tadan ortiq turistlar tashrifi uchun sharoit tashkil qilingan hamda turizm yo‘nalishiga kiritilgan. 8 ta quriqlanadigan hudud, 3 ta milliy tabiat bog‘lari, 6 ta tabiat yodgorliklari, 11 ta davlat buyurtmaxonalari mavjud. Mavjud imkoniyatlar yanada kengroq o‘rganadigan bo‘lsak, yuqoridagi ko‘rsatkichdan ancha ko‘p turistik maskanlarni kashf qilish mumkin. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2017 yilda respublikaga

tashrif buyuradigan turistlar soni 2 mln 520 ming nafardan ortig‘ini tashkil etdi va 2016 yilga nisbatan 44,3 % oshgan. Bu o‘z navbatida Prezidentimiz SH.Mirziyoevning sohaga qaratilgan katta e’tiborning natijasidir. Mamlakatga tashrif buyuradigan turistlarning 2 mln 150 ming ortig‘i bu qo‘shni Markaziy Osiyo mamlakatlari, shu jumladan Qozog‘istondan - 1,7 mln kishi, Rossiya va boshqa MDH davlatlaridan - 150 ming kishi, uzoq uzoq xorijiy mamlakatlar - 220 ming nafar fuqarolari tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich bugungi turistik salohiyat oldida katta natija deb bo‘lmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-5326-son Farmonining 10 bandida turistik kartalar tayyorlash masalasining qo‘yilganligi geograflar oldiga katta vazifalar belgilab beradi. Shuningdek, farmon bandlarida hududlar turistik imkoniyatlarini yanada rivojlantirish masalalari ham belgilab qo‘yilgan. Demak, turizmda innovatsiyalarni kiritish uchun “hudud egasi” bo‘lgan geograflar oldiga muhim tadqiqotlar olib borishni har bir hudud, tuman, qishloq, tog‘ va daryolar, cho‘llar turistik nuqtai nazaridan tadqiq etilishi taqaozo qilmoqda. Turizmda innovatsiyalarning jadal rivojlanishi 1972 yilda “United States Luggage” kompaniyasi xodimi Bernard Devid Sadou tomonidan g‘ildirakli jomadonlar ixtirosi uchun patent olinishi bilan boshlangan.

O`zbekistonga kelgan turistik tashriflarning aksariyati Samarqandga kelishadi. Bu viloyat uchun katta imkoniyatdir. Prezidentimiz Samarqand viloyatiga tashrifi chog‘ida Samarqand bugungi kunda 5 mln turistni qabul qilishi kerakligi, bu esa minglab ish o‘rinlari demakdir, deb ta’kidlagan edi. Darhaqiqat, Samarqand viloyati o‘zining ulkan turistik salohiyati bilan jahonga mashhurdir. Ammo viloyatning tumanlaridagi turistik salohiyatidan samarali foydalanish uchun imkoniyatlar yuqori bo‘lishiga qaramasdan ulardan samarali foydalanilmayapti. Buni quyidagi jadval ma’lumotlaridan ko‘rin mumkin.

11-jadval

Samarqand viloyatidagi mavjud tarixiy obidalar* (2017 yil 1 yanvar holatiga)

№	Tuman, shaharlar nomi	Jami tarixiy obidalar soni	shundan:				
			Muzeylar soni	Me'moriy obektlar soni	Arxeologiya obe'ktlar soni	Ziyoratgoh joylar soni	Monumen-tal ob'ektlar soni
Viloyat bo'yicha		1626	11	581	975	34	36
	shaharlar:						
1	Samarqand	490	9	417	14	23	36
2	Kattaqo`rg'on	23	1	23	-	-	-
	tumanlar:						
3	Bulung'ur	25	-	6	19	-	-
4	Jomboy	45	-	6	39	-	-
5	Ishtixon	70	-	8	62	-	-
6	Kattaqo`rg'on	50	-	8	42	-	-
7	Qo`shrabot	57	-	3	54	-	-
8	Narpay	56	-	10	46	-	-
9	Nurobod	55	1	5	50	-	-
10	Oqdaryo	114	-	8	105	1	-
11	Payariq	97	-	6	91	-	-
12	Pastdarg'om	148	-	3	144	1	-
13	Paxtachi	41	-	9	32	-	-
14	Samarqand	140	-	34	102	4	-
15	Tayloq	71	-	13	58	-	-
16	Urgut	144	-	22	117	5	-

**viloyat Madaniy meros ob'ektlarini muxofaza qilish va ulardan foydalanish Davlat inspeksiyasining ma'lumotiga asosan*

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, viloyatning aksariyat tumanlarida turistik ob'ektlar mavjud. Ammo mavjud imkoniyatlardan barcha tumanlar ham foydalana olmayapti. Chunki, turizmning innovatsion imkoniyatlari hududlarda yangi ish o'rinlari yaratish, qo'shimcha daromad manbai sifatida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga turtki beradi.

Innovatsiya – foydalanish uchun kiritilgan yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan mahsulot (tovar, xizmat) yoki jarayon, sotuvlarning yangicha uslubi yoki ish amaliyotidagi, ish o'rinlarini tashkil etishdagi va tashqi aloqalarni o'rnatishdagi yangi tashkiliy uslub hisoblanadi. Shu jihatdan turmahsulot qay darajada yangi

bo‘lishi, turistik tovar va xizmatlarning hudud sharoitidan kelib chiqqan holda yaratilishi turistik innovatsiyani yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Nazarimizda biz uchun odatiy xolatga aylanib qolgan turob’ekt, ekolandshaft, obidalar, aynan boshqa hududdan kelgan turist uchun qiziqarli innovatsion turistik mahsulot hisoblanishini nazardan chetda qoldirmaslik lozimdir. Shuning uchun turistik mahsulotning naqadar jozibadorligi turistik innovatsion loyihalarni yaratish, jumladan geografik tadqiqotlar darajasida izlanishlar olib borishni taqozo etadi. Maktab o‘lkashunosligida o‘quvchi uchun o‘zini o‘rab turgan olam va atrof muhit to‘g‘risidagi tushuncha sakkiz kilometr radiusdagi voqea va hodisalarni qamrab oladi. Maktab yoshidagi o‘quvchilar uchun hudud ko‘lami naqadar yiriklashib borsa, ularning dunyoqarashi, o‘z o‘lkasini yaxshiroq bilishga bo‘lgan qiziqishi va maktab turizmini hududiy tashkil etishda ishtiroki naqadar muhimligini tushunib etadi. Vaholanki, Germaniya ta’lim tizimida maktab yoshidagi o‘quvchi maktabni tugatgunga qadar 16 ta federal yerlarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rishi geografiya fanlari dasturlarida mavjud. Binobirin, Yevropa turizmi tarixi ham maktab o‘quvchilarining Yevropa mamlakatlari bo‘ylab sayohati tarixi bilan bog‘liqdir. Shuning uchun maktab turizmini rivojlantirish dasturini ishlab chiqish muhim innovatsiyalardan biri hisoblanadi.

13.3.Samarqand viloyatida innovatsion loyihalarni amalga oshirish muammolari

Jahonda aholining dam olishi va xordiq chiqarishida tematik parklar muhim rol o‘ynaydi. Tematik parklarni tashkil qilish g‘oyasi XIX asrning ohirlarida Yevropa davlatlarida shakllandi. Shu davrda ko‘pgina Yevropa davlatlarining poytaxt shaharlarida tematik parklar tashkil etila boshlandi. Bugungi kunga kelib Yevropada minglab akvoparklardan tashqari 20 dan ortiq yirik dunyoga mashhur tematik parklar faoliyat olib, yiliga 2 mln.dan 10 mln.gacha tashriflarni amalga oshirgan. Tematik parklarga asos qilib ertaklar va afsonaviy qaxramonlar, attraksionlar, ovqatlanish ob’ektlari, magazinlar, avtoturarjoylar mavjmuasidan tashkil topgan.

O‘zbekistonda 220 taga yaqin turli park va atraksionlar shakllangan. Ularga tashriflarni nafaqat bolalar uchun, balki ommabop tashriflarni amalga oshirish uchun keng ko‘lamli tadbirlar, xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish talab etiladi.

Yevropada ommalashgan tematik parklar Germaniya, Daniya, Niderlandiyada nafaqat tematik park sifatida balki, tematik park zonalari sifatida tashkil etilgan. Ispaniyadagi Port Aventura tematik parki yozgi turistik mavsum uchun ochilgan. U 115 gektar bo‘lib, unda 30 ta attraksion va 30 ta restoran va kafe-barlar, 22 ta magazin va avtoturarjoy mavjud. Buyuk Britaniyadagi Sega Uorld, Fransiyadagi Evro Disneylend kabilar dunyoga mashhurdir. Dunyo bo‘yicha 1000 dan ortiq tematik parklar mavjud bo‘lib, shulardan 600 tasi AQSHda faoliyat olib boradi. Masalan, Florida shtatidagi Disney World va Universal Studios tematik parklari dunyoga mashhurdir. Tematik parklarni tashkil etishning asosida ko‘ngil ocharlik tomosha qilish g‘oyalari etadi. Shu sababli tematik parklarda har xil ko‘rinishdagi atraksion o‘yinlarni tashkil qilish etadi. Parkdagi boshqa yordamchi tarmoqlar ana shu ko‘ngilochar o‘yinlarni tashkil qilishga xizmat qiladi. Tematik parklarni tashkil qiluvchilarning fikriga ko‘ra tematik parklar – bu aholining oilaviy dam olishi tomosha qilishiga asoslanadi. Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra O‘zbekistonda zamonaviy tematik parklar tashkil etish vaqti kelgan. Masalan, Buxorodagi Arkda, Samarqanddagi Amir Temur bog‘lari, Xivada Jaloliddin Manguberdi tematik paklari, Surxondaryoda Avesto kabi mavzularda tematik parklarni tashkil etish imkoniyatlari yuqoridir. Hozirgi zamon tematik parklari nafaqat har xil ko‘rinishdagi o‘yinlardan iborat bo‘libgina qolmasdan balki tarixiy manbaalarni ham o‘zida mujassamlashtirmog‘i lozim. Shu munosabat bilan tematik parklar har xil mavzularga asoslanib tashkil qilinishi, yani tarixiy, madaniy yodgorliklar turli xil tabiiy geografik ob’ektlar, sport yo‘nalishlari bo‘yicha tashkil etilishi mumkin. Shu munosabat bilan hozirgi zamonda tashkil qilinayotgan ayrim parklar faqat bir yo‘nalishda bo‘lmasdan balki bir necha mavzularni o‘zida qamrab olishi mumkin. Shuning uchun biz

Samarqand viloyati bo‘yicha quyidagi tematik parklarni tashkil etish mumkin deb hisoblaymiz:

- Afrosiyob tematik parki (Afrosiyob harobalari va uning atrofida)

-Amir Temur bog‘lari tematik parki (Samarqand tumanida)

- Zarafshon milliy bog‘i tematik parki (Jomboy tumanida)

-Urgut tematik parki (Urgut shahri va uning atrofida)

-Omonqo‘ton tematik parki (Omonqo‘ton massivida)

-Ohalik tematik parki (Ohalik massivida)

-Nurobod tematik parki (Jom qishlog‘ida)

-Kattaqo‘rg‘on tematik parki (Kattaqo‘rg‘on suv ombori hududida)

-Ergash Jumanbulbul tematik parki (Qo‘shrabot tumanida)

-Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li tematik parki (Bulung‘ur tumanida)

Buning uchun ushbu xududlarda mavzuli parklarni tashkil qilish imkoniyatlarini geografik jihatdan har tomonlama o‘rganish kerak. Bundan tashqari, viloyatda mavzuli parklarni tashkil qilish sohasi bo‘yicha xorijiy tajriba va malakali kadrlar malakasini oshirish va loyihalar ishlab chiqishga e’tibor qaratish muxim ahamiyat kasb etadi.

Nazorat savollari:

1.Samarqand viloyati maydoni va aholisi jihatidan tutgan o‘rnini aniqlang?

2.Samarqand viloyati necha tuman mavjud?

3.Samarqand viloyatida eng ommabop turistik marshrutlarni bilasizmi?

4.Chor-Chinor ziyoratgohi qaysi tumanda joylashgan?

5.SHumpeter qaysi terminni birinchi bo‘lib ishlatgan?

6.G‘ildirakli jamodon ixtirochisi kim?

7.Samarqand viloyatida qancha tarixiy obidalar mavjudligini bilasizmi?

8.Samarqand viloyatida qanday tematik parklar tashkil etish mumkin?

Foydalangan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-5326-son Farmoni.-Toshkent shahri, 2018 yil 7 fevral
2.Abduhakimov A. O`zbekistonda turizmni rivojlantirish istiqbollari va uni mamlakat iqtisodiyotiga ahamiyati.-Uzbekistan Today.-2018
4.Абдухакимов А. Что такое тематические парки, зачем они нужны Узбекистану и при чем тут бизнес.-Т.,2018
3.A’zamov S. Turizmda innovatsiyalar: soha taraqqiyoti va kadrlar masalasi-Toshkent, 2017
5.Артёмова Е.Н., Козлова В.А. Основы гостеприимства и туризма. Учебное пособие. - Орёл: Орёл ГТУ, 2005. - 104 с.
6.Сенин В. С. Организация международного туризма: Учебник. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Финансы и статистика, 2003.
7.Руденко Л.Л. Международный туризм: правовые акты. - М.: Финансы и статистика, 2002.
8.Soliev A.S., Usmonov M.R. Turizm geografiyasi.-Samarqand, 2005
9.Samarqand viloyat Madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan
foydalanish Davlat inspeksiyasining ma’lumotlari, 2017
10.www. samstat.uz

Xulosa

Bugungi kunda turizm sohasi jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanib borayotgan tarmoq sifatida mamlakatlar yalpi milliy va mintaqaviy daromad ko‘rsatkichlari ichida oldingi o‘rinlarga chiqib bormoqda. Butunjahon turistik tashkiloti ma’lumotiga ko‘ra 2017 yilda jahon YAIM 9%, xalqaro eksportning 6%, har 11 ish o‘rinning 1 tasi bevosita turizm bilan band etganligi, turizm sohasidan keladigan daromad 1,4 trln AQSH dollariga etganligi, xalqaro turizmda 1087 mln kishi ishtirok etishi (1950 yilda bu raqam 25 mln kishini tashkil etgan, 2030 yilda esa 1,8 mlrd kishini etishi xalqaro ekspertlar tomonidan prognoz qilingan) bu sohaning istiqboli porloq ekanligidan dalolat beradi. Jumladan, mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillarida YAIMdagi turizmning ulushi 0,2 % atrfida bo‘lgan bo‘lsa qisqa vaqt mobaynida bu ko‘rsatkich 3% atrofiga etganligi sohaning taraqqiy etib borayotganligidan dalolat beradi. Shuning uchun mamlakatimizda turizm geografiyasini o‘rganish, talabalarga o‘qitish zarur deb hisoblaymiz.

Mazkur qo‘llanma yakunida shuni xulosa qilish joizki, «Turizm geografiyasi» fani umumkasbiy fanlar blokidagi asosiy fanlardan biri sifatida o‘rganish katta ahamiyat kasb etadi. Chunki, sotsial geografiya fanlar tizimida bu fanning o‘rni va ahamiyati katta bo‘lib, hududlar xo‘jalik ixtisoslashuvida turizm sohasining roli ortib borishi bu fanni o‘rganishga zarurat tug‘diradi.

Ushbu o‘quv qo‘llanmada avvalo turizm geografiyasining nazariy masalalari, jumladan, turizm tushunchasi, o‘rganish ob’ekti va predmeti, maqsad, vazifalari hamda boshqa fanlar bilan aloqadorligi, turizmning geografik jihatlarini tadqiq etgan olimlar mulohazalari, turizm klassifikatsiyasi geografik tahlil etilgan. Shuningdek, kitobning 1-qismida turistik marshrutlar ishlab chiqishda geografik omillarning roli, turizm turlari, turistik destinatsiya tushunchasi va uning geografik xususiyatlari, turizmni hududiy tashkil etishga ta’sir etuvchi omillar bayon etilgan. Bundan tashqari mazkur qism boblarida xalqaro turizm tarixi va rivojlanish bosqichlari, bugungi kundagi xalqaro turizm statstikasi va dinamikasi hamda xalqaro tendensiyalar tahlil qilingan.

«Turizm geografiyasi» o‘quv qo‘llanmasining 2-qismi Turizmning regional xususiyatlari bevosita Butunjahon turistik tashkilotining regional klassifikatsiyasi bo‘yicha 6 ta regionga umumiy geografik tavsif berish orqali yoritilgan. Bu masalada Ruminiyaning «Alexsandru Cuza» nomidagi universitet kutubxonasida turizm geografiyasiga bag‘ishlangan o‘quv qo‘llanmalar, darsliklar, ilmiy adabiyotlar tahlili asosida geografik rayonlashtirish tamoyillariga tayangan holda, qolaversa hududlar turistik salohiyatidan kelib chiqqan holda turistik rayonlashtirish asos qilib olindi.

O‘quv qo‘llanmaning 3 qismi esa bevosita tizim-tarkib tamoyiliga asosan O‘zbekiston turizm imkoniyatlari, hududlar turistik salohiyati, turistik rayonlashtirish masalalari ko‘rib chiqilgan. Qo‘llanma yakuniy bobida 1 ta turistik rayon misolidagi ma’muriy hududiy birlik sifatida Samarqand viloyati turizm geografiyasi o‘rganishga xarakat qilingan.

O‘ylaymizki, Turizm geografiyasi» o‘quv qo‘llanmasi O‘zbekistondagi barcha oliy o‘quv yurtlaridagi geografiya yo‘nalishidagi talabalar va shu sohada ilmiy izlanishlar olib borayotgan mutaxassislar uchun muhim manbaa sifatida xizmat qiladi. Binobarin, o‘quv qo‘llanmani yozishga ilxomlantirgan hamkasblarga minnatdorchilik bildirgan olda taklif va mulohazalarini kutib qolamiz.

GLOSSARIY

AKTIV TURIZM- sarguzashtli turizm (adventure tour), ekzotik joylarga, vulqonlarga, orollarga, sharsharalarga va shu kabi joylarga borishga aytiladi

AYLANA MARSHRUT – o‘z nomi bilan tanlangan joydan yoki destinatsiyadan turli ob’ektlarda aylana xarakati tushuniladi

BUTUNJAHON TURISTIK TASHKILOTI (BTT) (World Tourism Organization, WTO UNWTO) - Birlashgan millatlar tashkiloti tizimidagi nufuzli organ bo‘lib, unga 1975 yilda asos solingan. Tashkilotning tarkibi va ustavi 1975 yil 27 sentyabrda qabul qilingan.

BOTEL- mos ravishdagi jihozlangan kichik kema sifatida foydalanuvchi suvdagi uncha katta bo‘lmagan mehmonxona.

“DESTINATSIYA” - ingliz tilidan tarjimasi – “Destination” – “joy, belgilangan joy, makon” ma’nosini anglatadi

DINIY TURIZM- diniy maqsadda uyushtiriladigan turistik industriya bo`lib, (musulmon dunyosi uchun haj safari Makka va Madina ziyorati va Umra ziyorati) hozirgi vaqtda juda yuqori talabga ega bo‘lgan turizm turidir.

ICHKI TURIZM - Agar turist o‘z yashab turgan mamlakat hududdan chiqmasdan sayohat qilsa, turizmning bunday shakliga ichki turizm deb ataladi.

IJTIMOIY TURIZM – bu davlat tomonidan ijtimoiy ehtiyojlarga ajratiladigan mablag‘lar hisobidan sayohat qilish hisoblanadi. Ijtimoiy turizmning maqsadi foyda olish emas, balki daromadi kam bo‘lgan kishilarni dam olishga bo‘lgan huquqini amalga oshirish uchun ularni qo‘llab quvvatlash hisoblanadi.

ILMIY TURIZM - O‘qish, ta’lim olish maqsadida, malaka oshirish maqsadida safar qilish xalqaro turizmning nisbatan yangi turlari safiga kiradi.

INDIVIDUAL TUR - Turistlarga ko‘proq erkinlik va mustaqil harakatlanish imkonini beradi. Guruhli turlarga nisbatan qimmatroq, chunki individual turlar tarkibiga kiruvchi ichki marshrutdagi transport, gid xizmatlari va ba’zi boshqa xizmatlar uchun to‘lov to‘lig‘icha turist zimmasiga tushadi.

INKLYUZIV TUR (IT) - Bu oldindan rejalashtirilgan va dam olishning yoki turizmning ma’lum turi, hamda turistlarning ma’lum ijtimoiy guruhiga va uning yoniga yo‘naltirilgan qat’iy xizmatlar to‘plamidir.

«KURORT»- nemis tilidan olingan bo‘lib, u «davolanadigan joy» ma’nosini anglatadi.

KELISH TURIZMI- biror mamlakatga turistlarning kelishi.

KETISH TURIZMI- biror mamlakatdan turistlarning ketishi.

KIRUVCHI TURIZM- faoliyati to‘lanmaydigan turistlik maqsadlarda doimiy yashamaydigan shaxslarni o‘zga mamlakat hududiga tashrifi, sayohati.

KO‘NGILOCHAR TURLAR–turizm dasturlarida ma’lum ma’noda turistlar uchun qo‘shimcha xizmat ko‘rsatishga yo‘naltirilgan. «Turistning yaxshi ko‘ngil ochishi» uchun xizmatlarning barcha qirralarini ochishda yordam beradi. Bu faol o‘yinlar (golf, kriket, kegli), otlarda sayr qilmoq, attraksionlarga borish (tematik bog‘lar, masalan, Disneylend, Delfi kari, zooparklar), restoranlar, dangsinglar, disko klublar, magazinlar, kazino va boshqalar shular jumlasiga kiradi.

MOTEL-Shahar tashqarisida, shahar bo‘yida, magistral yo‘l yoqalarida joylashgan oddiy bir yoki ikki qavatli binolar. Bu kichik yoki o‘rta korxonalardir (400 o‘ringacha). Kam sonli xodimlarni o‘rta darajali xizmat ko‘rsatishi harakterlidir. Mijozlari bo‘lib havaskor avtoturizmiga urg‘u berilgan turli kategoriyadagi turistlar hisoblanadi.

OTEL-GARNI- Mijozlarga cheklangan miqdordagi xizmatlarni: joylashuv va kontinental nonushtani taqdim etuvchi korxonalar.

OTEL-LYUKS- O‘z sig‘imi bo‘yicha mehmonxonani mazkur tipi kichik yoki o‘rta korxonalar safiga kiradi. Odatda shahar markazida joylashadi. YAxshigina ta’lim olgan personal-xodim konferensiya, xizmat uchrashuvlari ishtirokchilari biznesmenlar bo‘lib hisoblangan talabchan mijozlarga servisni juda yuqori darajasini ta’minlaydi. Barcha mumkin bo‘lgan xizmat turlarini o‘z ichiga oluvchi nomerlarni narxlari ancha qimmat turadi.

REKREATSIYA TURIZMI-turistlarning o‘z yurti yoki biror bir mamlakatga dam olishi uchun borishidir Davlolanish turizmi. Ushbu

tardagi turizm shaxsiy xarakterga ega bo‘lib, ko‘p hollarda turistlar o‘z sog‘lig‘ini tiklash, yani davolanish uchun bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga boradilar.

RADIAL MARSHRUT- bu shunday marshrut tipii hisoblanadiki, turistning xarakatlanishi davomida turistik resursda bo‘lishi va qaytishi va boshqa yo‘l orqali ikkinchi, uchinchi va hakozo ob’ektlarga birinchi chiqqan joyiga qaytib yana qayta yangi yo‘lga chiqishiga imkon beruvchi marshrut tipi hisoblanadi.

ROTEL- Tunash uchun mo‘ljallangan kreslolar joylashtirilgan bir yoki ikki o‘rinli vagonlardan tashkil topuvchi harakatlanadigan mehmonxonadir. Xojatxona, oshxona, muzlatgich va keyinish uchun mo‘ljallangan xonalar mavjud.

SPORT TURIZMI -Turizmning ushbu turi sportchilarning turli musobaqalarda qatnashishi, ma’lum sport turi bo‘yicha tayyorgarlik ko‘rish uchun joy mamlakatlarga borishidir.

TURISTIK MARSHRUT - bu geografik ob’ektlarga turli maqsadlarda, yo‘nalishlarda xarakatlanadigan sayohatdir.

TURIST- bu o‘zi yashaydigan joydan boshqa joyga, hududga, mamlakatga, mamlakatidan tashqariga bo‘sh vaqtlarida dam olish, sog‘lig‘ini tiklash, sog‘lomlashtirish, mehmonga borish, diniy va ish yuzasidan haq to‘lanadigan maqsadlaridagi tashrifidir

TURIZM- «aholining o‘zi yashab turgan mintaqa, hudud, o‘lka yoki biror mamlakatning diqqatga sazovor joylarini ko‘rish maqsadida uyushtirilgan rekreatsion faoliyat turiga aytiladi.

TURIZM GEOGRAFIYASI (TG) - iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning bir bo‘lagi bo‘lib, u turli mamlakat va mintaqalarda sayyohlikning shakllanishi, rivojlanish va xududiy tashkil etish xususiyatlari hamda qonuniyatlarini o‘rganadigan fandir.

TADBIRKORLIK TURIZMI - Turizmning ushbu turida turistlar tadbirkorlik maqsadi yuzasidan biron hududdan yoki bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga borishidir. Ish yuzasidan amalga oshiriladigan turistlarga davlat yoki biror bir tashkilot tomonidan safar xarajatlari to‘lanadi.

TO‘G‘RI (LINEYNЫY) MARSHRUT – bu tip marshruti to‘g‘ri xarakatlanish bo‘lib, marshrut davomida geografik ob’ektlarda turli turistik resurslar bilan tanishishidir

TURISTIK DESTINATSIYA - turizm geografiyasining muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri sifatida regionlar va mamlakatlardagi ma’lum bir jozibador manbaaga ega bo‘lgan hududlarni o‘rganadi

TANISHUV TURIZM - Turizmni bu turi o‘z ichiga tanishuv (bilish, ko‘rish va eshitish) maqsadlari bilan bog‘liq tashrif va sayohatlarni o‘z ichiga oladi.

TUR - muayyan yo‘nalish bo‘yicha turistik xizmatlar majmui (joy bandlash, joylashtirish, ovqatlantirish, transport, rekreatsiya, ekskursiya xizmatlari va boshqa xizmatlar) bilan ta’minlangan aniq muddatlardagi turistik sayohat.

TURIST – Biron bir hudud yoki boshqa mamlakatga sayohat qiluvchi (doimiy istiqomat joyidan turizm maqsadida jo‘nab ketgan) shaxs.

TURIZM - jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog‘lomlashtirish, ma’rifiy, kasbiy - amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to‘lanadigan faoliyat bilan shug‘ullanmagan holda uzog‘i bilan bir yil maddatga jo‘nab ketishi.

TURISTIK FAOLIYAT - sayohat va ular bilan bog‘liq xizmatlarni tashkil etish borasidagi faoliyat.

TURISTIK RESURSLAR - tegishli hududning tabiiy - iqlim, sog‘lomlashtirish, tarixiy - madaniy, ma’rifiy va ijtimoiy - maishiy ob’ektlari majmui.

TURISTIK INDUSTRIYA - turistik faoliyatning turistlarga xizmat ko‘rsatishni ta’minlovchi turli sub’ektlari (mehmonxonalar, turistik komplekslar, kempinglar, motellar, pansionatlar, umumiy ovqatlanish, transport korxonalari, madaniyat, sport muassasalari va boshqalar) majmui.

TURIZM INFRATUZILMASI - inshootlar majmui, yo‘llar, muhandislik va kommunikasiya tarmoqlari, sug‘urta, bank va boshqa tarmoqlar.

TURISTIK (TUR) MAHSULOT - turizm jarayonida amalga oshiriladigan xizmatlar va harajatlar yig‘indisi.

TURISTLIK TALAB -to‘lash imkoniyatiga ega bo‘lgan aholining turmahsulotga bo‘lgan talabi tushiniladi. Turistlik talab amaldagi

narx-navolarda aholi tomonidan aniq bir turistlik-ekskursiya xizmatlarini sotib olishi bilan belgilanadi

TURIZMDA TAKLIF-bozordagi talabga muvofiq vujudga keladi, ya'ni turist uchun uning dam olishi va sayohati jarayonida lozim bo‘lgan turli xildagi xizmatlar shular jumlasiga kiradi. Takliflar-bu mahsulot ishlab chiqaruvchining bozorga talab qilinadigan aniq mahsulotni etkazib berish uchun ideal tayyorgarlik va aniq imkoniyatga ega bo‘lishi tushuniladi.

SARGUZASHTLI TURIZM – o‘ziga xos tarzda dam olishni bir turi bo‘lib, turistlarni nafaqatgina ular uchun jalb qiluvchi joylar bilan ta'minlash, balki g‘alati, g‘ayritabiiy faoliyat turi bilan shug‘ullanishga jalb qiladi.

SAFARI - qo‘riqxonaga hayvonlarni tomosha qilish uchun sayr, ovchilik, baliq ovi maqsadidagi sayohat, fotoovchilik, Keniya yoki JAR qo‘riqxonalariga sayr, tabiatda ajoyib hayvonlarni erkin holda ko‘rish maqsadidagi sayrlar.

SOG‘LOMLASHTIRUVCHI TURIZMI o‘ta shaxsiy individual harakter kasb etadi. Lekin ko‘pgina holatlarda, kira haqiga chegirmalar olish maqsadida hamkorlik uchun turistlar birlashadilar. Turizmni boshqa turlariga nisbatan davolanish uchun turlar odatdagi muddatlardan ko‘proq bo‘lib 24-28 kunni tashkil etadi.

QO‘MSASH TURIZMI- Turizmni mazkur turi qarindoshlarinikiga, tug‘ilgan joylarga va yaqinlarinikiga tashrif qilish ehtiyojiga asoslangan va xalqaro turistlik almashuvda muhim o‘rinni egallaydi.

FLAYTEL- Agromehmonxona yoki «uchuvchi otel». Favqulodda qimmat va mehmonxonani kamyob turi hisoblanadi. Qo‘nish maydonchasi va meteorologik xizmat aloqalari bilan jihozlangan.

FLOTEL- Ko‘p hollarda «suvdagi kurort» deb nomlanuvchi katta mehmonxona. Turistlarga keng turdagi xizmatlarni taqdim etuvchi shinam nomerlar: basseyn, suv chang‘ilari, baliq ovlash uchun sharoit yaratadigan, suv ostida suzish, suv osti ovi, trenajer zallari, konferensiya va kongresslar uchun zallar, kutubxona, turli-tuman ta'minotlar (telefon, telefaks, teletayn, televizor, va x.k).

XALQARO TURIZM- Turistlarning bir mamlakatdan baoshqa mamlakatga tomosha qilishga, ko‘rishga, dam olishga, davolanishga

borishidir. Xorijiy mamlakatlarga pul ishlab kelish uchun borish turizmga kirmaydi. Agar turist bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga kamida 24 soat tursa, bunday kishilar turist hisoblanadi.

CHIQUVCHI TURIZM – bir mamlakat hududida doimiy yashovchi shaxsni boshqa mamlakatga faoliyati to‘lanmaydigan sayohati, tashrifi.

EKSKURSIYA FAOLIYATI - turistik faoliyatning tarixiy yodgorliklar, diqqatga sazovor joylar va boshqa ob’ektlar bilan tanishtirish maqsadida oldindan tuzilgan yo‘nalishlar bo‘yicha ekskursiya etakchisi hamroxligidagi 24 soatdan oshmaydigan ekskursiyalarni tashkil etishga doir qismi.

EKOTURIZM- atrof muhitni saqlashda iqtisodiy raxbatlantirish uchun sharoit yaratadi. «Ekoturizm» tushunchasi sayohatlarni juda keng qirralarini qamrab oladi, ya’ni, o‘quvchilar uchun uncha katta bo‘lmagan tanishuv turlaridan tortib, to milliy parklar va qo‘riqxonalarlarga uzluksiz turistlik sayohatlarni qamrab oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Tashkiliy - huquqiy adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida” gi Qonuni. T.: 1999

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi”ning tashkil etish to‘g‘risidagi 2016 yil 2 dekabrdagi PQ-2666-sonli qarori

3.Mirziyov SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11

4. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 29 b.

5.Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 47 b.

6.Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 485 b.

7.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-4947-sonli Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda

O`quv adabiyotlar

1.Абдужабборов. М.А. Карст гор Южного Узбекистана. - Т.: 1990.

2.Александров А.Ю. “Международный туризм” Учебник. М. Аспект пресс 2002.

3.Александрова А.Ю. География туризма.-Москва,2010

4.Althof W. Incoming-Tourismus. Muenchen; Wien; Oldenbourg, 1996.

5.Биржаков М.Б. Введение в туризм.- Москва.2003

6.Бродский А.А. Охраны природы в Туркистане.-Тошкент,1993

7.Gulmetor F. E., Allabergenor A. A. Turizm geografiyasi: Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. — T.: «Talqin», 2004
8.Глушко А. А., Сазыкин А. М. География туризма Издательство Дальневосточного университета. Владивосток-2002.
9.География туризма: учебное пособие / Н. Н. Дыжина. – Москва, 2010
10.География туризма: Учебное пособие / П.В. Большаник. - М.: Альфа-М, НИЦ ИНФРА-М, 2016.
11.География туризма [Текст] : учебник / А. Ф. Арбузов ; Департамент образования г. Москвы. - Москва : Академия : Московские учебники, 2011.
12.География туризма : учебник / В.Л. Погодина, И.Г. Филиппова ; под ред. Е.И. Богданова. — М. : ИНФРА-М, 2018.
13.Дмитревский Ю.Д. Туристские районы мира. Учебное пособие.-Смоленск: СГУ, 2000
14.Ердавлетов С.Р География туризма: история, теория, методы, практика - Алматы. 2000
15.Зачиняев. П.Н., Фалькович Н.С. География международного туризма. - М.: Мысль, 1972.
16.Здоров А.Б. Экономика туризма.- Москва. «Финансы и статистика» 2004.
17.Зокиров С.С., Болтаев М.Ж. “Краеведение и экономика туризма” -Т. 2001.
18.Ибадуллаев Н.Э. Ўзбекистоннинг туристик ресурслари. Маърузалар курси. – Самарқанд, СамИСИ, 2008.
19.Ибрагимов Н.С. Ўзбекистонда халқаро туризмни ривожлантиришда дестинацион менежмент концепциясини қўллаш: иқтисод фанлари номзоди дис. – С.: СамИСИ, 2008.
20.Иномов И Ўзбекистоннинг янги шаҳарлари Т-1991
21.Комилава Ф.К Халқаро туризм бозори. Ўқув қўлланма Т-2011
22.Кружалин В.И. География туризма : учебник.- М. : Федеральное агентство по туризму, 2014.
23.Маматкулов Х.М. Халқаро туризм.-Самарканд, 2012

24.Маматқулов Х.М. Хизмат кўрсатиш соҳасига оид атамалар ва иборалар изоҳли луғати. –Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2010.
25.Мардонов Б.Б Хизмат кўрсатиш соҳаси ва аҳоли бандлиги. Монография Т-2013
26.Квартальнов В.А. и др. – М.: “Финансы и статистика”, 2003.
27.Мирзаев М.А., Алиева М.Т. Туризм асослари ўқув қўлланма Т-2011
28.Мироненко Н.С., Тведохлебов И.Т. “Рекреационная география” -М. МГУ 1981.
29.Морозов М.А. Экономика и предпринимательство в социально-культурном сервисе и туризме. Учебник. 2-е изд., испр. доп. – М.: ИЦ «Академия», 2005.
30.Муҳаммедов М.М ва бошқалар Хизмат кўрсатиш соҳаси ва туризмни ривожлантиришнинг назарий асослари. Монография Самарқанд -2017
31.Нигманов Э Иқтисодий география (жадвалларда).Ўқув қўлланма.-Т., 2016
32.Окладникова Е.А. Международный туризм. География туристских ресурсов мира: Учебное пособие –М., СПб.: ИФК Омега –Л; 2002.
33.Рахимов З. Туризм дестинацияларида стратегик режалаштиришнинг ташкилий механизмини такомиллаштириш (Самарқанд шаҳри мисолида): иқтисод фанлари номзоди дис. – С.: СамИСИ, 2012
34.Report of union world tourism organization.2014, 2015, 2018, 2019
35.Рўзиев А., Амирқулов К. “Ўзбекистон иқтисодий географияси” -Т. Шарқ 2001.
36.Сафаров Б.Ш Туристик хизматлар бозори. Ўқув услубий қўлланма Самарқанд-2014
37.Соколова М.В. История туризма: Учеб. Пособие –М.: Мастерство, 2002
38.Солиев А Иқтисодий география. Танланган асарлар Т-2013
39.Солиев А.С Ўзбекистон географияси. Дарслик. Т-2014
40.Солиев А.С., Усмонов М. Туризм географияси.-Самарқанд,

2005
41.Туристское страноведение : учеб. пособие / П.В. Большаник. — М. : ИНФРА-М, 2017. — 241
42.Тухлиев И ва бошқалар Туризм: назария ва амалиёт. Дарслик Т-2010
43.Тухлиев И.С., Пардаев М.Қ. Туризм бозорининг шаклланиши, ривожланиши ва ўзига хос хусусиятлари. – Т.: “NOSHIRLIK YOG’DUSI”, 2010
44.Тўхлиев Н Ўзбекистон иқтисодиёти асослари. Ўқув қўлланма Т-2006
45.Тухлиев Н. “Ўзбекистон Республикаси иқтисодиёти” -Т. 1998
46.Усмонов М.Р.,Жумабоев Т.Ж.,Шерхолов О. Туризм географияси 1-2 қисм.-Самарқанд, 2013
47.Хайитбоев Р., Матякубов У. Экологик туризм. -Самарканд,2010.
48.Хошимов М. Ўзбекистоннинг экологик туризми.-Самарқанд, 2012
49.Ҳусанбоев Б.М., Тўлаганов Л.А., Разина В.Г. “Дорогами Великого Шелкового пути” -Т. Шарк 1996.
50.Sharipov Sh. M., Fedorko V. N., Safarova N. I., Rafiqov V. A.. Geografiya.-Toshkent,2016
51.Шарафиддинова Д.,Экологик туризмни ривожлантиришда халкаро технологияларнинг мохияти ва тавсифи //Республика илмий анжумани материаллари.- Самарқанд, 2014.
52.Яковлев.Г.А Экономика и статистика туризма. –Москва, 2005
53.UNWTO Tourism Highlights 2019 edition
www.lex.uz
www.stat.uz
www.tour.uz
www.UNWTO/report/2018

ILOVALAR

1-ilova

Amerika turistik regioni mamlakatlarining halqaro turistik tashriflari va daromadlari ko‘rsatkichi

Amerika regioni mamlakatlari	Xalqaro turistik tashriflar						Xalqaro turizmdan kelgan daromad			
	1000 kishi hisobida			% hisobida			mln.AQSH dollari hisobida			% hisobida
	2010	2017	2018	17\16	18\17	2018	2010	2017	2018	2018
Amerika	**150,432**	**210,810**	**216,684**	**4,7**	**2,3**	**100**	**215,538**	**325,848**	**333,594**	**100**
Shimoliy Amerika	99,520	137,115	142,189	4,7	2,3	100	164,832	252,409	258,913	77,6
Kanada	16,219	20,883	21,134	4,6	1,2	9,8	15,830	20,325	21,936	6,6
Meksika	23,290	39,291	41,447	12,0	5,5	19,2	11,992	21,336	22,510	6,7
AQSH	60,010	76,947	79,615	0,7	3,5	36,9	137,010	210,747	214,468	64,3
Karib havzasi	19,521	26,046	25,678	3,0	-1,4	11,9	23,254	31,802	31,975	9,6
Angiliya	62	68	55	-13,9	-20,1	0,0	99	131	-	-
Antigua va Barbuda	230	247	269	-6,7	8,1	0,1	298	557	-	-
Arubi	825	1,071	-	-2,9	-	-	1,251	1,855	2,024	0,6
Bagam orollari	1,370	1,439	1,627	-4,0	13,1	0,8	2,168	2,996	3,355	1,0
Barbados	532	664	680	5,0	2,5	0,3	1,038	1,081	1,125	0,3
Bermud	232	270	282	10,3	4,6	0,1	442	508	-	-
Virgin orollari	330	335	192	-17,9	-42,5	0,1	389	-	-	-
Kayman orollari	288	418	463	8,5	10,7	0,2	465	-	-	-
Kuba	2,507	4,594	4,684	15,6	2,0	2,2	2,187	3,186	2,903	0,9
Kurakao	342	399	432	-9,6	8,2	0,2	385	551	493	0,1
Dominika	77	71	63	-9,0	-11,9	0,0	94	121	-	-
Dominikan Rep	4,125	6,188	6,569	3,8	6,2	3,0	4,162	7,184	7,561	2,3
Grenada	110	146	161	8,2	10,0	0,1	105	144	-	-
Guadelupe	392	650	-	12,1	-	-	510	-	-	-
Gaiti	255	467	-	5,0	-	-	383	459	-	-

Yamayka	1,922	2,353	2,473	708	5,1	1,1	2,001	2,809	3,099	0,9
Martiniki	476	536	537	3,1	0,3	0,2	472	510	530	0,2
Monserrat	6	9	9	-0,2	0,1	0,0	6	8	-	-
Puerto Riko	3,186	3,797	3,068	1,6	-19,2	1,4	3,211	3,848	3,282	1,0
Sent Lusiya	306	386	396	11,0	2,5	0,2	565	754	-	-
Avliyo Kitts va Nevis	98	115	116	-0,4	1,3	0,1	90	157	-	-
Avliyo Maartin	443	402	178	-23,8	-55,8	0,1	674	630	453	0,1
Avliyo Vinsent va Gren	72	76	80	-4,3	5,4	0,0	450	453	-	-
Trinadad va Tabago	388	395	375	-3,5	-4,9	0,2	450	453	-	-
Turks va Kaikos	281	416	-	-8,2	-	-	-	571	787	0,2
Virgin orollari (AQSH)	572	535	381	-19,8	-28,8	0,2	1,223	1,202	1,046	0,3
Markaziy Amerika	7,808	11,084	10,814	4,6	-2,4	5,0	6,647	12,604	12,840	3,8
Beliz	242	427	489	10,8	14,6	0,2	249	427	487	0,1
Kosta Rika	2,100	2,960	3,017	1,2	1,9	0,2	2,246	3,724	3,903	1,2
El Salvador	1,150	1,556	1,677	8,5	7,8	0,8	390	873	1,014	0,3
Guatemala	1,119	1,660	1,781	4,7	7,3	0,8	1,378	1,566	1,549	0,5
Gonduras	863	851	865	1,6	1,6	0,4	625	715	736	0,2
Nikaragua	1,011	1,787	-	18,8	-	-	314	841	544	0,2
Panama	1,324	1,843	1,779	-4,1	-3,5	0,8	1,745	4,496	4,608	1,4
Janubiy Amerika	23,583	36,565	36,994	7,7	1,2	17,2	20,505	29,034	29,865	9,0
Argentina	5,325	6,710	6,942	0,8	3,4	3,2	4,942	5,375	5,558	1,7
Boliviya	679	1,134	-	18,3	-	-	379	782	823	0,2
Braziliya	5,161	6,589	6,621	0,6	0,5	3,1	5,261	5,809	5,917	1,8
Chili	2,801	6,450	5,723	0,6	0,5	3,1	1,552	3,383	2,956	0,9

Kolumbiya	2,385	3,631	5,723	14,3	-11,3	2,7
Ekvador	1,047	1,608	3,898	9,5	7,4	1,8
Fransuz Gvianasi	189	224	2,429	13,4	51,0	1,1
Gayyana	152	247	-	0,4	-	-
Paragvay	465	1,560	287	5,1	15,9	0,1
Peru	2,299	4,032	1,181	19,2	-24,3	0,5
Surinam	205	287	4,419	7,7	9,6	2,0
Urugvay	2,349	3,675	-	8,2	-	-
Venesuela	526	427	-	-29,0	-	-

2,797	4,921	5,556	1,7
781	1,548	1,871	0,6
-	-	-	-
80	-	-	-
217	369	363	0,1
2,008	3,710	3,947	1,2
61	46	56	0,0
1,509	2,558	2,344	0,7
831	-	-	-

2-ilova

Osiyo va Tinch okeani turistik regioni (Janubiy Osiyo regioni bilan birga)mamlakatlarining halqaro turistik tashriflari va daromadlari ko‘rsatkichi

Shimoli-Sharqiy Osiyo	Xalqaro turistik tashriflar						Xalqaro turizmdan kelgan daromad			
	1000 kishi hisobida			% hisobida			mln.AQSH dollari hisobida			% hisobida
	2010	2017	2018	17\16	18\17	2018	2010	2017	2018	2018
Xitoy	60.740	62.900	2.5	3.6	18.1	5.5	45,814	38,559	40,386	9,3
Gonkong(Xitoy)	20.085	27.887	29.263	5.0	4.9	8.4	22,200	33,339	36,703	8,4
Yaponiya	8.611	28.691	31.192	19.4	8.7	9.0	13,199	34,054	41,115	9,4
KXDR	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Koreya Resp.	8.798	13.336	15.347	-22.7	15.1	4.4	10,328	13,368	15,319	3,5
Makao(Xitoy)	11.926	17.255	18.495	9.9	7.2	5.3	22,276	35,575	40,187	9,2
Mongoliya	456	469	529	16.1	12.8	0.2	244	396	461	0,1
Tayvan(Xitoy provinsiasi)	5.567	10.740	11.067	0.5	3.0	3.2	8,721	12,315	13,704	3,1
Janubi-Sharqiy Osiyo	70,473	120,466	128,680	8,8	6,8	37,0	68,547	130,632	142,314	32,7
Kombodja	214	259	278	18,3	7,4	0,1	-	177	190	0,0
Indoneziya	2,508	5,602	6,201	11,8	10,7	1,8	1,519	3,636	4,352	1,0
Laos	1,670	3,257	3,770	-1,8	15,8	1,1	382	761	734	0,2
Malayziya	24,577	25,948	25,832	-3,0	-0,4	7,4	18,115	18,323	19,143	4,4
Myanma	792	3,443	3,551	18,4	3,1	1,0	72	1,969	-	-
Fillipin	3,520	6,651	7,129	11,0	7,7	2,1	2,645	6,988	7,461	1,7

Singapur	9,161	13,909	14,673	7,7	5,5	4,2	14,178	19,738	20,528	4,7
Tailand	15,936	35,483	38,277	9,1	7,9	11,0	20,104	56,938	63,042	14,5
Sharqiy Timor	40	74	75	12,5	1,1	0,0	31	73	-	-
Vetnam	5,050	12,922	15,498	29,1	19,9	4,5	4,450	8,890	10,080	2,3
Okeaniya	11,468	16,580	17,044	6,1	2,8	4,9	42,796	57,375	61,097	14,0
Amerika Samoasi	23	20	-	-0,3	-	-	-	22	-	-
Avstraliya	5,872	8,815	9,246	6,6	4,9	2,7	32,584	41,732	45,035	10,3
Kuk orollari	104	161	169	10,2	4,6	0,0	111	153	-	-
Fidji	632	843	870	6,4	3,3	0,3	634	926	956	0,2
Fransuz Polineziyasi	154	199	216	3,4	8,7	0,1	406	-	-	-
Gaiti	1,197	1,544	1,552	0,6	0,5	0,4	-	4	4	-
Kiribati	5	6	-	1,1	-	-	4	4	-	-
Marshal orollari	5	6	-	-39,0	-	-	24	-	-	-
Mikroneziya	45		-	-	-	-	-	-	-	-
Mariana orollari	379	660	518	24,3	-21,5	0,1	-	-	-	-
Yangi Kaledoniya	99	121	120	4,3	-0,3	0,0	129	-	-	-
Yangi Zellandiya	2,435	3,555	3,686	5,5	3,7	1,1	6,522	10,593	11,004	2,5
Niue	6	10	-	25,4	-	-	2	2	-	-

Palau	85	123	116	-11,5	-5,4	0,0	73	116	-	-
Papua yangi Gvineya	140	143	-	-8,2	-	-	2	2	-	-
Samoa	122	146	164	8,8	12,4	0,0	132	166	-	-
Salomon orollari	21	26	28	18,5	8,4	0,0	44	67	81	0,0
Tonga	47	62	-	1,6	-	-	16	48	48	0,0
Tuvaluvu	2	2	-	0,0	-	-	2	-	-	-
Vanuatu	97	109	116	14,8	5,9	0,0	217	-	-	-
Janubiy Osiyo	14,726	27,480	32,817	6,2	19,4	9,4	20,063	39,585	43,620	10,0
Afg‘oniston	-	-	-	-	-	-	75	2	-	-
Bangladesh	303	1,026	-	23,6	-	-	81	337	353	0,1
Butan	41	255	274	21,5	7,6	0,1	40	103	102	0,0
Xindiston	5,776	15,543	17,427	6,7	12,1	5,0	14,438	27,365	28,568	6,6
Eron	2,938	4,867	7,295	-1,5	49,9	2,1	2,438	4,402	-	-
Maldiv orollari	792	1,390	1,484	8,0	6,8	0,4	1,713	2,744	3,028	0,7
Nepal	603	940	1,173	24,9	24,8	0,3	344	630	-	-
Pokiston	907	-	-	-	-	-	306	352	390	0,1
Shri-Lanka	654	2,116	2,334	3,2	10,3	0,7	576	3,925	4,381	1,0

Manbaa.www.unwto.com ma’lumotlari asosida tuzildi.

3-ilova

Yevropa turistik regioni mamlakatlarining halqaro turistik tashriflari va daromadlari ko‘rsatkichi

	Xalqaro turistik tashriflar						Xalqaro turizmdan kelgan daromad			
	1000 kishi hisobida			% hisobida			mln.AQSH dollari hisobida			% hisobida
	2010	2017	2018	17\16	18\17	2018	2010	2017	2018	2018
Yevropa regioni	**486,368**	**673,265**	**709,990**	**8,6**	**5,5**	**100**	**422,801**	**519,464**	**570,463**	**100**
Shimoliy Yevropa	56,992	78,443	78,856	6,0	0,5	11,1	60,612	88,571	93,873	17,8
Daniya	8.744	11.743	-	8.9	-	-	5.853	7.960	8.420	1.6
Finlandiya	2.319	3.180	3.221	14.0	1.3	0.5	3.051	3.392	3.607	0.6
Islandiya	489	2.225	2.344	24.1	5.4	0.3	561	3.011	3.607	0.6
Irlandiya	7.134	10.338	-	2.4	-	-	4.118	5.617	6.185	1.1
Norvegiya	4.767	6.252	-	4.9	-	-	4.707	5.400	5.672	1.0
Shvetsiya	5.183	7.054	-	4.0	-	-	8.344	14.142	14.977	2.6
Buyuk Britaniya	28.296	37.651	36.316	5.1	-3.5	5.1	33.978	49.049	51.882	9.1
G‘arbiy Yevropa	154.362	192.725	200.430	6.1	4.0	28.2	152.364	170.918	187.474	32.9
Avstriya	22.004	29.460	30.816	4.8	4.6	4.3	18.596	20.460	22.979	4.0
Belgiya	7.186	8.358	9.154	11.7	9.5	1.3	11.425	12.485	13.474	2.4
Fransiya	77.648	86.918	89.400	5.1	2.9	12.6	57.059	60.681	67.370	11.8
Germaniya	26.875	37.452	38.881	5.2	3.8	5.5	34.679	39.823	42.977	7.5
Lixtenshteyn	64	79	85	14.5	7.1	0.0	-	-	-	-
Lyuksemburg	1.046	1.018	-0.7	-0.7	-2.2	0.1	4.149	4.552	4.990	0.9
Manako	279	355	347	5.7	-2.2	0.0	-	-	-	-
Niderlandiya	10.883	17.924	19.014	13.2	6.1	2.7	11.732	16.643	18.641	3.3

Shvetsariya	8.628	11.133	11.715	7.0	5.2	1.7	14.724	16.274	17.042	3.0
Sharqiy Yevropa							48.312	60.684	68.674	12.0
Armaniston	687	1.495	1.652	18.7	10.5	0.2	646	1.120	1.208	0.2
Ozarbayjon	1.280	2.454	2.606	20.0	6.2	0.4	657	3.012	2.634	0.5
Belarus	677	2.000	2.142	3.7	7.1	0.3	440	790	870	0.2
Bolgariya	6.047	8.883	9.273	7.6	4.4	1.3	3.407	40.45	4.512	0.8
Chexiya	8.629	13.665	-	6.7	-	-	7.172	6.933	7.451	1.3
Estoniya	2.511	3.244	3.234	3.6	-0.3	0.5	1.073	1.630	1.783	0.3
Gruziya	1.067	4.069	4.757	23.4	16.9	0.7	659	2.704	3.222	0.6
Vengriya	9.510	15.785	17.152	3.2	8.7	2.4	5.628	6.170	6.930	1.2
Qozog‘iston	2.991	-	-	-	-	-	1.005	2.135	2.255	0.4
Qirg‘iziston	855	4.568	-	18.6	-	-	160	429	433	0.1
Latviya	1.373	1.950	1.946	8.7	-0.2	0.3	642	948	1.036	0.2
Litva	1.507	2.523	2.825	9.9	11.9	0.4	967	1.321	1.423	0.2
Polsha	12.470	18.400	19.623	5.3	6.6	2.8	9.576	12.772	14.042	2.5
Moldova	64	145	160	19.6	10.4	0.0	163	319	378	0.1
Ruminiya	1.346	2.760	2.797	11.3	1.3	0.5	1.140	2.527	2.896	0.5
Rossiya	22.281	24.390	24.551	-0.7	0.7	3.5	8.830	8.945	11.802	2.1
Slovakiya	5.415	-	-	-	-	-	2.233	2.923	3.200	0.6
Tojikiston	160	421	1.250	25.3	190.1	0.2	2	8	9	0.0
Turkmaniston	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Ukraina	21.203	14.421	14.207	6.0	-1.5	2.0	3.788	1.261	1.445	0.3
O‘zbekiston	-	-	-	-	-	-	121	689	1.144	0.2

Janubiy Yevropa								***161.514***	***199.291***	***220.443***	***38.6***
Albaniya	2.191	4.649	3.540	14.1	15.0	0.4		1.626	1.929	2.193	0.4
Andorra	1808	3.003	3.048	6.1	1.3	0.4		-	-	-	-
Bosniya va Gersogovina	365	977	1.053	18.7	14	0.1		594	826	939	0.2
Xorvatiya	8.966	15.593	16.645	13	6.7	2.3		8.075	10.924	11.831	2.1
Kipr	2.173	3.652	3.939	14.6	7.8	0.6		2.160	3.128	3.352	0.6
Gretsiya	15.007	27.195	30.123	9.7	10.8	4.2		12.742	16.528	19.029	3.3
Isroil	2.8.3	3.613	4.121	24.6	14.1	0.6		4.903	6.821	7.241	1.3
Italiya	43.629	58.253	62.146	11.2	6.7	8.8		38.786	44.233	49.262	8.6
Malta	1.339	2.274	2.566	15.7	14.3	0.4		1.079	1.727	1.854	0.3
Chernogoriya	1.088	1.877	2.077	12.9	10.6	0.3		732	1.041	1.199	0.2
Makedoniya	262	631	707	32.5	12.3	3.2		197	327	382	0.1
Portugaliya	6.832	21.200	22.800	16.5	7.5	0.1		10.077	17.119	19.621	3.4
San Marino	60	72	84	31.1	7.3	0.0		-	-	-	-
Serbiya	683	1.497	1.711	16.6	14.2	0.2		764	1.346	1.346	0.2
Sloveniya	1.869	3.586	4.425	18.3	23.5	0.6		2.552	2.750	3.209	0.6
Ispaniya	52.677	81.869	82.772	1.1	11.7	8.7		54.641	68.114	73.765	12.9
Turkiya	31.264	37.601	45.768	24.1	21.7	6.4		22.585	22.478	25.220	4.4

4-ilova

Xalqaro turistik tashriflar va undan tushadigan daromadlar statistikasi

	Xalqaro turistik tashriflar							Xalqaro turizmdan keladigan foyda								
	Mln.kishi			% hisobida				Mlrd AQSH dollari			Mlrd Evro			% hisobida		
	2010	2017	2018	2018	17/16	18/17	10-‘18	2010	2017	2018	2010	2017	2018	2018	17/16	18*17
Dunyo bo‘yicha	952	1,329	1,401	100	7,0	5,4	5,0	975	1,348	1,451	736	1,192	1,229	100	5,2	4,4
Iqtisodiy rivojlangan davlatlar	515	730	762	54.4	6.3	4.3	5.0	638	869	937	481	769	763	64.6	4.0	3.7
Iqtisodiy rivojlanayotgan davlatlar	437	598	639	45.6	7.9	6.8	4.9	337	477	514	254	422	435	35.4	7.6	5.7
Yevropa	486.4	637.3	710.0	50.7	8.6	5.5	4.8	422.8	519.5	570.5	318.9	459.8	483.0	39.3	7.5	4.9
Shimoliy Yevropa	57.0	78.4	78.9	5.6	6.0	0.5	4.1	60.6	88.6	93.9	46	78	79	6.5	5.7	1.1
G‘arbiy Yevropa	154.4	192.7	200.4	14.3	6.1	4.0	3.3	152.4	170.9	187.5	115	151	159	12.9	4.7	3.3
Markaziy/Sharqiy Yevropa	98.1	134.6	141.4	10.1	5.6	5.0	4.7	48.3	60.7	68.7	36	54	58	4.7	7.0	8.8
Janubiy/O‘rta Yevropa	176.9	267.5	289.4	20.7	12.9	8.2	6.3	161.5	199.3	220.4	122	176	187	15.2	11.2	6.9
Yevropa Ittifoqi (28)	382.2	539.3	562.9	40.2	7.7	4.4	5.0	354.9	438.6	480.7	268	388	407	33.1	6.8	3.3
Osiyo va Tinch okeani regioni	208.2	324.0	347.7	24.8	5.7	7.3	6.6	254.4	396.0	435.5	191.9	350.5	368.7	30.0	4.3	7.4
Shimoli-Sharqiy Osiyo	11.5	159.5	169.2	12.1	3.4	6.1	5.3	123.0	168.1	188.4	93	149	160	13.0	-1.5	8.9
Janubi-Sharqiy Osiyo	70.5	120.5	128.7	9.2	8.8	6.8	7.8	68.5	130.6	142.3	52	116	121	9.8	9.1	4.7
Okeaniya	11.5	16.6	17.0	1.2	6.1	2.8	5.1	42.8	57.4	61.1	32	51	52	4.2	6.1	6.9
Janubiy Osiyo	14.7	27.5	32.8	2.3	6.2	19.4	10.5	20.1	39.9	43.6	15	35	37	3.0	13.9	10.4
Amerika regioni	150.4	210.8	215.7	15.4	4.7	2.3	4.6	215.5	325.8	33.6	162.6	288.4	282.5	23.0	0.9	0.3
Shimoliy Amerika	99.5	137.1	142.2	10.1	4.3	3.7	4.6	164.8	252.4	258.9	124	223	219	17.8	0.7	0.1
Karib havzasi	19.5	26.0	25.7	1.8	3.0	-1.4	3.5	23.3	31.8	32.0	18	28	27	2.2	0.5	-1.3
Markaziy Amerika	7.8	11.1	10.8	0.8	4.6	-2.4	4.2	6.9	12.6	12.8	5	11	11	0.9	4.8	1.0
Janubiy Amerika	23.6	36.6	37.0	2.6	7.7	1.2	5.8	20.5	29.0	29.9	15	26	25	2.1	1.1	3.4
Afrika	50.4	62.7	67.1	4.8	8.5	7.0	3.6	30.4	36.4	38.4	23.0	32.2	32.5	2.6	7.7	1.6
Shimoliy Afrika	19.7	21.7	23.9	1.7	14.7	10.1	2.4	9.7	9.9	10.7	7	9	9	0.7	9.3	3.8
Afrika subsaxarasi	30.7	41.1	43.3	3.1	5.5	5.4	4.4	20.8	26.5	27.7	16	23	23	1.9	7.1	0.7
O‘rta Sharq	56.1	57.7	60.5	4.3	4.1	4.7	0.9	52.2	68.4	73.0	39.3	60.5	61.8	5.0	14.6	4.2

5-ilova

Xalqaro turizmning statistik tahlili

Jahon regionlari	1990	1995	2000	2005	2010	2015	2016	2017	2018*	2018%	17\16 %	18*\17 %	10-18*
Yevropa	254.6	308.1	396.4	450.7	490.8	581.8	592.8	636.6	672.3	48.0	7.4	5.6	4.0
Osiyo va Tinch okeani regioni	58.7	86.2	113.8	152.9	205.3	293.6	314.4	337.6	358.7	25.6	7.4	6.2	7.2
O`rta Sharq	8.2	8.5	12.8	21.5	33.5	39.7	36.3	36.8	40.6	2.9	1.5	10.2	2.4
Amerika	99.4	108.2	130.6	136.5	155.4	200.2	211.6	227.3	235.0	16.8	7.4	3.4	5.3
Afrika	9.8	11.5	14.9	19.4	28.3	36.0	39.6	42.5	45.5	3.2	7.3	7.1	6.1
Boshqa regionlar	77.7	95.3	129.5	150.2	190.6	245.1	253.8	277.6	294.2	21.0	9.4	6.0	5.6

Tashqi turizm. Xarajatlarning eng yuqori o'sishini Fransiya, Rossiya Federatsiyasi va Avstraliya ko'rsatadi

Dunyodagi 2 ta sayohatdan deyarli 1tasi Yevropaga to'g'ri keladi.



Kelib chiqish hududi bo'yicha turizm,2018-yil

(% ulushi)

Manba: Jahon turistik tashkilot (UNWTO).

Izoh:Yaratilgan xalqaro kelib chiqishi asosida hisoblanadi.

Xitoy dunyoda xalqaro sayyohlik xarajatlarning beshdan birini tashkil qiladi, undan keyin AQSH

Sayyohlik sohasida o`sish %

Milliard AQSH dollari



2018-yil xalqaro turizm xarajatlari bo'yicha eng yaxshi 10 talik mamlakat

Manba: Jahon turistik tashkilot (UNWTO).

Top o`rinlar.10 ta eng yaxshi yo'nalishlardan 8 tasi har ikkala reytingda berilgan

Dunyo bo'ylab kelganlarning 40% eng yaxshi 10 ta manzilga ega



2018 yil xalqaro sayyohlar soni bo'yicha eng yaxshi 10ta yo'nalish

Manba: Jahon turistik tashkiloti (UNWTO).

Eng yaxshi 10 ta sayyohlik kompaniyalari barcha turizim daromatlarning qariyb 50% ni tashkil qiladi.



2018 yil xalqaro turizmdan keladigan daromadlarning eng 10 ta yo'nalishi.

Manba: Jahon turistik tashkiloti (UNWTO).


TURIZM KLASSIFIKATSIYASI KLASTERI
Rekreatsiya turizmi
Diniy va ziyorat
Ekologik turizm
Tanishuv turizmi
Madaniy turizmi
Ishbilarmonlik va ta`lim turizmi
Sport turizmi
TURIZMNING GEOGRAFIK JIHATLARI VA SHAKLLARI
Ichki turizm
Milliy va mahalliy turizm
Kirish
Turistik import
Chiqish
Turistik eksport
Xalqaro turizm
Regional va mamalakatlar turizmi


Sayohatning davomiyligi
Moliyaviy jihatlari
Mavsimiyligi
Tashkiliy jihatlari
Turizmning tashkiliy va ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari klasteri
Ijtiomoiy guruh
Imtiyoz va bonuslari
Joylashtirish vositalari
Yosh bo`yicha
Transportdan fovdalanish

10-ilova

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TURIZMNI JADAL RIVOJLANTIRISHGA OID QO‘SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO‘G‘RISIDA PREZIDENT FARMONI

(PF-5611-SON 05.01.2019)

Mamlakatda turizmni milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlarni jadal rivojlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholining daromadlari va turmush darajasini oshirish, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishni ta’minlovchi strategik tarmoqlardan biri sifatida rivojlantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Viza rejimining liberallashtirilishi, chet el fuqarolarini ro‘yxatga olish tartibining soddalashtirilishi, turizm tarmog‘ini rivojlantirish uchun imtiyoz va preferensiyalar berilishi milliy turizm salohiyatini ichki va tashqi bozorlarda samarali targ‘ib qilish imkonini berdi.

SHu bilan birga, o‘tkazilgan tahlillar turizm tarmog‘ini tartibga soluvchi normativ-huquqiy asosning nomukammalligi, alohida turizm xizmatlarini ko‘rsatish qoidalarining, shuningdek chet el fuqarolarining toifalari, bo‘lish muddatlari va maqsadlari bo‘yicha dunyo amaliyotida keng qo‘llaniladigan alohida viza rejimlarining mavjud emasligini ko‘rsatmoqda.

SHuningdek, joylashtirish vositalari va infratuzilma ob’ektlarining, ayniqsa turizm mavsumida etishmasligi, turli transportlarda yo‘lovchilarni tashish tizimining etarli darajada muvofiqlashtirilmaganligi, shuningdek, turistlarni mavjud turizm salohiyati to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan ta’minlashni tashkillashtirish darajasining pastligi, ichki turizmni, mamlakat hududlaridagi madaniy meros ob’ektlarining va ziyoratning o‘ziga xosliklarini targ‘ib qilish bo‘yicha marketing kampaniyalarining samarasizligi turizmni jadal rivojlantirishga salbiy ta’sir qilmoqda.

Turizmni, avvalambor, xususiy sektorda rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ko‘rsatilayotgan xizmatlarning raqobatbardoshligini va sifatini oshirish, milliy turizm mahsulotini dunyo bozorida faol va kompleks ravishda targ‘ib qilish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga 2018 yil 28 dekabrda qilgan Murojaatnomasida bildirilgan takliflarni amalda tatbiq etish maqsadida hamda 2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarga muvofiq:

1. Quyidagilar:

a) quyidagilarni nazarda tutuvchi 2019 — 2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi (keyingi o‘rinlarda — Konsepsiya) 1-ilovaga muvofiq:

turizm faoliyati sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, turizmni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan xalqaro me’yor va standartlarni implementatsiya qilish;

turizm infratuzilmasini rivojlantirish hamda maqbul va qulay turizm muhitini yaratish;

transport logistikasini rivojlantirish, ichki va tashqi yo‘nalishlarni kengaytirish, transport xizmatlari sifatini oshirish;

turizm bozorining turli segmentlariga yo‘naltirilgan turizm mahsuloti va xizmatlarini diversifikatsiya qilish;

respublika ichida turizm xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojni qondirishga yo‘naltirilgan turizm faoliyati sub’ektlarining faolligini rag‘batlantirishni ta’minlovchi ichki turizmni rivojlantirish;

O‘zbekiston Respublikasi turizm mahsulotini xalqaro va ichki turizm bozorlarida targ‘ib qilish, mamlakatning sayohat va dam olish uchun xavfsiz sifatidagi imidjini mustahkamlash;

turizm tarmog‘i uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish.

Belgilansinki, Konsepsiya har yillik alohida chora-tadbirlar rejasini tasdiqlagan holda, uning asosiy yo‘nalishlari va maqsadli parametrlarining tegishli davr mobaynida bajarilishiga qarab bosqichma-bosqich amalga oshiriladi;

b) 2019 — 2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasini amalga oshirish bo‘yicha 2019 yilga mo‘ljallangan chora-tadbirlar rejasi (keyingi o‘rinlarda — CHora-tadbirlar rejasi) 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tegishli yil bo‘yicha CHora-tadbirlar rejasining bajarilishi yakunlarini tahlil qilgan holda har yili 1 dekabrga qadar keyingi yil uchun CHora-tadbirlar rejasi loyihasini ishlab chiqsin va Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun kiritsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 avgustdagi PQ-3217-son qaroriga asosan tashkil etilgan Turizmni rivojlantirish bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi kengash (A.N. Aripov) quyidagilarni ta’minlasin:

barcha rejalashtirilgan chora-tadbirlarning samarali tashkil etilishi, o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi bo‘yicha vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish;

Konsepsiya va CHora-tadbirlar rejasining vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlar tomonidan bajarilishini monitoring qilish, shuningdek, har chorakda ushbu Farmonning bajarilishi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga batafsil ma’lumot kiritib borish;

xorijda O‘zbekistonning turizm salohiyatini targ‘ib qilish va xorijiy turistlarni jalb qilishga qaratilgan qo‘shma tadbirlarni o‘tkazish bo‘yicha «Yo‘l xaritasini» har yil tasdiqlash;

har yillik CHora-tadbirlar rejasining bajarilishidan kelib chiqib, lozim bo‘lganda, Konsepsiya parametrlariga o‘zgartirish kiritish.

3. 2019 yil 1 fevraldan boshlab 3-ilovaga muvofiq mamlakatlarning fuqarolari uchun O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirgan kundan e’tiboran 30 kunlik muddatga vizasiz rejim belgilansin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi, Tashqi ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmatining quyidagi takliflariga rozilik berilsin:

a) 2019 yil 1 fevraldan boshlab fuqarolari elektron kirish vizasini olish imkoniyatiga ega bo‘lgan mamlakatlar ro‘yxatini 4-ilovaga muvofiq kengaytirish;

b) 2019 yil 15 martdan boshlab 30 kunlik amal qilish muddati bo‘lgan elektron kirish vizasining quyidagi turlarini berish tizimini joriy etish:

ikki martalik, konsullik yig‘imi 35 AQSH dollari miqdorida;

ko‘p martalik, konsullik yig‘imi 50 AQSH dollari miqdorida;

v) O‘zbekiston Respublikasiga tashrif buyuradigan xorijiy fuqarolarning ayrim guruhlari uchun 5-ilovaga muvofiq qo‘shimcha (elektron bo‘lmagan) kirish vizalari toifalarini berishni joriy etish.

O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda O‘zbekiston Respublikasiga tashrif buyuradigan xorijiy fuqarolarning ayrim guruhlari uchun qo‘shimcha (elektron bo‘lmagan) vizalari toifalarini joriy etish bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni ko‘rsin.

5. 6-ilovaga muvofiq xorijiy mamlakatlar fuqarolariga O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasini olish huquqi taqdim etilsin.

Belgilansinki, ushbu huquq:

Toshkent viloyati va Toshkent shahrida — 400 000 AQSH dollari ekvivalentidan kam bo‘lmagan miqdorda;

Samarqand, Buxoro, Namangan, Andijon, Farg‘ona va Xorazm viloyatlarida — 200 000 AQSH dollari ekvivalentidan kam bo‘lmagan miqdorda;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va respublikaning boshqa viloyatlarida — 100 000 AQSH dollari ekvivalentidan kam bo‘lmagan miqdorda ko‘chmas mulkni sotib olgan taqdirda beriladi.

6. O‘zbekistonning logistika jozibadorligini tubdan yaxshilash, shuningdek, mahalliy aeroportlarda parvozlarga xorijiy aviakompaniyalarni jalb etish ishlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha ishchi guruh (keyingi o‘rinlarda — Ishchi guruh) 7-ilovaga muvofiq tarkibda tashkil etilsin.

Quyidagilar Ishchi guruhning asosiy vazifalari etib belgilansin:

birinchi navbatda Evropa va Janubi-SHarqiy Osiyo mamlakatlari bilan tovar aylanmasi, tashiladigan yo‘lovchilar soni va investitsiyalarni ko‘paytirish uchun respublikadagi transport aloqa tizimini tubdan yaxshilash;

«ziyorat» turizmi yo‘nalishi orqali turistlar oqimini oshirish, shu jumladan Indoneziyadan doimiy aviaqatnovlarni ochish uchun aviakompaniyalarni jalb qilish masalalarini tezkorlik bilan hal etish;

turistlar oqimini jalb qilish maqsadida parvozlarning strategik muhim yo‘nalishlarini aniqlash;

mamlakat aeroportlarida yangi yo‘nalishlarni yo‘lga qo‘yish maqsadida xorijiy tashuvchilar uchun moslashuvchan chegirma va preferensiyalar tizimini ishlab chiqish;

o‘zaro bog‘lovchi qatnovlarni, shu jumladan «mavsumdan tashqari» davrda tashkil etish orqali uzoq magistral yo‘nalishlarda yo‘lovchilar sonini ko‘paytirish;

xorijiy va mahalliy aviakompaniyalar bilan muzokaralar o‘tkazish, shuningdek, ularning takliflarini ko‘rib chiqish va ularni aeroportlar bo‘yicha to‘g‘ri taqsimlash; charter reyslarini kelishish mexanizmini soddalashtirish; mamlakatdagi ayrim aeroportlarda «Ochiq osmon» rejimini joriy etish; mahalliy aviakompaniyalar tashkil etilishiga ko‘maklashish maqsadida normativ-huquqiy bazani qayta ko‘rib chiqish; mamlakat ichkarisida intermodal tashuvlarni (avtobus, temir yo‘l va aviatashuvlar) ta’minlash uchun turistlarning transport tashuvini yanada rivojlantirish bo‘yicha hujjatlarni ishlab chiqish; aviakompaniyalar xarajatlarini kamaytirish va iste’molchilar uchun aviachiptalar narxini optimallashtirish; mamlakat viloyatlari o‘rtasidagi ichki aviatashuvlar yo‘nalishlari sonini ko‘paytirish; xorijiy etkazib beruvchilardan aviakerosin sotib olish mexanizmini xarid jarayonida shaffoflik va raqobatni ta’minlagan holda takomillashtirish.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, O‘zbekiston Avtomobil transporti agentligi, «O‘zbekiston temir yo‘llari» AJ, «O‘zbekiston havo yo‘llari» MAK boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda uch oy muddatda blokcheyn texnologiyasidan foydalangan holda reyslarni (avtobus, avia va temir yo‘l) qulay tarzda bog‘lovchi yo‘l chiptalarini sotishni nazarda tutuvchi respublika transport tizimining yagona elektron portalini, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari asosida tashkil etsin hamda uning ishlash tartibini belgilasin.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga 8-ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

9. O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi Tashqi ishlar vazirligi, Ichki ishlar vazirligi hamda boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonunchilikka ushbu Farmondan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

10. O‘zbekiston Milliy axborot agentligi, O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi ommaviy axborot vositalarida ushbu Farmonning maqsad va vazifalarini tushuntirishga qaratilgan nashrlar va tematik dasturlarni tashkil etsin.

11. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Z.SH. Nizomiddinov, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashi kotibi V.V. Maxmudov va O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari A.A. Abduxakimov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. MIRZIYOEV

Toshkent sh.,2019 yil 5 yanvar,

2019 — 2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish

KONSEPSIYASI

2019 — 2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi qulay iqtisodiy sharoitlar va omillarni yaratish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlarning samaradorligini oshirish, turizm sohasini jadal rivojlantirish bo‘yicha ustuvor maqsad va vazifalarni belgilash, uning iqtisodiyotdagi o‘rni va ulushini oshirish, xizmatlarni diversifikatsiyalash va ularning sifatini oshirish hamda turizm infratuzilmasini takomillashtirishga qaratilgan.

1-bob. Turizm sohasining joriy holati tahlili

O‘zbekiston juda katta turizm va rekreatsiya salohiyatiga ega, unda jami 7,4 ming madaniy meros ob’ektlari mavjud, ulardan 209 tasi to‘rtta muzey shaharlar — «Xiva shahridagi Ichan-qal’a», «Buxoro shahrining tarixiy markazi», «SHahrisabz shahrining tarixiy markazi», «Samarqand shahri» hududida joylashgan bo‘lib, YUNESKO butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan.

2010 — 2017 yillar davomida turizm xizmatlari eksporti hajmi ikki baravar oshdi va 2017 yilda 546,9 million AQSH dollari, 2018 yilda esa — 1 041 million AQSH dollarini tashkil etdi. 2016 yilgacha xorijiy tashrif buyuruvchilar sonining o‘sish sur’ati o‘rtacha yillik 8 foizni, 2017 yilda — 7 foizni tashkil qilib, 2,69 million nafardan oshdi. 2018 yil yakunlari bo‘yicha respublikaga 5,3 million xorijiy turistlar tashrif buyurdi. Xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash va muhofaza qilishga qaratilgan choralar ko‘rilgani natijasida, 2015 yilda 398 tani tashkil qilgan turizm tashkilotlari soni 2018 yil yakuni bo‘yicha 950 taga, mehmonxona xo‘jaliklari soni — 661 tadan 900 taga etdi.

So‘nggi yillarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha yirik investitsiya loyihalari amalga oshirildi, shu jumladan Toshkent shahrida «Nyatt Regency Tashkent» va «Lotte City Notel Tashkent Palace» brendli mehmonxonalar ochilishi, Andijon, Urganch va Toshkent shahrida madaniy-ko‘ngilochar bog‘larning tashkil etilishi, «Angren-Pop» temir yo‘li ochilishi, Buxoro, Qarshi, SHahrisabz va Xiva shaharlariga tezyurar poezdlar uchun elektrlashtirilgan temir yo‘llari ochilishini aytib o‘tish joiz.

Turizm sohasida davlat siyosati istiqbolda hududlar va ularning infratuzilmasini kompleks jadal rivojlantirishda turizm sohasi etakchilik qilishi, dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni echish, ish o‘rinlarini ko‘paytirish, hududlar diversifikatsiyasi va rivojlanishini ta’minlash, aholining daromadlari, yashash darajasi va sifatini oshirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va imidjini yaxshilashga qaratilgan.

2018 yilda kirib kelayotgan xorijiy turistlar sonini ikki baravarga oshirishning muhim omillari sifatida viza rejimi, O‘zbekistonda bo‘lish qoidalari hamda tadbirkorlik faoliyatini olib borish tartibi soddalashtirilgani, turizm sohasida infratuzilmaning rivojlanishi va turizm salohiyatini targ‘ib qilish choralari ko‘rilgani ko‘rsatish mumkin, shu jumladan:

qo‘shimcha 9 ta (umumiy 18 ta) davlatga vizasiz rejim joriy etilgani, fuqarolariga kirish vizalarini berishning soddalashtirilgan tartibi joriy etilgan davlatlar soni 12 tadan 50 taga ko‘paygani;

elektron kirish vizalarini rasmiylashtirish va taqdim etish tizimi ishga tushirilgani, O‘zbekiston hududidan tranzit bilan o‘tayotgan 101 davlat fuqarolariga O‘zbekistonga vizasiz kirish, vaqtincha bo‘lish va fuqarolarni o‘tkazish punktlari orqali chiqib ketish tartibi joriy qilingani;

xorijiy fuqarolarni respublika hududida vaqtinchalik ro‘yxatga olish tartibi soddalashtirilgani, mazkur tartib «E-MENMON» tizimi orqali to‘liq elektron shaklga o‘tkazilgani;

mehmon uylarini sertifikatsiya qilish tartibi bekor qilingani;

respublika hududiga olib kirilayotgan 8 va undan ko‘proq yo‘lovchi tashishga mo‘ljallangan turistik klassdagi avtotransport vositalarini sertifikatsiya qilishning yangi mexanizmi joriy etilgani hamda buning natijasida 2018 yilda turistik klass avtotransport vositalarining parki 128 donaga ko‘paytirilgani (47 avtobus va 81 mikroavtobus).

2-bob. Turizm sohasini rivojlantirishning asosiy maqsadlari va bosqichlari

2019 — 2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasi turizm sohasini rivojlantirishning maqsadlari turizmni milliy iqtisodiyotning strategik sohasiga aylantirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiyalash va sifatini oshirish hamda turistik infratuzilmani, shu jumladan xorijiy sarmoyalarni jalb qilish va samarali reklama-marketing ishlarini olib borish evaziga takomillashtirish orqali ilovada ko‘rsatilgan maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish.

Turizm sohasini rivojlantirishning asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat:

2019 — 2020 yillarda — turizmni rivojlantirish uchun mustahkam qonunchilik bazani yaratishga qaratilgan institutsional islohotlar, infratuzilmani modernizatsiyalash va mamlakat brendini targ‘ib qilish;

2021 — 2025 yillarda — mamlakat iqtisodiyotida turizm industriyasi ulushini ko‘paytirish. Ushbu yo‘nalishda zarur infratuzilmani rivojlantirish va dunyo bozorida respublikaning turizm salohiyatini targ‘ib qilish orqali mamlakatning yalpi ichki mahsulotida turizm ulushini 5 foizgacha (2017 yil yakuni bo‘yicha — 2,3%) etkazish, shuningdek, 2025 yil yakuniga qadar 9 milliondan ortiq turistlarni, shu jumladan uzoq xorijdan — 2 million turistni jalb qilish belgilab quyilgan.

Uzoq istiqbolda O‘zbekiston turizmi milliy iqtisodiyotdagi yutuqlar bilan cheklanib qolmasdan, mintaqa va dunyo turistik xizmatlari bozoriga eng raqobatbardosh davlatlar qatorida kirib borishi mumkin.

3-bob. Turizmni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari

Turizm sohasida qisqa muddatli istiqbolga mo‘ljallangan maqsadli vazifa va ustuvorlardan kelib chiqib, quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha chora-tadbirlarni faol amalga oshirish ko‘zda tutilgan:

1) turistik faoliyat sohasiga oid normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, turizm sohasini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan xalqaro me’yor va standartlarni joriy etish, shu jumladan:

turistik faoliyatni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirish, bunda qonunchilik asosini kuchaytirish va turizm sohasida tadbirkorlik sub’ektlarini qo‘llab-quvvatlovchi normalarni yagona hujjatga birlashtirishni nazarda tutish;

respublikaga asosiy turistik oqimini ta’minlovchi, iqtisodiy barqaror va xavfsiz davlatlarning fuqarolari uchun viza rejimini yanada liberallashtirish bo‘yicha bosqichma-bosqich chora-tadbirlarni amalga oshirish;

xususiy sektorni jalb qilish va tadbirkorlar faolligini rag‘batlantirish bo‘yicha manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish, sohani barqaror rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish va keng qo‘llash.

YUqorida sanab o‘tilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish:

mamlakat normativ-huquqiy bazasini xalqaro standartlar va me’yorlar bilan uyg‘unlashtirish, turizm sohasini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, iqtisodiyotda turizm sohasining rolini oshirish uchun iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish, shu jumladan 2025 yilda turizm eksportini 951 mln. AQSH dollaridan 2,2 mlrd. AQSH dollarigacha oshirishni ta’minlaydi.

2) turistlarning ehtiyojlari va talablarini inobatga olgan holda, mamlakatning barcha hududlarida turizm infratuzilmasi va yondosh infratuzilmani rivojlantirish, xususan:

talabni inobatga olgan holda, yangi joylashtirish vositalarini qurish va mavjudlarni rekonstruksiya qilish bilan bir qatorda yondosh infratuzilmani (umumiy ovqatlanish ob’ektlari, transport-logistika tuzilmalari, ko‘ngilochar maskanlar industriyasi, madaniy va sport muassasalari, turistik namoyish ob’ektlari va boshqalarni) rivojlantirishga qaratilgan turizm industriyasini rivojlantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

mehmonxonalar va boshqa turizm infratuzilmasi ob’ektlarini qurishga oid loyihalarni amalga oshirish mexanizmini soddalashtirish, tadbirkorlarga o‘z xizmatlarining sifatini oshirish uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, jahonga mashhur mehmonxona biznesi brendlarini O‘zbekistonga jalb qilishni rag‘batlantirish;

joylashtirish vositalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish, yirik, o‘rta, kichik mehmonxonalar va xostellarni qurishni rag‘batlantirish hamda mavjud mehmonxonalarni rekonstruksiya va modernizatsiya qilishga alohida e’tibor qaratish;

zamonaviy xalqaro standartlarni hisobga olgan holda ko‘cha infratuzilmasini (o‘tish yo‘llari, trotuarlar, kichik arxitektura shakllari, sanitar-gigienik shoxobchalar, jismoniy imkoniyati cheklangan insonlar uchun obodonlashtirish elementlari va boshqalarni), shu jumladan turizm-rekreatsion markazlarda yaratish;

turizm navigatsiyasining yagona unifikatsiyalashtirilgan tizimini joriy etish va rivojlantirish, ko‘chalarda, hududlarda, turizm namoyishi ob’ekti hisoblangan bino va inshootlar ichida, transport vositalari va tarmoqlarida hamda avtomobil

yo‘llarida turizm navigatsiyaning unifikatsiyalashtirilgan ko‘rsatkichlarini o‘rnatish.

YUqorida sanab o‘tilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish:

turoperatorlar soni 860 dan 1 676 tagacha hamda turizm sohasining boshqa sub’ektlari sonini oshirish evaziga xalqaro standartlarga mos turizm infratuzilmasini rivojlantirish, shuningdek joylashtirish vositalari soni 850 dan 3 000 tagacha o‘sishini;

turizm xizmatlari sifati, xilma-xilligi va eksport hajmining o‘sishi, jahon bozorining yirik vakillari (brendlarini) jalb qilish va xorijiy investitsiyalar oqimini ko‘paytirishni ta’minlaydi.

3) transport logistikasini rivojlantirish, tashqi va ichki yo‘nalishlarni kengaytirish, transport xizmatlari sifatini oshirish, shu jumladan:

yo‘lovchilar tashuvini rivojlantirish, shu jumladan doimiy transport qatnovini yo‘lga qo‘yish, turli transport vositalarining qulay tutash bog‘lamalarini tashkil etish, turizm markazlarini birlashtiruvchi respublika va mintaqaviy ahamiyatga molik yangi avtomobil yo‘llarini qurish va mavjudlarni rekonstruksiya qilish, tutash yo‘l infratuzilmasi (kemping va servis xizmat ko‘rsatish ob’ektlari, umumiy ovqatlanish markazlari, tibbiy va sanitariya shoxobchalarini) yaxshilashga qaratilgan davlatlararo shartnomalar bilan tasdiqlangan dasturni shakllantirish,

transport tariflarini optimallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

yirik xalqaro aviatashuvchilarni jalb qilish, byudjet aviatashuvlarni tashkil qilish;

respublika hududlari o‘rtasida aviaqatnovlarni rivojlantirish;

yangi temir yo‘llarni qurish va mavjudlarni takomillashtirish, yuqori tezlikda harakatlanadigan elektropoezdlardan foydalanishni kengaytirish;

sifatli transport xizmatlarini ko‘rsatish uchun transport vositalarining harakatlanuvchi tarkibini muntazam yangilab borish.

YUqorida sanab o‘tilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish:

xalqaro parvozlar va to‘g‘ridan-to‘g‘ri, shu jumladan mamlakatning tarixiy shaharlariga reyslarning geografiyasini kengaytirish, aviaqatnovlar sifatini oshirish va qiymatini pasaytirish;

o‘z ichiga havo, temir yo‘l va avtomobil transportini qamrab olgan qulay va arzon transport logistikasini ta’minlash, respublika hududlariga va xorijiy davlatlarga sayohatlarni amalga oshirishda qulay shart-sharoitlar yaratish;

mamlakatni yo‘lovchilar tashish sohasida yirik mintaqaviy transport «xabi»ga aylantirishni ta’minlaydi.

4) quyidagilarni ta’minlash maqsadida turizm bozorining turli qatlamlariga mo‘ljallangan turistik mahsulotlar va xizmatlarni diversifikatsiya qilish orqali mavsumiy omillar ta’sirini kamaytirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni qabul qilish:

turizm yo‘nalishlarini tizimlashtirish va pasportlashtirishni amalga oshirish, O‘zbekiston Respublikasining marshrutlari tarmog‘i va turizm namoyishi ob’ektlarining yagona axborot bazasini shakllantirish;

O‘zbekiston Respublikasining xilma-xil hamda yilning turli fasllarida jozibador va raqobatbardosh turistik mahsulotlari, shu jumladan mamlakat hududlarida tematik turistik zonalari va klasterlarni yaratish orqali hamda turizmning istiqbolli turlari (ziyorat, ma’rifiy, ekologik, etnografik, gastronomik, sport, davolovchi-sog‘lomlashtiruvchi, qishloq, sanoat, ishbilarmonlik va boshqalarni) hisobga olgan holda, yangi turizm dasturlarini ishlab chiqish;

zamonaviy va raqobatbardosh hunarmandchilik-suvenir mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda «MICE — turizm»ni rivojlantirish bo‘yicha dasturiy chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

YUqorida sanab o‘tilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish:

bir nechta turizm turlarini birlashtirish hamda turli-tuman tadbirlar bilan boyitish orqali taklif etiladigan turistik turlarining jozibadorligini oshirish, mamlakat bo‘ylab turistik turlarining o‘rtacha davomiyligini kamida ikki sutkaga oshirib, 8 sutkagacha etkazish, shaharlar bo‘yicha esa amaldagi 1,5 — 2,0 sutkadan 3 sutkagacha ko‘paytirish;

turizmning barqaror rivojlanishi va mamlakatimizga takroriy tashriflar soni oshishini ta’minlaydi.

5) respublika ichida turizm xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojni qondirishga qaratilgan turizm faoliyati sub’ektlarining faolligini rag‘batlantirishni ta’minlaydigan ichki turizmni rivojlantirish, xususan:

turistik-ekskursion xizmatlar iste’moliga aholining keng qatlamlarini jalb qilish, ichki turizm harakatining ommaviyligini qayta tiklash, turizm xizmatlarini ishlab chiqish hamda mavsumiy notekislik oqibatlarini yumshatishda keng miqyosli ta’sirdan foydalanish maqsadida «O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!» Dasturining amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish;

ijtimoiy, madaniy-rivojlantiruvchi, ekologik, etnomadaniy hamda qishloq turizmi dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

umumiy va kasb-hunar ta’limi dasturlariga turistik ekskursiya tadbirlarini kiritish.

YUqorida sanab o‘tilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish:

sifatli turistik mahsulotlarni shakllantirish, mavsumiy omillarga bo‘lgan qaramlikni kamaytirish hamda mehmonxonalar yuklovini, ayniqsa yilning nomavsumiy oylarida oshirish maqsadida ichki resurslardan samarali foydalanish;

hududlar o‘rtasida turistlar ichki oqimini kengaytirish, ular sonini yiliga 14 milliondan 19 milliongacha oshirishga imkon beradi.

6) Quyidagilar orqali O‘zbekiston Respublikasi turistik mahsulotini ichki va tashqi turizm bozorlarida ilgari surish, uning sayohat va dam olish uchun xavfsiz mamlakat sifatidagi imidjini mustahkamlash:

O‘zbekiston Respublikasining yagona milliy turizm brendini yaratish hamda unga asosan har bir hududning o‘ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, hududlarning turizm brendlarini yaratish;

barqaror, asosan muhim hamda yo‘naltiruvchi turistik bozorlarga qaratilgan milliy turistik mahsulotni ilgari surish bo‘yicha samarador strategiyasini ishlab chiqish;

milliy turizm bozorida mintaqadagi eng yirik turizm ko‘rgazmalaridan birini tashkil qilish maqsadida sohadagi ko‘rgazma faoliyatini jipslashtirish va qo‘llab-quvvatlash;

mamlakatda va xorijda imidjni targ‘ib qiluvchi reklama-axborot kampaniyasini o‘tkazish;

turistik xarakterga ega xalqaro tadbirlarda turizm tashkilotlarining o‘zi ishlab chiqargan mahsulotlarini ilgari surish bo‘yicha ishtirokini rag‘batlantirish;

respublika bo‘yicha bepul faoliyat ko‘rsatuvchi, shu jumladan bron qilish, suvenirlar, kitoblar va turizm xaritalari bo‘yicha ma’lumot beruvchi axborot shoxobchalari sonini oshirish;

yuqori turistik salohiyatga ega bo‘lgan hududlarda xavfsiz turizmni ta’minlash bo‘yicha ichki ishlar organlarining maxsus bo‘linmalarini tashkil qilish, ularni zamonaviy texnika va transport vositalari bilan ta’minlash.

YUqorida sanab o‘tilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish mamlakatimizni rivojlangan turizm industriyasi hamda boy turistik salohiyatga ega bo‘lgan, sayohat va dam olish uchun xavfsiz davlat imidjini shakllantirishga, shuningdek yangi turizm bozorlarini o‘zlashtirish, xorijdan tashrif buyuruvchilar sonini yiliga 4,8 milliondan 9 milliongacha, shuningdek O‘zbekistonga turistlarni jalb qilish bo‘yicha xorijiy hamkorlar sonini oshirishga xizmat qiladi.

7) quyidagilarni nazarda tutgan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish:

turizm sohasida kasb-hunar ta’limi muassasalaridagi kadrlari va bitiruvchilarining malakasini baholashni tashkil qilish;

turizm sohasida xalqaro talablarga javob beradigan uzluksiz, ko‘p bosqichli ta’lim tizimini yaratish;

ta’limning amaliyotga yo‘naltirilgan va modernizatsiyalashgan ta’lim standartlari, o‘quv-uslubiy dasturlar hamda ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

ichki va kirish turizmi sohasida bevosita turistik xizmatlarni ko‘rsatuvchi turizm sohasi xodimlari (gidlar, yo‘riqchi-kuzatuvchi, turizm faoliyati sub’ektlari, umumiy ovqatlanish tashkilotlari, transport va boshqalar xodimlari) uchun majburiy malaka talablarini belgilaydigan standartlar ishlab chiqish;

turizm sohasi xodimlarini turistlarga axborot berish ishlari va xavfsizlik bo‘yicha yo‘riqnomalarni o‘tkazish qoidalarga o‘qitish bo‘yicha tizimni ishlab chiqish va joriy qilish;

ta’lim jarayoniga xorijiy mutaxassislarni jalb qilish orqali turizm sohasida kadrlar malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, shuningdek turizm sohasida kadrlar malakasini oshirish tizimini tashkil etish uchun, shu jumladan hududlarda ta’lim muassasalari sonini oshirish;

turizm sohasida kadrlar tayyorlash uchun etakchi xorijiy oliy o‘quv yurtlari filiallarini ochish.

YUqorida sanab o‘tilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish professional kadrlar tayyorlovi borasida integratsiyalashgan tizimni yaratish, ta’lim va xizmat

ko‘rsatish sifatini oshirish, yuqori malakali menejer, administrator, operator va porte oshpazlarga bo‘lgan ehtiyojni qondirishga xizmat qiladi.

4-bob. Yakuniy qoidalar

Konsepsiyani amalga oshirish yuzasidan tizimli nazorat olib borish, umumiy muvofiqlashtiruv, tezkor ko‘rib chiqish va respublikada turizmni rivojlantirish bo‘yicha muammoli masalalarni hal etish turizmni rivojlantirish bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan amalga oshiriladi.

Konsepsiyani samarali amalga oshirish maqsadida Muvofiqlashtiruvchi kengashning ishchi organi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi Konsepsiyaning amalga oshirilishi yuzasidan monitoring olib boradi.

2019 — 2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasiga

ILOVA

2019 — 2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasini amalga oshirishning maqsadli KO‘RSATKICHLARI

T/r	Ko‘rsatkichlar nomi	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
1.	O‘zbekistonga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar soni (ming kishi)	5 346	6 041	7 010	8 410	10 010	10 600	11 250	11 810
2.	Turizm xizmatlari eksporti (mln AQSH dollari)	1 041	1 180	1 360	1 620	1 900	2 000	2 080	2 170
3.	Ichki turistlar soni (mingta tashrif)	15493	16 100	17 230	18 806	20 317	21 867	23 404	25 010
4.	Mehmonxonalar va shu kabi joylashtirish vositalari soni (dona)	914	1 100	1 620	2 200	2 600	2 800	2 900	3 050
5.	Joylashtirish vositalaridagi xonalar soni (ming)	20,2	24	35	47	55	59	62	64
6.	Joylashtirish vositalaridagi o‘rinlar soni (ming)	41	49	72	95	110	122	124	128
7.	Turoperatorlar soni (nafar)	983	1 100	1 190	1 250	1 320	1 390	1 420	1450

3-ILOVA

2019 yil 1 fevraldan boshlab fuqarolari uchun 30 kun muddatga vizasiz rejim joriy qilinadigan mamlakatlar

RO‘YXATI

1. Avstraliya Ittifoqi
2. Avstriya Respublikasi
3. Argentina Respublikasi
4. Bosniya va Gersegovina
5. Vatikan
6. Lyuksemburg
7. Vengriya
8. Bruney-Dorussalom davlati
9. Gretsiya Respublikasi
22. SHvetsiya Qirolligi
23. Latviya Respublikasi
24. Litva Respublikasi
25. Mo‘g‘uliston
26. YAngi Zelandiya
27. Portugaliya Respublikasi
28. Bolgariya Respublikasi
29. Kipr Respublikasi
30. Malta Respublikasi

10. Irlandiya
11. Islandiya
12. Italiya Respublikasi
13. Kanada
14. Andorra Knyazligi
15. Lixtenshteyn Knyazligi
16. Monako Knyazligi
17. Belgiya Qirolligi
18. Daniya Qirolligi
19. Ispaniya Qirolligi
20. Niderlandiya Qirolligi
21. Norvegiya Qirolligi
31. Polsha Respublikasi
32. San-Marino Respublikasi
33. Serbiya Respublikasi
34. Sloveniya Respublikasi
35. Xorvatiya Respublikasi
36. CHili Respublikasi
37. Ruminiya
38. Slovakiya Respublikasi
39. Buyuk Britaniya i
40.Braziliya
41. Finlyandiya Respublikasi
42. CHernogoriya
43. CHexiya Respublikasi
44.SHveysariya
45. Estoniya Respublikasi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi PF-5611-son Farmoniga
4-ILOVA

2019 yil 1 fevraldan boshlab fuqarolari elektron kirish vizasini olish imkoniyatiga ega bo‘lgan mamlakatlar

RO‘YXATI

1 Jazoir
2 Misr Arab Respublikasi
3 Venesuela Bolivar Respublikasi
4 Urugvay SHarqiy Respublikasi
5 Gabon Respublikasi
6 Qatar
7 Quvayt
8 Shri-Lanka
9 Iordaniya
10 Eron Islom Respublikasi
11 Xitoy Xalq Respublikasi
12 KXDR
13 Gayana Kooperativ Respublikasi
14 Bahrayn Qirolligi
15 Butan Qirolligi
16 Kambodja Qirolligi
17 Marokash Qirolligi
18 Saudiya Arabistoni Qirolligi
19 Tailand Qirolligi
20 Tonga Qirolligi
21 Laos
22 Livan Respublikasi
23 Maldiv Respublikasi
24 Ko‘p millatli Boliviya Davlati
25 Bangladesh Xalq Respublikasi
26 Samoa Mustaqil Davlati
27 Albaniya Respublikasi
28 Angola Respublikasi
29 Vanuatu Respublikasi
30 Gana Respublikasi
31 Hindiston Respublikasi
32 Kabo-Verde Respublikasi
33 Kamerun Respublikasi
34 Kiribati Respublikasi
35 Kolumbiya Respublikasi
36 Kot-d’Ivuar Respublikasi
37 Mavrikiy Respublikasi
38 Makedoniya Respublikasi
39 Marshall Orollari Respublikasi
40 Nauru Respublikasi
41 Palau Respublikasi
42 Paragvay Respublikasi
43 Peru Respublikasi
44 Seyshel Orollari Respublikasi
45 Senegal Respublikasi
46 Surinam Respublikasi
47 Fiji Respublikasi
48 Filippin Respublikasi
49 Ekvador Respublikasi
50 Solomon Orollari
51 Amerika Qo‘shma SHtatlari
52 Vetnam Sotsialistik Respublikasi
53 Ummon Sultonligi
54 Tunis Respublikasi
55 Nepal
56 Mikroneziya Federativ SHtatlari
57 Janubiy Afrika Respublikasi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi PF-5611-son Farmoniga
5-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasiga tashrif buyuruvchi xorijiy fuqarolarning ayrim guruhlari uchun qo‘shimcha (elektron bo‘lmagan) kirish vizalari toifalarini joriy etish

RO‘YXATI

1. **«Vatandosh»** — O‘zbekiston Respublikasida tug‘ilgan shaxslar va ularning oila a’zolari uchun O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lgan va uning hududida doimiy yashovchi qarindoshlarining taklifnomasi asosida beriladigan 2 yillik viza;

2. **«Student visa»** — O‘zbekiston Respublikasining ta’lim muassasalari, tasarrufida ta’lim muassasalari bo‘lgan vazirliklar, idoralar va tashkilotlarning iltimosnomasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan ta’lim muassasalariga qabul qilingan xorijiy talabalarga beriladigan bir yillik viza;

3. **«Academic visa»** — O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, O‘zbekiston Respublikasidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, oliy ta’lim muassasalari, vazirlik yoki idoralar iltimosnomasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasida ilmiy-tadqiqot va pedagogik faoliyatni amalga oshirishni istagan xorijiy shaxslar uchun 3 oydan 2 yilgacha bo‘lgan muddatga beriladigan viza;

4. **«Medical visa»** — tibbiy muassasaning taklifiga binoan davolanish uchun O‘zbekiston Respublikasiga kiruvchi xorijiy fuqarolar uchun 3 oygacha bo‘lgan muddatga beriladigan viza;

5. **«Piligrim visa»** — O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita va turistik faoliyat sub’ektlarining arizasiga ko‘ra O‘zbekistonning madaniy-tarixiy va diniy merosi, an’analarini o‘rganish maqsadida kiruvchi xorijiy fuqarolar uchun 2 oygacha bo‘lgan muddatga beriladigan ziyorat vizasi.

Oldingi tahrirga qarang.

6. «Investment visa» — xorijiy investitsiya kiritish vaqtida O‘zbekiston Respublikasida belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining kamida 8 500 baravarida xo‘jalik jamiyatlarining aksiyalari va ulushlarini sotib olish, shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tashkil etish shaklida O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga investitsiya kiritgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga rasmiylashtiriladigan, ushbu korxonalarning buyurtmasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqmasdan muddatini uzaytirish imkoniyati bilan beriladigan, amal qilish muddati uch yilgacha bo‘lgan ko‘p martalik investitsiya vizasi.

Bunda, investorning oila a’zolari (turmush o‘rtog‘i, ota-onasi va farzandlari)ga «Investment visa» amal qilish muddatiga mos ravishda mehmon vizasi respublikadan chiqmasdan turib uzaytirish huquqi bilan rasmiylashtirib beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi PF-5611-son Farmoniga
6-ILOVA **Fuqarolari ko‘chmas mulk sotib olish sharti bilan O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasini olish huquqiga ega bo‘lgan mamlakatlar**

RO‘YXATI

1. Avstraliya Ittifoqi
2. Avstriya Respublikasi
3. Ozarbayjon Respublikasi
4. Jazoir
5. Antigua va Barbuda
6. Misr Arab Respublikasi
7. Argentina Respublikasi
8. Barbados
9. Beliz
10. Venesuela
56. Gvatemala Respublikasi
57. Gonduras Respublikasi
58. Hindiston Respublikasi
59. Indoneziya Respublikasi
60. Qozog‘iston Respublikasi
61. Kipr Respublikasi
62. Kolumbiya Respublikasi
63. Koreya Respublikasi
64. Kosta-Rika Respublikasi
65. Mavrikiy Respublikasi

11. Vatikan
12. Lyuksemburg
13. Vengriya
14. Urugvay SHarqiy Respublikasi
15. Bruney-Dorussalom davlati
16. Isroil Davlati
17. Grenada
18. Gretsiya Respublikasi
19. Gruziya
20. Shri-Lanka
21. Dominikana Respublikasi
22. Irlandiya
23. Eron Islom Respublikasi
24. Islandiya
25. Italiya Respublikasi
26. Kanada
27. Qirg‘iziston Respublikasi
28. Xitoy Xalq Respublikasi
29. Andorra Knyazligi
30. Lixtenshteyn Knyazligi
31. Monako Knyazligi
32. Gayana
33. Belgiya Qirolligi
34. Butan Qirolligi
35. Daniya Qirolligi
36. Ispaniya Qirolligi
37. Marokash Qirolligi
38. Niderlandiya Qirolligi
39. Norvegiya Qirolligi
40. Tailand Qirolligi
41. SHvetsiya Qirolligi
42. Latviya Respublikasi
43. Livan Respublikasi
44. Litva Respublikasi
45. Malayziya
46. Maldiv Respublikasi
47. Meksika Qo‘shma SHtatlari
48. Mo‘g‘uliston
49. YAngi Zelandiya
50. Birlashgan Arab Amirliklari
51. Portugaliya Respublikasi
52. Albaniya Respublikasi
53. Bolgariya Respublikasi
54. Bosniya va Gersegovina
55. Belarus Respublikasi
66. Makedoniya Respublikasi
67. Malta Respublikasi
68. Moldova Respublikasi
69. Nauru Respublikasi
70. Palau Respublikasi
71. Panama Respublikasi
72. Peru Respublikasi
73. Polsha Respublikasi
74. San-Marino Respublikasi
75. Seyshel Orollari Respublikasi
76. Serbiya Respublikasi
77. Singapur Respublikasi
78. Sloveniya Respublikasi
79. Surinam Respublikasi
80. Trinidad va Tobago Respublikasi
81. Tojikiston Respublikasi
82. Fiji Respublikasi
83. Filippin Respublikasi
84. Xorvatiya Respublikasi
85. Chili Respublikasi
86. Ekvador Respublikasi
87. Rossiya Federatsiyasi
88. Ruminiya
89. Sent-Vinsent va Grenadin
90. Sent-Lyusiya
91. Slovakiya Respublikasi
92. Bagama Orollari Hamdo‘stligi
93. Dominikana Hamdo‘stligi
94. Buyuk Britaniya
95. Amerika Qo‘shma SHtatlari
96. Vetnam Sotsialistik Respublikasi
97. Tunis Respublikasi
98. Turkiya Respublikasi
99. Ukraina
100. Braziliya Federativ Respublikasi
101. Germaniya Federativ Respublikasi
102. Sent-Kits va Nevis Federatsiyasi
103. Finlyandiya Respublikasi
104. Fransiya Respublikasi
105. CHernogoriya
106. CHexiya Respublikasi
107. SHveysariya Konfederatsiyasi
108. Estoniya Respublikasi
109 Janubiy Afrika Respublikasi
110. YAmayka
111. YAponiya

11-ilova

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKOLOGIK TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASINI TASDIQLASH TO‘G‘RISIDA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI (434-son 27.05.2019)

2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha **Harakatlar strategiyasida** belgilangan vazifalarni so‘zsiz amalga oshirish, respublika hududlaridagi ekologik muammolar echimiga ta’lim tizimini joriy qilish bilan hissa qo‘shish, o‘sib kelayotgan yosh avlodning ekologik savodxonligini oshirish, ekologik ongi va ekologik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish, ekologik ta’lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilar: O‘zbekiston Respublikasida Ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi (keyingi o‘rinlarda Konsepsiya deb ataladi) **1-ilovaga** muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasida Ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish bo‘yicha tadbirlar rejasi (keyingi o‘rinlarda Tadbirlar rejasi deb ataladi) **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. Quyidagilar Konsepsiyani va Tadbirlar rejasini amalga oshirish doirasida ustuvor yo‘nalishlar etib belgilansin:

«**Ta’lim to‘g‘risida**»gi va «**Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida**»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq uzluksiz ta’lim tizimida ekologik ta’limni rivojlantirishning asosiy tamoyillarini belgilash, ularni ta’lim-tarbiya jarayoniga izchillik bilan bosqichma-bosqich tatbiq qilish va shu asosda ekologik ta’limning samaradorligini yangi bosqichga ko‘tarish;

ta’lim dasturlarini mavjud ekologik muammolar va ularni bartaraf etish vazifalaridan kelib chiqib takomillashtirish;

ta’lim oluvchilarning e’tiborini umumbashariy ekologik muammolarga qaratish orqali ularning ona tabiatning qayta tiklanmaydigan manbalarini saqlab qolish va ulardan oqilona foydalanish borasidagi mas’uliyatini kuchaytirish;

ekologik ta’limning samarali shakllari va usullarini ishlab chiqish hamda joriy etish;

ekologik ta’lim sifatini, kadrlar tayyorlash tizimi samaradorligini hamda barqaror rivojlanish kafolatlarini va ustuvorligini ta’minlovchi normativ-huquqiy, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish;

ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish sohasidagi vakolatli davlat organlari va ta’lim sohasining o‘zaro manfaatli hamkorligini rivojlantirish.

3. Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, Halq ta’limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda Maktabgacha ta’lim vazirligi Konsepsiya va Tadbirlar rejasining bajarilishi to‘g‘risida har chorakda Vazirlar Mahkamasiga axborot taqdim etilishini ta’minlasinlar.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o‘rinbosari — transport vaziri A.J. Ramatov, Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi raisi B.T. Qo‘chqorov, Bosh vazir o‘rinbosari A.A. Abduxakimov, xalq ta’limi vaziri SH.X. SHermatov, oliy va o‘rta maxsus ta’lim vaziri I.U. Majidov va maktabgacha ta’lim vaziri A.V. SHin zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh., 2019 yil 27 may,
434-son

Usmanov Ma’rufjon Rustamovich

Samarqand davlat universiteti Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedrasi dotsenti, geografiya fanlari nomzodi, «O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishning mintaqaviy muammolari» mavzuida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan (2003). 2005 yilda dotsent ilmiy unvoniga ega bo`lgan. Hozirgi kunda “Janubi-G`arbiy O`zbekistonda turizmni rivojlantirishning geografik xususiyatlari” mavzusida doktorlik dissertatsiyasi ustida ish olib bormoqda. Shu sohada 1 ta monografiya, 4 ta uslubiy qullanma, 90 dan ortiq ilmiy maqola va tezislari chop etilgan.

Bakalavr yo`nalishidagi talabalarga “Sotsial geografiya”, “Turizm geografiyasi”, “O`zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiya” fanlaridan, magistrlarga esa “Servis geografiyasi” fanidan ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar olib boradi.

Ilg‘or pedagogik texnologiyalardan SamDU, O`zMU va xorijiy mamlakatlarda, xususan GFRning Myugelze ta’lim markazidag (2009), Koxira demografiya markazida (2011), Ruminiyaning Aleksandra Cuza universitetida (2014) malaka oshirgan.